# ONA TILI 6

## O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr




Toshkent – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(5O‘)ya72
O-58

**Tuzuvchilar:**
Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun,
Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov

**Xalqaro ekspert:**
Iannuzzi Susan

## Taqrizchilar:

**Hazratqulov Mutallib Rashidovich** – Samarqand davlat universiteti “Boshlang‘ich va texnologik ta’lim” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

**Suyarova Gulbahor Saydullayevna** – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. “Shuhrat” medali, “Xalq ta’limi a’lochisi”, “Xalq ta’limi fidoyisi” nishonlari sohibi.

**Umarov Bahrom Nasrullayevich** – Namangan viloyati Chust shahridagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

**Sodiqova Shoira Ibraximovna** – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 202-umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Ona tili [Matn]: 6-sinf, metodik qo‘llanma / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.

ISBN 978-9943-8174-8-7

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

# MUNDARIJA



Kirish 5




Til – muloqot vositasi 9




Shifoxona 25




Qayta ishlanadigan chiqindilar 38



Jigar – eng mehnatkash a’zo 54



Kompyuter grafikasi 69




Import yoki eksport? 86


O‘qituvchilar uchun yo‘riqnoma 7



Qisqacha tarjimayi holim 15



Global isish 32



Ko‘z nurini asraylik 47



Dehqon yurtni boqadi 62



Teleboshlovchi bo‘lib qolsam 77



Soliqlarni to‘lab borasizmi? 92




Raqamlashgan dunyo 102





110 Mendeleyev elementlari





Yong‘in xavfsizligi qoidalari 117






125 Hadislar hikmati





Sayyohlarga gidlik qilsam-chi? 130






137 Peshtoqdagi bitiklar





Minorayi kalon 144





150 Buyuk ipak yo‘li






Miniatyura – mo‘jaz surat 156





163 Oqsaroyga bitilgan hikmat



Konstitutsiya – bosh qomusimiz 168





174 Davlatni kim boshqaradi?





O‘z deputatingizni bilasizmi? 180





186 O‘quv yili oxirida takrorlash

# KIRISH

Ta’lim jarayoni ham insonning qolgan barcha faoliyatlari qatori, asosan, til vositada amalga oshiriladi. Aynan mana shu jihat ona tili fani ta’lim tizimidagi eng muhim fan ekanini asoslash uchun yetarli. O‘quvchilarning boshqa fanlarni o‘zlashtirishi yozma va og‘zaki nutqni tushunish va o‘z fikrlarini yozma va og‘zaki tarzda izchil bayon qila olish ko‘nikmasiga bevosita bog‘liq. Tilning eng birinchi vazifasi ma’lumotni kodlash va dekodlashdir. Soddaroq aytganda, so‘zlovchi o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalashi, tinglovchi qabul qilingan nutqdagi ma’lumotlarni to‘g‘ri anglashi lozim. O‘rta maktabda ona tili ta’limi aynan shu – birlamchi funksiyani qo‘llash malakasini rivojlantirishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda til ta’limi jarayonida qo‘llanadigan yondashuv va metodlar haqida so‘z ketganda “til o‘qitishga kommunikativ yondashuv”, “kommunikativ til o‘qitish”, “kommunikativ metod” kabi tushunchalar bot-bot tilga olinadi. Nazariyotchilar ham, amaliyotchi o‘qituvchilar ham mana shu metodologiya til o‘qitish jarayonini tashkil etishda eng samarali ekanini ta’kidlaydilar. Biroq “kommunikativ” deganda nima nazarda tutilishini batafsil tushuntirib berish so‘ralganda hammaning fikri turlicha bo‘lib chiqaveradi. Ko‘pchilik bu tushuncha ortida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish va grammatikaning yo‘qligini tasavvur qiladi.

Kommunikativ yondashuv o‘z oldiga muloqot ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishni maqsad qilib qo‘yadi. Muloqot ko‘nikmasining mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun uni lingvistik kompetensiya bilan qiyoslash kerak bo‘ladi. Lingvistik kompetensiyani qisqacha qilib gap tuzishga oid bilimlarni o‘zlashtirish deb tushunish mumkin. Bu gaplarning qurilish bloklari (masalan, nutq bo‘laklari, gaplar, iboralar, so‘z birikmalari, qo‘shimchalar, yordamchi vositalar) va gaplar qanday tuzilganiga oid bilimlar jamlanmasi hisoblanadi. Lingvistik kompetensiyani shakllantirish shu paytgacha til ta’limida amal qilgan yondashuvning negizi hisoblangan. Ya’ni o‘quvchiga ma’lum lingvistik qoida taqdim etiladi, uning ortidan esa shu qoidani mustahkamlash uchun mashqlar bajartiriladi. Tahlil qilish va qoidani qo‘llash birligi, asosan, alohida olingan gaplar hisoblanadi. Lingvistik kompetensiya til ta’limi va tilni o‘zlashtirishning muhim jihati bo‘lsa-da, tilni o‘zlashtirishning o‘zi degani emas. Ya’ni tildan yaxshi foydalana oladigan odam deganda undagi qoidalarni yaxshi yodlagan odam tasavvur qilinmaydi. Lingvistik bilimi yuqori bo‘lgani bilan vaziyatlarda tildan samarali foydalana olmaydigan (o‘rgangan qoidalarini amalda qo‘llashni bilmaydigan) insonlar talaygina ekani rad etib bo‘lmas fakt. Kommunikativ kompetensiya tildan samarali foydalanishni o‘rgatishga asoslanadi. Ya’ni bu yondashuv negizida lingvistik bilim emas, tildan mazmunli foydalanish yotadi.

Kommunikativ kompetensiya tilga oid bilimlarning quyidagi jihatlarini o‘z ichiga oladi:

• tildan turli maqsadlarda o‘rinli va samarali foydalanish;

• tildan vaziyat va muhitga qarab foydalanish (masalan, qachon rasmiy, qachon norasmiy uslubni qo‘llashni bilish, og‘zaki va yozma muloqotning farqli jihatlarini anglash);

• turli uslub, shakl va mazmundagi matnlarni yaratish hamda tushuna olish (masalan, hikoya, intervyu, hisobot, ariza, tavsiya, e’lon va h.k.);

• o‘z fikrini boshqalar tushunishi uchun yetarli va samarali uslubda yetkazish strategiyalarini bilish (masalan, biror vaziyatni tavsiflashda nimadan boshlab, qanday yakunlashni bilish).

Mazkur yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish, o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatishdir. Shuning uchun har bir mavzuda alohida vaziyat beriladi va shu

vaziyatda nutq vositasida masalani hal qilish talab qilinadi. Hayotiy koʻnikmalar maʼlum bir nutqiy mavzular doirasida amaliy yoʻnaltirilgan holda shakllantiriladi. Kommunikativ yondashuvga asoslangan darslarda faqat yozma matn bilan cheklanib qolinmaydi. Tilning ogʻzaki va yozma shaklidan darslar davomida baravar foydalaniladi. Mavjud anʼanaga koʻra, ona tili oʻqitishda yozma matn asosiy oʻrinda turadi, ogʻzaki nutqqa alohida eʼtibor qaratilmaydi. Vaholanki, insonning birlamchi til koʻnikmasi ogʻzaki nutqdir. Ogʻzaki nutqni rivojlantirish tilning qolgan shakllarini rivojlantirish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Yozma nutq bilan koʻp ishlash ogʻzaki nutqni oʻz-oʻzidan rivojlanib qolishiga olib kelmaydi, chunki yozma nutq va ogʻzaki nutq mazmun jihatidan bir nuqtada birlashsa-da, ularning amalga oshish jarayoni inson ongida boshqa-boshqa mexanizmning ishlashi orqali taʼminlanadi. Shuning uchun ularning har biriga alohida eʼtibor berish zarur.

Ona tili fanidan yaratilayotgan yangi avlod darsliklari taʼlimning kundalik hayot va amaliyot oʻrtasidagi bogʻliqligini taʼminlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qoʻllay olish layoqatini shakllantirishga, boshqa oʻquv fanlari bilan uzviy bogʻliqlikni taʼminlashga yoʻnaltirilgan oʻquv adabiyotlaridan biridir.

Ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilari davr taqozo etgan ona tili taʼlimidagi islohotlarni qoʻllab-quvvatlashlari va ezgu maqsadlarni birgalikda amalga oshirishlariga ishonamiz hamda ushbu yoʻnalishda Respublika taʼlim markazi va mualliflar jamoasi amaliyotchi oʻqituvchilar bilan birgalikda metodik yordam koʻrsatishga doim tayyormiz. Taʼlimdagi oʻzgarish va yangiliklar sizning mashaqqatli mehnatingiz, fidoyiligingiz tufayligina natija beradi. Zero, Abu Nasr Forobiy taʼbiri bilan aytganda: “Bilim, maʼrifat, yaxshi axloq bilan bilimdon, maʼrifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun taʼlim jarayoni oʻqituvchi tomonidan toʻgʻri tashkil etilishi, boshqarilishi va maʼlum maqsadlarga yoʻnaltirilishi lozim”.

# O‘QITUVCHILAR UCHUN YO‘RIQNOMA

## Kirish

- o‘quvchilarni mavzuga olib kirish, yangi mavzu haqida tasavvur uyg‘otish maqsadida savol bilan murojaat qilinadi;
- savollar umumiy tarzda hamma o‘quvchiga beriladi, istagan o‘quvchi javob berishi mumkin;
- bu qismda berilgan savollarga javob berishda o‘quvchidan qo‘shimcha bilim talab qilinmaydi;
- ularning savol yuzasidan dastlabki tushunchalari tinglanishi, so‘ngra fikrlari to‘ldirilib, savolning javobi izohlab berilishi lozim.

## Asosiy qism

### Og‘zaki nutq (jadval, chizma, sxema, xarita, infografika) asosida suhbat

- o‘quvchilarning diqqati jamlanadi;
- rasmda nima tasvirlangani so‘raladi;
- har bir o‘quvchining berilgan tasvir yuzasidan javobi tinglanadi;
- rasm asosidagi savollar bilan murojaat qilinadi;
- o‘quvchilarning javobi tinglab bo‘lingach, rasm haqida umumiy tushuncha beriladi;
- o‘quvchilarning og‘zaki nutqidagi kamchiliklar qayd etib boriladi.

### O‘qib tushunish. Matn bilan ishlash. Tahlil

- o‘quvchilar diqqati jamlanadi;
- matnni o‘qishdan avval matnga olib kiruvchi savollar bilan murojaat qilinadi;
- matn sarlavhasi va muallifi bilan tanishtiriladi;
- matnni o‘qib bo‘lishgach, matn mazmuni so‘raladi;
- o‘quvchilarda matn haqida tasavvur paydo bo‘lgach, matn baland ovozda ifodali o‘qib beriladi.

### Yozma nutq. Matn yaratish. Tahlil

- berilgan tasvir (rasm, infografika, chizma, sxema, jadval), sarlavha, reja asosida matn yozdiriladi;
- matnning qoralama nusxasini tayyorlash haqida ko‘rsatma beriladi;
- har bir o‘quvchi yozgan matnga munosabat bildiriladi;
- matn tuzilishi, mazmuni, gap qurilishi tekshiriladi;
- har bir o‘quvchining yozma savodxonligi, gaplarni bir-biriga bog‘lashi, tinish belgilaridan foydalanishi tekshiriladi;
- har bir o‘quvchining yozganlari, xato va kamchiliklari yuzasidan munosabat bildiriladi;
- matnni tahrir qilib, qayta yozish o‘rgatiladi.

### Lingvistik bilim (orfografiya, fonetika, leksikologiya, leksikografiya, morfologiya, sintaksis, uslub)

- har qanday lingvistik bilim matn va mavzu mohiyatiga singdirilgan holda o‘tiladi;
- topshiriq sharti o‘quvchilarga tushuntiriladi;
- har bir o‘quvchi topshiriqni mustaqil bajarishi nazorat qilinadi;
- o‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lgach, tekshirib, munosabat bildiriladi;
- har bir topshiriq javobi aytilib, izohlanadi;
- o‘quvchilarga amaliy topshiriq orqali lingvistik bilim beriladi.

### Muhokama

- savol-javoblarda ko‘proq o‘quvchi ishtirok etishi ta’minlanadi;
- o‘quvchilar javob berishga qiynalganda aniq javobga yo‘naltiruvchi savollar beriladi;
- savol takror kelsa ham, har bir o‘quvchining savol yuzasidan fikri tinglanadi;
- o‘quvchilarning og‘zaki nutqidagi kamchiliklar qayd etib boriladi;
- o‘quvchi javob berayotganda gapi bo‘linmay, fikrlari tinglanadi;
- savol-javob yakunlangach, har bir savolning javobiga izoh beriladi;
- o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarga munosabat bildiriladi.

### Qoida

- o‘quvchilarga berilgan nazariy ma’lumot bilan tanishib chiqish aytiladi;

- berilgan nazariy ma’lumot baland ovozda ifodali qilib o‘qib beriladi;
- o‘quvchilardan nazariy ma’lumot orqali nimani tushunganlari so‘raladi;
- o‘quvchilar fikri tinglangach, keltirilgan nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib beriladi.

**Test**

- test javobini daftarda belgilash aytiladi;
- har bir o‘quvchi topshiriqni mustaqil ravishda bajarishi nazorat qilinadi;
- o‘quvchilar testni ishlab bo‘lgach, birgalikda tahlil qilinadi;
- to‘g‘ri javob aytiladi va izohlanadi;
- noto‘g‘ri javoblar ham izohlab beriladi.

**Xulosa**

**Uyga vazifa**

- dars davomida o‘tilganlarni takrorlab olish uchun savol-javob o‘tkaziladi;
- berilgan uyga vazifa sharti tushuntiriladi;
- uyga vazifani bajarish bo‘yicha ko‘rsatma beriladi;
- har bir o‘quvchining uy ishlari tekshirilib, munosabat bildiriladi.

***Eslatma:*** *ushbu qo‘llanmada berilgan ko‘rsatmalarga amal qiling; har bir nutqiy mavzuning maqsadi bilan tanishing; topshiriq nimaga qaratilgani, o‘quvchilarda qaysi ko‘nikmani shakllantirishga xizmat qilishini bilib oling hamda ushbu jarayonga alohida urg‘u bering.*










# TIL – MULOQOT VOSITASI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** til va uning ijtimoiy ahamiyati, milliy til va qadriyatlarning uzviyligi, badiiy tasvir vositalari va ulardan foydalanish, iboralar, og‘zaki va yozma nutqning imkoniyati, nutq uslublari, asos va qo‘shimchalar, tinish belgilari.


TIL – MULOQOT VOSITASI

Bu mavzuda o'rganamiz

• til va uning ijtimoiy ahamiyati • milliy til va qadriyatlarning uzviyligi • badiiy tasvir vositalari va ulardan foydalanish • iboralar • og'zaki va yozma nutqning imkoniyati • nutq uslublari • asos va qo'shimchalar • tinish belgilari.

Do'stingizga ustozingiz aytgan biror narsa, harakat yoki holatni so'zsiz tushuntirishga urinib ko'ring. Bu jarayonda nimalarni his qildingiz? Tilning ahamiyati haqida o'ylab ko'ring.

Rasmlarga diqqat qiling. Savollarga javob bering.

5

## 1-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Do‘stingizga ustozingiz aytgan biror narsa, harakat yoki holatni so‘zsiz tushuntirishga urinib ko‘ring. Bu jarayonda nimalarni his qildingiz? Tilning ahamiyati haqida o‘ylab ko‘ring.*

### Asosiy qism

### Og‘zaki nutq

**Rasmlarga diqqat qiling. Savollarga javob bering.**

Turli vaziyatlar aks etgan rasm berilgan. O‘quvchilarga ushbu tasvirlar bilan tanishib chiqish aytiladi.

### Muhokama

O‘quvchilar rasm bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**1. Rasmlarni o‘zaro bog‘lab turgan jihat nimada deb o‘ylaysiz? Javobingizni izohlang.**

Rasmlarda muloqot jarayoni tasvirlangani, undagi tilning o‘rni ko‘rsatilgan holat to‘g‘risida suhbat olib boriladi. O‘quvchilar har bir jarayonni ta’riflar ekan, o‘qituvchi ularga yo‘naltiruvchi savollarni berish orqali kerakli xulosaga kelishga yordamlashishi lozim.

**2. Ayting-chi, til qanday vazifalarni bajaradi?**

Ushbu savolga o‘quvchilarning javoblari tinglanadi, o‘quvchilarga tilning vazifalarini eslatish uchun yo‘naltiruvchi qo‘shimcha savollar beriladi. Masalan, *“Tasavvur qiling, insonlar o‘zaro gaplashmasa, nima bo‘lar edi?”*

**3. Muloqot deganda nimani tushunasiz?**

Bu savol o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilarning “muloqot” birligi haqidagi dastlabki tushunchalari tinglanadi. So‘ngra ushbu birlik haqida ma’lumot beriladi.

*Muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyoji tufayli yuzaga keladigan axborot almashinuvi; uchrashuv.*

**4. Fikrimizni tinglovchiga qanday shakllarda yetkazamiz?**

O‘quvchilar o‘z shaxsiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab javob berishlari mumkin. Ularning javobi tinglangach, fikrning tinglovchiga yetkazishning turli usullari haqida ma’lumot berilishi maqsadga muvofiq. *Masalan, verbal muloqot (so‘z yordamida), noverbal muloqot (harakat yordamida), imo-ishoralar, turli belgilar, yozma nutq orqali.*

**5. Yozma nutqning og‘zaki nutqdan qanday farqi bor?**

Bu savol o‘quvchida taqqoslab, xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar yozma va og‘zaki

nutqni solishtirib, uning farqli tomonlarini aytishi lozim. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga *yozma nutqning qog‘oz, ruchka, elektron vositalar, yorug‘lik kabilar vositasida hosil bo‘lishi, uning imkoniyatlari: o‘ylab yozish mumkinligi, xatolarni tuzatish imkoni borligi to‘g‘risida aytishi, shu haqida suhbat olib borishi lozim.*

**6. Oddiy so‘zlashuv bilan adabiy tilning farqi nimada?**

Bunda dastlab o‘quvchilarning fikri tinglanadi. Mana shu jarayonda o‘qituvchi bolalar tanaffusda sinfdoshlari bilan suhbatlashganda qanday til birliklari qo‘llashi misolida so‘zlashuv uslubi hamda uning adabiy tildan farqini tushuntirib berishi lozim.

### Qoida. Til. Nutq

O‘quvchilarga til va nutq haqida nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib beriladi.

### Muhokama

**Ayting-chi, yozuvchi bilan uning asarini o‘qiyotgan kitobxon o‘rtasida muloqot bo‘lishi mumkinmi? Javobingizni izohlang.**

Bu savoldan asosiy maqsad o‘quvchilarda *monologik nutq* haqida badiiy asar misolida tushuncha hosil qilishdan iborat. Dastlab o‘quvchilardan shu kungacha qanday asarlar o‘qigani, bu jarayonda nimalarni his qilgani haqida so‘raladi. Ular biror badiiy asar bilan tanishgach, uning muallifi bilan suhbatlashish istagi paydo bo‘lgani haqida so‘zlab berishlari mumkin. O‘quvchilar bunda ushbu suhbatning taxminiy mazmuni haqida aytib berishlari lozim.

*Monologik nutq – kishilarning o‘z-o‘ziga yoki o‘zgalarga qaratilgan, javob talab qilmaydigan nutqi.*

### Uslub. So‘zlashuv uslubi

**Oddiy va adabiy so‘zlashuvdan qanday holatlarda foydalanamiz? Javoblaringizni namunadagidek yozing.**

Mazkur topshiriq oddiy va adabiy so‘zlashuvni farqlashga qaratilgan. O‘quvchilar yuqorida o‘tkazilgan suhbat asosida ushbu so‘zlashuv uslubiga xos birliklarni farqlab, ularni qo‘llash vaziyatlarini aniqlab, yozishlari lozim.

### Leksikologiya. Sintaksis

**Quyidagi iboralarning ma’nosini aniqlab, yozing. Dastlab o‘ng ustundagi so‘zlar ishtirokida gap tuzing, keyin ularni chap ustundagi mos iboralar bilan almashtirib, qayta yozing. Qaysi birida ta’sirchanlik kuchli? Sinfdoshlaringiz tuzgan gaplarga munosabat bildiring.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan iboralarni ma’nosi bilan moslashtirib yozishlari hamda ular ishtirokida gaplar tuzib, ma’nosini farqlab berishlari lozim. Bu jarayonda lug‘atdan foydalanishga ruxsat beriladi. Asosiy e’tibor iboralarning ma’nosi haqida tushuncha hosil qilishlari hamda uni o‘z mazmuniga mos kontekstda qo‘llay olishlariga qaratiladi.

*Javob: til biriktirmoq – kelishmoq; til degani bir qarich, tili bir quloch, tili uzun – maqtanchoq; tilga tushmoq – tanilmoq; tilga kelmoq, tilga kirmoq – gapirmoq; tiliga erk bermoq – bemalol gapirmoq; tilga olmoq – aytmoq; tilini tishlamoq – afsuslanmoq; tili qichimoq – aytgisi kelmoq; tili bormadi – aytolmadi.*

### Uyga vazifa

### Uslub. Badiiy uslub. Tahlil

**Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asaridan olingan parchani o‘qing. Ushbu matnga munosabatingizni yozma shaklda ifodalang.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni tahlil qilish hamda munosabat bildira olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga berilgan ko‘rsatma tushuntiriladi hamda ushbu ko‘rsatma asosida matnni tahlil qilib, munosabat bildirishlari aytiladi.

O‘quvchilar berilgan ko‘rsatmaning har biriga alohida tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Keyingi darsda ushbu jihatlarga e’tibor qaratilib, matn tahlili olib boriladi.

## 2-soat

**Dars jarayoni**

### Kirish

*Ayting-chi, moddiy va ma’naviy hayot deganda nimani tushunasiz?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Berilgan matnlarni o‘qing. Matn asosida topshiriqlarni bajaring.**

1-matn muallifi: Alibek Rustamov.

2-matn muallifi: Nizomiddin Mahmudov.

Ushbu matn orqali o‘quvchilarda matnni tashkil qilgan komponentlar anglatayotgan ma’no (har bir so‘z, so‘z birikmasi va gap shaklining qanday ma’no tashiyotgani)ni farqlay olish, matn yuzasidan berilgan savollarni tushunish va ularga javob berish, matnga sarlavha tanlash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

O‘quvchilarga berilgan matnlarni o‘qib chiqishlari aytiladi.

### Muhokama

**1. Bilim olishda til imkoniyatidan qanday foydalanamiz?**

Suhbat davomida o‘quvchilar imkon qadar matnda berilgan ma’lumotlarga tayanib javob berayotganiga e’tibor qaratish lozim. Avval matn asosida, so‘ng qo‘shimcha tarzda o‘z fikrlarini aytishlari nazorat qilinadi.

**2. Birinchi matnda tilning ikki ma’rifiy ahamiyati haqida so‘z boradi. Ular qaysilar?**

Bu savolda e’tibor eksplitsit (yashirin) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matndagi ma’lumotlarni tushungan holda *tilining birinchi ma’rifiy ahamiyati – jamiyat a’zolarining muloqot jarayoni, ya’ni insonlar bir-birlari bilan fikr almashishlari natijasida bilim ommalashib, rivojlanib borishini; ikkinchi ma’rifiy ahamiyati – egallangan bilimlarni meros qoldirish, kelajak avlodga yetkazish imkoniyatining mavjudligini* aytib berishlari lozim. O‘quvchilardan bu fikrlarni so‘zma-so‘z aytishlari talab etilmaydi. Asosiy e’tibor matndagi ma’lumotlarni tushuna olishlariga qaratiladi.

**3. Ikkinchi matnda tilning hayotimizdagi o‘rni qanday ifodalangan?**

Ushbu savol tilning ijtimoiy ahamiyatini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan olgan xulosalari asosida javob berishlari lozim. Bu jarayonda o‘quvchilarga matn mazmuni, muallif maqsadini tushunishga yo‘naltiruvchi savollar bilan murojaat qilish maqsadga muvofiq. Masalan, *“Muallifning fikriga qo‘shilasizmi? Nima uchun?”* kabi.

**4. Ajdod va avlod o‘rtasidagi “oldi-berdi” nimalar bo‘lishi mumkin?**

Mazkur savoldan maqsad o‘quvchining lug‘at boyligini oshirish, berilgan birlik haqida tushuncha hosil qilishdan iborat. Dastlab o‘quvchilar bilan “ajdod”, “avlod” birliklarining ma’nosi, so‘ngra ular o‘rtasidagi “oldi-berdi”ning ma’nosi aniqlashtirib olinadi.

*Ajdod ilgari yashab o‘tgan kishilarga nisbatan, avlod esa ushbu kishilarning nasli, davomchilariga nisbatan ishlatiladi. Ular o‘rtasidagi “oldi-berdi” – bizga til, yozma nutq orqali meros qoldirilgan manbalar desak bo‘ladi.*

**5. Til salomat bo‘lmasa, millat sochilib ketishi haqidagi fikrni izohlang. Muallif bu bilan nima demoqchi?**

Bu savol matndan muallif maqsadini aniqlashga qaratilgan. Dastlab o‘quvchilarning fikri tinglanadi. So‘ngra ularga tilning ma’rifiy ahamiyati badiiy asarlar, tarixiy ma’lumotlar, yozma manbalar orqali misollar bilan izohlab berilishi maqsadga muvofiq.

**6. Til qanday qilib muhofaza qilinadi? Bu jarayonda siz ham ishtirok etishingiz mumkinmi? Qanday qilib?**

O‘quvchilardan tilni qanday muhofaza qilish hamda bunga qanday hissa qo‘shish mumkinligi so‘raladi. Bu jarayonda nimalarga e’tibor berish kerakligi, jamiyatimizda bu borada qanday ishlar amalga oshirilayotganligi misollar bilan izohlab, tushuntirib berilishi lozim.

**7. Ikkala matn uchun qanday umumiy nom tanlar edingiz? Javobingizni izohlang.**

Bu savol o‘quvchilarning matn mazmunini tushunish, unga mos sarlavha tanlay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar matnlar o‘rtasidagi umumiylikni aniqlashlari lozim. O‘quvchilar bunga qiynalsalar, o‘qituvchi yo‘naltiruvchi savollar berishi, turli namunalarni (ichidan aynan bittasi to‘g‘ri keladigan) misol sifatida keltirishi mumkin.

Asosiy e’tibor o‘quvchilar qanday sarlavha qo‘yganlari va nima uchun shunday sarlavha tanlaganlarini matn asosida dalillab berishlariga qaratiladi.

### Morfemika

**So‘zlarni namunadagidek tahlil qiling. Berilgan so‘zlarning barchasi ushbu qoidaga mos keladimi? O‘zingiz ham namunadagi kabi so‘zlardan topib, yozing.**

Ushbu topshiriq so‘zning tarkibini aniqlashga qaratilgan. Namunada berilgan so‘z doskada tahlil qilib ko‘rsatiladi, asos va qo‘shimchalar haqidagi lingvistik bilimlar mustahkamlab olinadi. So‘ngra o‘quvchilarga berilgan so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajratib yozish kerakligi aytiladi. Bunda so‘z asosi muayyan ma’noni ifodalaydigan tushunchadan iborat bo‘lishi kerakligi, agar bunday tushuncha ifodalamasa, asos va qo‘shimchaga ajratilmasligini tushunishiga e’tibor qaratiladi.

### Leksikologiya. Sintaksis

**Ushbu gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘z ma’nolariga mos keluvchi so‘zlarni daftaringizga alohida ko‘chiring va ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.**

Mazkur topshiriq ma’nodosh so‘zlarni tushunish, uni ma’nosiga ko‘ra kontekstda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni o‘qib, jadvaldagi qaysi ma’nodoshi bilan almashtirish mumkinligini aniqlab, yozishlari lozim. Bunda lug‘atdan foydalanishga ruxsat beriladi. Asosiy e’tibor so‘z ma’nolari haqida tushuncha hosil qilish hamda kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olishlariga qaratiladi.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq

**Ikkala matnning mazmunidan kelib chiqqan holda til haqidagi xulosalaringizni namunadagidek yozing.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning o‘qiganlari asosida xulosa qilish, xulosalarni dalillar bilan asoslay olishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan olgan xulosalarini namunadagidek yozib kelishlari lozim.

Buning uchun avval xulosalar qanday mazmunda va shaklda yozilishi kerakligi haqida ma’lumot berilishi maqsadga muvofiq.

## 3-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*“Ona tili” deganda nimani tushunasiz? Nima uchun “ona” so‘zi qo‘llangan?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

Matn: “Ona tilim”.

Muallif: Iroda Umarova.

O‘quvchilar she’r matni bilan tanishganlaridan so‘ng she’r ifodali o‘qib berilishi lozim. So‘ngra matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**1. She’r sizga yoqdimi, nima uchun?**

O‘quvchilarning she’r haqidagi umumiy fikrlari tinglanadi.

**2. Ayting-chi, ikkinchi to‘rtlikda tilimiz haqida nimaga ishora bor?**

Ikkinchi to‘rtlik qayta o‘qiladi, shundan so‘ng o‘quvchilardan nimaga ishora borligi haqida so‘raladi. *Tilimizning tarixi bilan bog‘liq* suhbat olib boriladi.

**3. “Ona tilim – do‘ppi kiygan So‘z, Doim yangi yo‘lcha-atlasi” satrini izohlang.**

Ushbu satrda *til ijtimoiy hodisa ekanligi, u doimiy ravishda yangi so‘zlar hisobiga boyib borishi, milliyligimizga ishora borligini o‘quvchi* tushunib, aytib bera olishi kerak. Buning uchun qo‘shimcha savollar bilan murojaat etilishi lozim.

**4. To‘rtinchi bandda shoir nima demoqchi?**

Bunda o‘quvchilar bilan tilimizning jozibasi, unda mavjud shevalar, shevalarning o‘ziga xosligi haqida qisqa suhbat olib borilishi maqsadga muvofiq.

**5. She’rda tire, vergul va ko‘pnuqtaning nima uchun qo‘llanganini aniqlang.**

Bu savol matnni lingvistik tahlil qilishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibida qo‘llangan tinish belgilarini aniqlab, nima uchun qo‘llanganini she’r matni asosida izohlab berishlari lozim.

## Fonetika

**Berilgan so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra ajratib yozing.**

Bu o‘quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishga qaratilgan topshiriq. Bunda o‘quvchilarga bo‘g‘in ko‘chirishda ko‘p xatolik kuzatiladigan so‘zlar berilgan. O‘quvchilar ushbu so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozishlari lozim.

*Javob: Si-ngi-gan, yeng-gan, ya-ngi, ta’m-li, ta-laf-fuz, sat-ri.*

## Morfologiya

**She’r tarkibidan qo‘shma so‘zlarni aniqlang. Xuddi shunday 10 ta qo‘shma so‘z topib, namunadagidek yozing.**

Mazkur topshiriq she’r matnini lingvistik tahlil qilishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan qo‘shma so‘zlarni aniqlab, namunadagi singari tahlil qilib yozishlari lozim. Dastlab o‘quvchilar qo‘shma so‘z nima ekanini savollar orqali mustahkamlab olishi lozim.

*Javob: asalchoy (asal+choy), bulbultalqin (bulbul+talqin), muhabbatsheva (muhabbat+sheva).*

## O‘qib tushunish. Yozma nutq

**Berilgan matnni o‘qing va mazmunini tushunganingiz asosida yozing.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning matnni o‘qib tushunish, uni qayta bayon etish, matn mazmunini tahlil qilish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan.

O‘quvchilar o‘z so‘zlari bilan matnni qisqa shaklda yozishlari lozim. Bunda *ya’ni, zero, ushbu ma’lumot orqali .....mazmunidagi fikr ifodalangan* singari birliklardan foydalanish tavsiya etiladi. Matndan tushunilishi qiyin so‘zlar ajratib olinadi, ularga oid izohlar berib, tushuntiriladi.

## Muhokama

**Ushbu matnning yuqoridagi she’r matnidan qanday farqi bor? Javobingizni izohlang.**

Mazkur topshiriq uslublarni farqlash, ularga oid til birliklarini aniqlashga qaratilgan. O‘quvchilar she’r matni hamda rasmiy uslubdagi matnni taqqoslab, munosabat bildirishlari lozim. Bunda matnning uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi, ularning o‘ziga xos jihatlari, qo‘llanishi bilan bog‘liq vaziyatlar, ta’sir doirasi tahlilga tortiladi. Turli uslubdagi matnlar o‘zaro taqqoslanadi.

Uslubiy o‘ziga xoslikni yuzaga chiqarayotgan til birliklariga e’tibor qaratilishi hamda ulardan qanday vaziyatlarda foydalanish mumkinligi haqida suhbat olib borilishi maqsadga muvofiq.

## Uyga vazifa

### Tahlil. Og‘zaki nutq

**Siz ona tilini nimalarga o‘xshatgan bo‘lar edingiz? O‘zingizning o‘xshatmangizni muallif o‘xshatmasi bilan taqqoslang. Ona tilimiz haqidagi o‘zingizga yoqqan she’rni yozing va yoddan aytishga tayyorlaning.**

**O‘quvchilar dars davomida olgan bilimlari asosida ona tilini nimalarga qiyoslash mumkinligini aytishlari hamda o‘z qiyoslarini she’rdagi o‘xshatmalar bilan taqqoslashlari lozim. So‘ngra o‘quvchilarga gazeta, jurnal, kitoblardan o‘zlariga yoqqan she’rni topib, yodlash aytiladi.**

## 4-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

***1.*** *Televideniye, radio va ko‘cha-ko‘yda ona tilimizga nisbatan qanday holatlar sizni tashvishlantiradi? Nima uchun?*

***2.*** *Bugungi kundagi ona tilimiz bilan bog‘liq qaysi ijobiy va salbiy jihatlar haqida kelajak avlodga xabar yetkazishni istar edingiz?*

### Asosiy qism

#### Og‘zaki nutq

**Berilgan rasmlar asosida tilga bo‘lgan munosabatni muhokama qiling.**

O‘quvchilar ushbu rasmlarni kuzatib, undagi vaziyatlarni izohlar ekanlar, olib borilayotgan suhbat kirish suhbatining uzviy davomi bo‘lishiga erishish lozim. Har bir rasmdagi holat muhokama qilinishiga, ushbu holat yuzasidan shaxsiy qarashlar izohlab berilishiga e’tibor qaratiladi.

#### Yozma nutq

**Tilning ajdodlarimizdan bizga meros ekani, uni saqlab qolish yo‘llari haqida kelajak avlod uchun maktub qoralamasini tayyorlang.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda til, yozma nutq avlodlar o‘rtasidagi aloqa vositasi ekani haqida tushuncha hosil qilish hamda yozma matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilarga aynan berilgan ko‘rsatmalar hamda maktub yozishda qo‘llanadigan til birliklari, undalmalar, ulardan foydalanishga oid qoidalar eslatiladi.

Fikrlarni izchillik bilan, gaplarni grammatik va mazmun jihatidan bog‘lashga oid tavsiyalar berib boriladi. Matn yozishga qiynalayotgan o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat qurib, uni yo‘naltirish uchun ayrim savollar beriladi.

#### Yozma nutq

**Qoralama maktubingizni oqqa ko‘chiring.**

Bu topshiriq o‘quvchilarga yozgan matnlarini tahrir qilish, xato va kamchiliklarini aniqlab, kerakli o‘rinlarini to‘ldirib yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar yozgan matnlarini ko‘rib chiqib, oqqa ko‘chirishlari lozim.

#### Tinglab tushunish

**Sinfdoshlaringiz yozgan maktublarni tinglang. Ularga munosabat bildiring.**

Bu topshiriq o‘quvchilarda tinglab tushunish hamda munosabat bildirish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar navbat bilan yozgan maktublarini o‘qib berishlari lozim. Bir kishi o‘qiganda qolgan o‘quvchilar tinglab bo‘lib, sinfdoshlarining matniga munosabat bildirishlari aytiladi.

Bunda o‘quvchilar sinfdoshlarining maktubini tinglar ekan, *berilgan tavsiyalarga qay darajada amal qilinganiga, grammatik va mazmun jihatdan gaplarning bog‘langaniga, olmoshlarning o‘z o‘rnida qo‘llanganiga e’tibor qaratilishi, e’tirozlar izohlab berilishi* lozim. O‘quvchilar umumiy fikr bilan chegaralanishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

### Uyga vazifa

#### Yozma nutq. Matn yaratish


**Quyidagi fikrlarni o‘qing. O‘rganganlaringiz asosida tilning inson hayotidagi o‘rni haqida ijodiy matn yozing. Fikrlaringizni she’r shaklida ifodalashingiz ham mumkin.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning erkin fikrlab, ijodiy yondashishlariga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan matnni o‘qib, ushbu matndan olgan xulosalarini yozishlari lozim. Bu jarayonda fikrlarni she’r shaklida ifodalash mumkinligi ham aytib o‘tiladi.

Bu topshiriq ijodga qiziqadigan o‘quvchilarning qobiliyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan.

## QISQACHA TARJIMAYI HOLIM

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** tarjimayi hol haqidagi dastlabki bilimlarni berish, o‘zi haqidagi muhim ma’lumotlarni ajratish hamda tarjimayi hol yozish qoidalari bilan tanishtirish; tarjimayi hol va uni turli shaklda ifodalashga o‘rgatish bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma, o‘qib va tinglab tushunishga oid nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish; matn turlari va tinish belgilariga oid bilimlarni mustahkamlash, ko‘p nuqta va uning qo‘llanishiga oid bilimlarni egallash.


QISQACHA TARJIMAYI HOLIM

Bu mavzuda o‘rganamiz

• tarjimayi hol va uning yozilish tartibi • muhim ma’lumotlarni ajratish • matn turlari • ko‘pnuqtani qo‘llash.

Berilgan rasmlarga diqqat qiling. Savollarga javob bering.

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi

“Mening innovatsion g‘oyam” tanlovi

Tanlov yo‘nalishlari:
1. “Mening birinchi dasturim” loyihasi.
2. “Men novatorman” mavzusida esse.
3. “Mening innovatsion g‘oyam” mavzusida esse.

Tanlov 2 xil yosh toifasidagi (8–10, 11–14) bolalar o‘rtasida bo‘lib o‘tadi.

mininnovation.uz

YOSH KITOBXON

YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI

“Yosh kitobxon” tanloviga arizalar qabul qilinmoqda!

1. Birinchi rasmdagi tanlov tashkilotchisi kim?
2. Bu tanlov haqidagi ma’lumotlarni qaysi saytdan olish mumkin?
3. Tanlov qanday yo‘nalishlarda bo‘lib o‘tadi?
4. Bu tanlovda siz qatnashishingiz mumkinmi? 9 yoshli ukangiz-chi? Javobingizni izohlang.
5. Siz tanlovning qaysi yo‘nalishida ishtirok etishni xohlardingiz?
6. 2-tanlov nima haqida? Sizningcha, bu tanlovning maqsadi nima, uning tashkilotchisi kim?
7. Bunday tanlovlarda odatda o‘zingiz haqingizdagi qanday ma’lumotlarni taqdim etish so‘raladi?

13

### 1-soat

**Dars jarayoni**

#### Kirish

*Tarjimayi hol nima? Unga qayerlarda duch kelgansiz?*

#### Asosiy qism

#### Og‘zaki nutq

**Berilgan rasmlarga diqqat qiling. Savollarga javob bering.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilar duch keladigan e’lon matnlarini tushunish, unga oid til birliklarini aniqlashga qaratilgan. O‘quvchilarga berilgan e’lon matnlari bilan tanishib chiqish aytiladi. So‘ngra e’lon matni ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

#### Muhokama

Berilgan savollar e’lon mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar e’lon matnida berilayotgan axborotlarni aniqlab, javob berishlari lozim. Quyida o‘quvchilardan kutilayotgan javoblarni keltirdik:

**1. Birinchi rasmdagi tanlovning tashkilotchisi kim?**

*O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi*

**2. Bu tanlov haqidagi ma’lumotlarni qaysi saytdan olish mumkin?**

*mininnovation.uz*

**3. Tanlov qanday yo‘nalishlarda bo‘lib o‘tadi?**

*Tanlov uch yo‘nalishda o‘tkaziladi:*

*1. “Mening birinchi dasturim” loyihasi.*

*2. “Men novatorman” mavzusida esse.*

*3. “Mening innovatsion g‘oyam” mavzusida esse.*

**4. Bu tanlovda siz ishtirok etishingiz mumkinmi? 9 yoshli ukangiz-chi? Javobingizni izohlang.**

*Ha, 6-sinf o‘quvchisi 11–12 yosh atrofida bo‘ladi, ukasi ham qatnashishi mumkin, matnda 2 xil toifadagi yosh ko‘rsatilgan: 8–10, 11–14 yosh.*

**5. Siz qaysi yo‘nalishda ushbu tanlovda ishtirok etishni xohlardingiz?**

O‘quvchilar o‘z yo‘nalishlarini tanlab, uni izohlab berishlari lozim. Dastlab o‘quvchilar har bir yo‘nalishning o‘zaro umumiy va farqli jihatlarini tushunganliklari qo‘shimcha savollar yordamida aniqlab olinadi.

**6. 2-tanlov nima haqida? Sizningcha, bu tanlovning maqsadi nima, uning tashkilotchisi kim?**

Tanlov tashkilotchisi: *Yoshlar ishlari agentligi.* Bunda o‘quvchilar *kitobxonlik bilan bog‘liq tanlovning nima maqsadda o‘tkazilishi haqida gapirib, yurtimizda bu yo‘nalishga berilayotgan e’tibor haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlarni aytish orqali o‘z fikrlarini asoslashlari* lozim.

**7. Bunday tanlovlarda odatda o‘zingiz haqingizdagi qanday ma’lumotlarni taqdim etish so‘raladi?**

Bunda o‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari asosida javob beradi. Ular o‘zlari qatnashgan tanlovlar haqida, ushbu jarayonning kechishi, tanlovga taqdim etilayotgan ma’lumotlarning shakli va mazmuni haqida gapirib berishlari lozim.

## Yozma nutq. Matn yaratish

**O‘zingiz haqingizdagi quyidagi ma’lumotlarni daftaringizga yozing.**

Mazkur topshiriqda o‘quvchilarning o‘zlari haqidagi muhim ma’lumotlarni aniqlash, ularni yozma ifodalash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalari shakllantiriladi.

O‘quvchilarga o‘z ism-familiyasini yozayotganda ma’lumotlar qay tartibda berilishi eslatib o‘tiladi, uy manzilini ham to‘liq *(respublika (agar zarur bo‘lsa), viloyat, tuman yoki shahar, mahalla, ko‘cha nomi, xonadon raqami)* yozish kerakligi tushuntiriladi. Shuningdek, o‘quvchilarga shu o‘rinda mahalla fuqarolar yig‘ini va ko‘cha nomi o‘rtasidagi farqlar haqida ma’lumot berish lozim. Oila a’zolari haqida ma’lumot berilganda rasmiy uslubga xos bo‘lgan qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlar *(otam, onam, opam, ukam, akam, singlim)* dan foydalanish zarurligi tushuntiriladi. O‘z qiziqishlari haqida qisqa va aniq ma’lumot berish kerakligi aytiladi.

Bu jarayonda manzilni ketma-ketlik bilan yozish malakasini oshirish maqsadida bir nechta namuna ko‘rsatib, ular orasidan qaysi biri to‘g‘ri ekanini so‘rab, qolgan shakllardagi xatolarni to‘g‘rilash topshirig‘ini bajartirish mumkin.

## O‘qib tushunish

**Ikki ustundagi gaplarni o‘qib chiqing hamda ularni o‘zaro solishtiring. Savollarga javob bering.**

O‘quvchilarga ikki ustundagi matnni o‘qib chiqishlari aytiladi. So‘ngra matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**1. Qaysi ustundagi gaplar bir-biri bilan o‘zaro mazmun va grammatik jihatdan bog‘langan? Javobingizni izohlang.**

Ushbu topshiriq matn va uning tuzilishiga oid qoidalarni o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida matn tarkibidagi gaplar mazmun jihatidan o‘zaro bog‘langan bo‘lishi kerakligini hamda gaplar tarkibida tanlangan so‘zlar uslubiy jihatdan o‘zaro mos bo‘lishi kerakligini anglab yetishlari zarur.

**2. Birinchi ustundagi gaplarni qaysi mavzu o‘zaro bog‘lab turibdi? 2-ustunda-chi?**

Berilgan kichik matn qayta o‘qitiladi, unda gap nima haqida ketayotgani, ularni o‘zaro bog‘lab turgan mavzu aniqlanadi. Shu o‘rinda sarlavha tanlashda ham aynan mana shunday usulda umumiy mavzu tanlanishi haqida qo‘shimcha ma’lumot berilishi maqsadga muvofiq.

**3. Qaysi ustundagi gaplarni matn deyishimiz mumkin? Qaysi xususiyatlariga ko‘ra?**

Bunda o‘quvchilar ikki ustundagi matnni o‘zaro taqqoslab, aniqlagan farqli tomonlari asosida xulosa qilib, javob berishlari lozim, *ya’ni matn bo‘lishi uchun gaplar mazmunan bog‘lanishi, bir xil uslubda, bir mavzu ostida birlashishini* tushunib, aytib berishi lozim.

## Qoida. Matn

O‘quvchilar matn haqida amaliy topshiriq orqali tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng ularga bu bo‘yicha nazariy ma’lumot beriladi.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Sizda ham innovatsion g‘oyalar bormi, ular haqida o‘ylab ko‘ring. Keyingi darsda ushbu tanlov uchun esse yozishga tayyorlaning.**

Ushbu topshiriq ma’lumot to‘plash, to‘plagan ma’lumotlarini saralash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga e’lon matniga mos keluvchi g‘oyalarini qanday ifodalash mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishlari, e’lon matnida berilgan talablar asosida esse yozish topshirig‘iga tayyorlanishlari, buning uchun gazeta, jurnal, kitoblar, ijtimoiy tarmoqlardan ma’lumot to‘plash aytiladi.

## 2-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Qanday tanlovlarda qatnashgansiz? Unda ishtirok etishingiz uchun qanday hujjatlar taqdim etgansiz?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Tanlov matni bilan tanishing. Berilgan topshiriqlarni bajaring.**

O‘quvchilarga tanlov matnini diqqat bilan o‘qib chiqish aytiladi. Bu jarayonda tanlov matnlarining ifoda shakli, unda mavjud bo‘lgan axborotlar hamda tanlov matnining tuzilishiga e’tibor qaratishlari lozimligi eslatiladi.

### Sintaksis

**Ijodiy ishning tanlovga qabul qilinishi uchun to‘siq bo‘ladigan sabablarni aniqlang hamda ularni daftaringizga izohlab ko‘chiring.**

O‘quvchilar matnda berilgan tanlovda qatnashish shartlari va ijodiy ishlarga qo‘yiladigan talablar bilan qayta tanishib chiqib, berilgan gaplarni matndagi ma’lumotlar asosida izohlab yozishlari lozim. Bu orqali o‘quvchilarning fikrni asoslash, dalil keltirish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsad qilingan.

*Javob:*

***1.** Ushbu tanlov 15 yoshdagi o‘quvchilarga mo‘ljallanmagan.*

***2.** Tanlov shartlarida fotolavhalar bo‘lishi mumkinligi, ammo qat’iy talab qo‘yilmasligi belgilangan.*

***3.** Baholashda ushbu jihatga e’tibor qaratiladi.*

***4.** Ijodiy ish qaysi millat vakili tomonidan yozilishi bo‘yicha to‘siq qo‘yilmagan, asosiysi – ijodiy ishning o‘zbek tilida bo‘lishi.*

***5.** Ijodiy ishlar hamkorlikda tayyorlangan bo‘lsa, qabul qilinmaydi.*

### Tahlil

**Yuqorida berilgan matn yordamida quyidagi savollarga javob berish mumkinmi? Javob berish mumkin deb hisoblagan savollaringizga javob yozing.**

Mazkur topshiriq berilgan jumlalarni matn asosida dalillash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan savollarni o‘qib, javob berish mumkin bo‘lganlarini alohida, javob berish mumkin bo‘lmaganlarini alohida yozib, nima uchun shunday ekanini asoslashlari lozim.

### O‘qib tushunish. Tahlil

**Qatnashchi yo‘llagan ushbu esse bilan tanishib chiqing va quyida berilgan jadvalda so‘ralgan ma’lumotlarni daftaringizga yozing.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning berilgan ma’lumotni tushunish, kerakli ma’lumotlarni saralab, jadvalda ifodalash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga berilgan esse matnini diqqat bilan o‘qib chiqib, jadvalni to‘ldirish aytiladi.

### Qoida. Tarjimayi hol

O‘quvchilar amaliy topshiriqlar orqali tarjimayi hol haqida tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib berilishi lozim.

## Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Siz ham ushbu tanlovda ishtirok etishingiz mumkin. Buning uchun o‘zingiz haqingizdagi ma’lumotlarni quyida berilgan jadval ko‘rinishida ifodalang. G‘oyalaringizni esse shaklida yozing. Bunda yuqorida berilgan talablarga rioya qiling.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarga tanlovga o‘z g‘oyalari bilan, o‘zlariga tegishli ma’lumot bilan ishtirok etish, tanlov jarayonini amaliy his qilib ko‘rish imkonini beradi. O‘quvchilar berilgan so‘rovnoma bilan tanishib, o‘z ma’lumotlarini shu shaklda yozib chiqishlari lozim. So‘ngra tanlovda qatnashish uchun to‘plagan ma’lumotlarini esse tarzida yozishlari lozim.

## 3-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Anvar Obidjon haqida eshitganmisiz? Uning qanday asarlari bilan tanishgansiz?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Matnni diqqat bilan o‘qing. Savollarga javob bering.**

Matn muallifi: Anvar Obidjon.

O‘quvchilarga matnni o‘qib chiqish aytiladi. Matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**1. Muallifning maktabga borgan yillari haqidagi taassurotlaridan nimani anglash mumkin? Shoirning bolalik yillari qanday o‘tgan deb hisoblaysiz?**

Bu savol matnda berilgan ma’lumotlarni integratsiya qilib, xulosa chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning birinchi xatboshisida ajratib ko‘rsatilgan birliklar mazmunidan shoirning bolalik yillari qanday o‘tganini aniqlab, aytib berishi lozim. O‘quvchilarning fikrlari tinglanadi, nima uchun shunday xulosaga kelganlari so‘raladi.

**2. Shoir va uning tengdoshlarining maktabdagi vaqti qanday o‘tgani haqida gapiring. Siz va sizning sinfdoshlaringiz tanaffusda nimalar bilan shug‘ullanasiz?**

Shoirning maktabda o‘tkazgan vaqti bilan bog‘liq xotiralar haqida gapiriladi, bu davrdagi bolalarning o‘ziga xos jihatlari haqida xulosalar chiqarish uchun qo‘shimcha savollar beriladi. Ba’zi o‘quvchilar hozirgi bolalarga maktabda yaratib berilgan imkoniyatlar haqida qo‘shimcha fikr bildirishi maqsadga muvofiq.

**3. Nima uchun muallif imkon qadar kunduzi dars tayyorlashga harakat qilgan? Bu davrdagi bolalarning imkoniyatlari haqida fikr bildiring.**

O‘quvchilar matnda berilgan ma’lumot asosida javob beradilar, shundan so‘ng o‘qituvchi bugungi kunda dars tayyorlash uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida so‘raydi. O‘quvchilar bular haqida gapirishadi, u davrdagi va hozirgi davrdagi bolalarning imkoniyatlari o‘zaro taqqoslanadi, kerakli xulosalarni chiqarish uchun qo‘shimcha savollar bilan murojaat etiladi.

**4. Shoirning bolalik yillari qaysi jihatlari bilan sizga yoqdi?**

Shoirning bolalik yillari o‘tgan davrning o‘ziga xosligiga e’tibor qaratiladi. Bunda o‘quvchilarga qo‘shimcha yo‘naltiruvchi savollar berilib, har bir davrning o‘ziga yarasha gashti borligi haqida xulosalar chiqarish imkoniyatini yaratuvchi suhbat tashkillashtirilishi maqsadga muvofiq.

### Leksikologiya

**Berilgan so‘zlarni izohlari bilan moslab ko‘chiring.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan so‘zlarni izohlar bilan moslashtirib yozishlari lozim. Bu jarayonda lug‘atdan foydalanishga ruxsat beriladi. Asosiy e’tibor so‘zlar haqida tushuncha hosil qilishga qaratiladi.

*Javob:*

*Chit – paxta tolasidan to‘qilgan mato, gazlama.*

*Bo‘z – xom pishitilgan paxta ipidan qo‘l dastgohida to‘qilgan mato.*

*Tirinka – ust kiyim uchun ishlatiladigan ip yoki yarim jun gazlama.*

*Kirza etik – suv o‘tkazmaydigan, pishiq sun’iy materialdan tayyorlangan oyoq kiyim.*

*Dovot – qadimgi Sharq mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyoda ko‘pincha jezdan quyilgan yoki loydan (Xitoyda chinnidan ham) yasalgan siyohdon.*

*Fufaykacha – paxta solib qavilgan, oldi tugmalab qo‘yiladigan kalta kiyim, kurtka.*

### Punktuatsiya

**Matnning ajratib ko‘rsatilgan qismlarida qo‘llangan tinish belgilariga e’tibor bering. Nima uchun aynan shu tinish belgilari ishlatilganini izohlang. Gaplarni daftaringizga ko‘chiring.**

Ushbu topshiriq matnni lingvistik tahlil qilish hamda tinish belgilarining qo‘llanish o‘rinlarini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar e’tibori matnda ajratib ko‘rsatilgan qismga qaratiladi. Ushbu qismni qayta o‘qib, har bir tinish belgisining nima uchun qo‘llanganini tushunib, aytib berishlari so‘raladi.

### Qoida. Punktuatsiya

O‘quvchilarga ko‘pnuqta haqidagi nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib berilishi lozim.

### O‘qib tushunish

**Matn xatboshilari uchun sarlavhalar topib, yozing.**

Bu jarayonda o‘quvchilar bilan matn qismlari, har bir qismda yoritilgan mavzular va ushbu mavzularni o‘zaro bog‘lab turuvchi bosh mavzu qanday tanlanishiga oid savollar bilan suhbat tashkil qilinadi.

Sarlavha tanlashda nimalarga e’tibor qaratishga oid, shuningdek, yuqoridagi matn va uning tuzilishiga oid qoidalar yodga solinadi. Tanlangan sarlavhalar imkon qadar qisqa, ammo qismning butun ma’nosini o‘zida ifodalay oladigan bo‘lishi kerakligi, ifoda maqsadiga ko‘ra gapning qaysi turlaridan foydalanish ma’qulligi tushuntiriladi.

### Uyga vazifa

### Og‘zaki nutq

**Biror shoir yoki yozuvchi haqidagi ma’lumotlar asosida 2 daqiqalik audiomatn tayyorlang. Unda yozuvchi haqidagi muhim ma’lumotlar aks etsin. Yozib olgan audiomatningizni qayta-qayta eshiting. Nutqingizda qanday kamchiliklar borligini qayd etib oling.**

Mazkur topshiriq ma’lumot to‘plash, ma’lumotlarni saralash, saralab olgan ma’lumotlari asosida audiomatn tayyorlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga ma’lumot qidirishlari uchun kerakli kitob, gazeta, jurnal hamda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish haqida ko‘rsatmalar beriladi.

## 4-soat

**Dars jarayoni**

### Kirish

*Audiomatn tayyorlashda nimalarni e’tiborga olish lozim?*

### Asosiy qism

### Tinglab tushunish

**Anvar Obidjon haqidagi matnning davomini tinglang. Savollarga javob bering.**


Manba: “Gulxan” jurnali.

O‘quvchilarga audiomatnni eshittirishdan avval o‘zlari uchun muhim deb bilgan o‘rinlarini qayd etib borishlari aytiladi.

...

*...Ilgarilari kitob eshitishni yoqtirgan bo‘lsam, savodim chiqqach, kitob o‘qishga tobora berilib boraverdim. U zamonlarda aralash mollar do‘konida kitob ham sotilardi. Kitob o‘qishga ishqibozligimni bilgan magazin mudiri Abdukarim meshqorin: “Manavining ichi g‘ij-g‘ij ertak. Manavining rasmlari ko‘pligini qara”, deb menga dam u, dam bu kitobni tiqishtirardi. Narxini orqa muqovadan ko‘rib,*

*pulni tezda olib chiqardim. Kitob olaman desam, dadam pulni sira ayamasdi, o‘sha zahoti rozi bo‘lardi.*



Berilgan so‘zlarni izohlari bilan moslab ko‘chiring.

chit | bo‘z | tirinka | kirza etik | dovot | fufaykacha

1. Suv o‘tkazmaydigan, pishiq sun’iy materialdan tayyorlangan oyoq kiyim.
2. Qadimgi Sharq mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyoda ko‘pincha jezdan quyilgan yoki loydan (Xitoyda chinnidan ham) yasalgan siyohdon.
3. Xom pishitilgan paxta ipidan qo‘l dastgohida to‘qilgan mato.
4. Paxta tolasidan to‘qilgan mato, gazlama.
5. Ust kiyim uchun ishlatiladigan ip yoki yarim jun gazlama.
6. Paxta solib qavilgan, oldi tugmalab qo‘yiladigan kalta kiyim, kurtka.

Matnning ajratib ko‘rsatilgan qismlarida qo‘llangan tinish belgilariga e’tibor bering. Nima uchun aynan shu tinish belgilari ishlatilganini izohlang. Gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

Gap mazmunan tugallanmay qolganda ko‘pnuqtadan foydalaniladi. Bundan tashqari, so‘zlovchining cheksiz his-hayajoni ifodalanganda, matnda ayrim qismlar olib tashlanganda hamda dialoglarda suhbatdoshning gapi javobsiz qolganda ham ko‘pnuqta qo‘yiladi.

Matn xatboshilari uchun sarlavhalar topib yozing.

Biror shoir yoki yozuvchi haqidagi ma’lumotlar asosida 2 daqiqalik audiomatn tayyorlang. Unda yozuvchi haqidagi muhim ma’lumotlar aks etsin. Yozib olgan audiomatningizni qayta-qayta eshiting. Nutqingizda qanday kamchiliklar borligini qayd eting.

Anvar Obidjon haqidagi matnning davomini tinglang. Savollarga javob bering.

19

*...Bir kuni dadam bilan Farg‘ona shahriga aylanishga borganimizda o‘shanda yangi paydo bo‘lgan “G‘uncha” jurnaliga ko‘zim tushib, sotib oldim. Uyga kelgach, uni zavqlanib varaqlay ketdim, rasmlarni yayrab tomosha qildim. Lekin undagi she’rlarning ba’zilari juda jo‘n tuyuldi, men hozirning o‘zida bundan yaxshiroq yoza olaman degan havoyi bir ishonch chaqnadi ko‘nglimda. Shu maqtanchoqlik turtki berib, kuniga she’rlar yozaverdim, ularni issig‘ida konvertga solib, kunora “G‘uncha”ga (boshqa nashrlar ham borligi sira xayolimga kelmasdi) jo‘nataverdim. U yoqdan kelgan javob xatlarning mazmuni yozganlarim hali juda bo‘shligini anglatsa-da, buni tan olishni aslo-aslo istamasdim.*

*...She’rlarimni hali siyohi qurimasidanoq “G‘uncha”ga peshma-pesh yo‘llash odatim hanuz qolmagandi. Baxtimga, jurnalning Miraziz A’zam degan xodimi juda toqatli chiqib qoldi, uzluksiz javob yozardi. Hatto bir safar injiqligim tutib, men har xil she’rlar yuboraman, lekin kelayotgan javoblar deyarli bir xil, kamchiliklarimni yaxshiroq tushuntirib, uzunroq qilib yozinglar, desam, shunga ham chidadi; endi bir yarim, ikki betlab xat yozadigan, falon she’rlaringiz ancha tuzuk, uning falon-falon joylarini boshqacharoq ifodalab ko‘ring, deya erinmay yo‘riqchilik qiladigan bo‘ldi...*

*Nihoyat, sakkizinchi sinfga ko‘chganimda Miraziz akaning yaxshigina tahriri bilan “Shkafcham” degan she’rim bosildi (ba’zi manbalarda ilk she’rim 6-sinfdaligimda chiqqan deb xato ko‘rsatgan ekanman). Shu kuni “Men shoirman!” deb o‘zimni o‘zimga bor ovozda tanishtirdim. Endi meni shoirchilikdan bezitish tugul, havaskorligimga ishontirish ham amri mahol edi...*

## Muhokama

**1. Qahramonning kitobga munosabati haqida sizda qanday tasavvur paydo bo‘ldi? Ayting-chi, magazin mudiri nima uchun bolaga hadeb kitoblarni tavsiya qilavergan?**

O‘quvchilar tinglagan matni asosida qahramonning kitobga bo‘lgan munosabati, magazin mudirining *shoirning kitobga ishqibozligini sezib,* unga kitoblarni taqdim etganini tushunib aytishlari lozim.

**2. Farg‘ona safari davomida bolaning hayotini o‘zgartirib yuborgan narsa nima edi?**

Bu matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar *bolaning “G‘uncha” jurnali haqida xabar topishi uning hayotini o‘zgartirib yuborgan voqea ekanini tushunib*, aytib bera olishi lozim.

**3. Bolaning she’r yoza boshlashi, undagi kechgan hislar haqida fikr bildiring.**

Bu savol maqsadi o‘quvchilarga bir ishga kirishganda uni yarim yo‘lda tashlab qo‘ymaslik, bor kuchi bilan harakat qilish, intilish kerakligini tushuntirishdan iborat. Bu holatlar bevosita shoirning bolalik payti she’r yozishga ishtiyoqi bilan bog‘lab tushuntirilishi lozim.

**4. Jurnal xodimi haqida qanday fikrdasiz? Javobingizni izohlang.**

Bu savol matnda implitsit (yashirin) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. O'quvchilar jurnal xodimi Miraziz A'zamning bolaga nisbatan xatti-harakatlari asosida xulosa chiqarib, xodimning talabchanligi, o'z ishiga sidqidildan yondashishi bilan bog'liq jihatlarini tushunib, aytib bera olishi lozim.

**5. "Tahrir" deganda nimani tushunasiz? Bu qanday jarayon?**

Bu savol o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga qaratilgan. O'quvchilar ushbu birlik haqida o'z tushunchalarini aytishlari lozim. So'ngra ushbu birlik ma'nosi izohlab beriladi.

*Tahrir – yozma matnlarni tekshirish, tuzatish kiritish, yaxshilash jarayoni.*

**4. "*Endi meni shoirchilikdan bezitish tugul, havaskorligimga ishontirish ham amrimahol edi...*" Muallifning ushbu fikrini izohlang.**

Muallifning ushbu fikriga o'quvchilarning munosabati aniqlanadi. Shoirning bolalik davrida bo'lgan voqea-hodisalarning uning kelajagi bilan qay darajada bog'liqligi haqidagi xulosalar chiqarishga yo'naltirilgan suhbat olib borilishi lozim.

### Qoida. Matn turlari

O'quvchilarga matn turlari haqida nazariy ma'lumot misollar bilan tushuntirib berilishi lozim.

### Yozma nutq

**Audiomatn uchun eng mos sarlavha qaysi deb o'ylaysiz? Nima uchun? Siz qanday sarlavhalarni taklif qilasiz? Ularni yozing.**

Mazkur topshiriq matn mazmunini tushunish, matnga mos sarlavha tanlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar bilan berilgan sarlavhalarning matn mazmuniga mosligi bo'yicha suhbat olib boriladi. Imkon qadar har bir o'quvchi o'z tanlovini tushuntirishga harakat qilishi lozim. O'qituvchi suhbat so'ngigacha hech bir o'quvchining javobini izohlamasligi, munosabat bildirmasligi lozim. Suhbat so'ngida esa eng maqbul javob: "Shoirlik sari ilk qadam"ni aytib, o'z javobini izohlab berishi hamda qolgan javoblar nima uchun to'g'ri kelmasligini tushuntirishi lozim. So'ngra o'quvchilarga o'zlari mustaqil matn uchun sarlavhalar tanlab yozish aytiladi.

### Tinglab tushunish. Test

**Matn asosida berilgan to'g'ri fikrlarni aniqlab, yozing. Noto'g'ri gaplarni esa to'g'rilab ayting.**

Mazkur topshiriq o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish hamda tinglagan matnidagi ma'lumotlarni saralay olishlariga qaratilgan.

O'quvchilarga berilgan ma'lumotlar bilan tanishib chiqishlari aytiladi, so'ngra audiomatn qayta eshittiriladi.

*Javob: 1. Noto'g'ri. 2. To'g'ri. 3. To'g'ri. 4. Noto'g'ri. 5. Noto'g'ri. 6. To'g'ri.*

### Tinglab tushunish. Test

### Punktuatsiya

**Tushib qolgan vergul hamda ko'pnuqtalarni qo'yib ko'chiring.**

Mazkur topshiriq matnni tahrir qilib, qayta shakllantirish ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan. O'quvchilar matnni o'qib, kerakli o'rinlariga tinish belgilarini qo'yib, ko'chirib yozishlari lozim.

*Javob: hatto bir safar injiqligim tutib, men har xil she'rlar yuboraman, lekin kelayotgan javoblar deyarli bir xil, kamchiliklarimni yaxshiroq tushuntirib, uzunroq qilib yozinglar, desam, shunga ham chidadi; endi bir yarim, ikki betlab xat yozadigan, falon she'rlaringiz ancha tuzuk, uning falon-falon joylarini boshqacharoq ifodalab ko'ring, deya erinmay yo'riqchilik qiladigan bo'ldi...*

### Muhokama

**Ayting-chi, Anvar Obidjon haqidagi matn matnning qaysi turiga kiradi? Nima uchun ushbu fikrga keldingiz?**

Bu savol matn tuzilishini tushunishga qaratilgan. O'quvchilar matnning mazmunidan kelib chiqib, qaysi matn turiga mansubligi hamda uning ushbu matn turiga xosligini namoyon etuvchi til birliklarini aniqlab, aytib bera olishlari lozim.

**Uyga vazifa**

**Orfografiya**

**To‘g‘ri yozilgan so‘z va birikmalarni ko‘chiring.**

Mazkur topshiriq so‘zlardagi xatolikni aniqlash, ularning to‘g‘ri variantini yoza olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar ikki ustunda berilgan so‘zlarni o‘qib, to‘g‘ri yozilgan birliklarni ko‘chirib yozishlari lozim.

## 5-soat

**Dars jarayoni**

**Kirish**

*Bolalik xotiralaringizni yozib qo‘yasizmi? Ularni qanday uslubda tasvirlaysiz?*

**Asosiy qism**

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Hayotingizda bo‘lgan biror voqea asosida qiziqarli matn yozishga harakat qiling.**

Berilgan savollar yuzasidan qisqa savol-javob o‘tkaziladi. So‘ngra o‘quvchilarga ushbu savollar asosida matn yozish aytiladi. Matn yozish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga matn qismlari va undagi gaplar o‘zaro mazmun va grammatik jihatdan bog‘lanishi zarurligini eslatishi lozim.

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Berilgan yo‘riqnoma asosida tarjimayi holingizni yozing.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda tarjimayi hol yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga berilgan yo‘riqnomaning har bir bandi, unga nima yozish kerakligi tushuntirib beriladi. So‘ngra yo‘riqnoma asosida tarjimayi hollarini yozishlari aytiladi.

Yozib bo‘lganlaridan so‘ng talabga javob beradigan tarjimayi hol namunasi doskaga ko‘chirilib, *ma’lumotlar ketma-ketligi, shakli, xatboshilar, tinish belgilarini qo‘llashga oid* ko‘rsatmalar berilishi maqsadga muvofiq.

**Qoida. Tarjimayi hol**

Tarjimayi hol haqidagi nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib berilishi lozim.

**Yozma nutq. Tahlil**

**Partadoshingiz bilan yozgan tarjimayi holingizni almashtiring. Matn bilan tanishib, xatolaringiz ustida birgalikda ishlang.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning tarjimayi hol matnlarini tahlil qilish, unda mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali tarjimayi holni imkon qadar xatosiz yozishga o‘rgatish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Yozilgan tarjimayi hollarni o‘zaro almashish, sinchkovlik bilan tekshirish lozimligi aytiladi. Har bir o‘quvchi o‘z partadoshining yozma ishini tekshirib, unga munosabat bildiradi. O‘qituvchi ham yozma ishlarga o‘z munosabatini bildirib, bunda nimalarga e’tibor berish kerakligi haqida aytib o‘tishi lozim. Barcha aytilgan fikrlar o‘zaro umumlashtirilib, tarjimayi hol yozish haqida umumiy xulosa chiqariladi.

**Uyga vazifa**

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Mashhur olimlardan birining tarjimayi holini topib, tanishib chiqing. Olgan xulosalaringizni daftaringizga yozing.**

Ushbu topshiriqda tarjimayi holning norasmiy shakli, uning mazmuni, ifoda shakli, unda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklarini tahlil qilish, ularga munosabat bildirish maqsad qilib olingan.

O‘quvchilardan tarjimayi holda berilishi muhim bo‘lgan ma’lumotlarga va undagi o‘ziga xoslikka e’tiborlarini qaratish so‘raladi. Biror mashhur olimning tarjimayi holi misolida topshiriqni bajarish tartibi tushuntiriladi.

# TARJIMAYI HOL

## MUSTAHKAMLASH



MUSTAHKAMLASH

Berilgan matnni o'qing. Xatboshilarni aniqlab, matnga mos sarlavha toping.

...

To'rt-besh yoshlarimdan boshlab bu dunyoning voqea va hodisalari xotiramda qolgan. Urushdan qaytmaganlarning azalari-yu, qaytgan mayib-majruh qishloqdoshlarimning qo'ltiqtayoqni to'qillatib yurganlari esimda. Ocharchilik, odamlarning kunjara yeganlarini ko'p ko'rganman. Biz oilada to'rt o'g'il, to'rt qiz o'sganmiz. Akalarim Buxoro, Toshkent oliy o'quv yurtlarida, til-adabiyot fakultetlarida o'qishardi. Tabiiyki, ular ko'tarib yurgan kitoblarning aksariyati badiiy adabiyot namunalari edi. Mening allaqachon savodim chiqqan, kitoblarni sharillatib o'qiy olardim. Men bugungi kunda g'oyatda ajablanib shularni eslayman. Negadir bolaligimda xotiram nihoyatda kuchli edi. Bir o'qiganim esimda qolaverardi. Radio, televideniye yoxud boshqa tomoshalar bo'lmaganidan keyin, ermagim kitob edi-da. Duch kelgan narsani o'qib, duch kelgan narsani yodlab olardim. Bu kitoblar orasida xalq dostonlari ham, Navoiy bobomiz-u Pushkindan tarjimalar ham, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon she'riyati va yana boshqa ko'p roman-u qissalar bo'lardi. Endi she'rlar yoza boshlaganimda bunga nima turtki bo'lganini aniq bilmayman. Har holda, so'zlarni qofiyalashga ishqiboz bo'lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, balki zavqim toshib, nimanidir yozgim kelaverardi. Fikr esa yo'q. Yozmaslikning ham iloji yo'q. Shuning uchun ona, maktab, brigadir, Nodir kabi so'zlarni o'zimcha she'rga solib, aylantirib yurardim.

*Abdulla Oripov,*
*O'zbekiston xalq shoiri*

23

### Dars jarayoni

#### Kirish

*Tarjimayi hol haqida nimalarni bilib oldingiz?*

#### Asosiy qism

#### O'qib tushunish

Muallif: Abdulla Oripov.

**Berilgan matnni o'qing. Xatboshilarni aniqlab, matnga mos sarlavha toping.**

Mazkur topshiriq o'quvchilarning matnni o'qib tushunish, mazmunini anglash orqali matnga mos sarlavha topish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O'quvchilar matnni o'qib chiqib, unga mos sarlavha topishlari hamda tanlagan sarlavhalarini matn mazmuni bilan moslab izohlashlari lozim.

#### Muhokama

**1. Matn muallifi haqida qanday ma'lumotga egasiz?**

Ushbu savol matn muallifini aniqlashga qaratilgan. O'quvchilar matnni yozgan shoir haqida bilgan ma'lumotlarini aytib berishlari lozim.

**2. Urush fojiasi berilgan qismni qayta o'qing va unga munosabat bildiring.**

Bunda urush fojiasi yozuvchi tomonidan qanday ifodalanganiga e'tibor qaratiladi, *urush va uning oqibatlari, ayniqsa, shu yoshdagi bolalarning xotirasida qanday iz qoldirgani haqida* suhbat olib borilishi lozim.

**3. Shoirning ermagi nima uchun kitob bo'lganini izohlang. Bu sizning hayotingizga qay darajada mos?**

O'qituvchi o'quvchilardan shoir va o'zlarining hayot tarzini o'zaro taqqoslashni so'raydi. O'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishlari haqida fikrlari tinglanadi. Shu orqali har bir bola o'zidagi kitobga nisbatan qiziqish haqida tanqidiy fikrlab ko'rib, javob berishi lozim.

**4. Shoirning oilaviy muhiti haqida sizda qanday tasavvur paydo bo'ldi?**

Bu savol o'quvchilar o'z shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishlariga qaratilgan.

**5. Ushbu matn maqsadiga ko'ra qaysi turga mansub? Nima uchun bu fikrga keldingiz?**

Bu savol matn tuzilishini tushunishga qaratilgan. O'quvchilar matn mazmuni asosida ushbu savolga javob berishlari lozim.

*Javob: hikoya matni.*

**6. Matnda nechta xatboshi bor deb hisoblaysiz? Javobingizni izohlang.**

Matnni xatboshilarga ajratishda nimalarga e'tibor berish zarurligi haqida so'raladi. Shu asosda matn xatboshilarga ajratiladi. Fikrlar qisman uzilgan o'rinlarni aniqlashga oid yo'naltiruvchi savollar berib boriladi.

**7. Matnga qanday sarlavha qo'ydingiz? Nima uchun?**

O‘quvchilarga o‘zlari tanlagan sarlavhani matn asosida izohlashlari aytiladi. Sarlavha tanlashda nimalarga e’tibor qaratganlari so‘raladi.

**8. Matnda qo‘llangan vergullarga e’tibor bering. Nima uchun ishlatilganini izohlang.**

O‘quvchilar vergullarni aniqlab, ularning qo‘llanish sababini aytib berishlari lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi imkon qadar vergulning turli vaziyatlarda qo‘llanishiga oid qismlar tahliliga o‘quvchilar e’tiborini qaratishi, ularni izohlash uchun qo‘shimcha savollar bilan murojaat etishi lozim.

## Morfologiya

**Matn tarkibidagi atoqli otlarni ko‘chirib yozing.**

Atoqli otlar va ular imlosiga oid qoidalar yodga solinadi, matn tarkibidagi atoqli otlarni ko‘chirib olish aytiladi.

## Yozma nutq

**Tarjimayi hol matnidagi xatoliklarni aniqlang va ularni to‘g‘rilab, matnni ko‘chiring.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarda matnni tahrir qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan tarjimayi hol matnini tahrir qilib, qayta yozishlari lozim.

Tarjimayi holga oid xatoliklarni aniqlashda, albatta, namunadagi tushuntirish xatidek bir xil bo‘lishiga e’tibor berish zarur emas. Asosiy e’tibor o‘quvchilarning rasmiy hujjatni to‘ldirish qoidalariga, so‘zni to‘g‘ri qo‘llash, ma’lumotlarni tartib bilan berish, shaxsiy munosabatni ifodalamaslik kabi jihatlarga diqqat qaratayotganiga berilishi lozim.

*Tarjimayi hol*

*Men, Abdullayev Umid, 2009-yil 10-martda Sirdaryo viloyatining Guliston shahrida bog‘bon oilasida tug‘ilganman. Otam Otabekov Jamshid Abdulla o‘g‘li kasalxonada shifokor bo‘lib ishlaydi, onam Uzoqova Bahoroy Omonovna – uy bekasi. Akam Abdullayev Ikrom akademik litseyda o‘qiydi. Akam Abdullayev Doston 10-sinfda ta'im oladi. Akam Abdullayev Haydarali 8-sinf o‘quvchisi. Singlim Abdullayeva Kamola 2-sinfda o‘qiydi.*

*Men 2016-yili Guliston shahridagi 177-maktabning 1- sinfiga qabul qilinganman. Hozir shu maktabning 6-sinfida o‘qiyman.*

*Matematika, adabiyot, ona tili va tarbiya fanlariga qiziqaman. Ayniqsa, jismoniy tarbiya fanini yaxshi ko‘raman. Darsdan keyin shaxmat to‘garagiga qatnayman.*

*Hozir Sirdaryo viloyati Guliston shahri Farovon ko‘chasi 10-uyda yashayman.*

*Imzo: Umid Abdullayev*

*2022-yil 14-yanvar*

## Uyga vazifa


## Yozma nutq

**O‘rganganlaringiz asosida oila a’zolaringizdan biriga o‘z tarjimayi holini yozdiring. Xatoliklar bo‘lsa, aniqlab, uni tuzatishga yordam bering. O‘qituvchingizga bu haqda og‘zaki ma’lumot bering.**

O‘quvchilar olgan bilimlarini amaliy jihatdan qo‘llab ko‘rishlari mumkin. Bunda ular oila a’zolaridan biriga tarjimayi holini yozdirib, uni tahrir qilib, tarjimayi hol qanday yozilishi kerakligini tushuntirib berishi lozim. So‘ngra ushbu jarayon haqida og‘zaki hisobot tayyorlab kelishi aytiladi.

# SHIFOXONA

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** so‘zlarni talaffuz qilish va ular imlosiga oid qoidalar bilan tanishtirish; o‘rganilayotgan nutqiy vaziyatda o‘zini qanday tutish, qanday til birliklaridan foydalanish kerakligi bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish; diagramma ko‘rinishida berilgan matnlarni o‘qib tushunish, ularni tahlil qilish va og‘zaki so‘zlab berish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash; so‘z ma’nolari, ularni turkumlarga ajratish, so‘z va uning ma’nodoshlari, ma’nodosh so‘zlar qatorida matn mazmuniga mos keluvchi so‘zni tanlash, undalma bilan bog‘liq bilimlarni rivojlantirish.


SHIFOXONA

Bu mavzuda o‘rganamiz

• shifoxona xizmatidan foydalanishga oid tavsiyalar • grafik ko‘rinishdagi axborotlarni o‘qib tushunish • tibbiyot sohasiga oid til birliklari • so‘z va uning ma’nodoshlari • undalma.

Mavzuga oid so‘zlarni tinglang hamda talaffuz qiling. Ushbu so‘zlarning o‘zbek tilidagi muqobili yoki izohini topishga harakat qiling.

Rasmlarga diqqat qiling. Savollarga javob bering.

okulist
nevropatolog
stomatolog
kardiolog
xirurg
dermatolog
LOR
endokrinolog
pediatr

1. Shifoxona deganda xayolingizda birinchi nima gavdalanadi?
2. Siz qaysi shifokor qabulida bo‘lgansiz?
3. Shifoxonada bemorlar qabul qilinuvchi xonalar qanday nomlanadi? Ularning o‘zbek tilida muqobili bormi? Qanday?
4. Shifokor qabulida eng ko‘p qaysi so‘z va gaplar ishlatiladi?

25

## 1-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Shifokor deganda xayolingizga birinchi nima keladi? Shifokorga murojaat qilishingizga to‘g‘ri kelganmi?*

### Asosiy qism

### Tinglab tushunish

**Mavzuga oid so‘zlarni tinglang hamda talaffuz qiling. Ushbu so‘zlarning o‘zbek tilidagi muqobili yoki izohini topishga harakat qiling.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish, olinma so‘zlar talaffuzi va imlosini o‘zlashtirishlariga qaratilgan.

Topshiriqni quyidagi ketma-ketlikda bajarish maqsadga muvofiq:

**1.** Audiomatndagi so‘zlar birma-bir eshittiriladi.

**2.** O‘quvchilar eshitish davomida so‘zlarni yozib ketishlari lozim.

**3.** So‘zlarning to‘g‘ri varianti doskada yozilib, o‘quvchilarga o‘zlarining yozganlarini tekshirib, xatolarini aniqlashlari, so‘zlarning to‘g‘ri shaklini ko‘chirib olishlari aytiladi.

**4.** O‘quvchilarga so‘zlar navbat bilan o‘qitilib, olinma so‘zlar talaffuzi tushuntiriladi.

***Audiomatn:*** *poliklinika, ukol, farmatsevtika, palata, retsept, diagnoz, narkoz, doktor, terapevt, okulist, endokrinolog, pediatr, kardiolog, xirurg, stomatolog, dermatolog, lor, statsionar, vrach.*

### Og‘zaki nutq

**Rasmlarga diqqat qiling. Savollarga javob bering.**

Rasmda tibbiyotning turli yo‘nalishlarida faoliyat olib boradigan xodimlar hamda ularning nomlari vaziyatlar bilan aks ettirilgan. O‘quvchilarga rasm bilan tanishib chiqish aytiladi. So‘ngra rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. Shifoxona deganda xayolingizda birinchi nima gavdalandi?**

Ushbu savol o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, *shifoxona* birligi haqida tushuncha hosil qilishdan iborat. O‘quvchilar shifoxona deganda xayoliga keluvchi manzaralar, voqea-hodisalar haqida so‘zlab berishi, ushbu birlikning ma’nosini tushunishi asosida

izohlashi mumkin. Ularning fikri tinglangach, bu haqida ma'lumot berilishi lozim.

*Shifoxona – davolash muassasasi, kasalxona.*

**2. Siz qaysi shifokor qabulida bo'lgansiz?**

Bu savol o'quvchilarning hayotiy kuzatishlari asosida shifoxonaga oid til birliklarini nutqida faollashtirishga qaratilgan. Bunda o'quvchilardan o'zlari bilgan shifokor, u bilan bo'lgan suhbatni qisman so'zlab berishlari so'raladi.

**3. Shifoxonada bemorlarni qabul qiluvchi xonalar qanday nomlar bilan ataladi? Ularning o'zbek tilida muqobili bormi? Qanday?**

Bu savol olinma so'zlar talaffuzi va ma'nosini o'zlashtirishga qaratilgan. O'quvchilar bilan shifoxonada mavjud xona nomlari, bu xona qanday kasallar uchun ekani haqida suhbat olib boriladi. O'qituvchi kasalliklar bilan bog'liq bir nechta vaziyatlarni aytib, shunday vaziyatda qaysi shifokor ko'rigiga borish kerakligi haqida savollar berishi maqsadga muvofiq. *Masalan, "Qulog'ingiz og'risa, qaysi shifokor qabulida bo'lasiz? Ko'zlaringizdan shikoyat qilsangiz-chi? Stomatolog nimani davolaydi? Uni o'zbek tilida nima deb atashimiz mumkin?" kabi.*

**4. Shifokor qabulida eng ko'p qaysi so'z va gaplar ishlatiladi?**

Bu savol o'quvchilar nutqini turli nutqiy vaziyatlarga tayyorlash, hayotiy kuzatishlari asosida tushuntirishga qaratilgan. O'quvchilar shifokor qabulida bo'lganida qanday birliklardan foydalanishi haqida ma'lumot berishi lozim.

## Leksikologiya

**1. Rasmlar asosida atamalarni izohlab yozing.**

Mazkur topshiriq o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga qaratilgan. O'quvchilar rasmda berilgan sohalarni namuna asosida izohlab yozishlari lozim. Bu jarayonda lug'atdan foydalanishlari mumkin. Asosiy e'tibor ushbu birliklar haqida tushuncha hosil qilishlariga qaratiladi.

O'quvchilarga shifokorlarni xalqaro tan olingan mutaxassisliklari bilan nomlash: quloq shifokori emas, lor deyilishining afzalliklari haqida tavsiyalar berilishi maqsadga muvofiq.

*Javob:*

- *okulist – ko'z kasalliklarini davolovchi shifokor;*
- *nevropatolog – nerv sistemasi kasalliklarini davolovchi shifokor;*
- *stomatolog – tish va og'iz bo'shlig'i kasalliklarini davolovchi shifokor;*
- *kardiolog – yurak kasalliklarini davolovchi shifokor;*
- *xirurg – kasallikni operatsiya yo'li bilan davolovchi shifokor;*
- *dermatolog – teri kasalliklari mutaxassisi;*
- *lor – quloq, tomoq, burun kasalliklarini davolovchi shifokor;*
- *endokrinolog – gormonlar o'zgarishi bilan bog'liq kasalliklarni davolovchi shifokor.*

## Leksikologiya. Sintaksis

**Shifoxona mavzusiga aloqador so'z va so'z birikmalarini topib, yozing.**

Ushbu topshiriq o'quvchilar nutqida shifoxonaga oid til birliklarini faollashtirishdan iborat. O'quvchilar o'z shaxsiy kuzatishlari asosida ushbu birliklarga misol topib, yozishlari lozim. Bu jarayonda o'quvchilarning tibbiy ko'rikdan o'tish jarayonlarida duch kelgan birliklarini yozish hamda izohi notanish bo'lgan birliklarni muhokama qilib, ma'nosini bilib olishlari aytiladi.

## Yozma nutq

**Shifokor va bemor o'rtasidagi suhbatda qanday so'z va gaplardan foydalaniladi? Yozing.**

Ushbu topshiriq o'quvchilarning muayyan nutqiy vaziyatda o'zini qanday tutishi, qanday til birliklaridan foydalanishi kerakligi bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Suhbat jarayoni avval jonli tashkillashtirilishi mumkin. Shundan so'ng ushbu jarayon bilan bog'liq suhbat matni yoziladi. O'qituvchi suhbat matnini yozishda nimalarga e'tibor berish zarurligi, unda qo'llanadigan tinish belgilari haqida ba'zi qoidalarni eslatib o'tishi lozim.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

## Og‘zaki nutq

**Quyidagi diagrammada bemorlarning qanday kasalliklarga chalinayotgani haqida statistik ma’lumot berilgan. Diagrammaga qarab hududlar bo‘yicha kasalliklar ulushi haqida so‘zlab bering.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning diagramma ko‘rinishida berilgan matnlarni o‘qib tushunish, ularni tahlil qilish va og‘zaki so‘zlab berish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga diagrammaning har bir tarkibiy qismini alohida tahlil qilishlari, berilgan ko‘rsatma asosida ma’lumotlarni tushunib, xulosa chiqarishlari hamda uni og‘zaki so‘zlab berishlari aytiladi.

Bu jarayonda o‘quvchilarning nutqi tinglanib, ulardagi xato va kamchiliklar qayd etib boriladi. O‘quvchilar nutqi yakunlangach, ular yo‘l qo‘ygan xatolar aytilishi hamda diagramma to‘liq sharhlab berilishi lozim.

## Uyga vazifa

## Yozma nutq

**Shifokor ko‘rigiga borish jarayonida qanday muhim gigiyenik qoidalar va muomala odobiga amal qilish kerakligiga oid tavsiyalar tayyorlang.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, ma’lumot to‘plash hamda uni turli vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga bu masalada kattalardan maslahat olishi, kitob, jurnal, gazeta va ijtimoiy tarmoqlardan ma’lumot to‘plashi va uni namuna asosida yozib kelishi aytiladi.

## 2-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*O‘ylab ko‘ring-chi, tabib bilan shifokorning qanday farqi bor?*

### Asosiy qism


## O‘qib tushunish

**Matnni o‘qing va savollarga javob bering.**

Matn: “Amir”.

Manba: Abu Ali ibn Sino haqida afsona va rivoyatlar.

O‘quvchilarga matnni o‘qib chiqishlari aytiladi. So‘ngra matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.



Shifokor ko‘rigiga borishda qanday muhim gigiyenik qoidalar va muomala odobiga amal qilish kerakligiga oid tavsiyalar yozing.

Namuna *Bolalar, shifokor ko‘rigiga bormoqchi bo‘lsangiz, tanangiz toza holatda bo‘lishi kerak.*

O‘ylab ko‘ring-chi, tabib bilan shifokorning qanday farqi bor?

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

**AMIR**

Abu Ali ibn Sino kasal bo‘lib yotgan Buxoro amirini ko‘rgach, unga dori-darmon berib, uch kun o‘rnidan qimirlamasdan yotishni buyuribdi. Ertasiga amirning sog‘lig‘idan xabar olgani kelsa, o‘rnida yo‘q, bog‘da aylanib yurgan ekan.

Amirning bog‘ kezib yurganini ko‘rgan Ibn Sino undan ranjibdi, amirga hech narsa demabdi-yu, u bilan birga kezib, yo‘lni ataylab amir yotog‘iga buribdi.

Amir o‘rniga kirib yotgach, uning tomirini ushlab ko‘ribdi, ko‘ziga diqqat qilibdi, yana dori-darmon berib, uch kun yotib dam olishni tayinlabdi. Lekin bu gal u ilgari aytganidan qattiqroq ta’kidlaganini payqagan amir yosh tabibga qarab:

– O‘zing yoshsan-u, tiling burro-ya, amirlar bilan gaplashishni ham bilmaysan, – debdi kulib.

– Siz xalqqa amir bo‘lsangiz, tabib tan amiridir. Odatda kim buyruqni bajarmasa, amir unga jazo beradi. Rost, siz mamlakat, el-yurt amirisiz, lekin betobligingizda tabibga itoatkorsiz. Buyruqqa bo‘ysunmagan amaldorlar bilan yurtni idora qilib bo‘lmaganidek, tabib ham buyruqqa bo‘ysunmagan betoblar ustidan hukm yuritolmaydi, – debdi Ibn Sino.

– Tiling o‘tkir-u, lekin gaplaringda mantiq bor, juda dadil yigit ekansan. Bo‘ldi, amirni yengding, endi amir amirga itoat qiladi, – debdi kulib hukmdor.

U shunday debdi-yu Ibn Sinoning aytganlarini bajo keltirishga jazm qilibdi va bir necha kundan so‘ng sog‘ayib ketibdi.

*Har bir yurtda bo‘lgan kabi malik-u shoh,*
*Tabib erur tan amiri – darddan ogoh.*

*Abu Ali ibn Sino haqida afsona va rivoyatlardan*

27

## Muhokama

**1. Abu Ali ibn Sino nima uchun Buxoro amiriga qimirlamasdan yotishni buyuribdi?**

Bu savol matnni tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar amir bemor bo‘lgani uchun Abu Ali ibn Sino unga qimirlamay yotishni buyurganini tushunib, aytib bera olishi lozim.

**2. Ibn Sino amirning bog‘ kezib yurganini ko‘rib undan ranjidi, ammo hech narsa demadi. Bu holatni qanday izohlaysiz?**

Bu savol berilgan ma’lumotlar asosida vaziyatga munosabat bildira olishga qaratilgan. O‘quvchilar tabib va amirning vazifalaridan kelib chiqib javob berishlari lozim.

**3. Buxoro amiri nima uchun o‘z tabibidan norozi bo‘libdi?**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu o‘rinni topib, amir va tabibning bir-biriga munosabatlarini izohlab berishlari lozim.

**4. Xalq amiri va tan amiri o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor? O‘z fikrlaringizni izohlang.**

Bu savolning javobi amir va tabib o‘rtasidagi suhbatdan anglashiladi. O‘quvchilar ushbu o‘rinlarni topib, munosabat bildirishlari lozim.

**5. Matn oxirida berilgan misralar mazmunini tahlil qiling, qanday xulosa chiqarganingiz haqida gapiring.**

Ushbu savol berilgan parcha mazmunini tushunish, uni matn bilan integratsiya qilib, yaxlit ma’no chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilarning tahlili tinglangach, ushbu parcha izohlab berilishi lozim.

## Morfologiya

**Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi jadval asosida so‘z turkumlariga ajratib, daftaringizga ko‘chirib oling.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchilar matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni jadval asosida alohida ustunlarga ajratib yozishlari lozim. Topshiriqni bajarishdan avval savollar bilan so‘z turkumlarini takrorlab, mustahkamlab olish maqsadga muvofiq.

Bu jarayonda o‘quvchilarning so‘zlarga so‘roq bera olishi hamda ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajratib yozishiga alohida e’tibor qaratiladi.

***Javob:***

| *Ot* | *Sifat* | *Son* | *Olmosh* | *Fe’l* |
|---|---|---|---|---|
| *Buxoro* | *kasal* | *uch* | *bu* | *ranjibdi* |
| *tomir* | *yosh* | | *siz* | *debdi* |
| *amal-dorlar* | *burro* | | *u* | *jazm qilibdi* |
| | | | | *sog‘ayib ketibdi* |

## Leksikologiya

**Berilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini yozing.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish hamda ma’nodosh so‘zlar haqida tushuncha hosil qilishlariga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan so‘zlaring ma’nodoshlarini topib, yozishlari lozim. Bu jarayonda lug‘atdan foydalanishi mumkin. Asosiy e’tibor ma’nodosh birliklar haqida tushuncha hosil qilishga qaratiladi.

O‘quvchilarni yo‘naltirish uchun so‘zlarga misol aytib, boshlab berish maqsadga muvofiq.

Masalan,

- *kasal – betob, tobi yo‘q;*
- *ranjimoq – xafa bo‘lmoq, dili xira bo‘lmoq;*
- *itoat – bo‘ysunmoq;*
- *jazm qilmoq – qo‘l urmoq, bir qarorga kelmoq;*
- *amir – bek, podsho;*
- *dam olmoq – hordiq chiqarmoq.*

## Leksikologiya

**Qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib, maqollarni ko‘chiring. Ularning ma’nosini izohlang.**

Ushbu topshiriq ma’nodosh so‘zlar qatorini tushunish hamda matn mazmuniga mos keluvchi so‘zni topishga qaratilgan.

O‘quvchilarga maqollarni o‘qib, eng ma’qul keladigan so‘zni tanlab yozishlari aytiladi. Asosiy e’tibor o‘quvchilarning kontekstga mos so‘zni tanlashi hamda tanlagan so‘zlarini izohlab berishiga qaratiladi.

*Javob : 1. Boylik. 2. Davo. 3. Bol (b harfi bilan bog‘liqlik). 4. Dard (gard va dard so‘zlarining ohangdoshligi). 5. Y.*

## Uyga vazifa

## Yozma nutq

**Bolalar uchun tavsiya etiladigan biror vitamin preparatining yo‘riqnomasi bilan tanishing. U haqdagi ma’lumotlarni yozing.**

Ushbu topshiriq yo‘riqnoma matnlarini o‘qib tushunish, undagi muhim ma’lumotlarni ajrata olish hamda uni tushuntirib, matn shaklida yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga uylarida mavjud dori yo‘riqnomasi bilan tanishib, kerakli ma’lumotlarni aniqlab, fikrlarini matn ko‘rinishida yozib kelishlari aytiladi.

## 3-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Qanday kasallik nomlarini bilasiz? Ularga chalinmaslik uchun qanday yo‘l tutish lozim?*

### Asosiy qism


### O‘qib tushunish

**Matn bilan tanishing. Savollarga javob bering.**

Matn: “Zaxira qo‘shinining uyi”.

Muallif: Sa’dullo Quronov.

O‘quvchilarga matn bilan tanishib chiqishlari aytiladi. So‘ngra matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.


Berilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini yozing.

kasal | ranjimoq | sog‘aymoq | itoat

amir | dam olmoq | jazm qilmoq

Qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib, maqollarni ko‘chiring. Ularning ma’nosini izohlang.

..... (ganj, boylik, xazina) ning boshi – sog‘lik.

Kasal – bitta, ..... (shifo, davo, dori)si – mingta.

Kasalga .... (bol, asal) ham bemaza tuyular.

Chiniqqanga gard yuqmas, Tiniqqanga – .... (balo, ofat, dard).

Qorning ochmasdan ovqat ..... (iste’mol qil, ye, tanovul qil), qorning to‘ymasdan qo‘l artgin.

Bolalar uchun tavsiya etiladigan biror vitamin preparatining yo‘riqnomasi bilan tanishing. U haqdagi ma’lumotlarni yozing.

- *nomi;*
- *shakli (suyuq, kapsula yoki tabletka);*
- *qo‘llash sharti...*

Matn bilan tanishing. Savollarga javob bering.

ZAXIRA QO‘SHINNING UYI

29

### Muhokama

**1. Matnda “boshi berk ko‘cha”ga o‘xshatilgan inson a’zosi qaysi ekan?**

Bu savol “boshi berk ko‘cha” birligining ma’nosini tushunishga hamda matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu birlikni ma’nosini tushunib, unga o‘xshatilayotgan ichki a’zo *appendiks* ekanini aytib bera olishi lozim.

**2. Ayting-chi, ko‘richak va appendiks bitta a’zomi?**

Bu savol matndagi ma’lumotlarni integratsiya qilib, ma’no chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning ikkinchi xatboshisida berilgan ma’lumotlar mazmunidan *ko‘richak va appendiks ikkita a’zo ekanini* tushunib, aytib bera olishi lozim.

**3. Appendiks qanday a’zo, uning ko‘rinishi, qayerda joylashgani haqida ma’lumot bering.**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotlarni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning ikkinchi xatboshisida berilgan ma’lumotlar asosida ushbu savolga javob berishlari mumkin. Bunda ma’lumotni so‘zma-so‘z aytib berishlari talab etilmaydi. Asosiy e’tibor o‘z ichki a’zolari haqidagi ma’lumotni tushunishlariga qaratiladi.

**4. Appendiksning inson salomatligidagi o‘rni qanday?**

Bu savol matnda ifodalangan ma’lumotlarni integratsiya qilib, ma’no chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning uchinchi xatboshida berilgan ma’lumotlar mazmunidan ushbu savolning javobini topib, aytishlari lozim.

**5. Appendiksga zarar keltiradigan odatlar haqida gapiring. Sizda ham shunday odatlar bormi?**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotlarni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning to‘rtinchi xatboshisida berilgan ma’lumotlardan ushbu savolning javobini topadi.

**6. Appenditsit qanday kasallik, uning belgilari haqida nimalarni bilib oldingiz?**

Bu matnning xulosa qismida berilgan ma’lumotlarni tushunish hamda o‘quvchilarni ogohlikka chaqirishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu o‘rinni topib, munosabat bildirishlari lozim.

**7. Nima deb o‘ylaysiz, ushbu ma’lumotlar kimlar (bolalar, kattalar) uchun yozilgan? Nima uchun bunday fikrga keldingiz?**

Bu savol muallif nutqi, matn tili uslubini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan olgan xulosalari asosida bu ma’lumot-

lar orqali *bolalar ogohlikka chaqirilgani, kasallikka chalinib qolmasliklari uchun ko‘rsatma berilganini* tushunib, aytib berishlari lozim.

### Yozma nutq. Matn yaratish

**O‘zingiz yaxshi biladigan kasallik turi haqidagi ma’lumotlardan foydalanib, bolalar gazetasi uchun maqola tayyorlang. Quyidagi boshlanmalardan foydalanishingiz mumkin.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarga publitsistik maqola tayyorlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga maqola boshlanmasi, tugallanmasiga oid berilgan til birliklari tushuntiriladi. O‘quvchilar ushbu til birliklaridan foydalangan holda o‘zlariga ma’lum kasallik haqida maqola yozishlari lozim. Bunda maqola hajmi aniq belgilanmaydi. Asosiy e’tibor matn mazmuni hamda til birliklaridan o‘rinli foydalana olishlariga qaratiladi.

### Qoida. Alohida so‘zlar

O‘quvchilar amaliy topshiriq orqali undalmalar haqida tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng undalma haqidagi nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib berilishi lozim.

### Morfologiya

**Matndan quyidagi so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlarni topib, yozing.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan so‘roqlarga mos so‘zlarni matndan aniqlab, ularni ustun shaklida yozishlari lozim. So‘ngra o‘quvchilar bilan ushbu so‘roqlarga javob bo‘luvchi so‘zlar hamda ularning gapdagi vazifasi haqida suhbat tashkil qilinib, ma’nosi izohlab berilishi lozim.

### Og‘zaki nutq

**Yozgan ma’lumotlaringiz asosida partadoshingiz bilan shifokor va bemor suhbatini uyushtiring. Unda qanday undalmalardan foydalanish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarni amaliy jarayonga olib kirish, jarayonga oid til birliklarini nutqida faollashtirish, muomala madaniyati, shifokor va bemorning burch va huquqlari haqida tasavvur uyg‘otishdan iborat. O‘quvchilar kasallik haqida tayyorlagan maqolalari asosida yoki biror vaziyat yuzasidan partadoshlari bilan nutq tayyorlab, dialog ko‘rinishida rollarga bo‘linib aytib berishlari lozim.


### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Kasal bo‘lmaslik uchun do‘stingizga tavsiyalar yozing. Bunda undalmalardan foydalaning, tinish belgilarining qo‘llanishiga oid qoidalarga rioya qiling.**

O‘quvchilar dars davomida egallagan bilimlari asosida o‘z do‘stlariga tavsiya yozib kelishlari lozim. Bunda o‘quvchilarga fikrlarini ifodalash uchun undalmalardan, tinish belgilaridan o‘rinli foydalanishlari aytiladi.

## 4-soat



Undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildiradi.
***Bolalar,*** *salomatligingiz o'z qo'lingizda ekanini unutmang!*
***She'rim,*** *yana o'zing yaxshisan.*
Undalmalardan biror kishining diqqatini qaratishda foydalanamiz, shuning uchun ular undash, chaqirish ohangi bilan aytiladi.
Undalmalar bir so'z yoki birikma holatida qo'llanishi mumkin.
***Aziz yurtdoshlar,*** *karantin qoidalariga rioya qiling!*
Undalma gap boshida kelsa, undalmadan keyin; o'rtasida kelsa, ikki yonidan; oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi.
*O'sha kuni,* ***qizim,*** *sendan hech kim ranjimagan edi.*

Matndan quyidagi so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlarni topib, yozing.

Kim? | Kimlar? | Nima? | Nimalar? | Qanday? | Necha? | Nima qildi?

Yozgan ma'lumotlaringiz asosida partadoshingiz bilan shifokor va bemor suhbatini uyushtiring. Unda qanday undalmalardan foydalanish mumkinligi haqida o'ylab ko'ring.

Kasal bo'lmaslik uchun do'stingizga tavsiyalar yozing. Bunda undalmalardan foydalaning, tinish belgilarining qo'llanishiga oid qoidalarga rioya qiling.

Berilgan fikrlarni o'qing va munosabat bildiring.

Bolalar, biz o'zimizni ham, atrofdagi narsalarni ham doim ozoda saqlashimiz lozim. Har birimiz quyidagi besh narsani toza saqlashni o'rganishimiz kerak:

1) *tana a'zolari;*
2) *kiyimlar;*
3) *shaxsiy buyumlar;*
4) *uy va xonalar;*
5) *atrof-muhit.*

HAR BIR SOHADA TOZALIK MUHIMDIR

Har bir sohada tozalikka ahamiyat berish va poklik sari intilish taraqqiyotning asosidir. Yuqorida **inson**ning tanasi, uy-joylari va liboslari toza bo'lishi **lozim**ligi aytib o'tildi. Ammo biz yana bir a'zoning pokligiga alohida e'tibor berishimiz lozim. Bu qalbdir. Bolalar pok va ma'sum qalb bilan tug'iladi. Bu a'zoni **odob** va xush xulqlar har xil chirk va ifloslikdan asraydi. Ammo tengdoshlaringiz ichida qalbida yomonlik qilishni asrab yuradigan bolalar ham uchrashi mumkin. Shunday ekan, aziz bolajonlar, har qanday yomon ishlardan saqlansak, qalbimizni toza saqlagan, uni turli ma'naviy kirlardan pok tutgan bo'lamiz. Qalbingizni asrang, bolalar!

*"Bola odobi bilan aziz" kitobidan*

31

### Dars jarayoni

### Kirish

*Kasallikka chalinmaslik uchun nimalarga e'tibor berish kerak?*

## Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Berilgan fikrlarni o‘qing va munosabat bildiring.**

O‘quvchilar berilgan fikrlarni o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng ushbu fikrlar yuzasidan suhbat tashkil qilinadi. Bunda o‘quvchilar o‘qigan ma’lumotlaridan olgan xulosalarini aytishi, berilgan fikrga munosabat bildira olishi lozim.

### O‘qib tushunish

Matn: “Har bir sohada tozalik muhimdir”.
Manba: “Bola odobi bilan aziz” kitobi.

O‘quvchilar matnni o‘qib chiqqanlaridan so‘ng matn ostdagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. Berilgan matnlarning shifoxona, shifokorlik mavzusi bilan qanday aloqasi bor?**

Bu savol matn mazmunini tushunish, tilga olingan birliklar bilan matn mazmunini integratsiya qilib ma’no-mazmun chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan anglashilgan tozalik va poklik shifokorlar uchun muhim ekanini, ushbu kasbda bunga jiddiy e’tibor qaratish kerakligini tushunib, hayotiy misollar bilan izohlab berishi lozim.

**2. Muallifning nutqi kimga qaratilgan? Bunday fikrga kelishingizga sabab nimada?**

Bunda muallif qo‘llagan til birliklariga e’tibor qaratiladi. Nima uchun aynan shunday birliklardan foydalangani, maqsadi qanday ekani haqida so‘raladi. Yana qanday vositalar matnning kimga qaratilganini ifodalayotgani haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilarga *“Matnni kattalar uchun yozilgan deb hisoblasak, unga qanday o‘zgartirishlar kiritgan bo‘lar edingiz?”* mazmunidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin.

**3. Ayting-chi, qalbni toza saqlash uchun siz nima qilishingiz mumkin?**

Bu savol *toza* so‘zining ko‘chma ma’nosini tushunish hamda matn mazmuni asosida ushbu birlik mohiyatini ochib berishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan olgan xulosalari asosida nima qilishlari mumkinligini aytib o‘tishlari lozim.

### Leksikologiya

**Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini yozing.**

Ushbu topshiriq ma’nodosh so‘zlarni tushunish, ularning kontekstdagi ma’nosini aniqlashga qaratilgan. O‘quvchilar matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshini aniqlab, yozishlari lozim. Bunda lug‘atdan foydalanish mumkin. Asosiy e’tibor so‘zning ma’nodoshlari haqida tushuncha hosil qilishga qaratiladi.

### Alohida so‘zlar. Punktuatsiya

**Undalma qo‘llangan gaplarni matndan aniqlab, yozing. Tinish belgisiga e’tibor bering.**

Mazkur topshiriq undalmalarning gapdagi vazifasini aniqlashga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan undalma qatnashgan gapni topib, ko‘chirishlari hamda ushbu gapni tahlil qilib, izohlashlari lozim.

### Yozma nutq. Matn yaratish

**“Shifokor ham davolay olmaydigan “kasalliklar” mavzusida matn yozing. Ularni kim yoki nima davolashi mumkinligi haqida tavsiya yozishni ham unutmang.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning berilgan sarlavha asosida matn yoza olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Dastlab o‘quvchilarga bunday kasallik turlariga nimalar kirishi haqida o‘ylab ko‘rish aytiladi. So‘ngra berilgan boshlanma asosida matn yozish aytiladi.

## Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish


**Sinfdoshlaringizdan birining “Shifokor ham davolay olmaydigan “kasalliklar” mavzusida yozgan matniga yozma munosabat bildiring.**

Bu topshiriq o‘quvchilarning tahrir qilish, munosabat bildirish, matnni baholash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarga matnlarga munosabat bildirishda topshiriq shartida berilgan mezonlarga rioya qilish, o‘z shaxsiy fikri, takliflarini ham berish kerakligi tushuntiriladi.

# GLOBAL ISISH

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** ekologiyaga oid atamalar bilan tanishish, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlash; grafik ko‘rinishda berilgan axborotlarni o‘qib tushunish, ularni o‘zaro bog‘lash, berilgan materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozishni mashq qilish; sifat darajalariga oid bilimlar bilan tanishish, ko‘rsatish olmoshlari, ularning imlosi, atoqli otlar imlosiga oid bilimlarni mustahkamlash.

## 1-soat


GLOBAL ISISH

Bu mavzuda o'rganamiz

• ekologik muammolar va ularga yechim izlash • grafik ko'rinishdagi axborotlarni o'qib tushunish • dalil va tafsilotlar bilan axborot matni yozish • ko'rsatish olmoshlari • sifat darajalari • atoqli otlar imlosi.

Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Ularda qanday jarayonlar aks etgan?

Muzliklarning erishi
Chang, bo'ron va toshqinlar
Iqtisodiy inqirozlar kelib chiqishi
Hayvonlarning nobud bo'lishi
O'simliklarning yo'qolib ketishi
Zaharli gazlarning ko'payishi
Suv sathining ko'tarilishi

1. Global isish deganda ko'z oldingizga nima keldi? "Global" so'zining ma'nosi nima?
2. Rasmlarda qanday jarayonlar tasvirlangan?
3. Insonning global isishga qanday ta'siri bor?
4. Inson va tabiat munosabatlari haqidagi mulohazalaringizni ayting.

33

### Dars jarayoni

### Kirish

*Qanday ekologik muammolarni bilasiz? Ularning odam salomatligiga qanday ta’siri bor?*

### Asosiy qism

### Og‘zaki nutq

**Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Ularda qanday jarayonlar aks etgan?**

Bunda global isishni keltirib chiqaradigan hamda global isish olib keladigan xavf aks ettirilgan rasmli ma’lumot berilgan. O‘quvchilarga ushbu rasmli ma’lumot bilan tanishib chiqish aytiladi. So‘ngra rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. Global isish deganda ko‘z oldingizga nima keldi? “Global” so‘zining ma’nosi nima?**

Bu savol o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilardan “global” birligining ma’nosi hamda “global isish” deganda xayollariga kelgan birinchi holat yoki voqelikni tushuntirib berishlari so‘raladi. Ularning fikri tinglangach, bu haqida ma’lumot beriladi.

*Global – butun Yer sharini qamrab olish; global isish – haroratning butun yer yuzi bo‘ylab ko‘tarilishi.*

**2. Rasmlarda qanday jarayonlar tasvirlangan?**

Bu savol rasmli ma’lumotni tushunishga qaratilgan. Rasmda qanday jarayonlar aks ettirilganini yozuvlar orqali ham anglash mumkin. Asosiy e’tibor rasmni yozuvlar bilan bog‘lab, *global isishni keltirib chiqaradigan omillar va global isish tufayli yuz beradigan xavfli hodisalarni tushunib, munosabat bildira olishga* qaratiladi.

**3. Insonning global isishga qanday ta’siri bor?**

Ushbu savolga javob berishda 2-savolga berilgan javoblar o‘zaro bog‘lanishi lozim. Bunda o‘quvchilar oqibatlarning nimalar sababli kelib chiqishi haqida o‘ylab ko‘rishlari, insoniyatning ekologiyaga ta’sirini izohlashlari lozim.

**4. Inson va tabiat haqidagi mulohazalaringizni ayting.**

Olib borilgan suhbat asosida inson va uning tabiatga ta’siri, tabiat ne’matlarini asrash kabi xulosalar tinglanadi. Bunda o‘quvchilar rasmdan chiqargan xulosalari

hamda o‘z shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishlari lozim.

### Leksikologiya

**Global isish, iqlim bilan bog‘liq so‘zlarni yozing.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, mavzuga oid atamalar bilan ishlash, bir mavzu ostida so‘zlarni jamlash kabi ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar suhbat jarayonida o‘zlariga notanish bo‘lgan hamda rasm ostidagi birliklarni jamlab yozishi lozim. So‘ngra o‘quvchilar yozgan, ammo ma’nosi o‘zlari uchun notanish bo‘lgan so‘zlar o‘qituvchi tomonidan izohlab berilishi lozim.

### Morfologiya

**Berilgan birikma tarkibidagi sifatlarni aniqlang. Ularga *-roq* qo‘shimchasi hamda *juda, eng* kabi so‘zlardan mosini qo‘shib, yozing.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning birliklar tarkibidan sifatlarni aniqlash hamda ularni darajalab ifodalay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilardan dastlab birliklar ma’nosini izohlash so‘raladi. So‘ngra ushbu birliklarga so‘roq berib, ularni *-roq yoki juda, eng* kabi so‘zlar bilan darajalab yozish aytiladi.

### O‘qib tushunish

**Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.**

O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. Matnda iqlim o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi qaysi omil haqida so‘z boradi? Bu qanday sodir bo‘ladi?**

Bu savol matn mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan ma’lumotlar asosida iqlim o‘zgarishiga ta’sir qiladigan *issiqxona effekti* hamda uning sodir bo‘lishini o‘z tushunchalari asosida aytib berishlari lozim.

**2. Nima uchun matnda “*Yer*” so‘zi bosh harfda yozilgan?**

Bu savol atoqli otlar imlosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matnda *Yer* so‘zining *atoqli ot bo‘lib kelganini* tushunib, aytib berishi lozim.

**3. Matnda qo‘llangan sifatlarni ayting.**

Bu savol matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchilar matnda qo‘llangan sifatlarni aniqlab, aytib berishlari lozim. Bu jarayonda o‘quvchilarning so‘zlarga so‘roq bera olishiga alohida e’tibor qaratiladi.

### Yozma nutq

**Matn asosida quyidagi ma’lumotlarni aniqlang hamda yozing.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matn qismlarini tushunish, tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan jadval asosida matnda mavjud ma’lumotlarni tahlil qilib yozishlari lozim. Yozib bo‘lganlaridan so‘ng o‘qituvchi tomonidan matnning har bir qismi jadval asosida izohlab beriladi.

### Morfologiya

**Matndan ko‘rsatish olmoshlari ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Ushbu olmoshlar o‘zidan oldingi qaysi birliklarga ishora qilganini aniqlang va namunadagidek izoh yozing.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning ko‘rsatish olmoshlari hamda ularning vazifalarini tushunish bilan bog‘liq lingvistik ko‘nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan. O‘quvchilar matnda qo‘llangan ko‘rsatish olmoshlarini hamda ular ishora qilayotgan qismni aniqlab, berilgan namuna asosida daftarlariga ko‘chirib yozishlari lozim.

### Muhokama

**Matnda bunday so‘zlarni qo‘llashdan maqsad nima?**

O‘quvchilarning fikri tinglangandan so‘ng matnda so‘zlarni takrorlashning oldini olish maqsadida olmoshlardan foydalanish haqida ma’lumot berilishi lozim.

## Uyga vazifa

### Tinglab tushunish. Yozma nutq

https://youtu.be/mfbEAVe4OIM **havolasi orqali global isish haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing. Zarur o'rinlarni qayd etib oling. Yozib olgan qaydlaringizdan foydalanib qisqa xabar matni tayyorlang.**

Mazkur topshiriq o'quvchilarning video-matnni tushunish, undagi axborotlarni saralab, matn yozish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bu jarayonda o'qituvchi xabar matnining o'ziga xos jihatlari haqida qisqa suhbat olib borishi, videoni ko'rish jarayonida zarur axborotlarni qanday shaklda qayd etib olish mumkinligi haqida, ularni yozma axborot shaklida ifodalashda nimalarga e'tibor qaratish zarurligi haqida tavsiyalar berishi lozim. Agar havoladan foydalanishning imkoniyati bo'lmasa, mavzu doirasida istalgan boshqa ma'lumotlar bilan ishlash mumkinligi aytiladi.

## 2-soat



IQLIM O'ZGARISHINING OQIBATLARI

Global iqlim o'zgarishining oqibatlari ko'psonli ixtiloflar va ommaviy ko'chishlarga ham sabab bo'ladi. Yaqinda ilm-fan bu nazariyaning haqiqatga mos kelishini tasdiqladi.

Amaliy-tizimli tahlil xalqaro instituti olimlari o'tkazgan tadqiqot ilk bor iqlim o'zgarishi va ortib borayotgan ixtiloflar, shuningdek, tabiiy oqibatlar tufayli yuzaga kelayotgan ommaviy ko'chishlar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rsatib berdi.

So'nggi vaqtlarga qadar olimlar iqlim o'zgarishi va migratsiya o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratmay kelayotgan edi. Gap shundaki, bir omil boshqasining yuzaga kelishiga sabab bo'layotganini isbotlash uchun o'ta qat'iy va jiddiy ilmiy dalillar talab etiladi.

Mualliflar buning uchun bir qancha tadqiqotlarni umumlashtirib, yagona manzarani hosil qilishga intilgan. Boshlanishiga ular 2006–2015-yillar davomida 157 davlatda qochoqlar boshpana so'rab bergan arizalar sonini o'rganib chiqdi. So'ng qochoqlarning asl vatanida ro'y bergan iqlim o'zgarishining dinamik jadvali tuzildi. Iqlim o'zgarishining asosiy ko'rsatkichi sifatida yog'ingarchilik miqdorining tushib ketishi va parlanish hajmi olindi.

Qurolli ziddiyatlarning soni va ko'lami esa Shvetsiyada joylashgan Uppsala universiteti 1946-yildan beri yuritib keladigan qurolli inqirozlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasiga tayanib o'rganildi. Tadqiqotchilar ishlab chiqqan ilmiy modelda qochqinlarning asl vatani va ular kelgan mamlakat orasidagi masofa, har ikkala davlatdagi aholi soni, ulardagi siyosiy vaziyat, etnik va diniy guruhlar hamda boshqa omillar hisobga olindi.

Pirovardida tadqiqot natijalari 2006–2015-yillar davomida iqlim o'zgarishi migratsiya darajasi va yo'nalishiga katta ta'sir etganini ko'rsatdi. Kuchli qurg'oqchiliklar esa mavjud qurolli ziddiyatlarni yanada kuchaytirgani, qurbonlar sonining keskin ortishiga sabab bo'lgani aniqlandi.

## Dars jarayoni

### Kirish

*Iqlim o'zgarishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?*

### Asosiy qism

**Matnni diqqat bilan o'qing, savollarga javob bering.**

Matn: "Iqlim o'zgarishining oqibatlari".

Muallif: Abduvali Soyibnazarov.

O'quvchilarga matnni o'qib chiqish aytiladi. So'ngra matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. Ushbu matn nima haqida?**

Bu savol matn mazmunini tushunishga qaratilgan. O'quvchilar matndan olgan xulosalari asosida ushbu savolga javob berishlari lozim. Bunda o'quvchilarning javoblari turlicha bo'lishi mumkin. Asosiy e'tibor fikrlarni matn asosida dalillashga qaratiladi.

**2. Global iqlim o'zgarishi va migratsiya (ko'chish) jarayoni o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?**

Bu savol matnda berilgan ma'lumotlarni o'zaro bog'lay olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar matnda berilgan ma'lumotlarni o'zaro bog'lab, xulosa qilib, fikr bildirishlari lozim.

**3. Migratsiya jarayoniga global iqlim o'zgarishi sabab bo'layotganini aniqlash uchun qanday amaliy harakatlar olib borildi?**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. O'quvchilar matnning 4-, 5-, 6-xatboshilaridagi ma'lumotlarni tushunib, aytib bera olishi lozim. Bunda o'quvchilardan matndagi ma'lumotlarni so'zma-so'z aytib berish talab qilinmaydi. Asosiy e'tibor ma'lumotlarni tushunib, og'zaki ifodalashga qaratiladi.

**4. Global isish darajasini 2 gradusdan pastda ushlab turish g'oyasi kim tomonidan ilgari surildi? Ushbu g'oyaning ilgari surilish jarayoni haqida gapiring.**

Ushbu g‘oyaning mohiyati, erishiladigan natija, uni amalga oshirish jarayoni haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilar nutqida imkon qadar atamalardan foydalanayotganiga e’tibor qaratish lozim.

**5. Matnda global isishga qarshi kurashishning qanday yo‘llari haqida gap ketmoqda? Sizning ushbu fikrlarga munosabatingiz qanday?**

Bu savol o‘quvchilarning global isish jarayonining oldini olish haqidagi fikrlarini umumlashtirish, o‘zlarini ham o‘ylantirishga qaratilgan. Ulardan ushbu ekologik muammolarni bartaraf etish uchun taklif va mulohazalari so‘raladi. Bu orqali o‘quvchini ushbu jarayonga olib kirish, muammoning yechimini izlash ko‘nikmasini shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

**6. Matn xulosasiga munosabatingizni bildiring.**

Bunda asosiy e’tibor matn xulosasini tushunib, unga munosabat bildira olishga qaratiladi. O‘quvchilarning javoblari tinglangach, matn haqida qisqa ma’lumot berish maqsadga muvofiq.

## Yozma nutq

**Global iqlim o‘zgarishi va migratsiya jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun olib borilgan tadqiqot jarayonlarini ma’lum tartib asosida namunadagidek yozing.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnda berilgan axborotlarni tushunish, kerakli o‘rinlarni saralab olish hamda ketma-ketlik asosida tartiblab yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga namuna asosidagi boshlanma tushuntirib beriladi. So‘ngra matn asosida fikrlarni davom ettirib yozish aytiladi.

## Leksikologiya

**Quyidagi so‘zlarning matn mazmuniga mos keluvchi izohlarini aniqlab, ularni daftaringizga ko‘chiring.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, kontekstga mos so‘zlarni tanlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan jadvaldagi so‘z va uning izohlarini o‘qib, matnda ushbu so‘zlarning qaysi bir ma’nosi qo‘llanganini aniqlab, yozishlari lozim.

*Javob: ixtilof – qarama-qarshilik, ziddiyat, kelishmovchilik; migratsiya – aholining bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga ko‘chishi; dinamika – muayyan harakat yoki voqea-hodisaning holati, o‘sishi, o‘zgarishi, rivojlanishi; issiqxona gazlari – usti yopiq joyda hosil bo‘ladigan gazlarning ta’siri; atmosfera – Yerni o‘rab turgan gazsimon qobiq.*

## Morfologiya

**Matnda qo‘llangan sifatlarni aniqlang va namunadagidek yozing.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan sifat turkumiga oid so‘zlarni aniqlab, ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda ko‘chirib yozishlari lozim. Bunda o‘quvchilar so‘zlarga so‘roq bera olishi hamda ularni mazmun-mohiyatiga ko‘ra ajrata olishiga e’tibor qaratiladi.

## Uyga vazifa

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Matndan ko‘rsatish olmoshlari ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Ushbu olmoshlar o‘zidan oldingi qaysi birliklarga ishora qilganini aniqlang va namunadagidek izoh yozing.**


Ushbu topshiriq ko‘rsatish olmoshlari, ularning ifoda shakli, vazifasiga oid bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan. O‘quvchilarga matnda ko‘rsatish olmoshlari bo‘la oladigan so‘zlarni aniqlash, matndagi qaysi birlik (so‘z, gap, gaplar)ka ishora qilayotganini izohlab yozish aytiladi.

## 3-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Global isish va iqlim o‘zgarishi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb hisoblaysiz?*



Quyidagi so‘zlarning matn mazmuniga mos keluvchi izohlarini aniqlab, ularni daftaringizga ko‘chiring.

| | |
|---|---|
| Ixtilof | aralashish, qo‘shilish, tartibsizlik |
| | qarama-qarshilik, ziddiyat, kelishmovchilik |
| Migratsiya | aholining bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga ko‘chishi |
| | xorijiy fuqarolarning ma’lum bir davlatga yashash uchun ko‘chib kelishi |
| Dinamika | muayyan harakat yoki voqea-hodisaning holati, o‘sishi, o‘zgarishi, rivojlanishi |
| | jismlar mexanik harakatining ularga ta’sir qiladigan kuchlar bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi bo‘lim |
| Issiqxona gazlari | usti yopiq joyda hosil bo‘ladigan gazlarning ta’siri |
| | suv bug‘lari, karbonat angidrid, azot va metan gazlarining atmosferaga ta’siridan kelib chiquvchi muammo |
| Atmosfera | Yerni o‘rab turgan gazsimon qobiq |
| | bosim o‘lchov birligi |

Matnda qo‘llangan sifatlarni aniqlang va namunadagidek yozing.

Namuna *tabiiy oqibatlar, juda mushkul masala.*

Matndan ko‘rsatish olmoshlari ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Ushbu olmoshlar o‘zidan oldingi qaysi birliklarga ishora qilganini aniqlang va namunadagidek izoh yozing.

Namuna *Yaqinda ilm-fan bu nazariyaning haqiqatga mos kelishini tasdiqladi. “Bu” ko‘rsatish olmoshi “Global iqlim o‘zgarishining oqibatlari ko‘p sonli ixtiloflar va ommaviy ko‘chishlarga ham sabab bo‘ladi” jumlasiga ishora qilyapti.*

Berilgan ma’lumotlar yordamida “Iqlim o‘zgarishi va global isish” mavzusida og‘zaki axborot bering.

JARAYON

| Iqlim o‘zgarishi | Global isish |
|---|---|
| Iqlim o‘zgarishi bu – Yer shari yoki uning ma’lum bir qismida uzoq vaqt davomida iqlim bilan bog‘liq shart-sharoitlarning o‘zgarish jarayoni | Global isish bu – ma’lum bir davrda Yer sharida o‘rtacha haroratning ko‘tarilishi bilan bog‘liq jarayon |

37

### Asosiy qism

#### Og‘zaki nutq

**Berilgan ma’lumotlar yordamida “Iqlim o‘zgarishi va global isish” mavzusida og‘zaki axborot bering.**

Mazkur topshiriq grafik ko‘rinishda berilgan axborotlarni o‘qib tushunish, ularni o‘zaro bog‘lash, berilgan materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga chizmada ifodalangan ma’lumotlarni o‘qib chiqib, munosabat bildirish aytiladi. Bunda ko‘rsatkichlarga, matn sarlavhalari hamda umumiy chizma tuzilishiga e’tibor qaratish eslatiladi. O‘quvchilar tanishib chiqqanlaridan so‘ng ushbu chizma ma’lumotlarini og‘zaki gapirib berishlari lozim. Bu jarayonda ulardan ma’lumotlarni so‘zma-so‘z aytib berish talab etilmaydi. Asosiy e’tibor ma’lumotlarni tushunib, munosabat bildira olishga qaratiladi.

#### Yozma nutq. Matn yaratish

**“Iqlim o‘zgarishi va global isish” mavzusida axborot matni yozing.**

Mazkur topshiriq sarlavha asosida matn yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar yuqorida berilgan chizma ma’lumotlaridan foydalanib axborot matni yozishlari lozim. Bunda chizmada ifodalangan ma’lumotlarni tartiblab, ixchamlashtirib, o‘z qarashlari bilan kengaytirib, axborot matni ko‘rinishida ifodalab berishlari lozim.

#### Morfologiya

**Bo‘sh o‘rinlarni kerakli so‘zlar bilan to‘ldirib, gaplarni o‘qing. Berilgan gaplarda sifatning qanday darajalari qo‘llanayotganini aniqlang va ularni izohlang.**

Ushbu topshiriq kontekstga mos so‘zlarni qo‘llab, matnni qayta yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar matnni o‘qib, matnda tushirib qoldirilgan so‘zlar o‘rniga munosibini qo‘yib, matnni yaxlit holda yozishlari lozim.

#### Qoida. Morfologiya

O‘quvchilarga sifat darajalari haqidagi nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib beriladi.

#### Morfologiya

**Berilgan sifatlarni 4 xil daraja shaklida yozing.**

Ushbu topshiriq sifat va uning darajalariga oid bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan sifatlarni to‘rt xil daraja shaklida yozishlari lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi darajani ifodalashga yordam beradigan so‘zlarning qaysilaridan foydalanish afzal ekanini o‘ylab ko‘rish kerakligini aytishi, ularning qo‘llanish o‘rinlari haqida qisqa ko‘rsatmalar berishi maqsadga muvofiq.

**Uyga vazifa**

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Tabiatdagi qaysi hodisalarni kuzatishni yaxshi ko‘rasiz? Masalan, yomg‘ir yog‘ishi, tong otishi, kamalakning paydo bo‘lishi kabi. Ushbu hodisalarning birini tasvirlab, matn tuzing. Matningizda sifatlardan foydalaning.**

Mazkur topshiriq turli vaziyatlarda, mavzularda sifat va uning darajalaridan qanday foydalanish bilan bog‘liq lingvistik ko‘nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan.

O‘quvchilarga tabiat hodisalari haqida o‘ylab ko‘rish, ularning o‘ziga xosligi haqida fikr yuritish, ulardan birini tanlab, qisqa matn yozib kelish aytiladi.

## 4-soat

### Dars jarayoni

**Kirish**

*O‘zbekiston iqlimi qanday? Iqlimda o‘zgarish sezganmisiz?*

**Asosiy qism**

**Og‘zaki nutq**

**Berilgan ma’lumotlar bilan tanishing. Partadoshingiz bilan ushbu salbiy oqibatlarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqing. Taqdimotga tayyorlaning. Tavsiyalaringizni og‘zaki shaklda navbat bilan gapirib bering.**

Mazkur topshiriq berilgan materiallarni umumlashtirib, xulosalar chiqarish, ularga munosabat bildirish, mavzu yuzasidan og‘zaki taqdimot qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar berilgan ma’lumotlarni o‘qib, ma’lumotlar yuzasidan partadoshlari bilan muhokama tashkil qilishlari, ushbu holatlarning oldini olish uchun birgalikda tavsiya ishlab chiqishlari hamda uni birgalikda izohlab berishlari lozim.

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Tavsiyalaringizni matn ko‘rinishida qoralama nusxada yozing.**

Ushbu topshiriq yuqoridagi topshiriqning mantiqiy davomi bo‘lib, og‘zaki nutqda ifoda etilgan tavsiyalarni jamlab matn ko‘rinishida yozishni talab etadi. Bunda o‘quvchilar fikrlarini boyitib, kerakli til birliklaridan foydalanib, aytmoqchi bo‘lgan tavsiyalarini kengaytirib yozishlari lozim.

**Yozma nutq. Matn yaratish. Tahlil**

**Yozgan matningizni tahrir qiling hamda oqqa ko‘chiring. Tahrir jarayonida ko‘rsatish olmoshlari hamda sifat darajalaridan foydalanganingizga e’tibor bering.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni tahrir qilish, xato va kamchiliklarini aniqlab, qayta yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga o‘zlari yozgan matnni qayta o‘qib, undagi takrorlarni aniqlab, ko‘rsatish olmoshlari bilan almashtirish, qo‘llagan sifatlarini darajalab, matn mazmuniga moslash, xato va kamchiliklarini tuzatib, matnni qayta yozish aytiladi.

**Uyga vazifa**

**Og‘zaki nutq**

**“Men tabiat bilan birgaman” mavzusida radionutq tayyorlang.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, radionutq tayyorlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Radionutq tayyorlashga oid berilgan ko‘rsatmalar o‘quvchilarga ketma-ketlikda tushuntirilishi lozim. O‘quvchilarga ushbu ko‘rsatma asosida radionutq tayyorlab kelish aytiladi.

# QAYTA ISHLANADIGAN CHIQINDILAR

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** munozarali mavzu muhokamasida o‘zining shaxsiy qarashlarini himoya qila olish, o‘z fikrlarini tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslashga o‘rgatish; tabiatni asrash, qayta ishlanadigan chiqindilardan foydalanish bo‘yicha o‘z reja va takliflarini taqdimot ko‘rinishida tayyorlash va uni himoya qilish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash; fe’llarning munosabat shakli, gap oxiridagi tinish belgilari, ya’ni ko‘pnuqta va undan foydalanishga oid lingvistik bilimlar bilan tanishtirish.

## 1-soat


QAYTA ISHLANADIGAN CHIQINDILAR

Bu mavzuda o'rganamiz

• tabiatni asrash, chiqindilarni qayta ishlashning ahamiyati • fikrni tartiblash va umumlashtirish • taqdimot tayyorlash • fe'llarning munosabat shakli • gap oxiridagi tinish belgilari (ko'pnuqta).

Rasmda nimalar tasvirlanganiga diqqat qiling. Savollarga javob bering.

PLASTIK METALL SHISHA QOG'OZ ORGANIK

1. Rasmda nimalar tasvirlangan? Nimalarni qog'oz chiqindilari qutisiga tashlash mumkin? Ularni qayta ishlash orqali nimalar olinadi deb o'ylaysiz?
2. Shishali chiqindilarni ham qayta ishlash mumkinmi? Javobingizni izohlang.
3. Biologik chiqitlarga nimalar kirishi haqida gapiring. Ular qayta ishlanishi mumkinmi?
4. Plastik chiqindilarni qayta ishlash orqali tabiatga qanday foyda keltirgan bo'lamiz?
5. Odatda maishiy texnikalarimiz yaroqsiz holga kelsa ham, uyda saqlaymiz. Bu to'g'rimi? Nima uchun?
6. Metall buyumlarni qayta ishlash haqida eshitganmisiz? Ushbu jarayon haqida nimalarni bilasiz?

40

### Dars jarayoni

#### Kirish

*Chiqindilarning inson salomatligiga ta’siri qanday?*

#### Asosiy qism

#### Og‘zaki nutq

**Rasmda nimalar tasvirlanganiga diqqat qiling. Savollarga javob bering.**

O‘quvchilar rasmlar bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

#### Muhokama

**1. Rasmda nimalar tasvirlangan? Nimalarni qog‘oz chiqindilari qutisiga tashlash mumkin? Ularni qayta ishlash orqali nimalar olinadi deb o‘ylaysiz?**

Bu savol vizual aloqani tushunish, berilgan ma’lumotlarga munosabat bildirish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar har bir rasmda nima tasvirlanganini izohlab aytishlari lozim. Bunda rasmlardagi narsalarning nomi bilan birga ularni qayta ishlab, nimalar olish mumkinligini o‘ylab ko‘rishga alohida e’tibor qaratiladi.

**2. Shishali chiqindilarni ham qayta ishlash mumkinmi? Javobingizni izohlang.**

O‘quvchilar savolga “Ha” yoki “Yo‘q” deb javob berishlari mumkin. Asosiy e’tibor fikrlarini asoslab aytishlariga qaratiladi.

**3. Biologik chiqitlarga nimalar kirishi haqida gapiring. Ular qayta ishlanishi mumkinmi?**

Bu chiqit turlariga jonli mavjudotlarning halokatga yuz tutishi bilan yuzaga keladigan chiqitlar – jonsiz tana va tana a’zolari kabilar kirishi, ularni qayta ishlab bo‘lmasligi haqida fikrlar tinglanadi.

**4. Plastik chiqindilarni qayta ishlash orqali tabiatga qanday foyda keltirgan bo‘lamiz?**

Bunda plastik chiqindilarga nimalar kirishi, ulardan kundalik hayotda qay darajada foydalanishimiz haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilar plastik chiqindilarga bo‘lgan munosabat, ularning tabiatga zarari, ularni qayta ishlashning foydali jihatlari haqida fikr bildirishlari lozim.

**5. Odatda maishiy texnikalarimiz yaroqsiz holga kelsa ham, uyda saqlaymiz. Bu to‘g‘rimi? Nima uchun?**

Har bir o‘quvchi o‘z kundalik hayotidan kelib chiqqan holda savolga javob berishi lozim. Yaroqsiz holga kelgan maishiy texnikani nima qilish kerakligi haqida qo‘shimcha savollar berilishi maqsadga muvofiq.

**6. Metall buyumlarni qayta ishlash haqida eshitganmisiz? Ushbu jarayon haqida nimalarni bilasiz?**

Metall buyumlarni qayta ishlash jarayoni haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilar ushbu jarayonning tabiatga, insonlarga qanday foydali jihati borligi haqida gapirishlari lozim.

## Tinglab tushunish

**Audiomatnni tinglang va savollarga javob bering**

Manba: https://uzreport.news/

*Bugun chiqindilar dunyodagi eng dolzarb ekologik muammolardan biriga aylanib bormoqda.*

*Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maishiy va sanoat chiqindilari yildan yilga ko‘payib boryapti. Ayniqsa, XXI asrda maishiy chiqindilar hajmining o‘sishi ekologik barqarorlikka juda katta salbiy ta’sir ko‘rsata boshladi.*

*Ma’lumotlarga ko‘ra, bugun rivojlangan mamlakatlar chiqindilarni 40 foizdan 60 foizgacha qayta ishlaydilar. Energetika, rangli va qora metallurgiya, kimyo sanoati va qurilish industriyasi obyektlari har xil turdagi chiqindilarni hosil qiluvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi.*

*Jahon miqyosida chiqindilarni ikkilamchi qayta ishlash jarayonlariga “retsikling” nomi berilgan. “Retsikling” atamasi xalqaro miqyosda maishiy chiqindilarni ishlab chiqarish jarayonlariga qaytarish mexanizmi sifatida tushuniladi.*

*O‘zbekistonda “Sanfa Products” kompaniyasi birinchilardan bo‘lib klaster tizimi asosida plastik chiqindilarni qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarib, eksportga yo‘naltirgan kompaniyalardan biri hisoblanadi. Hozir mazkur kompaniya tomonidan bir yilda 2000 tonna plastmassa idishlar qayta ishlanishi natijasida linoleum uchun asos, avtoyo‘llar, gidroinshootlarning qurilishi uchun zarur geotekstil, polimer geomembrana, yengil sanoat uchun sintepon va hokazo mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.*

*Shunday korxonalardan yana biri Surxondaryo viloyatida joylashgan “BioTexno Eko” korxonasi bo‘lib, yillik quvvati 180000 tonna, bir sutkada 500 tonna maishiy chiqindilarni saralab, qayta ishlaydi. Sellofan, plastik, plastmassa kabi maishiy chiqindilardan granulalar, polietilen quvurlarni ishlab chiqaradi.*

*Mutaxassislarning ta’kidlashicha, maishiy chiqindilar butun dunyoda arzon xomashyo hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi uning 85 foizini qayta ishlash mumkinligini ko‘rsatmoqda. Shimoliy Yevropa mamlakatlarida allaqachon chiqindilarni alohida yig‘ish yo‘lga qo‘yilgan, natijada qog‘oz, plastik, alyuminiy kabi xomashyoning katta qismi qayta ishlashga yuboriladi.*

*Chiqindilarni ikkilamchi qayta ishlash jarayonlarida uni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ammo aholi o‘rtasida chiqindilarni alohida turiga qarab saralash madaniyati ongli ravishda shakllanmas ekan, chiqindilarni alohida saralash uchun mo‘ljallangan konteynerlarni o‘rnatish bilan ko‘zlangan maqsadga erishish mushkul hisoblanadi.*

O‘quvchilar matnni tinglab bo‘lgach, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

## Muhokama

**1. Audiomatnda atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar keltirilgan. Ularni izohlang.**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. *Javob: energetika, rangli va qora metallurgiya, kimyo sanoati va qurilish industriyasi obyektlari har xil turdagi chiqindilarni hosil qiluvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi.* O‘quvchilardan shularni tushunib, izohlab berish talab etiladi.

**2. Chiqindilarni qayta ishlash deganda nimani tushunasiz?**

Bu savol matn mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan olgan xulosalari asosida *chiqindilarni qayta ishlash – chiqindiga chiqarilgan bir turdagi mahsulotdan boshqa turdagi mahsulot ishlab chiqarish ekanini* tushunib, munosabat bildirishlari lozim.

**3. O‘zbekistondagi “Sanfa Products” kompaniyasi faoliyati haqida nimalarni bilib oldingiz? U yerda chiqindining qaysi turi qayta ishlanadi?**

O‘quvchilar ushbu kompaniya *O‘zbekistondagi chiqindilarni qayta ishlaydigan birinchi kompaniya ekani, klaster tizimi asosida plastik chiqindilarni qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarib, eksportga yo‘naltirgani, bir yilda 2000 tonna plastmassa idishlarni qayta ishlash natijasida linoleum uchun asos, avtoyo‘llar, gidroinshootlarning qurilishi uchun zarur geotekstil, polimer geomembrana, yengil sanoat uchun sintepon va hokazo mahsulotlar ishlab chiqarilishini* mulohaza qilib aytib berishi lozim.

**4. Surxondaryoda joylashgan chiqindilarni qayta ishlash korxonasi qanday mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo‘ljallangan? Ulardan qanday foydalanish mumkin?**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. *Javob: sellofan, plastik, plastmassa kabi maishiy chiqindilarni qayta ishlab, granulalar, polietilen quvurlarni ishlab chiqaradi.*

**5. Chiqindilarni turlarga ajratish qanday ahamiyatga ega? Siz ham oilangizda chiqindilarni turlarga ajratib to‘playsizmi? Bundan foyda olish mumkinmi? Qanday qilib?**

Bu savol o‘quvchilarni matndan olgan xulosalari asosida mulohaza qilishga chorlaydi. O‘quvchilar o‘z shaxsiy kuzatishlari asosida chiqindilarni qay tartibda tashlashlarini aytishlari, so‘ngra *guruhlarga ajratib tashlangan chiqindilar qayta ishlash zavodlari uchun xomashyo manbasi bo‘lishini* tushunib, aytishlari lozim.

## Yozma nutq. Matn

**Matnga mos sarlavha tanlab, yozing. Tanlovingizni qisqacha izohlang.**

Mazkur topshiriq audiomatnni tushunish, uning ma’no-mazmuniga mos sarlavha tanlashga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan sarlavhalarni o‘qib, mos keluvchi sarlavhani yozishlari hamda tanlagan sarlavhalarini matn asosida izohlab berishlari lozim.

O‘qituvchi avval o‘quvchilarning tanlovini hamda ular uchun berilgan izohlarni tinglaydi. Barcha fikrlar tinglangach, *“O‘zbekistonda chiqindini qayta ishlash mexanizmining rivojlanishi”* sarlavhasi eng mos javob ekanligini aytishi hamda qolgan sarlavhalar nima uchun to‘g‘ri kelmasligini izohlab berishi lozim.

## Orfografiya. Orfoepiya

**Matndan olingan quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling. To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni ko‘chiring.**

Ushbu topshiriq atamalar, ularning talaffuzi va imlosi bilan bog‘liq bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan so‘zlardan to‘g‘rilarini ko‘chirib yozishlari lozim. So‘ngra doskada so‘zlarning to‘g‘ri variantlari yozilib, o‘quvchilarga yozganlarini tekshirib olishlari aytiladi. Har bir o‘quvchiga doskada yozilgan so‘zlar o‘qitiladi. Talaffuzi mashq qildiriladi va tushuntiriladi.

*Javob: energetika, mexanizm, metallurgiya, obyekt, plastmassa, eksport, Shimoliy Yevropa, sellofan, polietilen, konteyner, gidroinshoot.*

## Yozma nutq

**Atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo‘luvchi chiqindilarni hosil qiladigan sohalarni ajratib, yozing. Ular qanday qilib atrof-muhitni ifloslantirishi mumkinligini izohlang.**

Berilgan topshiriq yordamida o‘quvchilar atamalar bilan ishlaydi, o‘z tasavvurlari asosida ularni izohlab yozish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Berilgan nomlar ko‘chirib olinadi, ularning 2 yoki 3 tasini izohlab yozish so‘raladi. Izohlarda ushbu obyektning qisqacha vazifasi hamda atrof-muhitga ko‘rsatayotgan salbiy jihatlari haqidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerakligi tushuntiriladi.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq

**Birinchi mashqdagi sarlavhalardan birini tanlang, namunadan foydalanib unda qanday ma’lumotlar aks etishi mumkinligi haqida qisqacha yozing.**

Ushbu topshiriq matn tuzilish, sarlavha, matn qismlari, ularda nimalar aks etishini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilarga namuna tushuntirib beriladi. Ushbu namuna asosida sarlavhalardan birini tanlab, maqola tayyorlab kelish aytiladi.

## 2-soat


O‘rmon xo‘jaligi


Suv xo‘jaligi


Qurilish industriyasi

**Birinchi mashqdagi sarlavhalardan birini tanlang, namunadan foydalanib shunday sarlavhali maqolada qanday ma’lumotlar aks etishi mumkinligi haqida qisqacha yozing.**

**CHIQINDILAR MUAMMOSI – GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARDAN BIRI**

***Kirish.*** *Chiqindilar bilan bog‘liq muammolar.*

***Asosiy qism:***

***1.*** *Chiqindilarning ekologiyaga ta’siri, ular ortidan tabiatga yetkazilayotgan zarar.*

***2.*** *Ushbu muammolarning kelib chiqish sabablari.*

***Xulosa.*** *Muammoni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar, ularni amalga oshirish yo‘llari.*

...




Perulik Xoseni ko‘pchilik taniydi. U 7 yoshida birinchilardan bo‘lib “Ekologik bank”ka asos solgan tadbirkor. Yo‘q, u “mijoz”lari, ya’ni tengdoshlarining “pulini shilib”, boyib ketishni maqsad qilmagan. Aksincha, o‘zidek kambag‘al, o‘qishga imkoni yetmaydigan bolalarga yordam bermoqchi xolos.

Aslida, Xose ham o‘rtoqlaridek nochor oilaning farzandi. Maktabga har kuni nonushtasiz ketishdan, o‘qish uchun to‘lovlarni vaqtida berolmaslikdan rosa qiynalardi. Ba’zida otasi kamroq maosh olsa, darslarini qoldirishga ham majbur bo‘lardi. Birgina u emas, o‘rtoqlari, qo‘shnilari ham shunday yashashardi.

Oxiri Xose o‘z biznesini ochishga qaror qiladi. Qarasa, sinfdoshlari pulni to‘g‘ri sarflasholmas ekan. Shunda u bolalar uchun “Ekologik bank” ochadi va qayta ishlanadigan chiqindilarni olib kelganga pul bera boshlaydi. Chiqindi evaziga maxsus tashkilot ham Xosega pul to‘lashga rozi bo‘ladi. Shu tariqa, uddaburon Xose tabiatga va bolalarga yaxshilik qilishning yo‘lini topadi.






Xose “Ekobank”ni boshqarishdan tashqari tengdoshlariga pulni to‘g‘ri sarflash yo‘llarini ham o‘rgatadi. Puldan qiynalganlarga kichikroq qarz – mikrokredit ham berib turadi. Bu bolalarga har kuni ovqat yeyishga, maktabga qatnashga yordam beradi.

Xosening tadbirkorligi ortidan bugun 2500 bola maktabga qatnayapti. Chunki Peruda o‘qish xarajatlarini hamma ham to‘lay olmaydi-da! Xose kelajakda 20000 bolaga yordam bermoqchi. Uning yagona maqsadi – bugun qashshoq bo‘lgan bolalar ulg‘ayganida qashshoqlikda yashashmasin! Ular ham adolatli sharoitda o‘qishga, ta’lim olishga haqli!

Hozir 14 yoshga kirgan Xose: “Bolalar kichik g‘oyalari bilan katta o‘zgarish qila oladilar. Bizga faqat imkon berishsa, bas!” – deydi. Rostdanam, Xosedek ona tabiatni asraydigan, o‘rtoqlariga yordam beradigan bolalar orangizda juda ko‘p. Ularga faqat imkon berish kerak.

*Charos Nizomiddinova*

1. Perulik Xosening “Ekologik bank”ka asos solishidan maqsadi qanday edi?
2. Xosening bolaligi qanday o‘tgani haqida gapiring. Uning o‘ziga xosligi nimada edi?
3. “Ekologik bank” qanday faoliyat yuritadi, uning bunday atalishiga nima sabab bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
4. Xosening tadbirkorligi tabiatga, uning do‘stlariga va o‘ziga qanday foyda keltirdi? Uning kelajakdagi maqsadlari qanday?
5. Matn uchun qanday sarlavha mos kelishi haqida o‘ylab ko‘ring. Do‘stingiz taklif qilgan sarlavhaga munosabat bildiring.



## Dars jarayoni

### Kirish

*1. Uyingizdagi chiqindilarni qayta ishlash uchun topshirasizmi?*

*2. Chiqindilarni qayta ishlashga topshirishingizning sabablari nimalardan iborat?*

*2. Chiqindilarni qayta ishlashga topshirishdan daromad topganmisiz? Uni nimalarga sarflagansiz?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

Matn: “Ekologik bank”.

Muallif: Charos Nizomiddinova.

O‘quvchilar matnni o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. Perulik Xosening “Ekologik bank”ka asos solishidan maqsadi qanday edi?**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan.

O‘quvchilar Xosening *o‘zidek kambag‘al, o‘qishga imkoni yetmaydigan bolalarga yordam berish maqsadida* ushbu bankka asos solganini aniqlab, aytishlari lozim.

**2. Xosening bolaligi qanday o‘tgani haqida gapiring. Uning o‘ziga xosligi nimada edi?**

Qahramonning harakatlari, maqsadlari bilan u yashagan holatning o‘zaro bog‘liqligi haqida fikr ifodalanadi. O‘quvchilar Xosening bolaligi haqida gapirar ekanlar, nima uchun u bunday faoliyat bilan shug‘ullanishga qaror qilgani haqidagi ma’lumotlarni so‘zlab berishlari lozim.

**3. “Ekologik bank” qanday faoliyat yuritadi, uning bunday atalashiga nima sabab bo‘lgan deb o‘ylaysiz?**

Bu savol matndagi ma’lumotlarni integratsiya qilib, ma’no chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu o‘rinlarni aniqlab, munosabat bildirishlari, *ekologik bank chiqindilarni yig‘ib, uni maxsus qayta ishlaydigan kompaniyalarga berish, shu orqali tabiatni ortiqcha chiqindilardan tozalash hamda xomashyo evaziga daromad olishga qaratilgani* uchun shunday nomlanishini tushunib, aytib bera olishlari nazarda tutiladi.

**4. Xosening tadbirkorligi tabiatga, uning do‘stlariga va o‘ziga qanday foyda keltirdi? Uning kelajakdagi maqsadlari qanday?**

Bunda Xosening xatti-harakatlariga munosabat bildiriladi, uning qanday sifatlari o‘quvchilarga o‘rnak bo‘la olishi mumkinligi haqida suhbat olib borilishi lozim. Bu suhbat o‘quvchilar orasida ham tabiatga va insonlarga foydasi tegadigan yoshlarning qiziqishlarini yuzaga chiqarishga qaratiladi.

**5. Matn uchun qanday sarlavha mos kelishi haqida o‘ylab ko‘ring. Do‘stingiz taklif qilgan sarlavhaga munosabat bildiring.**

O‘quvchilar bir nechta sarlavhalarni taklif qilishadi, o‘qituvchi ularni imkon qadar yozuv doskasiga yozib borishi lozim. So‘ng bu sarlavhalar ichidan eng mosini tanlash kerakligi aytiladi, nima uchun ushbu sarlavha boshqalaridan ustun ekanini tushuntirib berish so‘raladi.

## Morfologiya

**Matndan olingan quyidagi parchada ishtirok etgan fe’llarni aniqlang, ularni berilgan namuna asosida o‘zgartiring.**

Ushbu topshiriq fe’llarning munosabat shakllari bilan bog‘liq bo‘lgan lingvistik bilimlarni egallashga qaratilgan.

O‘quvchilarga jadvaldagi namuna tushuntirib berilishi lozim. So‘ngra ularga berilgan parchani o‘qib, namuna asosida undagi fe’llarning zamoni va shaxs-sonini o‘zgartirib yozishlari aytiladi.

## Qoida. Morfologiya

O‘quvchilar fe’lning munosabat shakllarini amaliy topshiriq orqali o‘zlashtirganlaridan so‘ng ularga nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib berilishi lozim.

## Morfologiya. Sintaksis

**Berilgan fe’llarni uchta zamon shaklida ifodalang. Ular ishtirokida nutqiy mavzu doirasida gaplar tuzib, yozing.**

Ushbu topshiriq fe’l zamonlari va ularni ifodalash bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan.

O‘quvchilarga jadvaldagi qo‘shimchalar tushuntiriladi. O‘quvchilar berilgan fe’llarni ushbu qo‘shimchalar bilan ifodalab, gap tuzib yozishlari lozim. Bunda gapning ma’no-mazmuniga e’tibor qaratiladi.

## Uyga vazifa

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Xosening “Bolalar kichik g‘oyalari bilan katta o‘zgarish qila oladilar. Bizga faqat imkon berishsa bas!” degan fikriga qo‘shilasizmi? Siz qanday o‘zgarishlarni amalga oshirishni xohlashingiz haqida o‘ylab ko‘ring, fikrlaringizni og‘zaki va yozma shaklda ifodalang.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matn g‘oyasi asosida o‘z g‘oyalari haqida fikrlash, ularni yozma ifodalash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga kichik g‘oyalar va ularni amalga oshirish bilan bog‘liq fikrlarni yozib kelish aytiladi. Rasmda o‘zlari o‘ylagan g‘oya aynan nutqiy mavzu bilan bog‘liq bo‘lishi shart emasligi haqida eslatib o‘tish zarur. O‘zlari istagan, oldindan o‘ylab yurgan g‘oya haqida yozishlari ham mumkin.

## 3-soat



Xosening “Bolalar kichik g‘oyalari bilan katta o‘zgarish qila oladilar. Bizga faqat imkon berishsa, bas!” degan fikriga qo‘shilasizmi? Siz qanday o‘zgarishlarni amalga oshirishni xohlashingiz haqida o‘ylab ko‘ring, fikrlaringizni og‘zaki yoki yozma shaklda ifodalang.

Matnni o‘qing va fe’llarni aniqlang. Ular qaysi zamonni ifodalamoqda?

“BioTexno Eko” korxonasi Surxondaryo viloyatida joylashgan. Uning yillik quvvati 180 000 tonna, bir sutkada 500 tonna maishiy chiqindini saralab, qayta ishlaydi. Sellofan, plastik, plastmassa kabi maishiy chiqindilardan granulalar, polietilen quvurlarni ishlab chiqaradi.

Hozir “Sanfa Products” kompaniyasi bir yilda 2000 tonna plastmassa idishlarini qayta ishlash natijasida linoleum uchun asos, avtoyo‘llar, gidroinshootlarning qurilishi uchun zarur geotekstil, polimer geomembrana, yengil sanoat uchun sintepon va hokazo mahsulotlar ishlab chiqarmoqda.

Fe’l zamonlarini o‘zgartirib, yuqoridagi matnni ko‘chiring.

Berilgan gaplarni davom ettiring. Fe’l zamonlari va shaxs-son qo‘shimchalariga e’tibor qiling.

Tabiatni asrash har birimizning burchimiz, shuning uchun ota-bobolarimiz qadimdan avlodlarga tabiatni asrash kerakligini _____ (III shaxs, ko‘plikda, o‘tgan zamon). Maishiy chiqindilarni qayta ishlash ham tabiatni asrashning bir usuli hisoblanadi. Odamlar maishiy chiqindilarni qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish orqali tabiat ne’matlarini _____ (III shaxs, ko‘plikda, hozirgi zamon). Qayta ishlash jarayonida oldin ishlatilib, keyin yaroqsiz holatga kelgan plastmassa va metall buyumlar, qog‘ozlar hamda shisha idishlardan _____ (kelasi zamon). Ulardan sanoat va kundalik hayot uchun kerakli buyumlar _____(III shaxs, hozirgi zamon).

Xose haqidagi matn uchun 3 ta so‘roq gap tuzib, yozing. Tuzgan savollaringizga partadoshingiz javob yozsin.

Keyingi darsda biznes g‘oya yaratish topshirig‘i beriladi. Chiqindilarni qayta ishlash bilan bog‘liq loyiha haqida o‘ylang. O‘z g‘oyalaringizni taqdimot qilish uchun tayyorlaning.

Biznes g‘oya nima?

Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash sarmoya kiritish uchun eng maqbul biznes turlaridan biridir. U – bozordagi nisbatan erkin soha, chunki chiqindilarni qayta ishlovchi korxonalar O‘zbekistonda unchalik ko‘p emas. Marhamat, ushbu yo‘nalishdagi biznes g‘oyangizni ishlab chiqing.

45

### Dars jarayoni

#### Kirish

*Chiqindilardan daromad olish mumkinmi? Yana qanday daromadli sohalarni bilasiz?*

#### Asosiy qism

**Morfologiya**

**Matnni o‘qing va fe’llarni aniqlang. Ular qaysi zamonni ifodalamoqda?**

Mazkur topshiriq fe’l va unda zamon ma’nolarining ifodalanishi bilan bog‘liq bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan.

O‘quvchilardan matnda mavjud fe’llarni aniqlash, ular qaysi zamonni ifodalayotganini aytish so‘raladi. O‘quvchilar ushbu ma’nolar qaysi qo‘shimchalar yordamida yuzaga chiqayotgani haqida ma’lumot berishlari lozim.

**Morfologiya**

**Fe’l zamonlarini o‘zgartirib, yuqoridagi matnni ko‘chiring.**

Bu yuqoridagi topshiriqning davomi bo‘lib, o‘quvchilar fe’l zamonlarini o‘zgartirib ko‘chirishlari lozim. Bunda o‘quvchilarga fe’l zamonlarini ifodalaydigan qo‘shimchalar qay tartibda qo‘llanishi, mavjud qo‘shimchani aniqlash, uni boshqa qo‘shimcha bilan almashtirish jarayonida fe’l ma’nosida bo‘layotgan o‘zgarishlarni tushuntirib o‘tish lozim.

**Morfologiya**

**Berilgan gaplarni davom ettiring. Fe’l zamonlari va shaxs-son qo‘shimchalariga e’tibor qiling.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning kontekstga mos so‘z tanlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga gaplarni o‘qib, gap mazmuniga mos birlikni qavs ichidagi talabga moslab yozish aytiladi.

**Yozma nutq**

**Xose haqidagi matn uchun 3 ta so‘roq gap tuzib, yozing. Tuzgan savollaringizga partadoshingiz javob yozsin.**

Mazkur topshiriq ma’lumotlar orasidan keraklisini ajratib olish hamda ushbu ma’lumotga javob talab qiluvchi savol tuzish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga umumiy “Ha” yoki “Yo‘q” javobini talab qiluvchi savollar bilan chegaralanmasdan, kengroq javob berilishi lozim bo‘lgan so‘roq gaplarni tuzishlari kerakligi, bu jarayonda so‘roq olmoshlaridan o‘z o‘rnida foydalanish lozimligi tushuntiriladi.

#### Uyga vazifa

**Og‘zaki nutq**

**Keyingi darsda biznes g‘oya yaratish topshirig‘i beriladi. Chiqindilarni qayta ishlash bilan bog‘liq loyiha haqida o‘ylang.**

**O‘z g‘oyalaringizni taqdimot qilish uchun tayyorlaning.**

Ushbu topshiriq ma’lumot to‘plash, saralash hamda taqdimot tayyorlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga biznes g‘oyalari uchun taqdimot tayyorlashlari lozimligi aytiladi.

## 4-soat




### Dars jarayoni

#### Kirish

*Biznes g‘oya nima?*

#### Asosiy qism

#### Ijodiy ish

**Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash sarmoya kiritish uchun eng maqbul biznes turlaridan biridir. U bozordagi nisbatan erkin soha, chunki chiqindilarni qayta ishlovchi korxonalar O‘zbekistonda unchalik ko‘p emas. Marhamat, ushbu yo‘nalishdagi biznes g‘oyangizni ishlab chiqing.**

Mazkur topshiriq erkin fikrlash, o‘z g‘oyalarini himoya qilish, taklif berish, munosabat bildirish hamda taqdimotlarni og‘zaki himoya qilish ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Topshiriq sharti hamda berilgan tasvir va unga oid ma’lumotlar tushuntiriladi. O‘quvchilar ushbu g‘oyaga munosabatlarini ifodalashlari, fikrlarini himoya qilishlari lozim.

Bu topshiriqdan maqsad tadbirkorlikka qiziqqan, o‘z g‘oyalari bilan odamlarga yordam berishni o‘ylagan o‘quvchilar qobiliyatini yuzaga chiqarishdan iborat.

#### Yozma nutq

**Biznes rejangizni quyidagi ko‘rinishida ifodalang.**

Ushbu topshiriq fikrni tartibli ifodalash, rejalarni ketma-ketlikda izohlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Suhbatdan so‘ng biznes reja yozish topshirig‘i beriladi. Jadvalning tarkibiy qismlari nimalardan iborat bo‘lishi mumkinligi tushuntiriladi. Har bir qism uchun nimalarni yozish, qanday til birliklaridan foydalanish kerakligiga oid namunalar og‘zaki aytib o‘tilishi lozim.

#### Og‘zaki nutq

**Sinfdoshingiz tuzgan matn bilan tanishing va unga munosabat bildiring.**

Mazkur topshiriq tinglab tushunish, tahliliy va tanqidiy ko‘rish, munosabat bildirish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Bu jarayon ikki xil tashkil qilinishi mumkin:

1. O‘quvchilar daftarlarini o‘zaro almashtirib, bir-birlarining yozgan matlarini tekshirib, munosabat bildiradi.

2. O‘quvchilar navbat bilan matnini taqdimot qilib beradi, qolganlar tinglab, munosabat bildiradi.

Munosabat bildirishda quyidagilarga e’tibor qaratishlari lozimligi aytiladi:

- *rejaning tartib bilan ifoda etilishi;*

- *maqsad, xarajat va foydaning aks etishi;*
- *ohang, urg‘u, pauzalardan kerakli o‘rinda foydalanilishi;*
- *mavzuga oid til birliklarining qo‘llanishi.*

**Uyga vazifa**

**Leksikografiya**


**Mavzu doirasida o‘rgangan atamalaringiz lug‘atini tuzing. Ularning izohini yozing.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning atamalarni tushunish, lug‘at tuzish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga mavzu doirasida o‘rgangan atamalarini tartiblab, lug‘at tuzish aytiladi. Bunda o‘qituvchi dastlab lug‘at tuzish tamoyillarini tushuntirishi lozim. *Masalan, so‘zlarni alifbo tartibida berish, tinish belgilarining ishlatilishi, so‘zning qaysi tilga mansubligi, izohi* kabilar.

## QAYTA ISHLANADIGAN CHIQINDILAR

### MUSTAHKAMLASH


Biznes rejangizni quyidagi ko‘rinishda ifodalang.

MENING BIZNES REJAM

**Maqsad**

*Buni qanday amalga oshiraman?*

**Xarajatlar**

*Zarur resurslar (kerakli narsalar)*

*Ish jarayonining borishi*

**Foyda**

Sinfdoshingiz tuzgan loyiha bilan tanishing va unga munosabat bildiring.

Mavzu doirasida o‘rgangan atamalaringiz lug‘atini tuzing. Ularning izohini yozing.

MUSTAHKAMLASH

Rasmda tasvirlangan holatlarga munosabat bildiring.

47

**Kirish**

*Chiqindilarni qayerga tashlaysiz? Yo‘lda chiqindi tashlanganini ko‘rsangiz, qanday yo‘l tutasiz?*

**Asosiy qism**

**Og‘zaki nutq**

**Rasmda tasvirlangan holatlarga munosabat bildiring.**

O‘quvchilar rasmdagi holatlar bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**Muhokama**

**2. Duch kelgan joyga chiqindi tashlab ketadigan odamlarni siz qanday atagan bo‘lardingiz?**

Mazkur savol o‘quvchilarning o‘z shaxsiy kuzatishlari asosida rasmdagi holatlar hamda o‘zlarining hayotiy kuzatishlari asosida munosabat bildirishlariga qaratilgan.


O‘quvchilardan chiqindi tashlash insonlar uchun ham, tabiat uchun ham zarar keltirishini tushunib fikr bildirish talab etiladi.

Suhbat davomida o‘quvchilarning og‘zaki nutqiga e’tibor qaratiladi. Ularni o‘z fikrlarini dalillay olish, iqtiboslar keltirish (hadislar, maqollar) orqali fikr ifodalashga tomon yo‘naltirib borish lozim.

**Leksikologiya**

**Tabiatni asrash va tadbirkorlikka oid maqollardan yozing. Mazmunini izohlang.**

Ushbu topshiriq maqollar ma’nosini tushunish, ularni mavzusiga ko‘ra farqlab, munosabat bildirishga qaratilgan. O‘quvchilar tabiatni asrash va tadbirkorlikka oid maqollardan topib, ma’nosini izohlab berishlari lozim.



1. Sizni ko‘cha-ko‘yda chiqindi tashlash bilan bog‘liq qaysi holat qattiq ranjitadi? Tartibsiz odamlarga nisbatan qanday chora ko‘rish kerak deb hisoblaysiz?
2. Duch kelgan joyga chiqindi tashlab ketadigan odamni qanday atagan bo‘lar edingiz?

Tabiatni asrash va tadbirkorlikka oid maqollardan yozing. Mazmunini izohlang.

Namuna 1. Birni kessang, o‘nni ek. 2. Rejasiz ish – qolipsiz g‘isht.

Quyidagi nutq bilan tanishing. Savollarga javob bering.

...Ayrim odamlarga barcha narsa o‘z holicha qolaversa ham mayli. Lekin men unaqa emasman. Ayniqsa, biror narsadan xavotirda yoki qayg‘uda bo‘lsam, buni shunday qoldira olmayman. Kichik sinfda o‘qiyotganimda menga o‘qituvchimiz okeandagi plastik uyumi, global iqlim isishi sababli qutb ayiqlari jabr ko‘rayotgani haqida film qo‘yib bergan. Men uni ko‘rib rosa yig‘lagandim. Sinfdoshlarim ham yig‘lagan. Lekin film tugagach, ular bemalol yana boshqa ishlari bilan shug‘ullanaverdi. Men esa unday qila olmayman. O‘sha lavha xayolimdan ketmaydi...

Greta Tunberg

1. Muallif va uning sinfdoshlari filmni ko‘rgach, nima uchun yig‘lagan deb o‘ylaysiz?
2. “Ayrim odamlarga barcha narsa o‘z holicha qolaversa ham mayli. Lekin men unaqa emasman. Ayniqsa, biror narsadan xavotirda yoki qayg‘uda bo‘lsam, buni shunday qoldira olmayman“. Siz ham o‘zingizga shunday baho bera olasizmi? Siz qandaysiz?
3. Ushbu matn nechanchi shaxs tilidan aytilgan? Nima uchun bu fikrga keldingiz?
4. Matndagi ko‘pnuqtalarning vazifasi nima?
5. Ayting-chi, sizni ham atrof-muhit, o‘simlik va hayvonlar bilan bog‘liq qandaydir holat ta’sirlantirganmi? Bu qachon va qayerda sodir bo‘lgan?

Matnda qo‘llangan fe’llarning zamonini aniqlab, yozing.

Siz ham minbarda so‘zlash uchun tabiatni asrashga oid nutq tayyorlang. Nutqingizni matn ko‘rinishida ifodalang.

Gazeta, jurnal, rasmiy saytlardagi nutqiy mavzuga aloqador biror xabar yoki maqola bilan tanishing. O‘rganganlaringiz asosida beshta xulosa yozing.

48

## O‘qib tushunish

**Quyidagi nutq bilan tanishing. Savollarga javob bering.**

Muallif: Greta Tunberg.

O‘quvchilar berilgan parchani o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

## Muhokama

Parcha doirasida berilgan savollar o‘quvchilarning ushbu nutq egasining maqsadini tushunishi va bunga munosabat bildirishiga qaratilgan. O‘quvchilar parcha mazmunidan kelib chiqib, o‘z hayotiy kuzatishlari bilan bog‘lab munosabat bildirishlari lozim.

## Morfologiya

**Matnda qo‘llangan fe’llarning zamonini aniqlab, yozing.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga matn tarkibidan fe’llarni aniqlab, zamonlarini tahlil qilib yozish aytiladi.

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Siz ham minbarda so‘zlash uchun tabiatni asrashga oid nutq tayyorlang. Nutqingizni matn ko‘rinishida ifodalang.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning minbarda nutq so‘zlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar tabiatni asrashga oid nutq tayyorlashlari lozim. Qanday mavzu tanlashlari ixtiyoriy, mavzuga oid til birliklaridan o‘rinli foydalanishlari lozim. Fikrlarini ifoda etishda rasm, chizma, jadvallardan foydalanishlari mumkinligi aytiladi.

## Uyga vazifa

## Yozma nutq

**Gazeta, jurnal, rasmiy saytlardan nutqiy mavzuga aloqador biror xabar yoki maqola bilan tanishing. O‘rganganlaringiz asosida beshta xulosa yozing.**


Mazkur topshiriq axborotlar bilan ishlash, ularni saralash, berilgan ma’lumotlar ichidan eng muhimlarini ajratib ko‘rsatish, olingan manbaning manzili, muallifini ifodalash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga nutqiy mavzu doirasidagi xabar yoki maqolalarni qanday gazeta, jurnal yoki rasmiy saytlardan topish mumkinligi haqida yo‘nalish berish maqsadga muvofiq.

# KO‘Z NURINI ASRAYLIK

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** matnda berilgan ma’lumotlar va rasmlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, mavzu yuzasidan berilgan savollarga mazmun ketma-ketligini rejalashtirgan holda izchil va tushunarli tarzda og‘zaki javob berish, matn va uning tuzilishi, matn qismlarini o‘zaro farqlash, kichik sarlavhalar tanlash, grafik ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni o‘qiy olish, ularni bir shakldan ikkinchi shaklga keltirish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash; ko‘rsatish olmoshlari, fe’lning zamon va shaxs-songa oid kategoriyalari, ko‘z bilan bog‘liq iboralar, kesim va uning ifodalanishi, olmosh va undan foydalanish bilan bog‘liq bilimlarni rivojlantirish.

## 1-soat



KO‘Z NURINI ASRAYLIK

Bu mavzuda o‘rganamiz

• ko‘z va ko‘z salomatligiga doir tavsiyalar • matn qismlarini o‘zaro farqlash • kichik sarlavhalar tanlash • iboralarni qo‘llash • ko‘rsatish olmoshlari • fe’lning zamon va shaxs-songa oid tasnifi • kesim va uning ifodalanishi.

1. Odamlar his-tuyg‘ularini o‘zgalarga so‘z orqaligina emas, balki yuz ifodalari bilan ham yetkaza oladilar. Ayting-chi, ko‘zlarimiz orqali ushbu holatlarni qanday amalga oshiramiz? Mashq qilib ko‘ring.
2. “Ko‘zimning nuri” iborasi qanday holatlarda qo‘llanadi?

Rasmda berilgan ko‘z qarashlariga mos so‘zlarni toping.

KO‘ZLARIMIZ – ENG AZIZ DO‘STLARIMIZ

Ko‘zlarimiz bizning jajji yordamchilarimizdir. Biz **ular** orqali atrofda bo‘layotgan voqealarni ko‘ramiz. Ko‘zguga qarasangiz, har bir ko‘zning o‘rta qismida kichkina qora doiracha borligini bilasiz. **Bu** – ko‘z qorachig‘i. **U**ndan yorug‘lik o‘tadi va qorachiq ichida oldimizda turgan narsaning kichkinagina tasviri paydo bo‘ladi.

Ko‘zlarimizning eng yaqin himoyachilari bu – qosh va kipriklardir. Peshonadan ter oqib tushsa, quyuq qoshlar, shamolda

49

**Dars jarayoni**

### Kirish

*1. Odamlar his-tuyg‘ularini o‘zgalarga faqat so‘zlar orqaligina emas, balki yuz ifodalari bilan ham yetkaza oladilar. Ayting-chi, ko‘zlarimiz orqali ushbu holatni qanday amalga oshiramiz? Mashq qilib ko‘ring.*

*2. “Ko‘zimning nuri” ifodasi kimlarga nisbatan qo‘llanadi?*

### Asosiy qism

**Rasmda berilgan ko‘z qarashlariga mos so‘zlarni toping.**

Mazkur topshiriq vizual aloqani tushunish, unga mos til birliklarini qo‘llashga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan rasmlarni kuzatib, unda qanday nigoh yashiringanini aytishi lozim.

Bunda rasmning tartib raqami doskada yozilib, o‘quvchilarning fikri ketma-ket tinglanib, uni ifodalagan tushunchalar yozilishi maqsadga muvofiq. Masalan, qayg‘u, hasad, taajjub, g‘azab, nafrat, qo‘rquv, gumon, hayo kabi.

### O‘qib tushunish

**Matnni o‘qing va savollarga javob bering.**

Matn: “Ko‘zlarimiz – eng aziz do‘stlarimiz”.

Manba: “Jajji akademik” jurnali.

O‘quvchilar matn va ko‘z haqidagi qiziq ma’lumotlarni o‘qib chiqqanlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**1. Matnda ko‘zga qanday ta’riflar berilgan? Qosh, kipriklarga-chi? Siz qanday ta’riflagan bo‘lardingiz?**

Bu savol matnda muallif qo‘llagan til birliklarini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan *ko‘z – jajji yordamchilar, qosh va kipriklar – himoyachi* deyilgani hamda nima uchun shunday ta’rif berilganini tushunib aytishi lozim.

**2. Ko‘z qorachig‘i nima? Uning ko‘rish jarayonidagi o‘rni qanday?**

Ko‘z qorachig‘iga berilgan ta’rifdan so‘ng uning ko‘rish jarayonidagi vazifasi tushuntiriladi. Nima uchun unga shunday nom berilgani haqida qo‘shimcha savollar bilan murojaat etish mumkin.

**3. Qosh va kipriklar qanday vazifani bajaradi?**

Savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. O'quvchilar matndan ushbu o'rinni aniqlab, aytib berishlari lozim. Bu jarayonda o'quvchilardan qosh va kipriklarni nimaga o'xshatish mumkinligi va nima uchun shunday o'xshatish qo'llanishi so'raladi.

**4. Ko'zga oid qaysi ma'lumot sizni hayron qoldirdi? Nima uchun?**

O'quvchilar qiziqarli ma'lumotlar orasidan o'zlarini hayron qoldirgan ma'lumotni aytishlari hamda qaysi jihati hayratga solganini izohlab berishlari lozim.

### Morfologiya

**Matnda ajratib ko'rsatilgan olmoshlarni ular ishora qilayotgan birliklar bilan birga ko'chiring.**

Ushbu topshiriq matnda qo'llangan ko'rsatish olmoshlari hamda ularning gapdagi vazifasini aniqlashga qaratilgan. O'quvchilar matn tarkibidan ko'rsatish olmoshi qo'llangan gaplarni o'zi ishora qilgan birlik bilan birgalikda namunadagidek ko'chirib yozishi lozim.

O'quvchi olmosh bir so'zgagina emas, balki so'z birikmasi, gap, hatto matnga ham ishora qilishi mumkinligini anglab olishi uchun qo'shimcha savollar bilan murojaat qilish maqsadga muvofiq.

### Morfologiya

**Matnda qo'llangan fe'llarning qaysi zamonga tegishli ekanini aniqlab, yozing. Shaxs-sonini ayting.**

Mazkur topshiriq matnni lingvistik tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar matn tarkibidan fe'llarni aniqlab, ular qaysi zamon va shaxs-sonda ekanini aytishlari lozim. Dastlab o'quvchilar bilan fe'l zamonlari va shaxs-son qanday ifodalanishi haqida savol-javob asosida suhbat tashkil qilish maqsadga muvofiq.

### Qoida. Morfologiya

O'quvchilarga to'liqsiz fe'llar haqidagi nazariy ma'lumot misollar bilan tushuntirib berilishi lozim.

### Leksikologiya. Sintaksis

**Ko'z bilan bog'liq turli shakllardagi birliklarni moslab ko'chiring. Ushbu birikmalar ishtirokida gaplar tuzib, yozing.**

Mazkur topshiriq o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga qaratilgan. O'quvchilar jadvalning birinchi ustunidagi so'zlarni ikkinchi ustundagi so'zlar bilan o'zaro moslashtirib yozishlari lozim. So'ngra o'qituvchi hosil bo'lgan birikmalar qanday vaziyatda qo'llanishi, qanday ma'nolarni anglatishi, so'zlarning ko'chma ma'noda ishlatilishini savol-javoblar asosida tushuntirishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarda mazkur birliklar haqida tushuncha hosil bo'lgandan so'ng ushbu birikmalar ishtirokida gaplar tuzish topshirig'i beriladi.

*Javob:*

- *ko'zdek qo'shni;*
- *ko'zyoshidek tiniq ko'l;*
- *ko'z tashlamoq;*
- *ko'z qorachig'idek asramoq;*
- *ko'zi ochilmoq;*
- *ko'zi ilinmoq.*


### Uyga vazifa

### Leksikologiya

**Quyidagi iboralar ma'nosini lug'atlardan, oila a'zolaringizdan aniqlab, yozing. Qanday vaziyatlarda qo'llanishini bilib oling.**

Mazkur topshiriq o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga qaratilgan. O'quvchilar berilgan iboralarning ma'nosi bilan tanishib, uni qanday vaziyatlarda qo'llash mumkinligini tushunishlari lozim. Bunda o'quvchilarga bir iboraning ma'nosi va uni qo'llashga oid vaziyat izohlanishi maqsadga muvofiq.

## 2-soat


"Optikaning otasi" audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.

Qorong'i kamera

predmet quti ekran yorug'lik qutidagi teshik teskari tasvir

1. Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Unda nimalar tasvirlangani haqida gapiring.
2. Qadimgi odamlarning yorug'lik va insonning ko'rish qobiliyati haqidagi tasavvurlari qanday bo'lgan ekan?
3. Musulmon olimi Ibn al-Haysam ko'rish qobiliyati haqida qanday nazariyani ilgari suradi?
4. Optik qurilmalar deganda qanday qurilmalar nazarda tutiladi?
5. Hasan ibn al-Haysamni nima uchun "optika otasi" deb atashadi?
6. Fotokameraning yaratilishiga turtki bo'lgan tajriba haqida gapiring.
7. Hasan ibn al-Haysam "Optika" kitobida ko'z haqida qanday ma'lumotlarni keltirgan?
8. Hasan ibn al-Haysam G'arbda qanday nom bilan ataladi?

Berilgan gaplarni shunday tartib bilan yozingki, ular siz eshitgan audiomatn uchun reja vazifasini bajara olsin.

Hasan ibn al-Haysam – optikaning otasi
Olimning ko'z va uning tuzilishi bilan bog'liq qarashlari
Qadimgi odamlarning ko'rish va yorug'lik haqidagi tasavvurlari
Hasan ibn al-Haysamning tajribasi

52

### Dars jarayoni

#### Kirish

*"Optika" atamasini qayerlarda uchratgansiz? Ushbu so'z qanday ma'noni anglatadi?*

#### Asosiy qism

#### Tinglab tushunish

**"Optikaning otasi" audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.**

Audiomatn: "Optikaning otasi".

*Qadimgi olimlar yorug'lik va insonning ko'rish qobiliyati haqida noto'g'ri tasavvurda bo'lishgan. Emishki, odamning ko'zi atrofga yorug'lik tarqatadi. Ko'zimizdan chiqqan shu yorug'lik jismlarga tegib, ortga qaytganida biz narsalarni ko'ra boshlaymiz. Ammo musulmon olimi Ibn al-Haysam birinchi bo'lib bunday qarashning xato ekanini aytadi. Ko'zdan hech qanday nur chiqmaydi. Aksincha, quyoshdan taralgan nur jismlarga urilib, so'ng ko'zlarimiz tomon yo'l oladi.*

*Hasan ibn al-Haysam 965-yili Iroqning Basra shahrida dunyoga keladi. U optikaning otasi hisoblanadi. Ya'ni ko'zoynak, mikroskop, teleskop, fotokamera, videokamera kabi yuzlab optik qurilmalarning ixtiro qilinishida Ibn al-Haysamning ham hissasi bor. Chunki olimning "Optika" nomli kitobi butun dunyoga ma'lum va mashhur.*

*Ibn al-Haysam qorong'i chodirning ichiga kirib, chodir devoridan kichik teshik ochib qo'yadi. Olim shu teshikdan kirgan nurni o'rgana boshlaydi. Tajribalarning birida nur tashqaridagi tasvirni ichkariga olib kirayotgani ma'lum bo'ladi. Aynan mana shu kashfiyot tufayli 8 asrdan so'ng fotokamera ixtiro qilinadi.*

*Bundan tashqari, olim ko'z va uning tuzilishi borasida ham ko'plab tadqiqotlar qilgan. "Optika" kitobida hatto ko'zdagi nerv tolalarining suratlari ham berilgan. Bu tibbiyotda ko'zning ichki tuzilishi chizilgan ilk suratlar edi.*

*Bu qiziq!*

*Ibn al-Haysam G'arbda "Alhazen" nomi bilan mashhur bo'lgan. Oydagi kraterlarning biri olimning sharafiga "Alhazen" deb ataladi.*

O'quvchilar audiomatnni tinglaganlaridan so'ng matn bo'yicha savollar bilan suhbat boshlanadi.

#### Muhokama

**1. Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Unda nimalar tasvirlangani haqida gapiring.**

Bu savol vizual aloqa orqali berilgan ma'lumotni, audiomatn hamda tasvir o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga qaratilgan. O'quvchilar tasvirlarni tinglagan ma'lumotlari asosida izohlab berishlari lozim.

**2. Qadimgi odamlarning yorug'lik va insonning ko'rish qobiliyati haqidagi tasavvurlari qanday bo'lgan ekan?**

Bu savol audiomatnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. O'quvchilar qadimgi olimlar *odamning ko'zi atrofga yorug'lik tarqatishi, ko'zdan chiqqan shu yorug'lik jismlarga tegib ortga qaytganida narsalarni ko'ra boshlash mumkin deb hisoblashganini* tushunib, aytib bera olishi lozim.

**3. Musulmon olimi Ibn al-Haysam ko‘rish qobiliyati haqida qanday nazariyani ilgari suradi?**

Bu savol o‘quvchilarning audiomatndagi ma’lumotlarni taqqoslash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar *olim Ibn al-Haysamning nazariyasi qadimgi olimlar nazariyasini inkor etib, ko‘zdan nur chiqmasligini, quyoshdan taralgan nur jismlarga urilib, so‘ng ko‘zlar tomon yo‘nalishini ilgari surganini* anglab, aytib berishi lozim.

**4. Optik qurilmalar deganda qanday qurilmalar nazarda tutiladi?**

Bu savol o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar e’tiborini “optika” birligiga qaratishi, audiomatn orqali ushbu tushunchani izohlab, unga qanday qurilmalar kirishini aytib berishi lozim.

*Optika – yorug‘likning aks etish va sinish qonunlariga asoslangan asbob-uskunalarning umumlashma nomi. Bunday qurilmalarga: ko‘zoynak, linza, fotokameralar kiradi.*

**5. Hasan ibn al-Haysamni nima uchun “optikaning otasi” deb atashadi?**

O‘quvchilar *olim nazariyasi sababli* shu nom bilan atalishini tushunib, aytib berishi lozim.

**6. Fotokameraning yaratilishiga turtki bo‘lgan tajriba haqida gapiring.**

Bu savol audiomatnda eksplitsit ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar tajriba aytilgan qismni yodga olib, uni rasm asosida ketma-ketlikda aytib berishlari lozim.

**7. Hasan ibn al-Haysam o‘zining “Optika” kitobida ko‘z haqida qanday ma’lumotlarni keltirgan?**

O‘quvchilar *olim ushbu kitobda ko‘z va uning tuzilishi borasida ham ko‘plab tadqiqotlar, hatto ko‘zdagi nerv tolalarining suratlari ham berilganini* tushunib, aytib bera olishi lozim.

**8. Hasan ibn al-Haysam G‘arbda qanday nom bilan ataladi?**

*Javob: Ibn al-Haysam G‘arbda “Alhazen” nomi bilan mashhur bo‘lgan.*

## Yozma nutq

**Berilgan gaplarni shunday tartib bilan yozingki, ular siz eshitgan audiomatn uchun reja vazifasini bajara olsin.**

Mazkur topshiriq matn va uning tuzilishi, matn qismlarini o‘zaro farqlash hamda matn mazmuni asosida reja tuzish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga berilgan gaplar bilan tanishib, tinglagan audiomatnlari asosida rejani ketma-ketlikda yozib olishlari aytiladi. Topshiriqni bajarib bo‘lishgach, o‘qituvchi audiomatnni qayta qo‘yib eshittiradi. Bajarilgan topshiriqlar tekshirilib, ularga munosabat bildirilishi lozim.

*Javob:*

- *qadimgi odamlarning ko‘rish va yorug‘lik haqidagi tasavvurlari;*
- *olimning ko‘z va uning tuzilishi bilan bog‘liq qarashlari;*
- *Hasan ibn al-Haysam – optikaning otasi;*
- *Hasan ibn al-Haysamning tajribasi.*

## Yozma nutq. Matn

**Quyida “Ko‘z nurini asraylik” mavzusidagi matn uchun reja bo‘la oladigan bandlar tartibsiz berilgan. Ular qanday ketma-ketlikda joylashishi kerakligini aniqlang va tartib bilan yozing.**

Ushbu topshiriq matn va uning tuzilishi, matn qismlarini o‘zaro farqlash, kichik sarlavhalar tanlashda nimalarga e’tibor berish kerakligi bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu topshiriq ham yuqoridagi kabi bajariladi. Bu topshiriqda rejaning qanday ifodalangani, reja tuzish, uni ifodalashda nimalarga e’tibor berish kerakligi bilan bog‘liq ko‘rsatmalar berilishi maqsadga muvofiq.

## Morfologiya

**Gaplar tarkibida qo‘llanishi lozim bo‘lgan olmoshlarni aniqlang va ularni o‘z o‘rnida qo‘llab, gaplarni ko‘chiring.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarga olmosh va uni nutqda qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsadni tushuntirishga qaratilgan.

Berilgan gaplar ifodali o‘qiladi, ajratib ko‘rsatilgan birliklarni qanday olmoshlar bilan almashtirish mumkinligi haqida so‘raladi. Ushbu jarayonning qanday ahamiyati borligi haqidagi xulosalarni chiqarish uchun qo‘shimcha savollar bilan murojaat qilish maqsadga muvofiq.

### Sintaksis

**Matndan olingan quyidagi parcha tarkibidagi kesimlarni aniqlang, ularni namunadagidek tahlil qilib, ko‘chiring.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan matnni o‘qib, ushbu matn tarkibidan kesimlarni aniqlab, namuna asosida tahlil qilib yozishlari lozim.

Dastlab o‘quvchilar bilan kesimning gapdagi vazifasi va uning ifodalanishi haqida savol-javob o‘tkazish maqsadga muvofiq.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Internet manbalari asosida ko‘z nurini asrashga oid ma’lumotlarni tavsiya ko‘rinishida yozib keling.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning ma’lumot to‘plash, ma’lumotlarni saralash hamda keraklilarini ajratib, tavsiya yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga ma’lumot izlash uchun ijtimoiy sahifalar, kitob, jurnal, gazeta nomlarini aytib, tavsiya qanday yozilishi haqida ko‘rsatma berish maqsadga muvofiq.

## 3-soat


### Dars jarayoni

### Kirish

*Qilgan ishingizdan ko‘nglingiz to‘lmagan vaqtlar bo‘lganmi? Shunda qanday holatga tushgansiz?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish



Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

* * *

Ko‘zga ko‘ringan bir rassom oxirgi chizgan rasmi oldida yig‘lab turgan ekan. Buni ko‘rgan shogirdlari hayron bo‘lishibdi va:
– Ustoz, nima sababdan yig‘layapsiz? – deb so‘rashibdi.
Shunda rassom:
– Men oxirgi chizgan ishimdan nuqson topa olmayapman, – deb javob beribdi.
– Bu yaxshi emasmi? – so‘rashibdi shogirdlar.
– Yo‘q, bu mening iste’dodim so‘nayotganidan darak beryapti, – debdi rassom.

1. “Ko‘zga ko‘ringan” deganda nimani tushundingiz?
2. Rassomning o‘zi chizgan suratdan hech qanday nuqson topa olmasligi yaxshimi? Siz bu holatga qanday munosabat bildirasiz?
3. Nima uchun rassom shunday xulosaga keldi?
4. Ushbu matnga qanday sarlavha mos deb o‘ylaysiz? Javobingizni izohlang.

54

**Matnni o‘qing va savollarga javob bering.**

O‘quvchilar dialog matnini o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**1. *Ko‘zga ko‘ringan* deganda nimani tushundingiz?**

Bu savol o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar “ko‘zga ko‘ringan” birligi haqidagi tushunchalarini aytishlari mumkin. Ularning fikri tinglangach, ushbu birlik izohlab berilishi lozim.

*Ko‘zga ko‘ringan – ma’lum va mashhur; taniqli, nomdor (dongdor).*

**2. Rassomning o‘zi chizgan suratdan hech qanday nuqson topa olmasligi yaxshimi? Siz bu holatga qanday munosabat bildirasiz?**

Bu savol o‘quvchilarning vaziyatni baholash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarning vaziyat haqida “yaxshi” yoki “yaxshi emas” degan javoblari qabul qilinadi. Asosiy e’tibor ushbu fikrni izohlab berishlariga qaratiladi.

**3. Nima uchun rassom shunday xulosaga keldi?**

Bu dialog matndan xulosa chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilarga rassomning xulosasi yordamida har bir kasbni mukammal o‘rganish, doimiy tarzda o‘z ustida ishlash lozimligi tushuntirilishi lozim.

**4. Ushbu matnga qanday sarlavha mos deb o‘ylaysiz? Javobingizni izohlang.**

O‘quvchilarga o‘zlari tanlagan sarlavhalarini izohlash aytiladi. O‘qituvchi ularni sinf taxtasiga qayd etib borib, suhbat so‘ngida eng ma’qul sarlavhani aytishi lozim. Shu o‘rinda o‘qituvchi sarlavha tanlash qoidalari haqida qo‘shimcha ma’lumot berishi maqsadga muvofiq.

**Qoida. Leksikologiya**

O‘quvchilarga ibora haqidagi nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib berilishi lozim.

**Leksikologiya**

**Tana a’zolari nomi ishtirok etgan iboralardan topib, yozing.**

Ushbu topshiriq lug‘at boyligini oshirish, iboralar haqida tushuncha hosil qilishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan tana a’zolari qatnashgan iboralarga misol topib, yozishlari lozim. Bu jarayonda lug‘atlardan foydalanish mumkin. Asosiy e’tibor iboraning ma’nosini izohlab berishga qaratiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni yo‘naltirish uchun misollar bilan boshlab berishi maqsadga muvofiq.

*Masalan:*

*bosh – boshiga yetmoq (halok qilmoq), ...*

*burun – burnidan chiqdi (tatimadi, zoye bo‘ldi), ...*

*og‘iz – og‘zi qulog‘ida (juda xursand), ...*

**Leksikologiya**

**Quyida ko‘z bilan bog‘liq iboralar keltirilgan. Ularni izohlang, qanday vaziyatda qo‘llash mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.**

Ushbu topshiriq ibora ma’nosini tushunish hamda uni turli vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan iboralarni o‘qib, uning ma’nosini hamda qanday vaziyatga qo‘llash mumkinligini tushuntirib berishlari lozim.

*Masalan, ko‘z qorachig‘idek asramoq – qattiq avaylamoq, qadrlamoq. Biror yaqin kishimizning bizga bergan omonatini ko‘z qorachig‘idek asrashimiz lozim.*

**Leksikologiya. Sintaksis**

**Berilgan birliklarni o‘z va ko‘chma ma’nolarida qo‘llab gaplar tuzing, yozing.**

Ushbu topshiriq so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini farqlash, ma’nosiga mos kontekstda qo‘llay olishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan so‘zlar ma’nosini tushunib, o‘z va ko‘chma ma’nosida qo‘llab, gap tuzib, yozishlari lozim.

*Masalan, ko‘zga ko‘rinmoq: bog‘dagi gullar bir xil rangda ko‘zga ko‘rinadi (o‘z, ko‘z bilan ko‘rmoq); Asilaxon ko‘zga ko‘rinadigan qiz bo‘lib qolibdi (ko‘chma, e’tiborga tushgan).*

**Uyga vazifa**

**Leksikologiya**

**Badiiy kitoblardan iboralar qo‘llangan gaplarni aniqlab, namunadagidek yozing.**

Mazkur topshiriq ma’lumot to‘plash hamda iboralarning kontekstdagi ma’nosini izohlashga qaratilgan. O‘quvchilar badiiy asarlardan iboralar qo‘llangan gapni aniqlab, namunadagidek tahlil qilib yozishlari lozim.

**4-soat**

**Dars jarayoni**

**Kirish**

*Ayting-chi, kun davomida ko‘zingizni nimalar ko‘proq toliqtiradi deb o‘ylaysiz?*

**Asosiy qism**

**O‘qib tushunish**

**Matnni diqqat bilan o‘qing va savollarga javob bering.**

Matn: “Bolalar televizorni qancha vaqt ko‘rishlari mumkin?”

Manba: “Bola odobi bilan aziz” kitobi.

O‘quvchilar matnlarni o‘qib chiqqanlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

## Muhokama

Matn yuzasidan berilgan savollar matnda eksplitsit ifodalangan ma'lumotni topishga hamda matndagi ma'lumotlarni o'z shaxsiy kuzatishlari asosida taqqoslab, munosabat bildirishga qaratilgan. Savollarga o'quvchilarning javobi tinglanadi. Matndagi so'zlarning kontekstual ma'nosi izohlab beriladi.

## Tahlil

**Matndagi xatboshilar bilan kichik mavzularni moslashtirib yozing. Xatboshilarni kirish, asosiy qism va xulosa qismlariga ajrating.**

Mazkur topshiriq o'quvchilarning matn xatboshilari uchun kichik mavzularni tanlay olish, matn qismlarini o'zaro farqlash, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, reja tuzish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Berilgan kichik mavzular qaysi qism uchun sarlavha bo'la olishi aniqlanadi, bunda qaysi birliklar yoki gap, qismning mazmuni unga ishora qilayotgani haqida so'raladi.

*Javob:*

| |
|---|
| *Tasvir aniqligini ta'minlovchi qism* |
| *Televizor ko'rish me'yori* |
| *Rangli televizorning afzalliklari* |
| *Foydali mashg'ulotlar* |

## Yozma nutq

**Ko'zga ziyon keltiruvchi yana qanday odatlarni bilasiz? Ularni yozing.**

Ushbu topshiriq o'quvchilarning matndan olgan xulosalarini aniqlashga qaratilgan. O'quvchilar o'z shaxsiy kuzatishlari asosida *telefon, kompyuter* kabi qurilmalardan me'yoridan ortiq foydalanish ko'z uchun ziyonligini izohlab yozishlari lozim.

## Og'zaki nutq

**Quyida berilgan jadvalni daftarga chizib, to'ldiring. Ushbu jadval yordamida oila a'zolaringiz bilan kunlik televizor ko'rish me'yorlari haqida suhbatlashing.**

Ushbu topshiriq so'rovnoma o'tkazish, ma'lumot to'plash, natijalarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar berilgan jadval bilan tanishib, undagi ma'lumotlar asosida oila a'zolari haqida ma'lumot yozishlari, so'ngra natijalarni matn bilan taqqoslashlari lozim.

## Morfologiya

**Matnda qo'llangan fe'llarning zamoni va shaxs-sonini aniqlang.**

Mazkur topshiriq o'quvchilarning matnni lingvistik tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar matn tarkibidan fe'l zamonlari va ularning qaysi shaxs-sonda ekanini aniqlab, yozishlari lozim.

Dastlab o'quvchilar bilan fe'l, uning zamon va shaxs-son kategoriyalarini takrorlab olish uchun savol-javob o'tkazish maqsadga muvofiq.

## Uyga vazifa

## Leksikologiya. Sintaksis

**Iboralar lug'atidan o'zingizga yoqqan 6 ta iborani yozib oling. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.**

Ushbu topshiriq iboralar ma'nosini tushunish hamda uni mos kontekstda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilarga topshiriq sharti hamda iboralar lug'atidan foydalanish tartibi tushuntirilishi maqsadga muvofiq.

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Rasm asosida bog'lanishli matn tuzing.**

Mazkur topshiriq berilgan tasvirni tushunish hamda u asosida matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.


Bunda o'quvchilarga rasm bilan bog'liq, matnda uchrashi mumkin bo'lgan ayrim atamalar yodga solinishi, bog'lanishli nutq yaratish va unda qo'llaniluvchi vositalarga oid tavsiyalar berilishi maqsadga muvofiq.

QLED – yorug'lik chiqaradigan nuqta.

# JIGAR – ENG MEHNATKASH A’ZO

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilar ongida salomatlikka oid til birliklarini faollashtirish; audiomatnni tinglab, og‘zaki munosabat bildirish; chizma va ma’lumotlarni birlashtirib, matn yoza olish; matnni o‘qib tushunish orqali uni tashkil qilgan komponentlarning anglatayotgan ma’nosi (har bir so‘z, so‘z birikmasi va gap shaklining qanday ma’no tashiyotgani)ni bilish; berilgan mavzu yuzasidan matn (esse) yozib, so‘zlab berish; matndagi bog‘lovchi, yuklama va ko‘makchilarni aniqlab, ularni ma’no-mazmuniga ko‘ra farqlab, tahlil qilish; adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda nutqqa mos keluvchi iqtiboslar tanlab, mazmunli, ta’sirchan va ravon so‘zlay olish ko‘nikmasini shakllantirish.

## 1-soat




### Dars jarayoni

#### Kirish

*Ichki a’zolaringiz nomini va joylashgan o‘rnini bilasizmi? Javobingizni izohlang.*

Mazkur savol o‘quvchidan qo‘shimcha bilim talab qilmaydi. O‘quvchilar so‘zma-so‘z hammasini aytib berishi shart emas. Bitta gap bilan bir a’zo va uning joylashuvini aytsa ham hisobga olinadi. Bunda o‘quvchining lug‘at boyligi hamda joylashuvni tushuntirishga oid til birliklaridan foydalana olishi tekshiriladi.

*Masalan, “O‘pka – nafas olish a’zosi, u ikkita qovurg‘a orasida joylashgan”, deb ayta olishi maqsadga muvofiq.*

#### Asosiy qism

#### Tinglab tushunish

**Audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.**

Audiomatn: “Qontomirlar”.

***Qontomirlar***

*Bino qurilganda xonalari yorug‘ bo‘lishi va undagi qurilmalar ishlashi uchun elektr simlar tortiladi. Elektr simlar bino devoring ichidan o‘tkazilgani uchun ko‘rinmaydi. Lekin shu simlar bo‘lmasa, binoning energiya quvvati ham bo‘lmaydi.*

*Butun tanamiz bo‘ylab tarqalgan qon tomirlarini ham elektr simlariga o‘xshatish mumkin. Chunki barcha a’zolarimizni harakatga keltirib turadigan quvvat mana shu tomirlar orqali yetkaziladi.*

*Qontomirlar tanamizdagi eng murakkab va eng katta tizimlardan biri hisoblanadi. Eng mayda tomirlar soch tolasidan 50 marta ingichka bo‘ladi, qalinlari esa jimjiloqdek keladi. Agar odam tanasidagi barcha qontomirlar bir-biriga ulansa, 100 000 km dan uzun “arqon” hosil bo‘ladi. Bu “arqon” Yer sayyorasini 2 marta o‘rab chiqishga yetadi.*

*Tomirlarda har kuni minglab litr qon aylanadi. Qon tana a’zolariga kislorod va boshqa kerakli moddalarni yetkazib beradi. Shu bilan birga, qon karbonat angidridni va boshqa*

*moddalarning chiqindilarini olib qaytadi. Xullas, tomirlarimizdagi qon tanamizdagi moddalar almashinuvini ta'minlab turadi.*

### Muhokama

**1. Tanamiz bo'ylab tarqalgan qontomirlar qaysi jihati bilan elektr simlariga o'xshab ketadi?**

Mazkur savol audiomatnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. Ma'lumotga ko'ra, *elektr simlari ko'rinmaydigan joyda joylashgan bo'lib, butun xonani yoritish uchun quvvat manbaini yetkazib turganidek qontomirlar ham barcha a'zolarni harakatga keltiruvchi quvvat manbai bilan ta'minlab turadi.* Bunda javobni so'zma-so'z aytish talab qilinmaydi. Asosiy e'tibor ma'lumotni tushungan holda og'zaki nutqda ifodalab berishga qaratiladi.

**3. Qontomirlarning uzunligi va qalinligi haqida qanday ma'lumotlarni bilib oldingiz?**

Bu audiomatnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan savol bo'lib, o'quvchilardan audiomatnda tilga olingan ko'rsatkichlarni tushunib, aytib berish talab qilinadi. Bu savoldan maqsad o'quvchining xotirasini sinash emas, balki o'z ichki organlarining faoliyati haqida qisman ma'lumotga ega bo'lishi va unga oid til birliklarini nutqda faol ishlatishiga qaratilgan.

**4. Qontomirlarning vazifasi nimadan iborat?**

Bu savolning javobi audiomatnning xulosa qismida aytib o'tilgan. Unga ko'ra, *qontomirlar tanamizda modda almashinuvini ta'minlab turadi.*

**5. Qon o'z vazifasini to'liq bajarishi uchun unga qanday a'zolar yordamga keladi? Ular haqida gapiring.**

Bu o'quvchilarni audiomatndan olgan ma'lumotlari asosida xulosa chiqarishga yo'naltiradi. O'quvchilar qon tomirlari haqida egallagan ma'lumotlari asosida mantiqan o'ylab, javob berishlari mumkin.

### Og'zaki nutq. Infografika asosida suhbat

**Rasmni diqqat bilan kuzating, berilgan ma'lumotlar yordamida qon aylanish tizimi haqida gapirib bering.**

Ushbu topshiriq berilgan infografikani tushunish, undagi ma'lumotlarni aytib bera olishga qaratilgan. Bunda qon aylanish tizimi aks etgan rasm hamda har bir rasmga qisqa izoh mavjud, o'quvchilar mana shu rasm va ma'lumotni integratsiya qilib, tushunganlarini og'zaki bayon etishi lozim.

Bu topshiriqda asosiy e'tibor bog'lanishli nutq tuzish, berilgan birliklarni nutqda to'g'ri qo'llash hamda axborotni tushunarli yetkazishga qaratiladi.

### Sintaksis. Yordamchi so'zlar

**1. "Qontomirlar" audiomatnini tinglang. Berilgan gaplarni davom ettiring.**

O'quvchilar topshiriq sharti hamda berilgan gaplar bilan tanishganlaridan so'ng audiomatn qayta eshittiriladi. O'quvchilar audiomatnni eshitish davomida berilgan gaplarning mantiqiy davomini aniqlab olishlari lozim. Audiomatn yakunlangach, o'quvchilardan tinglab tushungan ma'lumotlari asosida gaplarni davom ettirib yozish talab etiladi. Bu jarayonda o'quvchilar gap tarkibida ajratib ko'rsatilgan bog'lovchilarga e'tibor qaratishi lozim.

O'quvchilardan audiomatndagi gaplarni so'zma-so'z yozib berish talab etilmaydi. Asosiy e'tibor ma'lumotni tushunib, gaplarni mazmunan davom ettira olishga qaratiladi.

### Muhokama

**Yozgan gaplaringizni o'qing. Aytingchi, *lekin, chunki, va* so'zlarisiz ham gaplarni davom ettirish mumkinmi? Ular nima maqsadda qo'llangan deb o'ylaysiz? Fikringizni izohlang.**

Bu yuqorida berilgan topshiriqning mantiqiy davomi bo'lib, o'quvchi yozgan gaplari tarkibidan ajratib ko'rsatilgan so'zlarni qoldirib, gaplarni o'qishi, mazmundagi o'zgarishni tushunishi hamda ushbu so'zlar gaplarni

bir-biriga bog‘lashga xizmat qilayotganini anglashi lozim.

### Qoida. Yordamchi so‘zlar

O‘quvchilar bog‘lovchilar haqida amaliy topshiriq orqali tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng ularga nazariy ma’lumot beriladi.

### Sintaksis. Yordamchi so‘zlar

**Ikki ustundagi gaplarni o‘qing. Berilgan bog‘lovchilardan foydalanib ularni mazmunan bog‘lang va yozing.**

Bu topshiriq bog‘lovchi haqidagi nazariy ma’lumotni mustahkamlash hamda bog‘lovchilarni mazmuniga mos kontekstda qo‘llashga qaratilgan. O‘quvchilar ikki ustunda berilgan gaplar bilan tanishib, ularni mazmunan moslashtirib yozishlari hamda gap mazmuniga mos bog‘lovchilarni qo‘llashlari lozim.

*Javob:*

- *Yog‘li taomlar va gazli ichimliklar iste’mol qilishni kamaytirish zarur, **chunki** bunday mahsulotlar sizning sog‘ligingiz uchun juda zararli ekanini unutmang.*
- *Jigar kasalliklari ko‘p holatlarda alomatlarsiz kechishi mumkin, **shuning uchun** vaqti-vaqti bilan shifokor ko‘rigidan o‘tib turish lozim.*
- *Jigar ovqatni hazm qilishga yordam beradi **hamda** hayot uchun zarur bo‘lgan moddalarni sintezlaydi, organizmdan toksinlarni siqib chiqaradi.*
- *Dori-darmonlarni shifokor tavsiyasisiz qabul qilmang, **chunki** har bir insonning organizmi o‘ziga xos tuzilgan bo‘lib, ba’zi dorilar sizda noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.*
- *Tana vaznini nazorat qilish muhim, **shuning uchun** tana vaznining besabab va tezlik bilan oshishini kuzatsangiz, darhol shifokor ko‘rigiga boring.*


### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Berilgan gaplarni o‘qing. Fikrlaringiz asosida ularni davom ettiring hamda *va, ammo, lekin, chunki, biroq* kabi bog‘lovchilar yordamida gaplarni mazmunan bog‘lab, qon aylanish tizimi haqida matn yozing.**

Ushbu topshiriqda qon aylanish tizimi haqida 5 ta gap berilgan. Ushbu gaplar o‘quvchi uchun notanish emas, dars davomida o‘tilgan matnlar asosida shakllantirilgan. O‘quvchilar ushbu gaplarni berilgan bog‘lovchilar bilan mazmunan bog‘lab, matn yaratishlari lozim. Bunda matn uchun sarlavha, foydalanish uchun bog‘lovchilar hamda ma’lumot ham berilgan. Asosiy e’tibor ularni bog‘lab, matn tuza olishga qaratiladi.

## 2-soat



Berilgan gaplarni o‘qing. Fikrlaringiz asosida ularni davom ettiring hamda ***va, ammo, lekin, chunki, biroq*** kabi bog‘lovchilar yordamida gaplarni mazmunan bog‘lab, qon aylanish tizimi haqida matn yozing.

1. Qon odam tanasiga quvvat beradi.
2. Tomir – qon harakatlanadigan “quvur”.
3. Yurak qonni tomirlar bo‘ylab haydab turadi.
4. O‘pka qonni kislorod bilan boyitadi.
5. Jigar qonni tozalab beradi.

Matnni diqqat bilan o‘qing. Savollarga javob bering.

HIMOYACHI JIGAR

Odam tanasini ulkan zavodga o‘xshatish mumkin. Ovqatlanganimizda, yurganimizda, o‘ylaganimizda, **hatto** uxlayotganimizda ham tanamizdagi milliardlab hujayralar tinimsiz ishlab turadi. Bu “zavod”ning eng katta va eng mehnatkash ishchisi nimaligini bilasiz**mi**?

Bu – jigar. U insondagi eng katta ichki organ bo‘lib, og‘irligi 1,5 kg keladi. U bir vaqtning o‘zida 500 dan ortiq vazifani bajaradi.

Shifokorlar bejiz jigarni odam organizmining filtri deb atashmaydi. Chunki jigar ichimizga kirib qolgan turli zararli moddalardan bizni himoyalash uchun tinmay harakat qiladi.

Tanadagi qon aylanishi inson hayotini ta’minlab turadi. Qon tana bo‘ylab bir marta aylanganida tarkibidagi barcha foydali moddalarni sarflab bo‘ladi. Endi qonni qaytadan zarur moddalar bilan to‘yintirish, jonlantirish kerak! Bu vazifaga esa jigar mas’ul hisoblanadi. **Xuddi** kimyoviy laboratoriyaga o‘xshab ketadigan jigarimiz o‘ziga quyilgan qonni “tekshiradi”, uning tarkibini aniqlaydi. Qaysi moddadan ko‘proq, qaysi moddadan kamroq qo‘shishni “o‘ylab ko‘radi”. Agar shu kuni ko‘p ovqat yeganimizdan oshqozonimiz qiynalayotgan bo‘lsa, jigarimiz buni **ham** hisobga oladi.

Jigarimizning 70 foizi suvdan tashkil topgan. U bir soatda 100 litr qonni tozalab beradi. Bir kunda jigar filtrlangan qon bilan 7 ta vannani to‘ldirishi mumkin.

*“Jajji akademik” jurnalidan*

FOYDALI

sarimsoq, avokado, funduk yong‘og‘i, ko‘k choy, limon, zaytun moyi, olma

1. Nima uchun inson tanasini ulkan “zavod”ga o‘xshatamiz?
2. Jigarning ko‘rinishi, tuzilishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Qon aylanish tizimining yaxshi ishlashida jigarning o‘rni qanday?
4. Matn tarkibida qo‘llangan qo‘shtirnoqlarga e’tibor bering, ularning qo‘llanish sabablarini tushuntiring.

61

### Dars jarayoni

### Kirish

*Gaplarni bir-biriga bog‘lashda nimalardan foydalaniladi? Misollar bilan ayting.*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

Matn: “Himoyachi jigar”

Manba: *“Jajji akademik” jurnali.*

O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**Muhokama**

**Matnni diqqat qilib o‘qing. Savollarga javob bering.**

**1. Nima uchun inson tanasini ulkan “zavod”ga o‘xshatamiz?**

Matnning birinchi xatboshisida berilgan ma’lumot asosida o‘quvchilar mantiqan fikrlab, javob berishi lozim. Bu jarayonda ularning qiyoslash, taqqoslash, o‘xshatish va munosabat bildirishiga e’tibor qaratiladi.

**2. Jigarning ko‘rinishi, tuzilishi haqida nimalarni bilib oldingiz?**

Bu savolning javobi matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan. Matnning ikkinchi xatboshisida bu haqida ma’lumot berilgan. O‘quvchi ushbu ma’lumotni o‘z tushunchalari asosida aytib bera olishi lozim. Bunda matndagi ma’lumotlarni so‘zma-so‘z aytish shart emas, asosiy e’tibor o‘quvchining axborotni to‘g‘ri qabul qilib, to‘g‘ri yetkazishiga qaratiladi.

**3. Qon aylanish tizimining yaxshi ishlashida jigarning o‘rni qanday?**

Bu savolning javobi matnning 3-xatboshisida berilgan ma’lumotlarni parafraza qilish orqali chiqariladi. Ya’ni 3-xatboshida jigarning o‘rni emas, balki ahamiyatini anglashga qaratilgan gaplar berilgan. O‘quvchilar ushbu gaplarning mazmunini tushunib javob berishi lozim.

**4. Matn tarkibida qo‘llangan qo‘shtirnoqlarga e’tibor bering, ularning qo‘llanish sabablarini tushuntiring.**

Bunda o‘quvchi dastlab matn tarkibida qo‘shtirnoqda kelgan so‘zlarni aniqlab oladi. So‘ngra ushbu so‘zlarning gapdagi mazmuniga qarab nima maqsadda qo‘shtirnoqdan foydalanilganini aytishi lozim.

*Javob: ko‘chma ma’noda kelgani uchun.*

**Yordamchi so‘zlar**

**Matnda ajratib ko‘rsatilgan birliklarni o‘zi bog‘langan gap bilan birgalikda ko‘chirib yozing. Sizningcha, ushbu birliklar gaplarga qanday ma’nolarni yuklayapti? Fikringizni izohlang.**

Ushbu topshiriqda o‘quvchilar matn bilan qayta ishlashlari lozim. Bunda o‘quvchilar matn tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni o‘zi bog‘langan gap bilan birgalikda ko‘chirib yozishi hamda ushbu birliklarning gap mazmuniga ta’sirini aniqlab, aytishi lozim.

Bunda aniq bir nazariy ma’lumot aytishlari talab qilinmaydi. Asosiy e’tibor ushbu birliklarning ahamiyatini tushunib, munosabat bildirishiga qaratiladi.

**Qoida. Yuklama haqida nazariy ma’lumot**

O‘quvchilar yuklama haqida amaliy topshiriq orqali tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng ularga nazariy ma’lumot beriladi.

**Yordamchi so‘zlar**

**Berilgan rasmlar o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor? *Xuddi, go‘yo, go‘yoki, naq* singari o‘xshatish yuklamalaridan foydalaning, ularni izohlab yozing.**

Bu qiziqarli topshiriq bo‘lib, ichki organlar tizimi haqida tasavvur uyg‘otish, ikkita narsani taqqoslab, munosabat bildirishni o‘rgatishga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilar berilgan rasmlarni ko‘rsatkichlar bo‘ylab o‘zaro solishtirib, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni berilgan o‘xshatish yuklamalari orqali qiyoslab yozishlari lozim. Bu jarayonda ma’lumot uchun “Himoyachi jigar” matnidan foydalanishlari mumkin.

**Qoida. Ko‘makchi haqida nazariy ma’lumot**

O‘quvchilarga ko‘makchi va uning turlari haqida nazariy ma’lumot beriladi.

**Yordamchi so‘zlar**

**“Himoyachi jigar” matnidan *uchun, bo‘ylab, bilan* so‘zlari qatnashgan gaplarni ko‘chirib yozing. Ushbu so‘zlar gaplarga qanday ma’no yuklayapti? Ularni yolg‘iz qo‘llash mumkinmi? Fikringizni misol orqali izohlang.**

Mazkur topshiriq ko‘makchilarning gapdagi mazmuni, kontekstda kelishini tushuntirishga qaratilgan. O‘quvchilar matn

tarkibidan *uchun, bo‘ylab, bilan* ko‘makchilari qatnashgan gaplarni topib, ko‘chirib yozishlari hamda gapdagi vazifasini misollar bilan tushuntirib berishlari lozim.

Bu jarayonda berilgan nazariy ma’lumotdan foydalanish mumkin.

**Uyga vazifa**

**Yordamchi so‘zlar**

**Internet manbalari, gazeta yoki salomatlikka oid jurnallardan mavzuga oid ikki xil ma’lumot bilan tanishing. Tanishgan ma’lumotlaringizni qiyoslang, eng ishonchli deb bilgan ma’lumotlaringizni tartiblab, jigarning organizmdagi faoliyati haqida taqdimot tayyorlang.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, ijodiy yondashishlariga qaratilgan bo‘lib, *o‘quvchilar sanab o‘tilgan manbalardan ma’lumot to‘plashi, to‘plangan ma’lumotlarni saralashi hamda ulardagi axborot ishonchli-ishonchsizligini tekshirib, taqqoslagan holda* berilgan ko‘rsatma asosida taqdimot tayyorlashi lozim.

Bu jarayonda qo‘shimcha bilim talab etilmaydi. O‘quvchilar dars davomida egallagan bilimlari hamda hayotiy kuzatishlari asosida ma’lumotni ishonchli-ishonchsizga ajrata olishi lozim.

## 3-soat

### Dars jarayoni

**Kirish**

*Ma’lumotlarni ishonchli-ishonchsizga ajratishda nimalarga e’tibor qaratiladi?*

**Asosiy qism**


**Og‘zaki nutq**

**Uy vazifasi bo‘yicha taqdimot qiling. Partadoshingizning nutqini tinglang va taqdimotiga baho bering.**

Bunda o‘quvchilarning tayyorlab kelgan taqdimotlari tekshiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilar kuzatuvchi bo‘lishadi, ya’ni taqdimot qilishga chiqqan sinfdoshlarini o‘tirgan tinglovchilar kuzatib, munosabat bildirishi lozim.

Taqdimotga munosabat bildirishda o‘quvchilar taqdimot tayyorlashga berilgan yo‘riqnomaga asoslanishlari aytiladi.

Hammaning fikri tinglangach, eng yaxshi taqdimot egasi sinf bilan birgalikda aniqlanishi maqsadga muvofiq.



Uy vazifasi bo'yicha taqdimot qiling. Partadoshingizning nutqini tinglang va taqdimotiga baho bering.

Berilgan matnni o'qing. Savollarga javob bering.

Oilada 3 nafar farzandmiz: men, singlim Zulfizar va ukam Sardor. To'ng'ich farzand bo'lganim uchun yoshligimdan menga ota-onam: "Sen ukalaring uchun javobgar va mas'ul bo'lishing kerak", – deb uqtirib kelishgan. Singlim va ukamga boshlang'ich sinfda o'qish, yozishni o'rgatish, maktab imtihonlariga tayyorlash mening zimmamda edi. Zulfizar skripka chalishni mashq qilardi. Men bu cholg'uni chalishni o'sha paytda mukammal bilmasamda, anglagan narsalarimni unga o'rgatardim. U bu xotiralarni hozir ham yaxshi eslaydi. Sardor taekvondo sport turini yaxshi o'zlashtirishi uchun kompleks mashg'ulotlarda u bilan birga shug'ullanar edim. Umuman, ularning biror muvaffaqiyatga erishishi uchun doimo yonlarida turganman. E'tibor va birdamlik bugunga kelib biz jigarlarni ruhan bir-birimizga bog'lab turadigan uzilmas rishtaga aylandi.

*Oydin Abdullayeva*

1. Qahramonimizning oilasida necha kishi bo'lgan?
2. "To'ng'ich farzand" nima degani? Oilada to'ng'ich farzand bo'lish yaxshimi?
3. Qahramonning ukasi va singlisi nimalarga qiziqar edi? Ular muvaffaqiyatlarga erishishida opasining o'rni qanday?
4. Siz ham o'z uka-singillaringizga shunday g'amxo'rlik ko'rsatganmisiz?
5. "E'tibor va birdamlik bugunga kelib biz jigarlarni ruhan bir-birimizga bog'lab turadigan uzilmas rishtaga aylandi". Ushbu gapda "jigar" deganda kimlar nazarda tutilyapti? Bu o'xshatishning sababini izohlang.

Berilgan matn tarkibidan so'zni so'zga bog'lashga xizmat qilayotgan **va** bog'lovchisi ishtirok etgan gaplarni aniqlang. Ushbu bog'lovchini ***bilan, hamda*** bog'lovchilariga almashtirib, gaplarni ko'chiring.

Quyidagi izohlar bilan tanishing. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

| |
|---|
| **Jigarband** – eng yaqin, tug'ishgan qarindosh (farzand, opa-singil, aka-uka). |
| **Jigargo'sha** – farzand. |
| **Jigarpora** – jigarband, jigarimning bir parchasi, yaqinim. |
| **Jigarrang** – qizg'ish, qizil, jigar rangiga o'xshash. |
| **Jigarso'xta** – jigari kuygan, yongan. Og'ir musibat chekib ezilgan, ko'ngli yarim bo'lib qolgan. |
| **Jigarxun** – ezilgan, qiynalgan, xunob bo'lgan. |

Ayting-chi, siz kimlarni jigarlarim deya olasiz? Nima uchun? Ularga qanday yordam berasiz? Nima uchun ularga yordam berish kerak deb o'ylaysiz? Fikringizni matn ko'rinishida yozing.

64

**O‘qib tushunish**

**Berilgan matnni o‘qing. Savollarga javob bering.**

Muallif: Oydin Abdullayeva.

O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, savollar asosida suhbat boshlanadi.

**Muhokama**

**1. Qahramonimizning oilasida necha kishi bo‘lgan?**

Bu savol ma’lumotlarni integratsiya qilib, xulosa chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning kirish qismida berilgan gap mazmunidan qahramonning *birinchi farzand* ekanini anglashi lozim.

**2. To‘ng‘ich farzand nima degani? Oilada to‘ng‘ich farzand bo‘lish yaxshimi?**

Bu savol o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilardan dastlab “to‘ng‘ich” so‘zi haqidagi tushunchalari so‘raladi. So‘ngra ushbu so‘z izohi aytib o‘tiladi.

***To‘ng‘ich –*** *eng katta, birinchi, dastlabki degan ma’nolari bor, birinchi farzandga nisbatan ishlatiladi.*

**3. Qahramonning ukasi va singlisi nimalarga qiziqar edi? Ularning muvaffaqiyatlarga erishishida opasining o‘rni qanday?**

Bu matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan savol bo‘lib, o‘quvchilar ushbu o‘rinlarni topib, munosabat bildirishlari lozim.

**5. *“E’tibor va birdamlik bugunga kelib biz jigarlarni ruhan bir-birimizga bog‘lab turadigan uzilmas rishtaga aylandi”*. Ushbu gapda “jigar” deganda kimlar nazarda tutilyapti? Bu o‘xshatishning sababini izohlang.**

Bu “jigar” so‘zining ko‘chma ma’nosini tushunishga qaratilgan savol bo‘lib, o‘quvchilar gap mazmunidan kelib chiqib, uning ma’nosini tahlil qilib, aytib berishlari lozim.

*Jigar – eng yaqin kishi, yaqin birodar, farzand.*

### Yordamchi so‘zlar

**Berilgan matn tarkibidan so‘zni so‘zga bog‘lashga xizmat qilayotgan *va* bog‘lovchisi ishtirok etgan gaplarni aniqlang. Ushbu bog‘lovchini *bilan, hamda* so‘zlariga almashtirib, gaplarni ko‘chiring.**

Mazkur topshiriq ma’nodosh bog‘lovchilarni tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan “va” bog‘lovchisi ishtirok etgan so‘zlarni topib, uni berilgan ma’nodoshlari bilan almashtirib yozishi hamda gap mazmunidagi o‘zgarish haqida fikrlarini bildirishi lozim.

### Leksikografiya

**Quyidagi izohlar bilan tanishing. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.**

Ushbu topshiriqda “jigar” so‘zidan hosil qilingan birliklar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu birliklarning izohi bilan tanishib, ular ishtirokida gaplar tuzib, yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor, o‘quvchining lug‘at boyligini oshirish, jigar bilan bog‘liq ushbu birliklar haqida tushuncha hosil qilish hamda ma’no-mazmuniga ko‘ra kontekstda to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatishdan iborat. Bu jarayonda o‘qituvchi topshiriqni o‘quvchilar bilan birgalikda doskada bajarib, izohlab o‘tishi maqsadga muvofiq.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Ayting-chi, siz kimlarni jigarlarim deya olasiz? Nima uchun? Ularga qanday yordam berasiz? Nima uchun ularga yordam berish kerak deb o‘ylaysiz? Fikringizni matn ko‘rinishida yozing.**

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar “jigar” so‘zining *eng yaqin kishi, tug‘ishganday yaqin birodar, farzand kabi* ko‘chma ma’noda kelishiga e’tibor qaratishlari lozim.

Bunda o‘quvchilardan yaqinlari nutqida eshitganlari hamda yuqoridagi matnlardan egallagan ma’lumotlari asosida kimlarni “jigarlarim” deya olishi hamda ularga qanday yordam bera olganliklarini matn ko‘rinishida yozish talab etiladi.

## 4-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Ayting-chi, “jigar” so‘zining qanday ma’nolari bor ekan?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Esse yozish tartibi bilan tanishing.**

Ushbu topshiriqdan asosiy maqsad o‘quvchilarga essening tuzilishi, unga oid til birliklari hamda u qanday ma’no-mazmunda yozilishi haqida ma’lumot berishdan iborat.

Bunda o‘quvchiga essening qismlari va har bir qismda nima yoritilishi kerakligi haqida misollar bilan ma’lumot berilgan.

O‘quvchilar ushbu ma’lumotni yaxshi o‘zlashtirib olishi uchun darsni quyidagi tartibda tashkil qilish maqsadga muvofiq:


- o‘quvchilar esse tartibi bilan tanishib chiqadi;
- tanishib chiqqanlaridan so‘ng essening qanday qismlardan tashkil topishini chizmalarda, o‘zlariga tushunarli bo‘lgan usullarda ifodalab beradi;
- esse tartibini tushuntirishda namuna sifatida berilgan esseni birlashtirib, yaxlit matn holida yozadi;
- yozgan essesidan har bir qismga doir til birliklarini aniqlaydi.

So‘ngra o‘qituvchi fikrlarni jamlab, esse haqida umumiy ma’lumot beradi.

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Yo‘riqnoma asosida “Meni hozirdan asra!” mavzusida esse yozing.**

Bu topshiriq o‘quvchilarning esse haqida o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan rasmdagi holatlar bilan tanishib, o‘z munosabatlarini “Meni hozirdan asra!” sarlavhasi ostida jamlab, esse yozishlari lozim. Bu jarayonda esse yozish tartibi berilgan yo‘riqnomadan foydalanishlari maqsadga muvofiq.


Esse yozish tartibi bilan tanishing.

KIRISH

Bu qismda esse mavzusi tushuntiriladi.
*Ushbu esseda **ixtiyoriy mavzu** (inson salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar)ni muhokama qilamiz.*

FIKR BERISH

Essening bu qismida siz mavzu yuzasidan o‘z qarashlaringizni ifodalashingiz kerak.
*Mening fikrimcha, sog‘lik – insonga berilgan bebaho ne’mat. Shunday ekan, har bir inson ushbu ne’matni imkon qadar asrab-avaylashi zarur.*

SOLISHTIRISH VA FARQLASH

Bu qismda siz o‘z qarashlaringizdan farq qiladigan fikrlar, ya’ni masalaning ikkinchi tomonini keltirasiz.
*Zamonaviy texnika taraqqiyoti, sanoat rivojlanishining bir qancha afzalliklari bilan birgalikda salbiy ta’siri ham borligi haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz?*

NATIJANI IFODALASH

Ushbu fikrda siz umumiy bir to‘xtamga kelib, o‘zingiz tarafdori bo‘lgan fikrni natija sifatida keltirasiz.
*Aynan mana shular, ya’ni kimyoviy qo‘shimchalarga boy mahsulotlar, ayrim texnik jihozlarning salbiy ta’siri har bir insondan o‘z sog‘ligi haqida jiddiy o‘ylab ko‘rishni talab etadi.*

MISOLLAR KELTIRISH

Essening bu qismida siz hayotiy misollar keltirish orqali mavzuni yanada boyitishingiz mumkin.
*Texnika rivojlanishi insonlar orasida kam harakatlilik ortidan kelib chiqadigan kasalliklarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Kimyoviy qo‘shimchalar bilan boyitilgan oziq-ovqatlar iste’moli esa turli og‘ir kasalliklarni yuzaga chiqarayotgani achinarli hol.*

QO‘SHIMCHA QILISH

Bu qismda siz mavzuga bevosita aloqador deb bilgan (garchi ular o‘zingizniki bo‘lmasa ham) g‘oya, fikr va qarashlarni qo‘shimcha sifatida keltirishingiz mumkin.

YECHIMLAR TAKLIF QILISH

Bu qismda siz essedagi muhokamali mavzu yuzasidan o‘z yechim va takliflaringizni berasiz.
*Shunday ekan, o‘z sog‘ligiga e’tiborli bo‘lgan har bir kishi tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan taomlarni iste’mol qilishi, texnikadan me’yorida foydalanishi, ko‘proq jismoniy harakat bilan shug‘ullanishi maqsadga muvofiq.*

XULOSA

Xulosa – essening yakunlovchi qismi. Bunda siz butun essedagi qarashlaringizni tugal bir fikr bilan ifodalashingiz kerak.
*Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har biringiz o‘z sog‘ligingiz uchun mas’ulsiz. To‘g‘ri ovqatlaning, jismoniy mashqlarni doimiy ravishda bajaring, eng asosiysi, har narsaning me’yori borligini hech ham yodingizdan chiqarmang.*

65

## MUSTAHKAMLASH

### Sintaksis. Tahlil

**“Jigar – eng mehnatkash a’zo” matnidan istalgan ikki gapni yozib, ularni namunadagidek tahlil qiling.**

Mazkur topshiriq “Jigar – eng mehnatkash a’zo” matnini lingvistik tomondan tahlil qilishga qaratilgan. O‘quvchilar matn tarkibidan ixtiyoriy ikkita gapni olib, namunadagidek tahlil qilib yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor so‘zlarga so‘roq berib turkumini hamda mazmunidan gapdagi darajasini aniqlay olishiga qaratiladi.

### Morfologiya

**Quyidagi birliklardan foydalanib jigar haqida gaplar tuzib, yozing. Tuzgan gaplaringizda ko‘makchi, bog‘lovchi hamda yuklamalardan foydalaning.**

Bu topshiriq sodda gaplarni mazmuniga e’tibor qaratgan holda kengaytirib yozish yoki qo‘shma gapga aylantirib yoza olishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarga ikki ustunda berilgan gaplarning mazmunini saqlagan holda ularni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan kengaytirib yozish hamda gaplarni bir-biriga bog‘lashda ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamadan foydalanish aytiladi.

O‘quvchilar gapni kengaytirib yozishda dars davomida o‘zlashtirgan ma’lumotlari hamda hayotiy kuzatishlariga asoslanishi mumkin.

### Tahlil


**Jigar haqida aralash holda berilgan ma’lumotlarni ikki guruhga ajratib yozing.**

Bu topshiriq berilgan ma’lumotlarni saralashga qaratilgan. O‘quvchilar ma’lumot-

lar bilan tanishib, ularni ma’no-mazmuniga ko‘ra guruhlarga ajratib yozishlari lozim.

***Javob:***

| Kasallikning kelib chiqish sabablari | Kasallik alomatlari |
|---|---|
| *nosog‘lom turmush tarzi va noto‘g‘ri ovqatlanish; A, B va C yuqumli gepatit kasalliklari; muntazam alkogol ichish va xolesterini yuqori taomni ko‘p tanovul qilish; ikkinchi turdagi qandli diabet bilan bog‘liq vaznning haddan ortiq og‘irligi; semizlik; qorinda suyuqlik to‘planishi (assit).* | *ko‘ngil aynishi va qayt qilish; ishtahaning yo‘qolishi yoki ozgina taomdan so‘ng to‘yish hissining paydo bo‘lishi; umumiy zaiflik va charchoq alomatlari; qorin bo‘shlig‘ining yuqori qismida og‘riq (o‘ng tomoni yoki o‘ng kurak ostida); jigarning kattalashishi (gepatomegaliya); qorataloqning kattalashishi.* |



Yo‘riqnoma asosida “Meni hozirdan asra!” mavzusida esse yozing.

**MUSTAHKAMLASH**

“Jigar – eng mehnatkash a’zo” matnidan istalgan ikki gapni yozib, ularni namunadagidek tahlil qiling.

Namuna *Odamning (kimning?, ot, ikkinchi darajali bo‘lak) tanasini (nimani?, ot, ikkinchi darajali bo‘lak) ulkan (qanday?, sifat, ikkinchi darajali bo‘lak) zavodga (nimaga?, ot, ikkinchi darajali bo‘lak) o‘xshatish mumkin (nima qilish mumkin?, fe’l, kesim).*

Quyidagi birliklardan foydalanib jigar haqida gaplar tuzib, yozing. Tuzgan gaplaringizda ko‘makchi, bog‘lovchi hamda yuklamalardan foydalaning.


| Ega | Kesim |
|---|---|
| jigar | tana a’zosi hisoblanadi |
| insonlar | bezovtalanadi |
| odamlar | iste’mol qilish kerak |

66

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Yuqorida berilgan ma’lumotlardan foydalanib shifokor va bemor o‘rtasidagi dialog matnini yozing. Bunda dialog matnini yozish qoidalariga rioya qiling.**

Bu topshiriq dialog matni yarata olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar yuqorida berilgan topshiriqdagi ma’lumotlar asosida shifokor va bemor o‘rtasidagi suhbat matnini tayyorlab, dialog ko‘rinishida yozishlari lozim.



Jigar haqida aralash holda berilgan ma’lumotlarni ikki guruhga ajratib yozing.

| Kasallikning kelib chiqish sabablari | Kasallik alomatlari |
|---|---|
| • Nosog‘lom turmush tarzi va noto‘g‘ri ovqatlanish<br>• Ko‘ngil aynishi va qayt qilish<br>• Kutilmagan vazn yo‘qotish<br>• Yuqumli A, B va C gepatit kasalliklari<br>• Ishtahaning yo‘qolishi yoki ozgina taomdan so‘ng to‘yish hissining paydo bo‘lishi<br>• Umumiy zaiflik va charchoq alomatlari<br>• Katta miqdorda alkogol ichish va xolesterini yuqori taomni ko‘p tanovul qilish | • Qorin bo‘shlig‘ining yuqori qismida og‘riq (o‘ng tomoni yoki o‘ng kurak ostida)<br>• Ikkinchi turdagi qandli diabet bilan bog‘liq vaznning haddan ortiq og‘irligi<br>• Jigarning kattalashishi (gepatomegaliya)<br>• Semizlik<br>• Qorataloqning kattalashishi<br>• Qorinda suyuqlik to‘planishi (assit) |

Yuqorida berilgan ma’lumotlardan foydalanib shifokor va bemor o‘rtasidagi dialog matnini yozing. Bunda dialog matnini yozish qoidalariga rioya qiling.




67

# DEHQON YURTNI BOQADI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilar ongida mavsumiy ekinlar, mehnat, dehqonchilik, qishloq xo‘jaligiga oid til birliklarini faollashtirish, infografika asosida og‘zaki nutq yaratish, mavzu bilan bog‘liq publitsistik maqola muhokamasi, unda mavzuni ochib beruvchi til birliklarini ajratish, ularning ma’nolarini o‘rgatish; maqolada qo‘llangan atamalar bilan bog‘liq lug‘at tuzishni o‘rgatish; badiiy uslub, badiiy asar namunalarini ifodali o‘qish, bunda nafas olish va chiqarish, tovushlarning rang-barangligi, baland-pastligi, talaffuzdagi o‘ziga xosliklarni anglash, undov so‘z va uning turlari haqida ma’lumot berish; badiiy uslubga xos bo‘lgan til birliklarini to‘g‘ri qo‘llash hamda chizmadan foydalanib matn yarata olish ko‘nikmasini shakllantirish.

## 1-soat




### Dars jarayoni

#### Kirish

*Infografika nima? Undan nima maqsadda foydalaniladi?*

#### Asosiy qism

#### Og‘zaki nutq

**Ushbu infografika bilan tanishib chiqing. Savollarga javob bering.**

Darslikda 2021-yil yanvar–sentyabr oylarida O‘zbekiston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari aks etgan infografika berilgan.

Ushbu infografikaga diqqat qaratadigan bo‘lsak, asosiy ma’lumotlar rasm, jumla, son, xarita va grafik ko‘rsatkichlar orqali ifodalangan. O‘quvchilar ushbu ma’lumotlarni birlashtirgan holda fikrlarini og‘zaki ifodalab berishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining bog‘lanishli nutq tuzishi, butun sonlarni og‘zaki ifodalashi, diagramma va jumlalar, rasm va ko‘rsatkichlarni integratsiyalab, nutq tuza olishiga qaratiladi.

O‘quvchilar infografika bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng savollar bilan suhbat boshlanadi.

#### Muhokama

**1. Infografika qanday qismlardan iborat?**

Bunda o‘quvchilar infografikada alohida ranglar bilan ajratilgan jumlalar va jumla ostida birlashgan so‘z, rasm va diagrammalarni alohida-alohida tartiblab, ya’ni dehqonchilik mahsulotlari, chorvachilik hamda hududlar kesimidagi umumiy ko‘rsatkichlarga tegishli ma’lumotlarni ajratib olib, qismlarga bo‘lib aytishlari lozim. Bu savolda asosiy e’tibor o‘quvchilarning infografikani qismlarga ajratish orqali fikrlarini tartibli, ketma-ketlikda ifodalashiga qaratiladi.

**2. O‘sish sur’ati deganda nimani tushundingiz?**

O‘quvchilarning bu savolga javob berishlarida asosiy e’tiborni “sur’at” so‘ziga

qaratishlari, uning ma’nosidan kelib chiqishlari nazarda tutilgan.

***Sur’at*** *– surat (rasm) so‘zining paronim jufti bo‘lib, biror-bir ish, harakat, voqea-hodisa va jarayonlarning darajasi, tezligini ifodalaydi.*

O‘quvchilar ushbu so‘zning ma’nosidan kelib chiqib, diagrammalarda ifodalangan ko‘rsatkichlarni taqqoslab, o‘sish sur’atlari aks etgan o‘rinlarni topib, aytishlari lozim.

**3. Infografikani tushunganingiz asosida sharhlang.**

Bu savol har bir o‘quvchining infografikani tushungani asosida erkin fikrlab, javob berishiga qaratiladi.

Ushbu infografik topshiriqning amaliy ahamiyati o‘quvchilarning chizmada aks etgan ma’lumotlarni birlashtirib, fikrlarini publitsistik uslubda og‘zaki bayon qilishiga erishishga qaratilgan.

**Qoida. Infografika haqida ma’lumot**

Og‘zaki suhbat yakunlangach, infografika haqida ma’lumot beriladi.

## Morfologiya

**Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlariga nimalar kiradi? Ularni ikki ustunga ajratib yozing.**

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi, so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra guruhlashi hamda imloviy savodxonligi tekshiriladi. O‘quvchilar infografikadagi ma’lumotdan foydalanib, chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarining nomini ikki ustunga ajratib yozishlari lozim.

*Javob:*

*Chorvachilik mahsulotlari: go‘sht, tuxum, sut, baliq.*

*Dehqonchilik mahsulotlari: donli ekinlar, sabzavotlar, poliz, meva va rezavorlar, kartoshka, uzum.*

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Uch guruhga bo‘lining. Birinchi guruh berilgan infografika asosida dehqonchilik mahsulotlari, ikkinchi guruh chorvachilik mahsulotlari, uchinchi guruh esa hududlar kesimi bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichlarga oid matn tuzib, yozing.**

Bu topshiriqda o‘quvchilar o‘zaro kichik guruhlarda hamkorlik asosida infografik ma’lumotlarni birlashtirib, yozma matn ko‘rinishida ifodalab berishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning o‘z guruhlariga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni saralab olib, butun sonlar, hisob so‘zlar, diagramma va foizlarni yozma ko‘rinishda tartibli va izchil ifodalab berishlariga qaratiladi.

## Test. Tahlil

**Infografika asosida quyida berilgan ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.**

Mazkur topshiriqda infografikadagi ma’lumotlar gap orqali ifodalangan. O‘quvchilar ushbu gaplarni o‘qib, ma’lumotlarni infografika bilan taqqoslab, fikrlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘riga ajratishlari hamda to‘g‘ri deb hisoblagan ma’lumotlarini daftarlariga ko‘chirib yozishlari, noto‘g‘ri deb hisoblagan ma’lumotlar nima uchun xato ekanini aytib berishlari lozim.

***Javob:*** *1 – to‘g‘ri, 2 – noto‘g‘ri, 3 – to‘g‘ri, 4 – to‘g‘ri, 5 – noto‘g‘ri.*

## Uyga vazifa

## Morfologiya

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ro‘yxatini tuzing, ota-onangiz yordamida ularning bozordagi narxlarini aniqlang. Ushbu ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalang.**

Bu topshiriq o‘quvchining erkin izlanishiga qaratilgan. O‘quvchilar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ro‘yxatini tuzib, oila a’zolari ko‘magida ularning narxini aniqlab, to‘plagan ma’lumotlarini jadval ko‘rinishida ifodalab berishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining infografikani tushunganligi, to‘plagan ma’lumotlarini jadvalda tartibli, izchil va tushunarli berishiga qaratiladi.

## 2-soat

### DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, dehqon kim? Dehqonchilik ham kasb hisoblanadimi? Nima uchun?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish. Matn bilan ishlash

Sarlavha: “Dehqonchilik – bilim va sabr uyg‘unlashgan maydon”.

Muallifi: Rahmatulloh Sayfuddinov.

O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. Dehqonchilik kasbining qanday mashaqqatlari bor?**

Ushbu savolning javobi matnda aynan ochiq ifodalanmagan. O‘quvchilar matndagi gaplar mazmuni orqali ushbu savolning javobini ochib berishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor matndan dehqonchilik mashaqqatlari aks etgan o‘rinni topish hamda hayotiy kuzatishlari asosida fikrni tartibli ifodalab berishga qaratiladi.

**2. Dehqonchilik kasbining o‘ziga xos alohida xususiyatlari haqida gapiring.**

Bu savolning javobi matnda ochiq ifodalangan, o‘quvchilar ushbu o‘rinni topib, fikrlarini ketma-ketlikda tartiblab aytib berishi lozim.

**3. Dehqonchilikni yaxshi o‘zlashtirgan odam yer bilan bog‘liq qanday ilmni bilishi zarur?**

Ushbu savolning javobi matnda keltirilgan. O‘quvchilar ushbu o‘rinni topib, fikrlarini tartibli bayon qilib berishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor matn bilan qayta ishlash hamda hayoti davomida kerak bo‘ladigan ma’lumotga ega bo‘lishga qaratiladi.

**7. Matn uchun tanlangan sarlavha haqida o‘ylab ko‘ring, nima uchun shunday sarlavha tanlanganini ayting.**

Ushbu savolda o‘quvchilar matndagi ma’lumotlar mazmunidan kelib chiqib, matn uchun tanlangan sarlavhani izohlab berishi lozim. Agar sarlavhani to‘g‘ri tanlangan deb hisoblasalar, matndan ushbu fikrlarini isbotlovchi o‘rinlarni topib aytib berishlari, aksincha, sarlavha matn mazmuniga mos kelmaydi deyishsa, buni ham misollar bilan asoslab berishlari lozim.

### Matn bilan ishlash

**Berilgan sarlavhalarni matn qismlariga moslab, ko‘chiring.**

O‘quvchilar ushbu topshiriqni bajarishda “Dehqonchilik – bilim va sabr uyg‘unlashgan maydon” matni bilan qayta ishlaydilar. Unga ko‘ra, matn bir nechta qismlarga ajratib berilgan. O‘quvchilar ushbu qismlarni alohida o‘qib, qismlarga mos sarlavhani moslashtirib, ko‘chirishlari lozim.

Matn to‘rt qismdan iborat bo‘lib, oltita sarlavha berilgan. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining ikkita ortiqcha sarlavhani topib, matn qismlariga mosini tanlashi, hamda fikrlarini misollar bilan asoslay olishiga qaratiladi.

### Matn bilan ishlash

**Matndan dehqonchilik bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni ko‘chiring. Dehqonchilik kasbiga oid qanday atamalarni bilasiz? Yozing.**

O‘quvchilar matn bilan qayta ishlab, ushbu tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni topib, ko‘chirishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining so‘z boyligi hamda so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra bitta tushuncha atrofida birlashtira olishiga qaratiladi. Masalan, *hosil, baraka, ketmon, yer, urug‘... kabi.*

### Uyga vazifa

### Leksikologiya

**Muhammad Yusuf she’ridan olingan parchani ifodali o‘qishni mashq qiling. Yuqorida tanishgan matningizdan qaysi jihatlari bilan farqlanishini izohlab bering. Shoir she’rda nimalarni bir-biriga *qiyosla-***

***gan, o‘xshatgan, jonlantirgan*? Ushbu o‘rinlarni ajratib yozing.**

O‘quvchilar she’riy parchani o‘qib, yuqorida tanishib o‘tgan matnlaridan qaysi jihatlariga ko‘ra farq qilishini tushunib yetishi lozim. Bunda dastlab matn va she’riy parchadagi farqlar topiladi. Keyingi bosqichda o‘quvchilar she’rda bir-biriga ***qiyoslangan:*** *oydek yuz, qushdek qo‘nib;* ***o‘xshatilgan:*** *qo‘li tegmoq, uchib yurgan bola;* ***jonlantirilgan:*** *yer aylanar, yer yugurar, ter yugurar* kabi o‘rinlarni topib, alohida-alohida ajratib yozishlari lozim. Mana shu o‘rinlarni she’riy parchadan topish davomida o‘quvchida matnlar o‘rtasidagi farqni sezish ko‘nikmasi shakllana boshlaydi.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarni boshqarib, fikrlarini to‘ldirib borishi maqsadga muvofiq.

## 3-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Abu Rayhon Beruniy qanday olim? U haqida nimalarni bilasiz?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.**

Sarlavha: “Beruniyning dam olish kunlari”.

Manba: Rivoyatlar.

### Muhokama

**1. Beruniyning dam olish kunlari qaysi ekan?**

Bu savolning javobi matnda ochiq ifodalangan. O‘quvchilar ushbu o‘rinni topib, *Beruniy Navro‘z bayrami hamda bug‘doyga birinchi o‘rim tushgan vaqtda dam olganini* aytib berishlari lozim.

**2. Beruniy Navro‘z bayramini qanday kutib olar ekan?**

Bu savolning javobi ham matnda ochiq ifodalangan. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining ushbu o‘rinni topib, fikrlarini ketma-ketlikda tartiblab, aytib berishiga qaratiladi.

**3. Boshoqqa birinchi o‘roq tushishi jarayoni haqida nimalarni bilasiz? Bunday jarayon qachon ro‘y beradi?**

O‘quvchilar bu savolga javob berishda hayotiy kuzatishlari hamda matnda keltirilgan ma’lumotlardan foydalanib fikrlarini erkin ifodalashlari lozım.

**4. Beruniy boshoqni yig‘ib olish jarayonida ishtirok etganda o‘zini qanday his qilar ekan? Siz ham biror ish bilan shug‘ullanish jarayonida o‘zingizni dam olgandek his qilasizmi?**

Bu savol inson holatini ochib beruvchi birliklarning ma’nosini tushunishga qaratiladi. O‘quvchilar ***“oh”, “hayot lazzatini totib”*** kabi jumlalarning ma’nosi orqali Beruniyning ichki his-tuyg‘ularini anglab, *dam olish, rohatlanish holatlari ifodalayotganini* aytib berishlari lozim.

**5. *“Hormang!”, “Bor bo‘ling!”* deganda nimani tushundingiz? Bu so‘zlar qanday holatlarda ishlatiladi?**

Bu savol *“hormang”, “bor bo‘ling”* birliklarining ma’nosini tushunishga qaratiladi. O‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida ushbu so‘zlarning kattalar nutqida qanday vaziyatlarda qo‘llanishini aytib berishlari lozim. Bu o‘rinda o‘qituvchi murojaat birliklari haqida ma’lumot berishi maqsadga muvofiq.

**6. Beruniyning “Bir daqiqa vaqtni behuda o‘tkazganim – halok bo‘lganim”, degan fikrini muhokama qiling.**

Bu savol o‘quvchilarning matn asosida olgan xulosalaridan kelib chiqib, erkin fikrlab, ijodiy javob berishlariga yo‘naltirilgan. Bunda o‘quvchilarning *vaqtni behuda ketkazmaslik, ilm bilan birga jismoniy mehnat ham qilish, uy ishlariga yordamlashish odamni chiniqtirishi, kattalarni xursand qilishi, eng birinchi navbatda vaqt behuda o‘tmay, foydali ishga sarf bo‘lishini tushunishlariga* qaratiladi.

### Qoida. Uslubiyat. Badiiy uslub

Og‘zaki suhbat yakunlangach, badiiy uslub haqida ma’lumot beriladi. Bunda

o‘quvchilarga yuqorida tanishilgan rivoyat Muhammad Yusuf qalamiga mansub she’r bilan “Dehqonchilik – bilim va sabr uyg‘unlashgan maydon” matni o‘rtasidagi farqlar, har bir matnga xos bo‘lgan til birliklari taqqoslab berilishi maqsadga muvofiq.

**Leksikologiya**

**Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang. Ushbu so‘zlar o‘rniga qanday birliklarni qo‘llash mumkinligini yozing. Yozgan birliklaringizdan matn mazmuniga mosini qo‘yib, gapni qayta ko‘chiring.**

Bunda o‘quvchilar matn tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini hayotiy kuzatishlari, kattalar nutqida, shevalarida qanday o‘rinlarda qo‘llanishi hamda lug‘atda qanday ma’nolari bor ekanini aniqlashlari lozim. So‘ng uni namunadagi singari yozib, matndagi ma’nosiga mos keladigan jumla bilan almashtirib ko‘chirish talab etiladi.

Bu topshiriqda asosiy e’tibor, o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, berilgan so‘zning anglatadigan tushunchalari, sinonim qatori bilan tanishtirish, hamda matn mazmuniga mos jumlani to‘g‘ri tanlab, boshqasi bilan almashtirib qo‘llay olishiga qaratiladi.

***Namuna:***

***Ziyorat qilmoq*** – *holidan xabar olmoq, tashrif buyurmoq, qutlug‘ qadamjolarga bormoq, muborakbod etmoq.*

*Navro‘zi olam kirib kelgan kuni erta tongdanoq o‘rnilaridan turib, yuvinib-taranib, yaxshi liboslarni kiyib, qarindosh-urug‘lari, yor-u birodarlarining* ***holidan xabar olar*** *ekanlar.*

**Leksikologiya**

**Berilgan gapni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan birlik qanday ma’noda kelayotganini aniqlab, yozing. Ayting-chi, ushbu birlikning matn mazmuniga qanday ta’siri bor? Fikringizni izohlang.**

Bu gap ertak matnidan olingan bo‘lib, bunda *“oltin boshoq”* birligi ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchilar ushbu birlik nimani anglatib kelayotgani, oltin boshoq deganda bug‘doy nazarga tutilganini matn tarkibidan anglab yozishi lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchi nega *bug‘doy* emas, aynan *oltin boshoq* qo‘llangani, buning matn mazmunidagi ahamiyatini aytib berishiga qaratiladi.

O‘quvchilar javobi tinglangach, qo‘shimcha tarzda *matnning badiiy qimmati, estetik ta’sir kuchini oshirish, so‘zlarni qo‘llashda tasviriy ifodalardan foydalanish o‘rinli ekani haqida ma’lumot beriladi.*

**Leksikologiya**

**Berilgan so‘zlarga mos tasviriy ifodalarni moslashtirib, ko‘chiring. Ularning qanday farqli tomonlari bor? Fikringizni bitta gap misolida izohlab, yozing.**

Bunda ikki ustun berilgan bo‘lib, birinchi ustunda so‘zlar, ikkinchi ustunda shu so‘zlarning ma’nosiga mos tasviriy ifodalar berilgan. O‘quvchilar ushbu birliklarni ma’nosiga ko‘ra moslab yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning so‘zlarning ma’nosiga mos tasvirlarni topa olishi hamda so‘zlar va tasviriy ifodalar o‘rtasidagi farqni tushunib, bitta misol orqali fikrini asoslab berishiga qaratiladi.

*Javob: yer – zangori gilam, chigit – baraka urug‘i, mehnat – peshona teri, suv – ekinning qoni, makkajo‘xori – dala malikasi.*

**Qoida. Leksikologiya**

O‘quvchilar matn va topshiriqlar asosida tasviriy ifoda bilan amaliy jihatdan tanishib, topshiriqlarda qo‘llab ko‘rganlaridan so‘ng, tasviriy ifoda haqida nazariy ma’lumot beriladi.

**Undov so‘zlar**

**Berilgan gapni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z orqali Beruniyning qanday holati ifodalanganini ayting. Yana shunday so‘zlardan bilasizmi? Yozing.**

Bunda matn tarkibidan bir gap keltirilgan bo‘lib, shu gap tarkibida ajratib ko‘rsatilgan birlik orqali Beruniyning qaysi holati ifodalangani so‘ralgan.

Ajratib ko‘rsatilgan birlik ***oh,*** uning ma’nosi gap tarkibidan hamda ohang bilan o‘qiganda anglashiladi. Bu savolga javob berishda o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari davomida o‘zgalar nutqida eshitgan va o‘z nutqida qo‘llaydigan shunga o‘xshash birliklardan yozishlari hamda ularning ma’nosini izohlab berishlari lozim.

O‘quvchilar javobi tinglangach, o‘qituvchi undov so‘zlar haqida ma’lumot berishi maqsadga muvofiq.

### Uyga vazifa

### Leksikologiya

**Oila a’zolaringiz, do‘stlaringiz nutqini kuzating. Ular hayratlanganda, quvonib ketganda, erkalaganda, jahli chiqqanda, norozi bo‘lganda qanday birliklardan foydalanadi? Ularni aniqlab, guruhlarga bo‘lib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.**

Bu topshiriqni har bir o‘quvchi mustaqil kuzatib, bajaradi. Bunda undov so‘zlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu undov so‘zlar o‘zgalar nutqida qanday vaziyatlarda qo‘llanishini aniqlab, misol orqali guruhlarga ajratib yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining undov so‘zni ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajratishi hamda ularni kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olishiga qaratiladi.

## 4-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Ayting-chi, bir fikrni turli ko‘rinishda ifodalash mumkinmi? Bunda qanday usuldan foydalanasiz?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish. Matn bilan ishlash

**Berilgan matnlarni o‘qing. Savollarga javob bering.**

Bunda o‘quvchilarning o‘qishi uchun ikkita matn berilgan. Bu matnlar raqamlar bilan ikki ustunga ajratib ko‘rsatilgan.

**1-matn:** kuz fasli tasviri, ilmiy-ommabop jurnaldan parcha.

**2-matn:** kuz fasli tasviri, “Bahor qaytmaydi” qissasidan parcha.

### Muhokama

**1. Birinchi matndan qanday ma’lumotga ega bo‘ldingiz? Ikkinchi matndan-chi? Sizningcha, ularning mavzusi bir xilmi? Mazmuni-chi?**

O‘quvchilar matnlarning ikkalasidan ham kuz fasli haqida ma’lumotga ega bo‘lganlarini aytib berishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning bir xil mazmunni turli xil matn ko‘rinishida ifodalash mumkinligini tushunib yetishiga qaratiladi.

**2. “Chor-atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to‘ldi”. Ushbu gapni izohlang.**

Bunda matn tarkibidan olingan parcha berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu parchaning ma’nosini hamda matndan anglashilgan mazmunini tushunib, aytib berishi nazarda tutilgan. Bu jarayonda o‘quvchilar hayotiy kuzatishlariga tayanadilar. *Ular barglar to‘kilishidan oldin shamolda ovoz chiqaradi, shu holatni yozuvchi mungli ohangga yuklab, jonlantirib, badiiy tasvir yaratayotganini* tushunib yetishi lozim.

**3. Qaysi matn ruhiyatingizga ta’sir qildi? Qaysi jihatlari bilan?**

Bu savol o‘quvchining shaxsiy kuzatishlari asosida munosabat bildirishiga qaratilgan bo‘lib, ular o‘zlariga ta’sir qilgan matnni hamda uning ta’siri nimada ekanini asosli qilib aytib berishlari lozim.

### Leksikologiya.Tahlil

**Ikkala matn tarkibidan daraxtlarning holati aks etgan o‘rinlarni ko‘chirib yozing. Ular o‘rtasida qanday o‘xshash va farqli jihatlar bor? Fikringizni izohlang.**

Bunda o‘quvchilar ikkala matn tarkibidan daraxtning holatiga oid o‘rinlarni topib, alohida-alohida yozib, so‘ng ularning har birini izohlab, farqli va o‘xshash tomonlarini aytishlari lozim.

Asosiy e’tibor daraxtga xos til birliklarini farqlash hamda ikkinchi matnda daraxtning holati jonlantirilib, badiiy uslubda tasvirlanganini tushunib yetishga qaratiladi.

## Leksikologiya

**Ikkinchi matn tarkibidan quyidagi berilgan so‘zlarga oid tasvirlarni topib, ko‘chiring. Ularning nima maqsadda qo‘llanganini izohlang.**

Bu topshiriqda o‘quvchilar jadvalda berilgan so‘zlarga oid tasvirlarni matn tarkibidan topib yozishi hamda ularga xos til birliklarining qo‘llanishini izohlab berishi lozim.

Masalan, ***quyosh nuri*** *“iliq”, “tansiq” deya tasvirlangan. Bunda o‘quvchi “Quyosh nuri ham tansiq bo‘lishi mumkinmi? “Tansiq” nima degani?” kabi savollarga javob berib, so‘zning ma’nosi, unga xos badiiylikni izohlashi* maqsadga muvofiq.

Bunda asosiy e’tibor, so‘zning ma’nosi bilan birga matnda ifodalagan mazmuni, tasviri, o‘xshatish hamda qiyoslashni izohlab berishlariga qaratiladi.

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Tasavvur qiling, sizning katta ekin maydoningiz bor, u yerga nimalar ekasiz? Uning ko‘rinishi qanday bo‘ladi? Berilgan sxemadan foydalanib “Mening dalam” mavzusida matn yozing.**

Har bir o‘quvchiga ismi bilan murojaat qilib, katta ekin maydoni borligi haqida tasavvur paydo qilinadi. Ularni yo‘naltirish uchun quyidagi savollar beriladi:

1. Dalangizning ko‘rinishi qanday bo‘ladi?
2. U yerda nimalar bo‘ladi?
3. Qanday ekinlar ekasiz?
4. Dalangizga hamma havas bilan qarashi uchun nimalar qilasiz?

Ushbu savollar bilan og‘zaki suhbat yakunlangach, o‘quvchilarga chizma bilan tanishishlari aytilib, quyidagilarga e’tiborlari qaratiladi:

- chizmaga qarang;
- savollarga javob bering;
- savol ostidagi jumlalarni davom ettiring;
- jumlalar orasidan matningiz uchun kerak bo‘ladiganlarini ajratib oling;
- ajratib olgan jumlalaringizni qatnashtirib mavzuga oid gaplar tuzing;
- tuzgan gaplaringizni mazmunan ketma-ketlikda bog‘lab, matn ko‘rinishida yozing.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilar chizma orqali berilgan bosqichlarni tushunib, o‘zlarining matnlari uchun kerakli birliklarni tanlab, ushbu birliklardan o‘rinli foydalanib, bog‘lanishli matn tuzishlariga qaratiladi.

## Uyga vazifa

## Yozma nutq. Tahlil

**“Mening dalam” mavzusida yozgan matningizni partadoshingiz bilan almashtiring. Matn haqidagi munosabatingizni yozma tarzda ifodalang.**

Bunda o‘quvchilar “Mening dalam” mavzusida yozgan matnlarini bir-birlari bilan almashadilar. Hamda yozilgan matnga munosabatlarini bildiradilar, bunda quyidagilarga e’tibor berish aytiladi:


- Matn mazmuni sizga yoqdimi? Nima uchun?
- Matnni qanday his bilan o‘qidingiz? Bunga nima sabab bo‘ldi?
- Partadoshingiz matnda o‘xshatish, jonlantirish, undov so‘zlar hamda tasviriy ifodalardan foydalanganmi? Misol keltiring.
- Matn bo‘yicha o‘z xulosangizni yozing.

Bu topshiriqdan asosiy maqsad o‘quvchilarning tanqidiy qarashlarini shakllantirish hamda munosabat bildirishni o‘rgatishdan iborat.

# KOMPYUTER GRAFIKASI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilar ongida kompyuter grafikasi haqida tasavvur hosil qilish hamda unga oid til birliklarini nutqida faollashtirish; matnni o‘qib tushunish; matn tarkibidan olinma so‘zlarni ajratish, ularning ma’nolarini sharhlash, lug‘at tuzish ko‘nikmasini rivojlantirish; qo‘shma otlari imlosini o‘rgatish; bir xil mavzuda berilgan ikkita e’lon namunasini tahrir qilish, ko‘rsatma asosida e’lon matni yoza olish ko‘nikmasini shakllantirish.

## 1-soat




### Dars jarayoni

#### Kirish

*Ayting-chi, kompyuter grafikasi nima? Undan nima maqsadlarda foydalaniladi?*

#### Asosiy qism

#### Og‘zaki nutq. Rasm asosida suhbat

**Ayting-chi, rasmlarda nimaning yaralish jarayoni aks etgan?**

Darslikda multfilm qahramonlarining yaralish jarayonlari aks etgan rasmlar berilgan. O‘quvchilar rasmdagi holatlar bilan tanishib chiqib, o‘z munosabatlarini og‘zaki tarzda ifodalashlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining rasmdagi holatlarni tushunishi, ushbu holatlarga mos bog‘lanishli nutq tuzib, gapirib berishiga qaratiladi.

O‘quvchilar o‘z munosabatlarini bildirganlaridan so‘ng rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**1. Kompyuterda chizilgan suratlar oddiy suratdan nimasi bilan farq qiladi?**

Bu savolga o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida qo‘lda chizilgan surat bilan kompyuterda chizilgan suratlarni taqqoslab, o‘xshash va farqli jihatlarini aytib javob berishi lozim.

Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga qo‘shimcha savollar berishi ham mumkin. Masalan, *“Qo‘lda rasm chizish uchun nimalardan foydalanamiz? Kompyuterda-chi?”* kabi.

**2. Kompyuterda chizilgan suratning qanday ustunliklari va kamchiliklari bor deb o‘ylaysiz?**

Bunda o‘quvchilar kompyuterda chizilgan suratning afzalliklari, ya’ni *uni darhol o‘chirib tashlash, unga tuzatish kiritish, istalgan yo‘nalishda toraytirish yoki cho‘zish, yaqinlashtirish va uzoqlashtirish, burish, harakatlantirish, rangini o‘zgartirish va boshqa amallarni bajarish mumkinligini, biroq u qo‘lda chizilgan rasmlarchalik jonli va ta’sirchan chiqmasligini* aytib o‘tishi lozim.

Dastlab o‘quvchilarning fikri tinglanadi, so‘ngra o‘qituvchi tomonidan qisqa izoh berib o‘tiladi.

#### Og‘zaki nutq. Rasm asosida suhbat

O‘quvchilar diqqati darslikda berilgan sohalar va ularga oid suratlarga qaratiladi

hamda rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**1. Ayting-chi, bu sohalarda kompyuter grafikasidan qay maqsadda va qanday shaklda foydalaniladi? Javoblaringizni asoslang**.

Mazkur savolda o‘quvchining rasmga munosabat bildira olishi bilan birgalikda fikrlarini asoslab bera olishiga e’tibor qaratiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilardan javob olishga harakat qilishi, quyidagi ma’lumotlar bilan javoblarini to‘ldirib, ko‘maklashib borishi lozim:

***Kinematografiya va multiplikatsiya –*** *tasvirga uzatilayotgan obyektlarni chizish va harakatlantirish mumkin.*

***Arxitektura va muhandislik –*** *turli bino va inshootlarni ichki va tashqi ko‘rinishini chizish, harakatlantirib ko‘rish mumkin.*

***Tibbiyot –*** *qiyin jarrohlik operatsiyalarini amalga oshirishda foydalaniladi.*

***Rassomlik –*** *turli rang va tasvirlardan foydalanish, murakkab shakllarni turli ko‘rinishda ifodalash mumkin.*

***Ta’lim –*** *onlayn ta’lim uchun platformalar, elektron jurnallar yaratiladi.*

***Noshirlik –*** *kitob, gazeta-jurnal sahifalarini yaratishda foydalaniladi.*

**2. Yana qaysi sohalarda kompyuter grafikasidan foydalaniladi? Misollar bilan tushuntiring.**

Kompyuter grafikasi *reklama, internet, loyihashunoslik, ilmiy-metodik* sohalarda ham keng qo‘llanadi. O‘quvchilardan buni so‘zma-so‘z aytishlari talab qilinmaydi. Ular javob berishga qiynalganda yo‘naltiruvchi savollar berish maqsadga muvofiq. *Masalan, “Reklamalarni kuzatganmisiz? Undagi hamma harakatlarni tasvirga olish mumkinmi?”* kabi.

Bunda asosiy e’tibor shu sohalarda ham kompyuter grafikasidan foydalanish mumkinligi, bu sohaning muhimligini ta’kidlash va unga qiziqadigan o‘quvchilarda tasavvur uyg‘otishdan iborat.

**3. Ayrimlar yaqin kelajakda ba’zi sohalar to‘laligicha kompyuter grafikasiga o‘tib ketishini aytadi. Siz bu fikrga qanday munosabatdasiz?**

Bu o‘quvchilarni muhokamaga chorlaydigan savol bo‘lib, e’tibor fikrni asoslab berishga qaratiladi, ya’ni o‘quvchi bu fikrni yoqlasa, bunga sabab bo‘lgan omillarni sanab berishi, yoqlamasa, nima uchun bunday deb o‘ylashini misollar bilan aytib bera olishi lozim.

**4. Ba’zi mutaxassislar yaqin kelajakda odamlar uyidan chiqmay, virtual olamda yashashi mumkinligi haqida aytishmoqda. Siz bunga ishonasizmi? Bu insoniyatga nima beradi va nimalardan mahrum qiladi? Fikrlaringizni dalillang.**

O‘quvchilar berilgan fikrga o‘z munosabatlarni bildirishi lozim. Bunda ular ***virtual*** so‘zining ma’nosini bilishi hamda shu so‘zning mohiyatini tushungan holda uning insoniyatga ta’sirini misollar bilan dalillab berishi maqsadga muvofiq.

***Virtual*** *– noreal bo‘lgan, dasturiy muhitda yaratilgan olam. Sodda qilib aytganda, kompyuterda yaratilgan, aslida yo‘q bo‘lgan olam.*

## Leksikologiya

**Berilgan so‘z va so‘z birikmalarini izohi bilan ko‘chiring.**

Darslikda kompyuter grafikasiga oid til birliklari hamda ularning izohi berilgan. O‘quvchilar so‘z va so‘z birikmalarini izohlari bilan moslashtirib ko‘chirishlari lozim.

O‘quvchilar bu topshiriqni bajarishda yuqoridagi savol-javoblar asosidagi muhokamadan egallagan bilimlariga tayanadilar.

***Javob:***

***Kompyuter grafikasi –*** *kompyuterda hosil qilingan (chizilgan) tasvir.*

***Arxitektura –*** *(me’morlik) bino va inshootlarni loyihalash va qurish san’ati.*

***Muhandislik –*** *ilmiy bilimlarga asoslanib texnik qurilmalar, tizim va materiallar yaratish hunari.*

***Noshirlik –*** *kitob, gazeta, jurnal kabi bosma mahsulotlarini tayyorlash, nashr qilishga oid soha.*

***Virtual olam –*** *kompyuter grafikasi asosida yaratilgan, dasturlashgan borliq.*

***Kinematografiya –*** *harakatdagi tasvirlar – kino yaratish san'ati.*

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Kompyuter grafikasi qo'llanadigan biror soha haqida kichik matn yozing. Yozgan matningizda bu sohada kompyuter grafikasi nima maqsadda ishlatilishi haqida ma'lumot bo'lishi kerak.**

Mazkur topshiriqda o'quvchilar yuqorida egallagan bilimlari asosida kichik matn yozishlari lozim. Bunda asosiy e'tibor o'quvchining mavzu doirasida bog'lanishli nutq tuzishiga, kompyuter grafikasi va tanlab olgan sohasiga oid til birliklaridan o'rinli foydalanishiga qaratiladi.

**Uyga vazifa**

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Yana qanday sohalarda kompyuter grafikasidan foydalanishni tavsiya qilgan bo'lar edingiz? Ushbu sohalarda kompyuter grafikasidan foydalanishning afzalliklari haqidagi fikrlaringizni matn ko'rinishida yozing.**

Ushbu topshiriq o'quvchidan dars davomida egallagan bilimlari asosida mustaqil izlanib, ijodiy yondashishishni talab qiladi. O'quvchilar erkin fikrlab, kompyuter grafikasidan foydalanish afzal deb bilgan sohalari haqida matn yozishlari lozim.

Bu jarayonda o'qituvchi savollar bilan bugungi mavzuni mustahkamlab olishi hamda matn yozishga doir ko'rsatma berishi maqsadga muvofiq.

## 2-soat

### Dars jarayoni

**Kirish**

*Sizningcha, qaysi sohalarda kompyuter grafikasidan ko'proq foydalanish o'rinli? Nima uchun?*

**Asosiy qism**

**O'qib tushunish. Matn bilan ishlash**

Ushbu matn orqali o'quvchilarda ilmiy-ommabop matnning ifoda shakli, matnning tuzilishi, unga oid til birliklari, mavjud bo'lgan axborot haqida ma'lumot berish maqsad qilingan.

**Sarlavha:** "Kompyuterda yaralgan tasvir".

**Muallif:** Sa'dulla Quronov.

O'quvchilar matnni o'qib chiqqanlaridan so'ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**KOMPYUTERDA YARALGAN TASVIR**



Kompyuter grafikasi deganda maxsus dasturlar ko'magida yaratilgan tasvir tushuniladi. Bu nisbatan yangi va juda tez rivojlanayotgan sohalardan biridir. Kompyuter grafikasi ustalari dunyoda eng ko'p daromad topadigan mutaxassislar qatorida turadi. Shuning uchun hozir kompyuter grafikasini o'rganish istagida bo'lgan yoshlar ko'p.

Kompyuter grafikasi juda ham keng tarmoqli bo'lib, hozir undan deyarli barcha sohalarda foydalaniladi. Zamonaviy televideniye, kinematografiya, multiplikatsiya, arxitektura, muhandislikning barcha turlari va ta'limni kompyuterda yaratilgan tasvirlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Televideniyeda beriladigan turli reklama roliklari, ekran ostidagi maxsus yozuvlar, ko'rsatuv boshlanmasidagi animatsiyalar, suxandonlar ortidagi chiroyli tasvirlar – bularning barini kompyuter grafikasi ustalari tayyorlaydi.



Zamonaviy kinolarning asosiy qismini kompyuter grafikasi tashkil qiladi. Hozir aktyorlar yashil fonli **studiya**dan chiqmay rol ijro etishi mumkin. Grafika ustalari esa ularni tasvirdan uzib olib, so'ng istalgan **virtual makon**ga tushirib qo'yishadi. Endi qum bo'ronlarini tasvirga olish uchun Sahroyi Kabirga yoki Markaziy Afrikaga borish shart

**Muhokama**

**1. Sodda qilib ayting-chi, kompyuter grafikasi deganda nimani tushunasiz?**

Mazkur savol matnni o'qib tushunish, matndan xulosa chiqara olishga qaratilgan.

Bu yerda asosiy e'tibor o'quvchi bildirayotgan fikrini matn asosida misollar bilan asoslashi hamda og'zaki tarzda erkin bayon qilishiga qaratiladi.

**2. Kompyuter grafikasi insonlarga nima berdi?**

Bu savolni tushuntirishda quyidagi misolni keltirish tavsiya qilinadi: "*Sizga taqdim etilayotgan kinolarga e'tibor bering, hozir yo'qolib ketgan dinozavr, jungli o'rmonlar... aktyorlar bu yerlarga borib rol o'ynashmaydi, balki shunday murakkab sahnalar kompyu-*

*ter grafikasi tasvirlari orqali hosil qilinib, kino asarlari yaratiladi. Bu kinochilarni ko‘plab xavf-xatar, xarajatlardan saqlash bilan birga fantastik tasavvurga ega kino olamini yaratishga ham zamin hozirlaydi”.*

**3. Kompyuter grafikasi odamlarni nimalardan mahrum qilib qo‘ydi deb o‘ylaysiz?**

Bu savol o‘quvchining matndagi ma’lumotlarni tanqidiy ko‘rib, munosabat bildira olishiga qaratilgan. Masalan, *bunda kino olamida kompyuter grafikasi orqali yaratilgan qulayliklarning ayni bir paytda insonlarni tabiiylik, jonli muhitdan mahrum ham qilib qo‘yishi mumkinligini anglagan holda javob berishi* maqsadga muvofiq.

**5. Animatsiya deganda nimani tushunasiz?**

*Animatsiya – kompyuterda tayyorlangan harakatlanuvchi tasvir bo‘lib, rasmlarni yuqori tezlikda ketma-ket ko‘rsatadi.*

**6. Animatsiyalarni multfilmdan boshqa yana nimalarda ko‘ramiz?**

Mazkur savolni tushuntirishda o‘qituvchi qo‘l telefonida ko‘rsatish mumkin bo‘lgan harakatlanuvchi tasvirlar: *suvning to‘lqinlanishi, kapalakning qanot qoqib turishi va boshqalarni telefondan ko‘rsatib, shularda ham animatsiya borligi haqida ma’lumot berishi mumkin.*

**7. 3D o‘lcham va 3D modellar deganda nimani tushunasiz?**

Bu savol matnda ochiq ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Matnning oltinchi xatboshisida bu haqida ma’lumot berilgan. O‘quvchi ushbu o‘rinni topib, tushunganini aytib berishi lozim. Bunda asosiy maqsad o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish bilan birga o‘quvchining ongida kompyuter grafikasining keng imkoniyatlari haqida tasavvur uyg‘otishdan iborat. Bu jarayonda o‘qituvchi “YouTube” platformasidan 3D modelida yaratilgan tasvirni ko‘rsatib o‘tishi maqsadga muvofiq.

**8. Nega kompyuter grafikasi daromadli soha hisoblanadi?**

Savolning javobi matnda aynan keltirilmagan. O‘quvchilar kompyuter grafikasi daromadli soha ekanini matndagi ma’lumotlar asosida asoslab aytib berishi nazarda tutilgan.


emas. Kompyuter grafikasi, ayniqsa, qiyin sahnalarni suratga olishda qo‘l keladi. Masalan, qo‘lga o‘rgatish qiyin va xavfli o‘qilon, suvilon, tuyaqush, o‘rdakburun, yo‘lbars kabi noyob hayvonlarni kompyuterda yaratib rol o‘ynatish kinochilarning vaqtini va pulini tejaydi.

Kompyuter grafikasining asosiy yo‘nalishlaridan biri animatsiyadir. Animatsiya kompyuterda tayyorlangan harakatlanuvchi tasvirni anglatadi. Bugungi kunda deyarli barcha multfilmlarni animatorlar yaratadi.

3D modellash ham kompyuter grafikasiga oid yo‘nalishdir. 3D modellari arxitektura, muhandislik va ta’limda muhim o‘rin egallaydi. Me’morlar bino loyihasining 3D modelini yaratib, uni turli sinovlardan o‘tkazish imkoniga ega. Masalan, osmono‘par binoning 3D modelini yaratib maxsus dastur yordamida uning yer silkinishi yoki kuchli shamolga qay darajada dosh berishini sinab ko‘rish mumkin. Muhandislar ham biror qurilmani yaratishdan oldin uning 3D modelini yaratib oladilar va qanday ishlashini virtual olamda sinovdan o‘tkazadilar. Hatto 3D printerlari orqali modelni chop etish imkoni bor.

Agar kompyuter grafikasi bo‘lmasa, bizning olam haqidagi tasavvurlarimiz juda **g‘arib** bo‘lib qolardi. Siz o‘qib turgan darslikdagi turli surat, chizma va diagrammalar kompyuterda yaratilgan. Kompyuter grafikasi ko‘magida odamlar olis **galaktika**larga sayohat qilishi, yulduzlarni qoq o‘rtasidan yorib ko‘rishi yoki **mikroorganizm**lar olamiga tushib, eng mayda zarralar bilan yaqindan tanishishi mumkin.

Odatda kompyuter grafikasi namunalarini bir kishi emas, katta bir jamoa tayyorlaydi. Jamoada dasturchi, rassom, rejissyor va boshqa ijodkorlar bo‘lishi mumkin.

Agar sizda shu kasbni egallash istagi bo‘lsa, kompyuter dasturlarini o‘rganish bilan birga o‘zingizdagi ijodkorlik qobiliyatlarini ham rivojlantirishga harakat qiling.

81

Bu jarayonda o‘qituvchi *kompyuter grafikasi ko‘p sohalarda qo‘llanishi, har bir sohaning ahamiyati, ular orqali keladigan daromadlarni* misol keltirib, yo‘naltirib turishi maqsadga muvofiq.

**9. Siz kompyuter grafikasi ustalari jamoasida bo‘lib qolsangiz, kim bo‘lib ishlashni istaysiz: dasturchimi, rassommi, rejissyormi? Nima uchun?**

Bu savoldan asosiy maqsad kompyuter sohasiga qiziqishi bo‘lgan bolani ruhlantirish hamda unga yo‘nalish berishdan iborat.

**10. Nima uchun Sahroyi Kabir va Markaziy Afrika kabi so‘zlarni bitta ot sifatidan qabul qilamiz? Fikringizni asoslang.**

Bu savoldan maqsad o‘quvchiga bosh harflar imlosi haqida nazariy ma’lumot berishdan avval uni shu mavzuga olib kirish uchun mantiqiy fikrlab, javob berishga undashdan iborat.

## Morfologiya. Leksikografiya

**Matnda qizil rang bilan ajratib berilgan so‘zlarni sohalar va kasblarga ajratib, ikki ustunga yozing. Notanish so‘zlarning izohini lug‘atdan topib, yozing.**

Topshiriqni bajarishdan oldin o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. *Kasb nima? Qanday kasblar bor?*
2. *Soha nima? Qanday sohalar bor?*

O‘quvchilarning javobi tinglangach, ushbu atamalar haqida ma’lumot beriladi.

***Kasb** – ish-faoliyatning ma’lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi.*

***Soha** – inson faoliyati, ilm-fan, madaniyat va shu kabilarning biror tarmog‘i.*

*Masalan, sizga dars beradigan inson o‘qituvchi, bu – uning kasbi, lekin e’tibor bering, ular bir fandan emas, turli fandan dars beradi: tarix, matematika, geografiya, adabiyot... demak, mana shu fanlar ularning sohalari, ya’ni mening kasbim – o‘qituvchilik, soham – tilshunoslik.*

Soha va kasb haqida tushuncha hosil qilingandan so‘ng topshiriqni bajarish aytiladi.

***Javob:***

| Soha | Kasb |
|---|---|
| *animatsiya, kompyuter grafikasi, televideniye, multiplikatsiya, 3D modellash, ta’lim* | *animator, kompyuter grafikasi ustalari, suxandon, aktyor, me’mor, muhandis, dasturchi, rassom, rejissyor* |

## Test. Matn bilan ishlash

**Matn mazmuni asosida chiqarilgan quyidagi xulosalarning qaysilari noto‘g‘ri? To‘g‘ri xulosalarni ko‘chiring.**

Bu topshiriq ma’lumotlarni saralab olishga qaratilgan. Bunda matn mazmuniga oid to‘g‘ri va noto‘g‘ri ma’lumotlar berilgan.

Berilgan xulosalarning barchasi matnda ekspilitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan bo‘lib, topshiriq o‘qib tushunishning dastlabki bosqichini rivojlantirish bilan birga o‘quvchilarda javoblarini matn orqali asoslab berish ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

***Javob:** 1 – noto‘g‘ri, 2 – to‘g‘ri, 3 – to‘g‘ri, 4 – to‘g‘ri, 5 – noto‘g‘ri, 6 – to‘g‘ri, 7 – noto‘g‘ri, 8 – to‘g‘ri.*

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Matn ostida berilgan savollarning birini tanlab, unga batafsil javob yozing.**

Bunda o‘quvchidan hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab misollar bilan javob yozish talab etiladi.

## Uyga vazifa

## Leksikografiya

**Matnda qora rangda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohini lug‘atdan foydalanib yozing.**

Bu topshiriq o‘quvchining lug‘at boyligini oshirish bilan birga, lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Matndan *studiya, virtual, makon, g‘arib, galaktika, mikroorganizm* so‘zlari ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, o‘quvchi ushbu so‘zlarning izohini lug‘atdan topib, yozishi lozim. Bunda topshiriqni darslik oxirida berilgan lug‘atdan foydalanib bajarish ham mumkinligi aytiladi.

## 3-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Ayting-chi, asos deganda nimani tushunasiz? Fikringizni misollar bilan izohlang.*


### Asosiy qism

## Qoida. Morfologiya

O‘quvchilarning javobi tinglangach, asos nimaligi izohlanadi: *“Asos – narsaning barcha qismlarini tutib yoki ko‘tarib turuvchi tayanch qism.* So‘ngra berilgan nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntiriladi.

Bunda darslikda berilgan “guldon” va “qo‘lqop” so‘zlarining qolipi doskada chizib, izohlanadi: *“Bu yerda asos+qo‘shimcha (guldon), asos+asos (qo‘lqop) shaklida so‘z yasash qolipi berilgan”.*

Ushbu topshiriqdan asosiy maqsad bir so‘zga qo‘shimcha qo‘shish yoki ikki so‘zni qo‘shib yangi so‘z hosil qilish mumkinligi haqida o‘quvchida tasavvur uyg‘otishdan iborat.



Matnda qora rangda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohlarini lug‘atdan foydalanib yozing.

Eslatma So‘zning asosiy ma’nosini ifodalab, mustaqil qo‘llana oladigan qismi asos deyiladi.

guldon
asos qo‘shimcha
gul + don

qo‘lqop
asos asos
qo‘l + qop

“Kompyuterda yaralgan tasvir” matni tarkibidan birinchi va ikkinchi qolipga mos tushadigan otlarni aniqlab, ikki ustunga ajratib yozing.

Birdan ortiq asosdan tarkib topgan otlar qo‘shma otlar sanaladi. Masalan, **tuyaqush, o‘rdakburun** qo‘shma otdir.

Berilgan ta’riflarga mos qo‘shma otlarni topib, yozing.

1. Me’yorda ko‘rish hamda ko‘zni himoya qilish uchun taqiladigan asbob – ...
2. Fotosuratga oladigan qurilma – ...
3. Kinofilmlar namoyish qilinadigan maxsus bino – ...
4. Televideniyeda ko‘rsatuv olib boruvchi – ...
5. Qora va kulrang patli qarg‘a – ...
6. Kesib quritilgan olma – ...
7. Tabrik so‘zlari yozilgan maktub – ...

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan turdosh otlar har doim qo‘shib yoziladi: *qorbo‘ron, qizilishton, ko‘ksulton.*

Berilgan gaplarni o‘qing. Gaplar tarkibidan joylarni bildiruvchi otlarni topib, yozing.

Endi qum bo‘ronlarini tasvirga olish uchun Sahroyi Kabirga yoki Markaziy Afrikaga borish shart emas. Kompyuter grafikasi, ayniqsa, qiyin sahnalarni suratga olishda qo‘l keladi.

Respublikamizning turli hududlarida, xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida kompyuter grafikasini o‘rgatishga mo‘ljallangan qator kurslar tashkil qilingan.

*Markaziy Afrika, Sahroyi Kabir* kabi qo‘shma otlar ajratib yozilgan, *Qashqadaryo, Surxondaryo* kabi qo‘shma otlar esa qo‘shib yozilgan. Buning sababi nima bo‘lishi mumkin?

83

**Morfologiya**

**“Kompyuterda yaralgan tasvir” matni tarkibidan birinchi va ikkinchi qolipga mos tushadigan otlarni aniqlab, ikki ustunga ajratib yozing.**

***Javob:***

***1-qolip*** *(asos+qo‘shimcha) – ko‘rsatuv, suxandon, sinov, darslik, dasturchi, ijodkor, kinochi.*

***2-qolip*** *(asos+asos) – o‘qilon, suvilon, tuyaqush, o‘rdakburun, mikroorganizm.*

**Qoida. Morfologiya**

O‘quvchilarga qo‘shma ot haqida nazariy ma’lumot misollar bilan tushuntirib beriladi.

**Morfologiya**

**Berilgan ta’riflarga mos qo‘shma otlarni topib, yozing.**

Darslikda izohlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu izohlarga mos qo‘shma otlarni topib yozish lozim. Bunda qo‘shma otlarni topish uchun izohlarda berilgan ayrim til birliklari asos qilib olinadi. O‘quvchi ushbu til birliklari hamda izohlar ma’nosiga qarab qo‘shma otlarni topishi hamda ular qaysi yo‘l bilan yasalganiga e’tibor qaratishi lozim.

***Javob:*** *1. Ko‘zoynak. 2. Fotoapparat. 3. Kinoteatr. 4. Teleboshlovchi. 5. Kinoyulduz. 6. Olaqarg‘a. 7. Olmaqoqi. 8. Tabriknoma.*

**Qoida. Morfologiya**

O‘quvchilarning yozganlari tekshiriladi. Imloviy xatolari tuzatiladi hamda qo‘shma otlar imlosiga doir qo‘shimcha nazariy ma’lumot beriladi.

**Morfologiya**

**Berilgan gaplarni o‘qing. Gaplar tarkibidan joylarni bildiruvchi otlarni topib, yozing.**

Bunda ikkita qisqa matn keltirilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu matnlar bilan tanishib, uning tarkibidan joy nomlarini aniqlab, yozishlari lozim.

Bu topshiriqdan asosiy maqsad o‘quvchilarda joy otlari imlosi haqida tasavvur hosil qilishdan iborat.

***Javob:*** *Sahroyi Kabir, Markaziy Afrika, Qashqadaryo, Surxondaryo.*

**Morfologiya**

**Markaziy Afrika, Sahroyi Kabir kabi qo‘shma otlar ajratib yozilgan, Qashqadaryo, Surxondaryo kabi qo‘shma otlar esa qo‘shib yozilgan. Buning sababi nima bo‘lishi mumkin?**

Mazkur savollarga o‘quvchidan nazariy javob talab qilinmaydi. Dastlab o‘quvchilar bergan javoblar tinglanadi, so‘ngra qo‘shma otlarning imlosiga doir nazariy bilim misollar bilan tushuntirib beriladi.

**Qoida. Morfologiya**

**Morfologiya**

**Berilgan so‘zlarni o‘zaro moslashtirib qo‘shma otlar hosil qiling va yozing.**

Bu topshiriq yuqoridagi nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun berilgan. Bunda o‘quvchilar birinchi ustundagi so‘zlarni ikkinchi ustundagi so‘zlar bilan moslashtirib, qo‘shma otlarni hosil qilib, yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining so‘zlarni mazmunan moslab, joy nomlari hosil qilishi, joy nomlarini bosh harf bilan yozishi, ajratib yoziladigan joy nomlarini ajratib, qo‘shib yoziladigan joy nomlarini qo‘shib yozishiga qaratiladi.

***Javob:*** *Uchqo‘rg‘on, Yuqori Chirchiq, Oltiariq, Markaziy Amerika, Orolbo‘yi, Shimoliy Koreya, To‘rtko‘l, Yangi Zelandiya, Mirzaobod, O‘rta Osiyo.*

## Sintaksis

**Qo‘shma otlar ishtirok etgan beshta gap tuzib, yozing.**

Bunda o‘quvchilardan dars davomida o‘zlashtirgan joy nomlarining imlosiga e’tibor qaratib, ushbu so‘zlarni mustaqil kontekstda qo‘llab gap tuzib, yozishlari talab etiladi.

## Uyga vazifa

## Morfologiya

**Quyida berilgan qo‘shma otlar tarkibidan xato yozilganlarini aniqlang, ularni to‘g‘rilab daftaringizga ko‘chiring.**

Bu topshiriq o‘quvchining tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar berilgan so‘zlardagi xatoliklarni aniqlab, yozishlari lozim. Yozish jarayonida imlo lug‘atlaridan ham foydalanishlari mumkin. Asosiy e’tibor so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini o‘zlashtirishlariga qaratiladi.

***Javob:*** *Yangiyo‘l, To‘rtko‘l, Quyi Chirchiq, Mirzaobod, jigarrang, so‘zboshi, tokqaychi, kirsovun, qo‘ziqorin, otquloq, Kumushkon, Oqtosh.*

## 4-soat


### Dars jarayoni

## Kirish

*Ayting-chi, e’lon matnini qayerlarda uchratgansiz? Unda nimalar yoziladi?*

## Asosiy qism

## O‘qib tushunish. Matn bilan ishlash


• **Ikkinchi qismi turdosh otdan iborat bo‘lgan atoqli otlar qo‘shib yoziladi:** Beshariq, Qorqiz, Qashqadaryo.
• **Ikkinchi qismi atoqli otdan iborat bo‘lgan qo‘shma otlar esa ajratib yoziladi:** Markaziy Osiyo, Janubiy Amerika, Quyi Chirchiq.

Berilgan so‘zlarni o‘zaro moslashtirib qo‘shma otlar hosil qiling.

| | | | |
|---|---|---|---|
| Uch | Yuqori | ariq | Amerika |
| Olti | Markaziy | qo‘rg‘on | ko‘l |
| Orol | Shimoliy | Chirchiq | Zelandiya |
| To‘rt | Yangi | obod | Osiyo |
| Mirza | O‘rta | Koreya | bo‘yi |

Qo‘shma otlar ishtirok etgan beshta gap tuzib, yozing.

Quyida berilgan qo‘shma otlar tarkibidan xato yozilgan qo‘shma otlarni aniqlang, ularni to‘g‘rilab daftaringizga ko‘chiring.
*Yangi yo‘l, To‘rtko‘l, Quyi chirchiq, Mirzaobod, jigar rang, so‘zboshi, tok qaychi, kir sovun, qo‘ziqorin, otquloq, Kumushkon, Oq tosh.*

E’lonlar matnini o‘zaro qiyoslab o‘qing.

**E’LON!**
**Animatorlar uchun ajoyib imkoniyat!**
*O‘z kasbining ustasi bo‘lgan malakali dasturchilarni ishga qabul qilamiz.*
**Mutaxassisga qo‘yiladigan talablar:**
- *“Adobe Animate”, “3ds Max” kabi dasturlarda ishlay olish;*
- *Ijodkorlik;*
- *Ishga mas’uliyat;*

**OYLIK MAOSH – 15 MILLION SO‘M.**
***Xodimlar bepul, mazali tushlik bilan ta’minlanadi.***
Biz bilan ***adobe-animator_2022@gmail.com*** elektron pochtasi orqali bog‘laning.

**E’LON**
**Yahshi dasturchilarni ishga qabul qilamiz.**
Nomzot ***“Adobe Animate”, “3ds Max”*** dasturlari bilishi kerak. Ishga vaqtida kelib, vaqtida ketishi kerak.
***16 million oylik beramiz.***
***Bepul obed beriladi.***
***max-animator_2022@gmail.com*** pochtasi orqali bog‘laning.

84

**E’lonlar matnini o‘zaro qiyoslab o‘qing.**


O‘quvchilar darslikda berilgan har ikkala e’lon matni bilan tanishib bo‘lganlaridan so‘ng, matn ostidagi savollar asosida suhbat boshlanadi.

**1. Sizningcha, e’lonlarning qay biri yaxshi yozilgan?**

**2. Siz qaysi ishxonani tanlagan bo‘lar edingiz? Nima uchun?**

Bu savollar e’lon matnlarini tahlil qilishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar berilgan e’lon matnlarini qayta o‘qib, uni o‘zaro taqqoslab, munosabatlarini bildirishlari lozim.

Bu jarayonda o‘qituvchi doskani ikki ustunga bo‘lib, *1-e’lon, 2-e’lon* deya ajratgan holda o‘quvchilarni navbat bilan chiqarib, tegishli e’lon haqidagi munosabatlarini yozdirishi maqsadga muvofiq.




**3. Birinchi e’lonning yutuq va kamchiliklarini nimalarda ko‘ryapsiz?**

**4. Ikkinchi e’lonning yutuq va kamchiliklarini nimalarda ko‘ryapsiz?**

O‘quvchilarning fikrini tinglab, ularga quyidagi tavsiyalarni berish mumkin: *1-e’lon. Dizaynga ega, yozuvlar har xil shaklda, imlo xatolari uchramaydi, ma’lumot ixcham va lo‘nda ifodalangan.*

*2-e’lon. Dizaynga ega emas, harflar bir xil shaklda, bu esa odamlarni o‘ziga jalb qilmaydi. Imlo xatolari: yahshi (yaxshi), nomzot (nomzod); so‘z va qo‘shimcha qo‘llash bilan bog‘liq xatolar: obed (tushlik), pochta (elektron pochta), dasturlari (dasturlarini) uchraydi. Qo‘pol gaplar (ishga vaqtida kelib, vaqtida ketishi kerak) ham bor. Bu kamchiliklar e’lon matnining yaroqsiz ekanini ko‘rsatib turibdi.*

**6. E’lon yozganda nimalarga e’tibor berish kerak deb o‘ylaysiz?**

Bu savol o‘quvchilardan yuqorida tahlil qilingan e’lon matnlaridan olgan xulosalari orqali javob berishlarini talab qiladi, ya’ni o‘quvchi *e’lon matni odamlarni o‘ziga jalb qilishi uchun o‘ziga xos dizaynga ega bo‘lishi, ma’lumot muomala madaniyatiga rioya qilgan holda berilishi, imloviy, uslubiy xatolarga yo‘l qo‘ymaslik kerakligini* tushunib, aytib bera olishi lozim.

O‘qituvchi e’lon matnida nimalar aks etishi kerakligi haqida qisqacha ma’lumot beradi:

1. Hujjatning nomi (e’lon).
2. Ma’lumot mazmuni:
- chorlash;
- ma’lumot berish;
- muhim o‘rinlarni ajratib ko‘rsatish;
- foydali tomonlarini yoritish.

1. E’lon bo‘yicha murojaat qilish uchun manzil.

## Yozma nutq. Matn yaratish

**O‘zingiz e’lon yozing.**

Bu topshiriqda o‘quvchi e’lon matni haqida egallagan bilimlarini amalda qo‘llaydi. Har bir o‘quvchi multiplikatsiya studiyasi rahbari sifatida ishga qabul qilish bo‘yicha e’lon matni tayyorlashi lozim.

## Uyga vazifa

## Leksikologiya


**E’lon matnida insonni o‘ziga jalb qiluvchi qanday jumlalar bo‘lishi kerak deb hisoblaysiz? Ularni yozing.**

Bu topshiriqni bajarish uchun o‘quvchi mustaqil izlanishi lozim. Bu jarayonda o‘quvchilarga gazeta-jurnallarda, ko‘cha-ko‘larda, ijtimoiy tarmoqlarda chiqqan e’lon matnlaridan foydalanish mumkinligi aytib o‘tiladi.

# TELEBOSHLOVCHI BO‘LIB QOLSAM

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilarda teleboshlovchilik kasbi haqida tasavvur paydo qilish, ushbu sohaga oid til birliklarini nutqida faollashtirish; matnni o‘qib tushunish; mavzu yuzasidan munosabat bildirish va o‘z fikrini himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish; rasmiy va norasmiy uslub, sifat va yordamchi so‘zlar imlosi bo‘yicha tushuncha berish.

## 1-soat


TELEBOSHLOVCHI BO‘LIB QOLSAM

Bu mavzuda o‘rganamiz

• teleboshlovchilik kasbi • sohaga doir til birliklari • munosabat bildirish va o‘z fikrini himoya qila olish • rasmiy va norasmiy uslub • sifat so‘z turkumi • yordamchi so‘zlar.

Rasmlarga qarang.

1. Rasmlarda qanday kasb egalari aks etgan? Bu kasb haqida nimalarni bilasiz?
2. Rasmlarni bir so‘z bilan rasmiy va norasmiy deya ta’riflash mumkin. Bu ikki tushunchaning farqini berilgan rasmlar asosida qanday tushuntirasiz?
3. Rasmiy nutqda so‘zlovchi aynan nimalarga e’tiborli bo‘ladi? Misollar bilan tushuntiring.
4. Norasmiy nutqda so‘zlovchi uchun nimalar cheklanmagan? Misollar bilan tushuntiring.

Ikki matnni taqqoslab o‘qing. Rasmiy va norasmiy nutqqa oid o‘rinlarni o‘zaro farqlashga harakat qiling.

Rasmiy nutq

Dasturimizni hayvonot olamiga oid muhim xabar bilan davom ettiramiz. Yurtimizdagi “Zarafshon” davlat qo‘riqxonasida brakonyerlik faoliyatiga chek qo‘yildi. Noqonuniy ovchilik faoliyati bilan shug‘ullangan shaxslar O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan qo‘ng‘ir ayiqlarni ovlagani aniqlandi. Mazkur holat yuzasidan tuman ichki ishlar bo‘limi tomonidan jinoiy ish qo‘zg‘atilgan.

86

### Dars jarayoni

### Kirish

*Ayting-chi, teleboshlovchilik qanday kasb? U bilan kimlar shug‘ullanadi?*

### Asosiy qism

### Og‘zaki nutq. Rasm asosida suhbat

**Rasmlarga qarang.**

Darslikda ekran qarshisida nutq so‘zlayotgan kishilarning har xil holatdagi rasmlari berilgan. O‘quvchilar rasmdagi holatlar bilan tanishib, o‘z munosabatlarini og‘zaki tarzda ifodalab berishi lozim. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining rasmdagi holatlarni tushunishi, ushbu holatlarga mos bog‘lanishli nutq tuzib, aytib berishiga qaratiladi.

O‘quvchilar o‘z munosabatlarini bildirganlaridan so‘ng rasm ostidagi savollar asosida suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. Rasmlarda qanday kasb egalari aks etgan? Bu kasb haqida nimalarni bilasiz?**

Bu yerda asosiy e’tibor o‘quvchining boshlovchilik qiladigan kasb egalari kim ekanini, ular haqida nimalar bilishini aniqlashga qaratiladi.

O‘quvchilarning fikri tinglangach, ushbu kasb haqida ma’lumot berib o‘tiladi.

***Teleboshlovchi –*** televideniyeda boshlovchilik qiladigan suxandon.

**2. Rasmlarni bir so‘z bilan rasmiy va norasmiy deya ta’riflash mumkin. Bu ikki tushunchaning farqini berilgan rasmlar asosida qanday tushuntirasiz?**

Bunda o‘quvchilar ikkala suratni taqqoslab munosabat bildirishlari lozim. Dastlab o‘quvchilardan *rasmiy* va *norasmiy* so‘zlarining ma’nosi, so‘ngra rasmlar orqali ushbu farqlarni izohlashlari so‘raladi.

***Rasmiy –*** *hamma qoidalarga, rasmiyat talablariga rioya qilib bajarilgan, o‘tkazilgan.*

***Norasmiy –*** *qonun-qoidalarga to‘la amal qilinmagan, nisbatan erkin.*

O‘quvchilar rasmlarni taqqoslab, munosabat bildirishi uchun quyidagi ko‘rsatmalar berilishi maqsadga muvofiq:

*1. Boshlovchilarning kiyimiga e’tibor qarating.*

*2. Boshlovchilarning nigohlari nimaga qaratilgan?*

*3. 1-rasm bilan 2-rasmdagi sahna bir-biridan qanday farq qiladi?*

**3. Rasmiy nutqda so‘zlovchi aynan nimalarga e’tiborli bo‘ladi? Misollar bilan tushuntiring.**

Bu savolga javob olishdan avval o‘quvchilardan rasmiy nutqni qayerlarda eshitganlari haqida so‘raladi. Bunda o‘quvchi maktablarda bo‘ladigan *tadbir, ommaviy axborot vositalarida uzatiladigan xabarlar, ko‘rsatuvlardan* misol keltirib, o‘z fikrini bildirishi lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning rasmiy nutqdagi til birliklarini o‘zlashtirishiga qaratiladi. Masalan, o‘quvchilar *rasmiy nutqda darak gaplardan ko‘proq foydalanish, gap urg‘usi, ta’kid, shuningdek, asosan… singari til birliklari* qo‘llanishi haqida tasavvur hosil qilishi lozim.

**4. Norasmiy nutqda so‘zlovchi uchun nimalar cheklanmagan? Misollar bilan tushuntiring**.

Bu savol ham aynan bitta javobni talab qilmaydi. O‘quvchilar rasmiy nutqdan farqli ravishda norasmiy nutqda *so‘roq gaplardan, erkin so‘zlashuv uslubidan foydalanish mumkinligini* misollar bilan aytishi ko‘zda tutilgan.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga ko‘maklashish uchun biror norasmiy ko‘rsatuvdan qisqa nutqni tinglatishi va izohlab o‘tishi maqsadga muvofiq.

## O‘qib tushunish. Muhokama

**Ikki matnni taqqoslab o‘qing. Rasmiy va norasmiy nutqqa oid o‘rinlarni o‘zaro farqlashga harakat qiling.**

**1. Sizningcha, aynan qaysi so‘zlar rasmiy va norasmiy nutqni bir-biridan farqlab turibdi?**

Mazkur savol o‘quvchilarning e’tiborini ikkala nutqqa xos bo‘lgan til birliklariga qaratishdan iborat. Bunda o‘quvchilar bir xil mazmunni ikki xil usul bilan yetkazish mumkinligini anglashi lozim.

O‘qituvchi bu jarayonda mana shu xabarni yetkazishdagi *murojaat birliklarini,* aytib berishi maqsadga muvofiq.

**2. Gaplarning tuzilishi va ifoda maqsadiga e’tibor bering. Ular qaysi xususiyatlariga ko‘ra rasmiy va norasmiy nutqqa xos bo‘la oladi?**

Ikkala matn tarkibida ham xabar mazmunidagi *darak gap* qo‘llangan, shu bilan birga norasmiy nutqqa xos *so‘roq, buyruq gaplarning qo‘llanishi mumkinligini* o‘quvchilar matn orqali aniqlab, aytib bera olishlari lozim.

**3. Ayting-chi, rasmiy nutq qachon, qanday vaziyatda qo‘llanishi mumkin?**

Bunda o‘quvchilar “rasmiy” so‘zining ma’nosiga urg‘u qaratgan holda rasmiy nutq qo‘llaniladigan vaziyatlar: *yig‘ilish, anjuman, tadbir* kabi misollarni aytib berishlari nazarda tutilgan. O‘qituvchi dastlab o‘quvchilarning fikrini tinglab, so‘ngra ushbu nutq qo‘llanadigan vaziyatlar haqida ma’lumot berish lozim.

**4. Rasmiy nutqning ustunligi nimada? Kamchiligi-chi?**

Bu o‘quvchiga quyidagi misollar orqali izohlab beriladi: *rasmiy nutqda axborot qisqa va lo‘nda, ortiqcha hissiyotsiz yetkaziladi.*

**5. Norasmiy nutq qachon, qanday vaziyatda qo‘llanishi mumkin?**

Bu savolda o‘quvchilar e’tiborini norasmiy so‘ziga qaratib, unga xos til birliklari qanday vaziyatlarda qo‘llanishini misollar bilan aytishi lozim. Masalan, *to‘y-tomoshalarda so‘zga chiqqanda, bayram tadbirlarida* kabi misollar keltirishi mumkin. O‘qituvchi bu *jarayonni maktab bilan bog‘lashi, Navro‘z, Yangi yil* bayramlarida qanday tadbirlar qilinishini eslatib, undagi boshlovchilar nutqidan misollar keltirishi maqsadga muvofiq.

**6. Norasmiy nutqning ustunligi nimada? Kamchiligi-chi?**

O‘quvchilar javobini tinglab bo‘lib, quyidagicha izoh berish mumkin: *norasmiy nutqda axborotni yetkazish erkin, tomoshabinlar e’tiborini qaratish uchun “azizlar”, “qadrdonlarim” kabi til birliklarini qo‘llash, so‘roq, darak, undov gaplardan foydalanish, his-hayajonini, tuyg‘uni ifodalash mumkinligi ustunligi bo‘lsa, so‘zlashuv uslubiga oid til birliklaridan ko‘p foydalanish kamchiligi* deb aytishimiz mumkin.

## Sintaksis. Leksikologiya

**Berilgan so‘z va birikmalardan foydalanib gaplarni rasmiy yoki norasmiy nutq shakliga o‘zgartirib ko‘chiring.**

Bunda o‘quvchilarga tanish bo‘lgan teleboshlovchilar nutqida qo‘llanadigan til birliklari berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu birliklarni qatnashtirib rasmiy va norasmiy gaplar tuzib, yozishlari lozim. Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar gaplar mazmuniga, namunadagi ikkita gapga hamda rasmiy va norasmiy nutq haqida egallagan bilimlariga tayanishi lozim.

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Berilgan xabarni yetkazish maqsadida rasmiy yoki norasmiy nutq tayyorlang.**

Bunda o‘quvchiga vaziyat yuzasidan kichik ko‘rinishdagi matn berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu matn mazmunidan rasmiy va norasmiy nutq tayyorlab, yozishlari lozim.

O‘qituvchi berilgan ma’lumotni o‘qib berishi hamda o‘quvchilar nutq tayyorlashlari uchun ko‘maklashib turishi lozim. Masalan, nutqlarini quyidagi gap bilan boshlab berishi mumkin: *“Azizlar, yana bir xushxabar, hamyurtimiz Muhammadfozil Ismoilov...”, “Muhammadfozil Ismoilov Farg‘ona viloyatida istiqomat qiladi. U ...”*

## Uyga vazifa

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Televideniyeda namoyish etilayotgan ko‘rsatuvlarni kuzating. Bu ko‘rsatuvlarning biri haqida o‘z shaxsiy qarashlaringiz aks etgan matn yozing.**

Bu topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, ijodiy yondashishlariga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar televideniyeda namoyish etilayotgan ko‘rsatuvdan ixtiyoriy birini kuzatib, o‘z munosabatlarini yozishi lozim.

Bu topshiriq o‘quvchining bog‘lanishli nutq tuza olish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘qituvchi ko‘rsatma sifatida “Axborot”, “Davr”, “Assalom, O‘zbekiston!” kabi ko‘rsatuvlardan foydalanish mumkinligini aytishi maqsadga muvofiq.

## 2-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Ayting-chi, teleboshlovchilik qanday kasb? U bilan kimlar shug‘ullanadi?*



Televideniyeda namoyish etilayotgan ko‘rsatuvlarni kuzating. Bu ko‘rsatuvlarning biri haqida o‘z shaxsiy qarashlaringiz aks etgan matn yozing.

Matnni o‘qing, savollarga javob bering.

TELEBOSHLOVCHI KIM?

XX asrning 40-yillariga kelib dunyoda teleboshlovchilik kasbi paydo bo‘ldi. Chunki shu yillarda endigina ixtiro qilingan televizor odamlarning uylariga kirib kela boshlagandi. U vaqtlarda telekanallar hozirgidek ko‘p bo‘lmagan. Faqat bitta kanal bo‘lgan. Efir vaqti esa kuniga bir soatdan oshmagan. Shu vaqtda mahallada yagona bo‘lgan “televizorli xonadon”ga butun qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilib, maza qilib televizor ko‘rishgan. Ekranda ko‘rinish berib, so‘nggi yangiliklarni aytayotgan teleboshlovchi esa odamlarning eng qadrdon kishisiga aylanib ketgan.

Yillar o‘tib, telekanallar ham, ko‘rsatuvlar ham ko‘paydi. Ko‘rsatuvlar axborot, ko‘ngilochar va shou kabi turlarga ajraldi. Natijada, yangiliklar va sport sharhlovchisi, ob-havo ma’lumotlari, shou va musiqiy ko‘rsatuvlar boshlovchisi kabi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Endi har bir ko‘rsatuv uchun alohida-alohida teleboshlovchi kerak bo‘lardi. Sababi “Axborot” ko‘rsatuvining boshlovchisi uchun “Musiqiy tanaffus” ko‘rsatuviga ham boshlovchilik qilish qiyin edi-da.

Teleboshlovchi studiyada faoliyat yuritadi. Aytgandek, suxandon va teleboshlovchini bir-biridan farqlash kerak. Suxandon tayyor matnni o‘qib beradi. Ya’ni o‘zi ijod qilmaydi. Ular asosan informatsion ko‘rsatuvlarda ishlaydi. Teleboshlovchi esa izlanadi, kerakli ma’lumotlarni yig‘adi, mustaqil ravishda intervyular oladi, qayerda qanday gapirish kerakligi ustida bosh qotiradi, vaziyatga qarab improvizatsiya qila oladi. Bir so‘z bilan aytganda, ular ijodkor bo‘lishadi.

Teleboshlovchi kamera qarshisida o‘zini qanday tutishni, tomoshabinlarning e’tiborini qanday jalb etishni, fikrini aniq va tushunarli tarzda yetkaza olishni bilishi lozim. Shuning uchun topqir, so‘zamol, uddaburon teleboshlovchilar kutilmagan vaziyatlarda ham o‘zlarini yo‘qotib qo‘ymaydi. Bu sifatlarga

88

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Matnni o‘qing, savollarga javob bering.**

Ushbu matn orqali publitsistik matnning ifoda shakli, uning tuzilishi, unga oid til birliklari hamda teleboshlovchilik kasbi haqida ma’lumot berish maqsad qilingan.

**Matn:** “Teleboshlovchi kim?”

O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. Teleboshlovchilik kasbi qachon, qaysi voqeadan so‘ng paydo bo‘ldi?**

Bu savol matnda ochiq ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning birinchi qismida berilgan ma’lumotlar asosida *televizorning yaratilishi oqi-*

*batida XX asrning 40-yillariga kelib, teleboshlovchilik kasbi paydo bo‘lganini* aytishi lozim.

**2. Nima uchun dastlab teleboshlovchilik kasbi ko‘p tarmoqli bo‘lmagan?**

Bu savol matnning birinchi qismidagi gaplarni o‘zaro *integratsiya* qilish orqali anglashiladi, ya’ni *o‘quvchi telekanallarning kamligi teleboshlovchilik kasbining ko‘p tarmoqli bo‘lmaganiga sabab ekanini* tushunib, ayta olishi lozim.

**3. Ko‘rsatuvlarning turiga qarab, teleboshlovchilikning qanday yo‘nalishlari borligi haqida gapiring.**

Bu savolning javobi matnning ikkinchi qismidan anglashiladi. O‘quvchi ushbu qismda berilgan ma’lumotlar orqali teleboshlovchilik yo‘nalishlarini sanab berishi lozim. Bu yerda asosiy e’tibor o‘quvchining nutqini o‘stirish, shuningdek, teleboshlovchilik kasbi haqida ma’lumot berishdan iborat.

**4. Yangiliklar sharhlovchisi bilan ko‘ngilochar ko‘rsatuv boshlovchisining qanday farqi bor?**

Bu savolning javobi matnda aniq ifodalanmagan. O‘quvchi matnning 2-xatboshisi oxiridagi ma’lumotni mulohaza qilib, javob berishi lozim. Bunda asosiy e’tibor *yangiliklar sharhlovchisi* va *ko‘ngilochar ko‘rsatuv* birliklarining ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchi ikkala so‘zning mohiyati orqali ushbu kasb egalarining farqli tomonlarini aytishi lozim.


Bu jarayonda o‘qituvchi matnda keltirilgan o‘sha o‘rinni topib, izohlab berishi maqsadga muvofiq.

**5. Suxandon va teleboshlovchining farqi nimada?**

Ushbu savolning javobi matnda ochiq ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Matnning 3-xatboshisida suxandon va teleboshlovchining farqlari berib o‘tilgan. O‘quvchi matndan ushbu o‘rinlarni topib, fikrini hayotiy misollar bilan izohlab berishi lozim.

**6. Teleboshlovchi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak? Bu xislatlar ularga nima uchun kerak bo‘ladi? Fikrlaringizni asoslab bering.**

Bu savolning javobi ham matnda ochiq ifodalangan. O‘quvchi matn bilan qayta ishlash davomida ushbu o‘rinlarni topishi, matnning 4–5-xatboshisida berilgan ma’lumotlarni tushunib, og‘zaki bayon qilishi lozim. Bunda asosiy e’tibor matndagi jumlalarni so‘zma-so‘z emas, balki o‘z ifodalari bilan tushunib, ayta olishga qaratiladi.



ega bo‘lmagan teleboshlovchilar faoliyati davomida ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi. Ular birgina xato gapi yoki harakati bilan millionlab tomoshabinlar oldida uyalib qolishi hech gap emas.

Albatta, teleboshlovchi yolg‘iz o‘zi bo‘lmaydi, kadr ortida uning butun jamoasi ishlaydi. Jamoada rejissyor, prodyuser, ssenarist, grimchi, operator, chiroqchi va yana ko‘plab mutaxassislar yig‘iladi. Ammo efir vaqtida tomoshabinlar faqat boshlovchini ko‘radi xolos.

Teleboshlovchilik – dunyodagi eng og‘ir kasblardan biri. Bu kasb egalari deyarli dam olish kunlarisiz ishlashga majbur. Chunki odamlar dam olish kunlari ko‘proq televizor ko‘radi-da. Yana teleboshlovchilar tong sahardan studiyaga kelishga, ba’zan yarim tunda boshlovchilik qilishga majbur bo‘lishadi. Tasvirga olish jarayonlari bir necha soatga cho‘zilib ketganda esa tushlik qilishni ham unutib qo‘yishadi. Qolaversa, ular doim tashqi ko‘rinishlariga e’tibor berishga, sport bilan muntazam shug‘ullanishga majbur. Ha, uyquchi va dangasalarga bu kasb umuman mos kelmaydi.

Xo‘sh, endi ayting-chi, siz hali ham teleboshlovchi bo‘lishni orzu qilyapsizmi?

1. Teleboshlovchilik kasbi qachon, qaysi voqeadan so‘ng paydo bo‘ldi?
2. Nima uchun dastlab teleboshlovchilik kasbi ko‘p tarmoqli bo‘lmagan?
3. Ko‘rsatuvlarning turiga qarab, teleboshlovchilikning qanday yo‘nalishlari borligi haqida gapiring.
4. Yangiliklar sharhlovchisi bilan ko‘ngilochar ko‘rsatuv boshlovchisining qanday farqi bor?
5. Suxandon va teleboshlovchining farqi nimada?
6. Teleboshlovchi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak? Bu xislatlar ularga nima uchun kerak bo‘ladi? Fikrlaringizni asoslab bering.
7. Nima uchun teleboshlovchilik dunyodagi eng og‘ir kasblardan biri hisoblanadi?
8. Sizningcha, teleboshlovchilik qanday kasb? O‘z fikringizni erkin bildiring, tanqid qilishdan cho‘chimang.
9. Sizningcha, teleboshlovchi va suxandon nutqi uchun qanday talab qo‘yilishi mumkin?

**7. Nima uchun teleboshlovchilik dunyodagi eng og‘ir kasblardan biri hisoblanadi?**

Mazkur savolning javobi matnning oxirgi xatboshisida keltirilgan. Unga ko‘ra, *teleboshlovchilik mas’uliyatli kasb bo‘lib, bu kasb egalari aniq bir rejim asosida ishlamaydi: kunduzi ham, kechki payt ham, hatto dam olish kunlari ham ishlashi mumkin. Tasvirga olish uzoq davom etgan vaqtlari tushlik ham qilmaydilar…*kabi ma’lumotlarni o‘quvchilar tushunib, aytib berishlari lozim. Asosiy e’tibor, har bir kasbning o‘z mas’uliyati borligini his qilib, munosabat bildirishga qaratiladi.

**8. Sizningcha, teleboshlovchilik qanday kasb? O‘z fikringizni erkin bildiring, tanqid qilishdan cho‘chimang.**

Bu savol o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. Bunda o‘quvchi matndan olgan xulosasi hamda

hayotiy kuzatishlari asosida fikrini asoslab, aytib bera olishi lozim.

**9. Sizningcha, teleboshlovchi va suxandon nutqi uchun qanday talab qo'yilishi mumkin?**

Bu savol dars davomida egallagan ma'lumotlari asosida qoida yaratish, ya'ni hayotiy kuzatishlari hamda matnda berilgan ma'lumotlaridan kelib chiqib, xulosa chiqarishga qaratilgan.

Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarga yo'naltiruvchi savollar berib, ko'maklashishi lozim. *Masalan: "Teleboshlovchilar shoshib gapirishadimi?", "Ular qanday ko'rinishda bo'lishi kerak?", "Tasvirga olishga kech qolishlari mumkinmi?"* kabi.

### Og'zaki nutq. Orfoepiya

### Leksikografiya

**So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling. Ularning izohini kitob ortidagi lug'atdan topib ko'chiring.**

Ushbu topshiriq lug'at boyligini oshirish hamda olinma so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasini rivojlantirishni maqsad qilgan. Dastlab berilgan so'zlar har bir o'quvchiga o'qittiriladi. O'qituvchi noto'g'ri talaffuz qilgan o'quvchi bilan alohida shug'ullanishi maqsadga muvofiq.

O'quvchilar so'zlarni talaffuz qilib bo'lgach, lug'at bilan ishlash topshirig'i beriladi. Bunda o'quvchilar ushbu so'zlarning ma'nosini lug'atdan topib, ko'chirib yozishi lozim.

### Muhokama

**Berilgan so'z birikmalarining ma'nosini sinfda muhokama qiling.**

Berilgan birliklardan o'quvchilar hayoti davomida turli vaziyatlarda foydalanishi mumkin. Ular doskada yozilib, har bir o'quvchining bu bo'yicha fikri tinglanadi.

O'quvchilar fikr bildirishda matndan foydalanishlari mumkin. Bunda asosiy e'tibor birliklar ma'nosini tushunish hamda turli vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olishga qaratiladi.

***Efir vaqti** – gapirish vaqti. "Efir" so'zi radioto'lqinlar tarqaladigan muhitga nisbatan ishlatiladi. Bunda teleboshlovchining ko'rsatuvni boshlash vaqti, davomiyligi ham tushuniladi.*

***Ko'ngilochar ko'rsatuv** – insonlarga xush kayfiyat bag'ishlashni maqsad qilgan ko'rsatuv.*

***Shou dastur** – ommalashgan, ko'ngilochar tadbir.*

***Improvizatsiya qilish** – ijro jarayonining o'zida yaratilgan she'r, musiqa, pyesa va shu kabilarni vaziyatga moslab ijro etish.*

***Kadr orti** – sahna ortida amalga oshiriladigan ishlar.*

### Muhokama

**Matn asosidagi ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang. Har bir ma'lumotni sinfda muhokama qiling.**

Ushbu topshiriq matn bilan qayta ishlash, matndagi ma'lumotlarni saralash, fikrlarni to'g'ri, noto'g'ri ma'lumotlarga ajrata olishga qaratilgan. Berilgan gaplar matnda ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarga asoslangan. O'quvchilar matn bilan qayta ishlab bajarishlari lozim.

Belgilab bo'lganlaridan so'ng muhokama boshlanadi. Bu jarayonda o'quvchilardan to'g'ri yoki noto'g'ri deb belgilagan birliklarini asoslab berishlari so'raladi. O'qituvchi ularni tinglab, javoblarga izoh berib borishi maqsadga muvofiq.

*Javob: 1 – to'g'ri, 2 – to'g'ri, 3 – to'g'ri, 4 – noto'g'ri, 5 – noto'g'ri, 6 – to'g'ri, 7 – noto'g'ri.*

### Uyga vazifa


### Yozma nutq. Matn yaratish

**Televideniyeda faoliyat yuritadigan mutaxassislardan qaysi birining vazifasini bajarishni istaysiz? Bu kasblardan birini tanlab, fikrlaringizni quyidagi tartibdagi matn shaklida yozing.**

Bu topshiriq o'quvchilarning mustaqil izlanishiga qaratilgan. O'quvchilar berilgan kasblardan birini tanlab, nima uchun uni tanlaganini izohlab berishi lozim. Bunda o'quvchilar har bir kasb haqida ma'lumotga ega

bo‘lishlari uchun darslik ortidagi lug‘atdan, ijtimoiy tarmoqlardan, kitob, gazeta-jurnallardagi maqollardan foydalanishi mumkinligi aytiladi. So‘ng, to‘plagan ma’lumotlarini berilgan yo‘riqnoma asosida matn ko‘rinishida yozishlari tushuntirib o‘tiladi.

## 3-soat



Bu kasblardan birini tanlab, fikrlaringizni quyidagi tartibdagi matn shaklida yozing:

- tanlagan kasbingiz;
- buning sababi;
- ushbu kasb egasining vazifasi;
- kasbiy sifatlari;
- bu kasbni egallash uchun nimalar qilish kerakligi.

**Matndan olingan parchani o‘qing, unda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering. “Qanday?”, “qanaqa?” so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlarni alohida ko‘chiring.**

Teleboshlovchi **kamera** qarshisida o‘zini qanday tutishni, tomoshabinlarning e’tiborini **qanday** jalb etishni, fikrini **aniq** va **tushunarli** tarzda yetkaza olishni bilishi lozim. Shuning uchun topqir, **so‘zamol, uddaburon** teleboshlovchilar kutilmagan vaziyatlarda ham o‘zlarini **yo‘qotib qo‘ymaydi.** Bu **sifat**larga ega bo‘lmagan teleboshlovchilar faoliyati davomida ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi. Ular birgina **xato** gapi yoki harakati bilan millionlab **tomoshabinlar** oldida **uyalib qolishi** hech gap emas.

Otga bog‘lanib, uning belgisini bildiradigan va “qanday?”, “qaysi?” so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar **sifat** deyiladi.

**Berilgan so‘zlarni mos sifatlar bilan biriktirib, ko‘chiring. Ushbu otlarga yana qanday sifatlarni biriktirish mumkinligini misollar bilan ko‘rsatib bering.**

| Otlar | Sifatlar |
|---|---|
| ko‘rsatuv | keng |
| teleboshlovchi | musiqiy |
| yo‘l | ko‘ngilochar |
| kasb | topqir |
| mutaxassis | og‘ir |
| odam | obod |
| qishloq | dangasa |
| kishi | yaxshi |
| ko‘rsatuv | qadrdon |

**Yuqorida berilgan sifatlarni shaxs, narsa yoki o‘rin-joyning belgisini bildirib kelayotganiga ko‘ra ushbu jadvalga yozing.**

| Shaxsning belgisi | Narsaning belgisi | O‘rin-joy belgisi |
|---|---|---|
| ? | ? | ? |

91

### Dars jarayoni

#### Kirish

*Ayting-chi, televideniyeda qanday mutaxassislar faoliyat yuritadi? Ular haqida nimalarni bilib oldingiz?*

#### Asosiy qism

#### Morfologiya

**Matndan olingan parchani o‘qing, unda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering. “Qanday?”, “qanaqa?” so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlarni alohida ko‘chiring.**

Bunda “Teleboshlovchi kim?” matnidan olingan parcha berilgan bo‘lib, ushbu parchada ayrim so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchilar ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan “qanday?”, “qanaqa?” so‘rog‘iga javob bo‘luvchilarini aniqlab, yozishlari lozim. Bunda ayrim so‘zlarning so‘rog‘i kontekstual ma’nosiga asoslanadi. *Masalan, xato (nima?, ot), xato gap (qanday gap?, sifat).*

Shuning uchun so‘zlarga so‘roq berishda so‘zning ma’nosi hamda o‘zi bog‘langan so‘zga e’tibor qaratish lozimligi aytiladi.

*Javob: aniq, tushunarli, topqir, so‘zamol, uddaburon, xato.*

#### Qoida. Morfologiya

O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lgach, javoblar tahlil qilinadi hamda sifat haqida nazariy ma’lumot beriladi.

#### Morfologiya. Sintaksis

**Berilgan so‘zlarni mos sifatlar bilan biriktirib, ko‘chiring. Ushbu otlarga yana qanday sifatlarni biriktirish mumkinligini misollar bilan ko‘rsatib bering.**

Bunda ikki ustun berilgan bo‘lib, birinchi ustunga ot so‘z turkumidagi so‘zlar, ikkinchi ustunga sifat so‘z turkumidagi so‘zlar joylangan. O‘quvchilar birinchi va ikkinchi ustundagi so‘zlarni moslashtirib yozishlari hamda otlarga mos boshqa sifatlarni topib, misollar bilan izohlab berishlari lozim.

Bu jarayonda o‘quvchilarga birinchi ustundagi so‘zlarga so‘roq berish orqali ikkinchi ustundagi so‘zni topish mumkinligi aytiladi.

*Javob: ko‘ngilochar ko‘rsatuv, musiqiy ko‘rsatuv, keng yo‘l, topqir mutaxassis, og‘ir odam, obod qishloq, dangasa kishi, yaxshi kasb, qadrdon teleboshlovchi.*

#### Morfologiya

**Yuqorida berilgan sifatlarni shaxs, narsa yoki o‘rin-joyning belgisini bildirib kelayotganiga ko‘ra ushbu jadvalga yozing.**

Bu yuqoridagi topshiriqning davomi bo‘lib, o‘quvchilar otlar va sifatlarni o‘zaro moslashtirib yozganlaridan so‘ng, ularni ma’nosiga ko‘ra farqlab, guruhlarga ajratib yozishlari lozim.

Bunda asosiy e'tibor so'zlarga to'g'ri so'roq berish hamda ma'no-mazmuniga ko'ra to'g'ri farqlashga qaratiladi.

*Javob: shaxsning belgisi: topqir mutaxassis, og'ir odam, dangasa kishi, qadrdon teleboshlovchi; narsaning belgisi: ko'ngilochar ko'rsatuv, musiqiy ko'rsatuv, yaxshi kasb; o'rin-joy belgisi: keng yo'l, obod qishloq.*

Ayting-chi, bu so'z birikmalarida sifat qanday vazifani bajarmoqda?

Bu savolda e'tibor o'quvchilar sifatlar so'zlarning belgisini bildirib kelishini tushunib yetishiga qaratiladi.

### Yordamchi so'zlar

**Matndan olingan quyidagi parchani o'qing. Ajratib ko'rsatilgan birliklar qanday vazifani bajarayotganini aniqlash maqsadida ularni tushirib qoldirib, qayta o'qib ko'ring, vazifasini tushuntiring.**

Bunda "Teleboshlovchi kim?" matnidan olingan parcha berilgan bo'lib, unda ayrim so'zlar ajratib ko'rsatilgan. O'quvchilar parchani dastlab ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tushirgan holda, keyin to'liq o'qib, ushbu so'zlarning ma'nosini gaplar mazmunidan anglab munosabat bildirishi lozim.

Bu jarayonda o'qituvchi ikki holatni o'zi o'qib berishi, o'quvchilardan tinglab, munosabat bildirishini so'rashi ham o'rinli.

### Yordamchi so'zlar

**Yordamchi so'zlarni vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajrating.**

Bu yuqoridagi topshiriqning davomi bo'lib, o'quvchilar ajratib ko'rsatilgan so'zni gapdagi mazmuniga ko'ra guruhlab yozishi lozim. Bunda asosiy maqsad so'zlarni bir-biriga bog'lash va gaplarga qo'shimcha ma'no yuklashda yordamchi so'zlardan foydalanish mumkinligi haqida o'quvchilarga tushuncha berishdan iborat. Shunday ekan, bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarning fikrini tinglab, tushuntirib farqlab berishi maqsadga muvofiq.

| | | |
|---|---|---|
| 1 | So'zni so'zga bog'lash | va |
| 2 | So'zga qo'shimcha ma'no yuklash | ham, uchun, -da |

### Yordamchi so'zlar. Sintaksis

**Uchta gap tuzib, yozing. Birinchi gapda sifat shaxsning, ikkinchi gapda narsaning, uchinchi gapda o'rin-joyning belgisini bildirsin.**

Bunda o'quvchilar sifatlarni qatnashtirib shaxs, narsa, o'rin-joyning belgisini bildirgan gap tuzishlari lozim. Asosiy e'tibor sifat ma'no-mazmuniga ko'ra qo'llab, gap tuza olishga qaratiladi.

### Qoida. Morfologiya

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lishgach, sifatning tuzilishi haqida ma'lumot beriladi.

### Morfologiya

**Berilgan sifatlar tarkibidan juft va qo'shma sifatlarni alohida ko'chiring.**

Mazkur topshiriq o'quvchining sifatlar imlosiga doir nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan. Bunda o'quvchilar berilganlar orasidan qo'shma va juft sifatlarni alohida ajratib ko'chirishlari lozim. Bu topshiriqda o'quvchi e'tibor qaratishi lozim bo'lgan o'rinlar bor. Masalan sifatlar orasida yasama sifatlar borligiga diqqat qilish zarur.

*Javob:*

*Qo'shma sifatlar: kamgap, shirinsuxan, hozirjavob, ishyoqmas, mehnatsevar, kaltafahm.*

*Juft sifatlar: esli-hushli, boy-badavlat, sog'-salomat, noziknihol.*

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Yuqorida berilgan sifatlar tarkibidan teleboshlovchi kasbiga xos sifatlarni ajrating. Ularga qo'shimcha qilishingiz mumkin. Ulardan foydalangan holda teleboshlovchilik kasbining muhim jihatlarini yoritishga oid kichik matn yozing.**

Bu topshiriq o'quvchilarning darsda egallagan bilimlari asosida mustaqil izlanib, ijodiy yondashishiga qaratiladi. O'quvchilardan darsda tanishilgan "Teleboshlovchi kim?" matnidagi ma'lumotlardan, kitob, gazeta, jurnal va internet saytlaridan ushbu kasb haqi-

da ma’lumot to‘plab, teleboshlovchiga xos sifatlarni saralab, ushbu ma’lumotlar asosida teleboshlovchilik kasbining muhim jihatlarini yoritib berishlari talab etiladi.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning ma’lumot to‘plashi, kerakli o‘rinlarni ajratib olish hamda saralab olingan ma’lumotlar asosida erkin fikrlab, matn yoza olishiga qaratiladi.

## 4-soat



Quyida berilgan ma’lumotlardan foydalanib Nodirbek Abdusattorovning jahon chempioni bo‘lgani haqida xabar matnini yozing. Yozgan matningiz rasmiy yoki norasmiy nutq shaklida bo‘lishi mumkin.

**Ismi:** Nodirbek Abdusattorov.
**Tug‘ilgan sanasi:** 2004-yil, 18-sentyabr.
**Faoliyati:** shaxmatchi.
**Yutuqlari:**

- 2017-yili 13 yoshida xalqaro toifadagi grossmeyster bo‘lgan.
- 2021-yil 29-dekabrda shaxmatning rapid (tezkor shaxmat) yo‘nalishi bo‘yicha jahon chempioni bo‘lgan.
- Shaxmat tarixidagi eng yosh jahon chempioni.



O‘zingiz yozgan matnni qayta tahrir qiling. Yuqoridagi intervyuni do‘stingiz bilan uyushtirishga tayyorlaning.

O‘zingiz qiziqqan yoki tanlagan kasb talab qiladigan sifatlarni yozib chiqing. Sizda ushbu sifatlardan qaysilari borligi, qaysi sifatlar yo‘qligiga tanqidiy nazar tashlang.



### Dars jarayoni

#### Kirish

*Ayting-chi, intervyu nima? Siz ham intervyu olganmisiz?*

#### Asosiy qism

**Yozma nutq. Savol tuzish**

**Intervyu savollarini tayyorlang.**

Ushbu topshiriqda o‘quvchilarga dars davomida egallagan bilimlarini amaliy qo‘llab ko‘rish imkoniyati beriladi. Bunda ular berilgan vaziyat yuzasidan intervyu jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishi, ya’ni suhbatdoshlari Nodirbek Abdusattorov uchun savol tuzib, yozishlari lozim.

Bu topshiriqda e’tibor o‘quvchilarni teleboshlovchilik jarayoniga olib kirish hamda berilgan vaziyat yuzasidan maqsadli savol tuzishga o‘rgatishdan iborat.

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Quyida berilgan ma’lumotlardan foydalanib Nodirbek Abdusattorovning jahon chempioni bo‘lgani haqida xabar matnini yozing. Yozgan matningiz rasmiy yoki norasmiy nutq shaklida bo‘lishi mumkin.**

O‘quvchilar Nodirbek Abdusattorov haqida berilgan ma’lumotlardan foydalanib, bog‘lanishli nutq tuzib, xabar matni yozishlari lozim.

Xabar matni o‘quvchilarning ixtiyoriga ko‘ra rasmiy yoki norasmiy ko‘rinishda bo‘lishi shart. Bu yerda e’tibor o‘quvchining nutqqa doir til birliklaridan o‘rinli foydalana olishiga qaratiladi.

#### Uyga vazifa

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**O‘zingiz yozgan matnni qayta tahrir qiling. Yuqoridagi intervyuni do‘stingiz bilan uyushtirishga tayyorlaning.**

Bu topshiriqda o‘quvchilar yuqorida yozgan matnlarini tahrir qiladilar hamda tuzgan savollari asosida do‘stlaridan intervyu olishga tayyorlanadilar. Buning uchun qo‘shimcha savollar va qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plashlari maqsadga muvofiq.

**O‘zingiz qiziqqan yoki tanlagan kasbingizdagi insonga xos sifatlarni yozib chiqing. Sizda ushbu sifatlardan qaysilari borligi, qaysi sifatlar yo‘qligiga tanqidiy nazar tashlang.**

Bu topshiriq o‘quvchining mustaqil izlanishiga, hayotiy kuzatishlariga asoslanadi. Bunda o‘quvchilar o‘zlari qiziqqan kasb haqida ma’lumot to‘plab, shu kasb egalariga xos bo‘lgan sifatlarni yozib chiqishlari hamda o‘zlaridagi sifatlar tanlagan kasblariga mos yoki mos emasligini taqqoslashlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining o‘zi qiziqqan kasb haqida ma’lumot to‘plashiga, ma’lumotlarni saralashiga va tanlagan kasbiga oid shaxsiy sifatlarini aniqlab, ularni rivojlantirishiga qaratilgan.

## MUSTAHKAMLASH

### Dars jarayoni

**Kirish**

*Kasb deganda nimani tushunasiz?*

**Asosiy qism**

**Og‘zaki nutq**

**Kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lishingiz haqida o‘ylab ko‘ring. Savollarga javob bering.**

Darslikda turli xil kasb egalarining rasmi aks etgan. O‘quvchilardan rasmdagi kasb egalari nomi va ular qanday ishlar bilan shug‘ullanishi haqida munosabat so‘raladi, so‘ngra rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**Muhokama**

**1. Siz qaysi kasb egasi bo‘lishni xohlaysiz?**

**2. Nima uchun bu kasbni tanladingiz?**

**3. Siz tanlagan kasb egalari qanday fazilatlarga ega bo‘lishi muhim deb hisoblaysiz?**

Mazkur savollar o‘quvchilarning mustaqil fikrlab, erkin javob berishlariga qaratilgan. Asosiy maqsad o‘quvchilarning qiziqishlarini yuzaga chiqarish hamda kasbga bo‘lgan mehrini oshirishdan iborat.

**Morfologiya**

**Kasb-hunarga oid maqollarni ko‘chiring. Belgi bildiruvchi so‘zlarning tagiga chizing.**

Topshiriqni bajarishdan avval **o‘quvchilar bilan** *belgi bildiruvchi so‘zlar nimaligi, ularning so‘rog‘i, gapdagi vazifasi* haqida savol-javob o‘tkazib olinadi. So‘ngra topshiriqni bajarish aytiladi.

***Javob:*** *tikansiz, mashaqqatsiz, hunarli, mevali, behunar, ko‘rkam, ilmsiz, hunarsiz.*

**Morfologiya**

**Muayyan bir sohaga oid kasb egalari nomini guruhlarga ajratib ko‘chiring.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda shaxs otlari va ularni ma’nosiga ko‘ra farqlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

***Javob:***

| Tibbiyot xodimlari | Qurilish xodimlari | Qishloq xo‘jaligi xodimlari |
|---|---|---|
| *shifokor, laborant, feldsher* | *arxitektor, quruvchi, suvoqchi, montaj ustalari* | *fermer, agronom, veterinar, traktorchi* |

**Morfologiya. Sintaksis**

**Yuqoridagi so‘zlarga quyidagi qo‘shimchalarni qo‘shib, ularni gaplar tarkibida qo‘llab yozing. So‘zning gapdagi vazifasini aniqlang.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning so‘zlarga qo‘shimchalardan mosini qo‘yish hamda so‘zni ma’nosiga mos kontekstda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga kasb nomlariga qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, namunadagidek gap tuzish aytiladi.

**Qoida**

O‘quvchilarga tasviriy ifoda haqidagi ma’lumot misollar bilan tushuntirib beriladi.

**Leksikografiya**

**Quyida berilgan tasviriy ifodalar qanday kasb egalariga tegishli ekanini aniqlang. Har bir tasviriy ifodani izohlang.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish hamda tasviriy ifoda haqidagi tushunchalarini mustahkamlashga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan tasviriy ifodalarga mos birliklarni topib aytishlari lozim. Bunda tasviriy ifodalar ostida berilgan rasmdan foydalanish mumkin.

***Javob:***

- *salomatligimiz posbonlari – shifokorlar;*
- *samo lochinlari – uchuvchilar;*
- *qalam ahli – yozuvchilar;*
- *yaylov sultoni – cho‘ponlar;*
- *mo‘yqalam sohibi – rassomlar;*
- *osoyishtalik posbonlari – harbiylar.*

**Muhokama**

**Biror kasb yoki hunar uchun tasviriy ifoda tanlang. Nima uchun shunday ifoda tanlaganingizni tushuntiring.**

Mazkur savol yuzasidan o‘quvchilarning fikri tinglanib, munosabat bildiriladi.

**Uyga vazifa**

**Yozma nutq**

**“Mening kasbim – mening kelajagim” mavzusida ijodiy matn yarating. Unda sifat darajalaridan foydalaning.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, ma’lumot to‘plash, ularni saralash, matn mazmuniga mos jumlalar bilan matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga o‘zlari qiziqqan kasb haqida ma’lumot to‘plab, matn yozib kelishlari aytiladi.

## IMPORT YOKI EKSPORT?

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** import va eksport tovarlari, ularning davlat iqtisodidagi ahamiyatini tushunish, ularga oid til birliklarini o‘quvchi nutqida faollashtirish; infografika va diagramma ko‘rinishidagi ma’lumotlarni o‘qib tushunish; matn tuzilishiga doir tavsiyalar; fikrni izchil ifodalash, shaxsiy qarashlarini himoya qilish; qo‘shma sifatlar.

### 1-soat

**Dars jarayoni**

#### Kirish

*Sinfdoshlaringiz bilan biror narsa almashganmisiz? Almashtirishda qanday qoidalarga rioya qilasiz?*

#### Asosiy qism

#### Og‘zaki nutq

**Infografika – rasmli ma’lumotlarni o‘rganing. O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi haqidagi savollarga javob bering.**

Mazkur topshiriqda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi aks etgan infografika hamda import-eksport qiymati ko‘rsatilgan diagramma berilgan. O‘quvchilar ushbu chizmalar bilan tanishib chiqib, munosabatlarini aytishlari lozim.

#### Muhokama

**1. Rasmlarga qarab ayting-chi, eksport va import nima ekan?**

Bu savolda e’tibor o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratiladi, ya’ni o‘quvchilar “eksport” va “import” so‘zlarining ma’nosini o‘zlashtirib olishlari lozim. Bunda dastlab o‘quvchilar chizmadagi ko‘rsatkichlar yo‘nalishini tushungan holda hayotiy kuzatishlari asosida eksport va import haqida o‘z tushunchalarini aytishlari lozim. So‘ngra o‘qituvchi tomonidan ushbu so‘zlarga izoh beriladi.

*Eksport (chiqarish) – sotish va boshqa maqsadlarda chet elga mol chiqarish.*

*Import (olib kirish) – chet eldan tovarlar sotib olish.*

**2. Tashqi savdo deganda nimani tushundingiz?**

Bu savolga javob berishda o‘quvchilar “tashqi” deganda nima nazarda tutilayotganini infografikada berilgan xarita chizmasi, ko‘rsatkichlar yo‘nalishi hamda raqamli ma’lumotlar asosida tushunib, aytishi nazarda tutilgan.

*Tashqi savdo – xorijiy davlatlar bilan bo‘ladigan savdo.*

**3. O‘zbekiston qanday mahsulotlarni xorijga eksport qiladi? Ya’ni nimalarni sotadi?**

Bu savolga javob berishda diagrammaga o‘quvchi e’tibori qaratiladi. Diagrammada eksport mahsulotlari ko‘k rang bilan belgilangan va har birining tashqi savdodagi ulushi berilgan. O‘quvchilar ushbu ma’lumotlarga tayanib javob berishi kerak.

*Javob: oziq-ovqat, xomashyo, yoqilg‘i, kimyoviy moddalar, sanoat mollari, mashina va uskunalar, tayyor mahsulotlar, xizmatlar hamda oltin.*

**4. O‘zbekiston asosan nimalarni boshqa davlatlardan sotib oladi? Ya’ni nimalar import bo‘ladi?**

Bu savolga javob berishda ham diagrammaga o‘quvchi e’tibori qaratiladi. Diagrammada import mahsulotlari sariq rang bilan belgilangan va har birining tashqi savdodagi ulushi berilgan. O‘quvchilar ushbu ma’lumotlarga tayanib javob berishi kerak.

*Javob: sanoat mollari, mashina va uskunalar, oziq-ovqat va ichimliklar, xomashyo, yoqilg‘i, kimyoviy moddalar, tayyor mahsulotlar, xizmatlar.*

**5. Ayting-chi, nega biz bu narsalarni sotib olamiz? Sizningcha, bu yaxshimi yoki yomon? Fikrlaringizni asoslang.**

Bu savolga javob berishda o‘quvchi hayotiy kuzatishlari asosida mantiqan fikrlab javob berishi lozim. “Yaxshi” deb javob bersa

ham, “yomon” deb javob bersa ham qabul qilinadi. Asosiy e’tibor ushbu fikrini misollar bilan asoslab berishiga qaratiladi.

**6. Sizningcha, O‘zbekiston yana nimalarni xorijiy davlatlarga sotadi? Yana nimalarni sotib oladi?**

Bu savolga o‘quvchi hayotiy kuzatishlari asosida javob beradi. U kundalik hayotda ishlatadigan narsa-buyumlarda *“Made in …”* yorlig‘i borligi, bu esa qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganini ko‘rsatishini aytadi. Mana shu yorliq asosida import qilingan mahsulotlarga misol keltirish mumkin.

**7. Diagrammaga qarab ayting-chi, biz eng ko‘p sotadigan narsalar nima ekan? Eng ko‘p sotib oladigan narsalarimiz-chi?**

Bu savol diagrammada eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Ko‘rsatkichlarga qarab eng ko‘p eksport qilinadigan narsalar – *oltin va sanoat mollari ekani hamda eng ko‘p import qilinadigan mahsulotlar – mashina va uskunalar ekanini aytishi lozim.*

**8. Nima uchun biz bu narsalarni ko‘p sotib olamiz yoki ko‘p sotamiz?**

Bu savolga o‘quvchi mantiqan o‘ylab, buning sababi *bizda ishlab chiqarishning kamligi, aholi ehtiyojlarini to‘la qondira oladigan zavod va fabrikalarning yetishmasligi, asosan xomashyo sotishimizni aytib bera olishi lozim.*

**9. Nima deb o‘ylaysiz, davlatimiz rivojlanishi uchun ko‘proq eksport qilishimiz kerakmi yoki import? Fikrlaringizni asoslang.**

O‘quvchilar *eksport davlatni boy qilishini* misollar bilan aytib berishi kerak. Zero, qancha ko‘p eksport qilinsa, davlatga shuncha ko‘p xorijiy valyuta kirib keladi.

**10. Sizningcha, qaysi mahsulotlarni ishlab chiqarsak, boshqa davlatlardan ko‘p buyurtma bo‘ladi? Nima uchun?**

Bu savoldan asosiy maqsad o‘quvchilarga import-eksport haqida, O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi, ularga oid til birliklari haqida ma’lumot berish hamda kelajakda tadbirkor bo‘lishni orzu qilgan o‘quvchini qiziqishlari tomon yo‘naltirishdir.

## Og‘zaki nutq

**Berilgan rasm va ma’lumotlarning mazmunini sinfda muhokama qiling. Mahsulot turlarining nomi, qanday ishlab chiqarilishi, odamlarga nega kerakligini ayting.**

Ushbu topshiriqda import va eksport qilinadigan asosiy mahsulot turlari rasmlar bilan berilgan. O‘quvchilar rasmlar bilan tanishgan holda ushbu mahsulot turlarining odamlarga zarurati, qanday ishlab chiqarish mumkinligi haqida munosabat bildirishlari lozim.

Bu jarayonda o‘quvchilar bitta mahsulot turini tahlil qilishlari ham mumkin. Asosiy e’tibor fikrlarini aniq, ketma-ketlikda ifodalab berishlariga qaratiladi.

## Morfologiya

**Har bir turga mansub mahsulot va xizmat nomlarini namunadagi kabi yozing.**

Bu yuqoridagi topshiriqning mantiqiy davomi bo‘lib, o‘quvchilar berilgan mahsulot turlariga nimalar kirishi kerakligini namunadagidek qilib yozishlari lozim. Bu jarayonda lug‘atdan foydalanish mumkin. Asosiy e’tibor o‘quvchining lug‘at boyligini oshirish hamda kundalik hayotida foydalanadigan mahsulot turlari haqida ma’lumot berishdan iborat.

O‘quvchilarda tushuncha hosil qilish uchun har bir turga misol keltirib, boshlab berish maqsadga muvofiq. *Masalan, oziq-ovqat va ichimliklar: shakar, o‘simlik yog‘i; xomashyo: yog‘och, paxta; yonilg‘i: benzin, gaz; kimyoviy moddalar: dori-darmon; tayyor mahsulotlar: kompyuter, havosovitkich; sanoat mollari: temir; xizmatlar: onlayn xarid; mashina va uskunalar: mashina jihozlari; oltin va rangli metallar: kumush, olmos* kabi.

### Og‘zaki nutq

**Birinchi mashqda berilgan rasm va diagrammaga qarab 2021-yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi qanday bo‘lgani haqida og‘zaki taqdimot qiling.**

Mazkur topshiriqni bajarishda o‘quvchi berilgan rasm va diagrammadan foydalanishi, o‘zi uchun kerakli o‘rinlarni belgilab, qayd etib olishi hamda doskada chizmalar chizib, og‘zaki gapirib berishi lozim.

Bunda o‘quvchining shakl va ko‘rsatkichlar orqali berilgan ma’lumotni og‘zaki ifodalay olishi tekshiriladi.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Mahsulot turlarining birini tanlab, u haqida ma’lumotlar bilan tanishing. Bu mahsulotning O‘zbekiston iqtisodi uchun qanchalik foydali ekanini asoslab, kichik matn yozing.**

Ushbu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar dars davomida o‘zlashtirgan bilimlariga tayanadi. Bunda tanlab olingan mahsulot haqida kitoblar, internet saytlari, gazeta-jurnallardan qo‘shimcha ma’lumot to‘plashi mumkinligi aytiladi.

Asosiy e’tibor fikrini asoslab, yozma ifodalab berishiga qaratiladi.

## 2-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Maqola nima? Qanday mazmundagi maqolalar bilan tanishgansiz?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Matnni diqqat bilan o‘qing. Savollarga javob bering.**

Matn: “Eksport yoki import?”

Manba: “Jajji akademik” jurnali.

O‘quvchilarga matnni o‘qib chiqish aytiladi.

### Muhokama

**1. Nima uchun biz oltin va boshqa rangli metallar, tabiiy gaz, paxta hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘p eksport qilamiz?**

Bu matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Matnning uchinchi xatboshisida bu haqida ma’lumot berilgan, ya’ni *rivojlangan davlatlar o‘zida bor mahsulotlarni eksport qiladi, chunki bu mahsulotlar ularda ko‘p ishlab chiqariladi. Masalan, bizda rangli metallar, tabiiy gaz zaxiralari mavjud, paxta hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlangan, shu sababli bu mahsulotlar eksport qilinadi.*

**3. Asosan xomashyoni eksport qilishimizga sabab nima? Bu muammoning yechimini nimalarda ko‘rasiz?**

Bu matnning 4-5-xatboshilaridan anglashiladi: “*Bizda tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan zavod va fabrikalarning yo‘qligi oqibatida boshqa davlatlardan import qilishga to‘g‘ri keladi*”.

**4. Siz eksport mahsulotlari ko‘p bo‘lgan qaysi davlatlarni bilasiz? Nima deb o‘ylaysiz, ular bu darajaga qanday erishgan?**

O‘quvchi erkin fikrlab javob berishi lozim. Bu davlatlarga *Amerika Qo‘shma Shtatlari, Xitoy, Germaniya* kabi davlatlarni kiritish mumkin.

**5. Kelajakda tadbirkor bo‘lsangiz, iqtisodimiz rivoji uchun nimalar qilar edingiz?**

Bu – o‘quvchini kasbga yo‘naltiruvchi savol. Javoblar lo‘nda va aniq misollar asosida bo‘lishini talab qiling.

### O‘qib tushunish. Tahlil

**Maqola matnining qismlari bilan tanishing.**

Yuqorida keltirilgan matnning tuzilishi ranglar, chizmalar va raqamlar asosida tushuntirib berilgan. O‘quvchilar ushbu ma’lumotlar bilan tanishib, munosabat bildirishlari lozim.

O‘qituvchi o‘quvchilarning fikrini tinglab bo‘lib, ushbu maqola tuzilishini chizmalar yordamida tushuntirib berishi lozim.

## Muhokama

**1. Sizningcha, matnning ikkinchi qismi nima uchun “Kirish” deb nomlangan?**

Matnning bu qismida muallif o‘quvchini maqolada ko‘tariladigan masalalarga tayyorlamoqda. O‘quvchiga murojaat bilan, *eksport* yoki *import* so‘zlarini eslatmoqda. Shuning uchun ham maqolaning boshlanmasi “Kirish” deb nomlangan.

**2. Matnning uchinchi qismi nega “Muhim ma’lumot” deb nomlangan? Bu qismdagi aynan nima muhim ma’lumot bo‘lishi mumkin? Fikrlaringizni asoslang.**

Sarlavhaga olib chiqilgan so‘zlar ma’nosi aynan shu qismda yoritilgan bo‘lib, berilgan ma’lumotlar aniqligi va dolzarbligi bilan muhim ma’lumot sanaladi.

**3. “Ma’lumotni misollar bilan tushuntirish” qismida misol sifatida qaysi ma’lumotlarga urg‘u berilgan? Bu qismni yana qanday nomlash mumkin?**

Bu savol qismlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchi shu va undan oldingi qismlar mazmunidan kelib chiqib, munosabat bildirishi lozim. Bu o‘rinda 3-qismdagi muhim ma’lumotga misol keltirilayotganini aytishi va yana matndan tashqari misollardan taklif berishi maqsadga muvofiq.

**4. “Muammo va tahlil” qismidagi qaysi gap muammoni to‘laqonli ifodalaydi? Qaysi gapda tahlilni ko‘rish mumkin?**

Bu savolga javob berishda o‘quvchi shu qismdagi ma’lumotlarga tayanadi. Asosiy e’tibor “muammo” va “tahlil” so‘zlarini tushunishga qaratiladi. O‘quvchilar bu so‘zlar ma’nosini tushungan holda ushbu qismdan muammo va tahlilni yuzaga keltirgan jumlalarni aniqlab aytishi lozim.

*Muammo – hal qilinishi lozim bo‘lgan masala.*

*Tahlil – biror masalani tekshirish, unga munosabat bildirish.*

**5. “Xulosa va yechim” qismidagi xulosa qaysi, yechim-chi?**

Bu savolga ham javob berishda o‘quvchi shu qismdagi ma’lumotlarga tayanadi. Bunda asosiy e’tibor “xulosa” va “yechim” so‘zlarini tushunishga qaratiladi. O‘quvchilar ushbu so‘zlar ma’nosini tushungan holda ushbu qismdan xulosa va yechimni yuzaga keltirgan jumlalarni aniqlab aytishi lozim.

*Xulosa – yuritilgan fikr yoki mulohazaning mantiqiy natijasi, yakun.*

*Yechim – biror masala, muammo yuzasidan bildirilgan javob.*

**6. “Fikrlashga undovchi savol” qismi matnda nima uchun berilgan deb o‘ylaysiz?**

O‘quvchi bu savol o‘ylab ko‘rish uchun, kelajakda vatan rivoji uchun qanday hissa qo‘shish mumkinligini anglash uchun berilganini bilishi lozim.

## Morfologiya. Morfemika

**Quyidagi so‘z va qo‘shimchalar ishtirokida namunadagi kabi sifatlar hosil qiling.**

Ushbu topshiriqda o‘quvchilar birinchi ustundagi so‘zlar hamda ikkinchi ustundagi qo‘shimchalarni o‘zaro moslab, namunadagi kabi yangi so‘zlar hosil qilib, yozishlari lozim.

***Javob:*** *hunar+mand, bozor+bop, ser+quvvat, qadim+gi, xaridor+gir, pul+dor, talab+chan, ser+daromad.*

## Morfologiya. Orfografiya

**To‘g‘ri yozilgan qo‘shma sifatlarni ko‘chiring.**

Bu topshiriqni bajarishdan burun oldingi darslarda o‘tilgan qo‘shma sifatlar haqidagi nazariy bilimlar takrorlab olinadi. So‘ngra to‘g‘ri yozilgan qo‘shma sifatlarni aniqlab, yozish aytiladi.

*Javob: mehnatsevar, jonkuyar, kamxarj, xushmuomala, ishyoqmas, xaridortalab.*

## Uyga vazifa

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Biror mavzuda kirish, muammo va tahlil, xulosa qismlaridan iborat maqola yozing.**

Ushbu topshiriqni bajarishda o‘quvchilardan yuqorida berilgan matn tuzilishi haqidagi ma’lumotdan foydalanib, o‘zlari tanlagan mavzu yuzasidan mustaqil izlanib, matn yozishlari talab etiladi. Yozgan matnlarida kirish, muammo, tahlil va xulosaning berilishiga alohida e’tibor qaratiladi.

## 3-soat

**Dars jarayoni**

### Kirish

*So‘zlar qanday vositalar orqali bog‘lanib, gap hosil qilinadi?*

### Asosiy qism

#### O‘qib tushunish

**“Eksport yoki import” matnidagi ba’zi gaplarni ajratib ko‘rsatilgan qo‘shimchalarsiz o‘qing. Ushbu qo‘shimchalar gapda qanday vazifani bajarayotganini aniqlang.**

Matnda ayrim so‘zlar tarkibidagi qo‘shimchalar ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, o‘quvchilar jumlalarni shu qo‘shimchasiz o‘qiydi. Bu jarayonda gap ma’nosidagi g‘alizlikni tushunib, qo‘shimchaning vazifasi haqida munosabat bildirishi lozim.

#### Qoida. Morfologiya

O‘quvchilar javobi tinglangach, kelishiklar haqida nazariy ma’lumot berilib, misollar bilan gapdagi vazifasi tushuntiriladi.

#### Morfologiya

**Kelishik qo‘shimchalari ishtirok etgan so‘zlarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birgalikda ko‘chiring va namunadagidek tahlil qilib yozing.**

Bu yuqorida berilgan kelishik haqidagi nazariy bilimni mustahkamlashga qaratilgan topshiriq bo‘lib, o‘quvchilar matn tarkibidan kelishik qo‘shimchasi qatnashgan gaplarga misol topib, ushbu gaplarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda ko‘chirib yozishi lozim. So‘ngra topgan so‘zlari tarkibidagi qo‘shimchalarni namunadagi kabi tahlil qilib yozish aytiladi.

Bundan oldin kelishik turlari va qo‘shimchalari haqida ma’lumotni o‘quvchilar bilan takrorlab olish uchun qisqa savol-javob o‘tkazish maqsadga muvofiq.

#### Morfologiya

**Ushbu jadvalni daftaringizga chizing. Matn tarkibidan kelishiklarning qo‘llanishiga oid misollarni aniqlab, jadvalning uchinchi ustuniga yozing.**

Bunda kelishiklar jadvali berilgan bo‘lib, unda kelishik turlari hamda qo‘shimchalari ko‘rsatilgan. O‘quvchilar jadvalning uchinchi ustuniga matndan misollar topib, yozishi lozim.

#### Morfologiya

**Matndan olingan ushbu parchani nuqtalar o‘rniga mos keluvchi kelishik qo‘shimchalarini qo‘yib ko‘chiring.**

Ushbu parchada ayrim so‘zlarning qo‘shimchalari tushirib qoldirilgan hamda qo‘yish uchun qo‘shimchalar ham taklif qilingan. O‘quvchilar parchani o‘qib, gap mazmuniga mos qo‘shimchani qo‘shib ko‘chirishi lozim. Darslikda berilgan matnga qarab ham bajarish mumkin. Bunda asosiy e’tibor nima uchun qo‘shimchaning biri mos tushib, ikkinchisi mos tushmasligini isbotlab berishga qaratiladi.

***Javob:*** *Agar import mahsulotlari**ni** o‘zimiz ishlab chiqarganimizda, iqtisodimiz yanada rivojlanar edi. Sababi chet davlat**dan** biror narsa sotib olganimizda O‘zbekistondagi pullar o‘sha davlat**ga** chiqib ketadi-da. Demak, biz bor e’tiborimiz**ni** eksportbop tovarlar ishlab chiqarish**ga** qaratishimiz kerak. Qaysi davlat**ning** eksport mahsulotlari ko‘p bo‘lsa, shu davlat**ning** iqtisodi baquvvat bo‘ladi. Uning aholisi ham boy yashaydi.*

### Uyga vazifa

#### Morfologiya

**“Eksport yoki import?” matni tarkibidan quyida berilgan so‘z turkumlariga 5 tadan misol topib, yozing.**

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchi matn bilan qayta ishlaydi. Matn tarkibidagi so‘zlarga so‘roq berib, turkumini aniqlab, alohida ustunlarga ajratib yozadi. Bunda beshta misol yozish yetarli hisoblanadi. Asosiy e’tibor so‘zlarga to‘g‘ri so‘roq bera olish hamda ma’no-mazmuniga ko‘ra guruhlarga ajrata olishga qaratiladi.

## 4-soat

**Dars jarayoni**

### Kirish

*Izoh nima? U nima uchun kerak?*

***Javob:*** *izoh so‘z, ibora yoki voqea-hodisaga berilgan sharh; tushuntirish.*

### Asosiy qism

#### Leksikologiya

**Mavzu yuzasidan olgan ma’lumotlaringiz yordamida quyidagi atamalar uchun izoh yozing.**

Bu o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan topshiriq bo‘lib, berilgan so‘zlar o‘quvchi uchun notanish emas, dars davomida ushbu so‘zlar haqida ma’lumot berib, misollar bilan izohlab kelinmoqda.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining bir so‘z haqidagi tushunchalarini jamlab, unga izoh bera olishiga qaratiladi. Dastlab so‘zlarga izohni mustaqil ravishda yozadi, so‘ngra kitob oxirida berilgan lug‘atdagi varianti bilan taqqoslaydi.

#### Yozma nutq. Taqdimot tayyorlash

**O‘zbekistonning 2035-yildagi tashqi savdo aylanmasi yuzasidan taqdimot tayyorlang.**

O‘quvchilarga murojaat shaklida xabar mazmunli matn berilgan. O‘quvchi ushbu matnni o‘qib, dars davomida egallagan bilimlari hamda hayotiy kuzatishlari asosida 2035-yildagi O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi yuzasidan taqdimot tayyorlashi lozim.

Taqdimot tayyorlashda yo‘riqnoma berilgan. O‘quvchilarga ushbu yo‘riqnomadan foydalangan holda o‘z tasavvurini taqdimot ko‘rinishida aks ettirib berishi lozimligi aytiladi.

#### Uyga vazifa

#### Og‘zaki nutq

**2035-yildagi O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi yuzasidan tayyorlagan hisobotingizni taqdimot qilishga tayyorlaning.**

O‘quvchi tayyorlagan taqdimoti bilan qayta ishlashi, uni kerakli chizmalar, rasm va qaydlar bilan to‘ldirishi mumkin. Hamda taqdimotni gapirib berish uchun tayyorlanishi lozim.

Buning uchun kirish so‘zlar, urg‘u, fikrni dalillovchi vositalar, xulosa kabi birliklarga e’tibor qaratishi tushuntiriladi.

## 5-soat

### Dars jarayoni

#### Kirish

*Taqdimot tayyorlashda nimalarga e’tibor qaratish lozim?*

#### Asosiy qism

#### Og‘zaki nutq

**O‘zbekistonning 2035-yildagi tashqi savdo aylanmasi yuzasidan tayyorlagan hisobotingizni taqdimot qiling. Taqdimot qilish uchun sizga 3 daqiqa vaqt ajratilgan.**

O‘quvchilar tayyorlagan hisobotlarini sinfda birma-bir chiqib, taqdimot qilib berishlari lozim. Bu jarayonda taqdimot qilishdagi ko‘rsatmalarga e’tibor qaratishlari aytiladi.

#### Og‘zaki nutq. Tahlil

**Do‘stingizning taqdimotiga yuqorida berilgan mezonlar asosida munosabat bildiring.**

Bu yuqoridagi topshiriq bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, o‘quvchilar mezonlarga asoslanib, suhbatdoshlarining nutqini kuzatib borishlari lozim. Taqdimot qilib bo‘lgach, tushunarsiz bo‘lgan o‘rinlar uchun savol bilan murojaat qilib, javob olish mumkin.

#### Uyga vazifa

#### Yozma nutq. Matn yaratish

**Sinfdoshlaringizning taqdimoti haqida qisqacha munosabat yozing.**


O‘quvchilarga taqdimotni tinglash jarayonida o‘z munosabatlarini bildirish, o‘zlari uchun kerakli jumlalarni qayd etib borish hamda namunadagi kabi munosabat yozib kelish aytiladi.

Bu topshiriq o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, yozma munosabat bildira olish, taqdimotni baholash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

# SOLIQLARNI TO‘LAB BORASIZMI?

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilarda soliq turlari, soliqdan olinadigan manfaat haqida tasavvur hosil qilish hamda ularga oid til birliklarini nutqida faollashtirish; infografika asosida og‘zaki nutq yaratish; otlarning lug‘aviy shakli; tinglab tushunish; sifat darajalari; so‘zlarning gapdagi sintaktik vazifasini aniqlay olish; og‘zaki va yozma nutqda sintaktik vositalardan unumli va to‘g‘ri foydalanish; eslatma yozishni o‘rgatish.

## 1-soat


SOLIQLARNI TO‘LAB BORASIZMI?

Bu mavzuda o‘rganamiz

• soliqlar va ularning turlari, ijtimoiy ahamiyati • infografikani tushunish • sifat darajalari • yozma nutqda sintaktik vositalardan to‘g‘ri foydalanish • ma’ruza qilish.

Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

Qanday soliqlar bor?

MOL-MULK SOLIG‘I

Odamlar o‘zlari egalik qilib turgan mol-mulk uchun soliq to‘laydi

DAROMAD SOLIG‘I

Odamlar o‘z daromadining bir qismini soliq sifatida davlatga to‘laydi

YER SOLIG‘I

Odamlar o‘zlari foydalanib kelayotgan yer maydoni uchun soliq to‘laydi

1. Ayting-chi, soliq deganda nimani tushunasiz?
2. Yana nimalar uchun soliq to‘lanadi?
3. Soliqlarning qanday ijtimoiy ahamiyati bor? Ya’ni odamlar uchun qanday foydasi bor? Fikrlaringizni asoslang.
4. Soliqlarni to‘lamaslikning oqibati nima bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

105

### Dars jarayoni

### Kirish

*Soliq nima? Siz ham soliq to‘laysizmi?*

### Asosiy qism

### Og‘zaki nutq

**Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.**

Ushbu topshiriqda soliq turlari haqida ma’lumot hamda uni aks ettiruvchi rasmlar berilgan. O‘quvchilar rasm va ma’lumotlar bilan tanishib, o‘z munosabatlarini bildirganlaridan so‘ng rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. Ayting-chi, soliq deganda nimani tushunasiz?**

Bu savol o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar soliq deganda nimani tushunishlarini aytib berishi lozim. So‘ng ushbu birlik haqida ma’lumot beriladi.

***Soliq*** *– davlat tomonidan amaldagi qonunlar asosida yuridik va jismoniy shaxslarning daromadi yoki mol-mulkidan undiriladigan va byudjetga o‘tkaziladigan majburiy to‘lov.*

**2. Yana nimalar uchun soliq to‘lanadi?**

Mazkur savol o‘quvchilarning shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan. Ularning fikriga qo‘shimcha qilib *suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, ijtimoiy soliq kabi* soliqlar ham to‘lanishini aytib o‘tish lozim.

**3. Soliqlarning qanday ijtimoiy ahamiyati bor? Ya’ni odamlar uchun foydasi nimada? Fikrlaringizni asoslang.**

O‘quvchilarga soliqlardan tushgan pullar nimalarga sarf qilinishini misollar bilan aytib, uning odamlarga, jamiyatga foydasi haqida so‘raladi.

**4. Soliqlarni to‘lamaslikning oqibati nima bo‘ladi deb o‘ylaysiz?**

O‘quvchi soliqlarni to‘lash majburiy ekanini anglashi lozim. Soliqlarni to‘lashdan bosh tortish yoki turli yo‘llar bilan soliq to‘lamaslikka urinish jinoyat ekanini, bu odamlarning haqiga xiyonat bo‘lishini tushunishlari va aytishlari kerak.

### Morfologiya. Yordamchi so‘zlar

**Ushbu gaplarni o‘zaro bog‘lab, matn hosil qiling. Bunda gaplarni o‘zaro bog‘lovchi so‘zlardan hamda takrorning oldini olish maqsadida olmoshlardan foydalaning.**

Ushbu topshiriqda o‘quvchilar berilgan gaplarni o‘zaro bog‘lab, matn tuzib, yozishlari lozim. Bunda gaplarni bog‘lash uchun berilgan so‘zlar hamda olmoshlardan foydalanish tushuntiriladi.

Bu topshiriqda asosiy e’tibor o‘quvchilarning alohida gaplarni yaxlit matn ko‘rinishiga keltirishlariga hamda kerakli so‘z va jumlalarni gaplarning ma’no-mazmuniga moslab, to‘g‘ri qo‘llay olishlariga qaratiladi.

### Sintaksis

**O‘zingiz yozgan gaplarning biridan bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlab, ularning tagiga chizing.**

Bunda o‘quvchilardan yozgan matnlari tarkibidagi gaplarni tahlil qilib, birinchi va ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlab, tagiga chizish talab etiladi.

Bu jarayonda so‘zlarga so‘roq berib aniqlash mumkinligi aytib o‘tilishi lozim.

### Og‘zaki nutq. Infografika asosida suhbat

**Soliqlarning sarflanishiga oid infografika bilan tanishing.**

Ushbu topshiriqda soliqlarning nimaga sarf qilinishi aks etgan infografika berilgan. O‘quvchilar ushbu infografika bilan tanishib chiqishlari lozim. Bunda berilgan rasmlar, rasmlarga oid birliklar hamda chizmalarga e’tibor qaratish aytilishi lozim.

### Yozma nutq. Sharhlash

**Dastlabki bilimlaringiz asosida infografikada berilgan ma’lumotlarga sharh yozing.**

O‘quvchilar infografika bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng berilgan namuna asosida sharhlab yozishlari aytiladi. Bu jarayonda nimalarga e’tibor qaratish kerakligi savol-javob orqali aniqlab olinishi maqsadga muvofiq. Masalan, “*Infografikada nima tasvirlangan?*”, “*Rasm ostidagi ma’lumotlar nimaga qaratilgan?*” kabi.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Shahringiz (tumaningiz) hokimiga murojaat xati yozing. Unda soliqlardan tushgan mablag‘ hisobidan hududingizdagi qanday muammoni hal qilish mumkinligi haqida tavsiya bering.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning mustaqil fikrlab, ijodiy yondashishiga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida yashash joyi hokimiga soliqlardan tushadigan mablag‘larni nimaga sarf qilish haqida tavsiya yozishi lozim. Buning uchun o‘quvchilarga quyidagicha ko‘rsatma berilishi maqsadga muvofiq.

- Yashash manzilingizdagi muammolarni aniqlang.
- Muammolarni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligi haqida taklif bering.
- Takliflaringizni amalga oshirish uchun taxminan qancha mablag‘ ketishini hisoblab chiqing.
- Taklifingiz asosida muammoning hal bo‘lishi insonlar hayotida qanday o‘zgarishlarga olib kelishini yozing.
- Xatni shakllantirishda berilgan qoliplardan foydalaning.

## 2-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Shahringiz (tumaningiz) hokimi kim? Unga qanday mazmunda murojaat xati yo‘lladingiz?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

Matn: “Soliqlar”.

Muallif: Abduqahhor Rahimov.

O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. Qaysi xatboshi yoki xatboshilar matnning kirish qismi bo‘la oladi? Javobingizni izohlang.**



SOLIQLAR

Ba'zida ota-onangizdan "yer solig'ini to'lab qo'yish kerak" yoki "daromad solig'i bo'yicha deklaratsiya to'ldirib keldim" degan gaplarni eshitib qolasiz. Biroq soliq o'zi nima ekanini bilasizmi?

Soliqlar deganda davlat byudjetiga yo'naltiriladigan **majburiy** pul to'lovlari tushuniladi. Ya'ni har qanday mamlakatda odamlar davlatga berishi shart bo'lgan to'lovlar mavjud.

Keling, buni harbiylar misolida tushunib olamiz. Tasavvur qiling, siz **katta** davlatning prezidentisiz. Demak, sizga davlat aholisini **yovuz** kuchlardan himoya qilish va qo'riqlash uchun armiya kerak bo'ladi. Ammo **armiya**dagi askarlarning yeyishi, ichishi va ish haqi uchun ko'p pul kerak. Xo'sh, bu muammoni qanday hal qilish mumkin? Siz bu pullarni askarlar xizmatidan foydalanayotgan aholidan doimiy ravishda yig'ib olasiz. Mana shunga o'xshash to'lovlar bugungi tilda umumiy qilib "soliq" deyiladi.

Soliq to'lovchilar to'lagan pul davlatning rivojlanishi, **aholi**ning **yaxshi** yashashi uchun sarflanadi. Soliqlar evaziga bolalar maktabda bepul o'qiydi va shifoxonada bepul davolanadi. Shuning uchun ham qonunlarimizda har bir shaxs o'ziga belgilangan soliqlarni vaqtida to'lashi shart ekani qayd etilgan. Soliqlarni to'lashdan bosh tortganlar **ma'muriy** va **jinoiy** **javobgarlik**ka tortiladi. Soliqlar esa majburiy tarzda undirib olinadi.

*Abduqahhor Rahimov, huquqshunos*

107

Bu savol o'quvchilarga matn tuzilishi haqida tushuncha berishga yo'naltirilgan. Matnda to'rtta xatboshi berilgan bo'lib, o'quvchilar shu xatboshilardan qay biri matnning kirish qismi ekanini aytishi lozim. Dastlab o'quvchidan "xatboshi" so'zining ma'no-mazmuni so'raladi.

***Xatboshi*** *– matnning dastlabki qatoridan biroz joy tashlab boshlash, abzas.*

So'ngra o'quvchilar kirish qismi aks etgan xatboshini topib, fikrlarini izohlab berishlari lozim.

**2. Huquqiy tilda "soliq" deb nimaga aytiladi?**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. *Soliq* so'zining huquqiy ma'nosi matnning ikkinchi xatboshida berilgan. O'quvchilar ushbu o'rinni topib, aytib berishi lozim. Bunda asosiy e'tibor "soliq" so'zining ma'nosini tushunish orqali lug'at boyligini oshirishga qaratiladi.

***3. "...davlat byudjetiga yo'naltiriladigan majburiy pul" degan jumlani qanday tushundingiz?***

*Aholidan yig'ib olingan va davlat xazinasiga tushirilgan pul* deb izohlash mumkin. Faqat bu xazina biror odamning emas, balki shu davlatda yashaydigan hammaniki ekanini o'quvchi tushunishi lozim.

**4. Matnning asosiy qismi qaysi gap bilan boshlangan deb o'ylaysiz?**

Bu savol orqali o'quvchiga matn tuzilishini o'rgatish maqsad qilingan. Bunda o'quvchilar matnni to'liq o'qib, qaysi qism asosiy ekanini topishlari va nima uchun shunday deb hisoblashlarini aytib berishlari kerak.

**5. Matnda soliq to'lashning qanday ijtimoiy ahamiyatlari haqida so'z borgan?**

Bu matnda berilgan gaplarni integratsiya qilib, ma'no-mazmunini tushunishga qaratilgan, ya'ni ijtimoiy ahamiyat deyilganda nima nazarda tutilganini o'quvchilar matnning to'rtinchi xatboshisida aks etgan ma'lumot orqali tushunib, aytib bera olishi lozim.

**6. Sizning oilangizda kimlar soliq to'lovchi hisoblanadi? Siz ham soliq to'lovchimisiz?**

Shu o'rinda o'quvchilar fikrini to'ldirish maqsadida o'qituvchi o'zi va oilasi misolida to'laydigan soliqlarini misol qilib keltirishi maqsadga muvofiq.

**7. "Soliqlar esa majburiy tarzda undirib olinadi" degan gapni qanday tushundingiz?**

Bu savol matndan sabab-oqibatni tushunishga qaratilgan. Ya'ni matndan bir jumla keltirilgan bo'lib, shu jumlaning ma'nosini o'quvchi izohlab berishi lozim. Buning uchun u ushbu gapga sabab bo'lgan ma'lumotlarni matn tarkibidan topib, izohlashi aytiladi.

**8. Matnning xulosa qismi qaysi? Nima uchun?**

O'quvchilar matnning xulosa qismini topishi va nima uchun xulosa deyilishini asoslab berishi lozim.

O'quvchilar bilan savol-javob yakunlangach, o'qituvchi matnning tuzilishi haqida umumiy ma'lumot berishi maqsadga muvofiq.

## Yozma nutq. Leksikologiya

**Matn asosida berilgan topshiriqni bajaring.**

Ushbu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar matn bilan qayta ishlaydi. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining matndan ushbu o‘rinlarni topib, fikrlarini asoslab berishiga qaratiladi.

- **Matndan soliq tushunchasiga aniq huquqiy ta’rif berilgan gapni topib ko‘chiring.**

E’tibor bersak, matnning 2–3-xatboshilarida soliq haqida ma’lumot berilgan. O‘quvchilar ushbu ta’riflar orasidan huquqiy ta’rifni topib, aytishlari lozim. Bunda birinchi navbatda e’tiborini “huquqiy ta’rif” nima ekaniga qaratadilar, so‘ngra ushbu ta’rifga mos gapni matn tarkibidan ko‘chirib yozishlari lozim.

- **Matnda soliq to‘lashning ijtimoiy ahamiyati haqida aytilgan eng muhim gaplarni topib, ko‘chiring. Tanlovingizni asoslab bering.**

Bunda o‘quvchi matndan soliq to‘lashning ijtimoiy ahamiyati aytilgan o‘rinni topib yozishi hamda uning muhimligini asoslab berishi lozim.

- **Matnning xulosa qismidan o‘zingiz eng muhim deb bilgan xulosaviy gapni topib, ko‘chiring. Tanlovingizni asoslab bering.**

Bunda o‘quvchi matnning xulosa qismidan o‘zi uchun kerakli deb bilgan jumlani topib, yozishi hamda uning muhimligini asoslab berishi lozim.

- **Quyida matndagi xatboshilar uchun shartli sarlavhalar berildi. Ularni to‘g‘ri ketma-ketlikda ko‘chiring.**

Bunda o‘quvchiga kichik sarlavhalar berilgan bo‘lib, matn mazmunidan kelib chiqib, matnni qismlarga ajratib, ushbu qismlarga mos sarlavhalarni ketma-ketlikda yozishlari aytiladi.

***Javob:*** *4, 3, 2, 1.*

## Sintaksis

**Berilgan namunalar bilan tanishing. Matndan ixtiyoriy gaplarni shu tarzda tahlil qilib yozing.**

O‘quvchilar diqqati jadvalga qaratiladi.

Ushbu jadvalning birinchi ustunida tartib raqamlari, ikkinchi ustunida gap bo‘laklari hamda ularning so‘rog‘i berilgan. Uchinchi jadvalda esa ushbu gap bo‘laklarining har biriga misol hamda so‘roqqa javob bo‘luvchi asosiy birlik qoraytirib ko‘rsatilgan. Demak, o‘qituvchi berilgan har bir gapni o‘qib, so‘roq berib, ajratilgan bo‘lak nima ekanini, uning gapdagi o‘rnini tushuntirib berishi lozim.

So‘ngra o‘quvchilar ushbu namuna asosida matn tarkibidan bittadan gap topib, tahlil qilib yozishlari aytiladi.

## Morfologiya

**Matndan *-lar* qo‘shimchasi qo‘llangan so‘zlarni aniqlang, *-lar* qo‘shimchasining vazifasini tushuntiring.**

Bunda o‘quvchilar matn tarkibidan **-lar** qo‘shimchasi ishtirok etgan so‘zlarni topib, yozadilar, so‘ngra tahlilga tortadilar, ya’ni *-lar* qo‘shimchasi matnda ko‘plikni anglatib kelayotganini tushunib, aytib bera olishlari lozim.

## Morfologiya

**Ko‘k rangda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga *-lar* qo‘shimchasini qo‘sha olasizmi? Javobingizni izohlang.**

Bunda o‘quvchilar matn tarkibidan ko‘k rangda berilgan so‘zlarni aniqlab, ushbu so‘zlarga *-lar* qo‘shimchasini qo‘shib, ma’nosidagi o‘zgarishni tushuntirib berishi lozim. Ya’ni ushbu so‘zlar jamlovchi otlar sanalib, *-lar* qo‘shimchasi qo‘shilmasa ham, ko‘plikni anglatishini tushuntirish lozim. Masalan, *e’tibor qiling, 6-“A” sinf deganda bitta o‘quvchi emas, balki 6-“A” sinfda o‘qiydigan barcha o‘quvchilar; poda deganda bitta qo‘y, echki, uloq, sigir emas, balki ularning bir nechtasi tushuniladi. Demak, -lar qo‘shilmasa ham, ular ko‘plikni anglatadi. Bunday so‘zlar “jamlovchi otlar” deyiladi.*

**Morfologiya**

**Ko‘plik ma’nosi mavjud bo‘lgan quyidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib, yozing.**

Bu yuqoridagi topshiriqning davomi bo‘lib, o‘quvchilar berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib yozishlari lozim. Bu topshiriq orqali o‘quvchining so‘z ma’nosini tushunishi hamda uni kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olishiga e’tibor qaratiladi.

**Uyga vazifa**

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Uyda ota-onangiz bilan soliqlarni vaqtida to‘lab borish kerakligi haqida suhbatlashing. Suhbat asosida “Oilamning yurt ravnaqiga qo‘shayotgan hissasi” mavzusida kichik matn yarating.**

Bu o‘quvchilarning mustaqil izlanishiga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar oila a’zolari bilan soliq, uni vaqtida to‘lash haqida suhbat olib borishi hamda shu suhbat asosida matn yozishi lozim. Suhbatni tashkil qilishdan avval oila a’zolari uchun savollar tuzish, suhbat jarayonida kerakli o‘rinlarni qayd etib olish haqida ko‘rsatma berilishi lozim.

**3-soat**

**Dars jarayoni**

**Kirish**

*-lar qo‘shimchasini qo‘llamay turib, ko‘plik hosil qilish mumkinmi? Fikringizni misollar bilan izohlang.*

**Asosiy qism**

**Og‘zaki nutq. Morfologiya**

**“Soliqlar” matni tarkibida ajratib ko‘rsatilgan birliklar uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarni aniqlang.**

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilarga quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish aytiladi:

1. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yozib olish.
2. Jadvaldagi har bir ma’lumotni o‘qib, so‘zlarning xususiyatiga moslarini ajratib olish.
3. So‘zlar uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarni aniqlab, aytish.

***Javob:***

| | |
|---|---|
| Ushbu so‘zlarning barchasi harakatning belgisini bildiradi. | Umumiy emas.<br><br>“Yaxshi” so‘zi harakatning, qolganlari narsaning belgisini bildirgan. |
| Ushbu so‘zlarning barchasi “qanday?” so‘rog‘iga javob bo‘la oladi. | Umumiy emas.<br><br>“Yaxshi” so‘zi harakatning belgisini bildirgani sababli, “nima uchun?” so‘rog‘iga javob bo‘ladi. |
| Ushbu so‘zlarning barchasi *-iy* qo‘shimchasi qo‘shilishidan yasalgan. | Umumiy emas.<br><br>Faqatgina “majburiy” so‘zi *-iy* (majbur+iy) shaklida yasalgan. |
| Ushbu so‘zlarning barchasi narsa-buyumning belgisini bildiradi. | Umumiy emas.<br><br>“Yaxshi” so‘zi harakatning belgisini bildirgan. |
| Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibida rang va maza-ta’mni ifodalovchi so‘zlar mavjud. | Umumiy emas.<br><br>Bunday sifat mavjud emas. |
| Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibida hajm-o‘lchovni va xususiyatni bildiruvchi so‘zlar mavjud. | Umumiy.<br><br>“Katta” – hajm-o‘lchovni; “yaxshi”, yovuz – xususiyatni bildiradi. |

**Morfologiya**

**O‘zingiz ajratgan xususiyatlarga ega bo‘lgan so‘zlarga misollar yozing. Darajalanish xususiyatiga ega bo‘lgan sifatlarni darajalab yozing.**

Bu avvalgi topshiriqning davomi bo‘lib, bunda o‘quvchilar ajratib olingan xususiyatlarga mos boshqa sifatlar topib yozishlari hamda ular orasidan darajalanish

xususiyatiga ega bo‘lganlarini namuna asosida darajalab yozishlari lozim.

Demak, umumiy xususiyat – ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibida hajm-o‘lchovni va xususiyatni bildiruvchi so‘zlar mavjudligi.

O‘quvchilarga ushbu xususiyatga ega so‘zlarga misol topib, darajalab yozishlari aytiladi.

## Sintaksis

**Matndan olingan parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering, ularning gapdagi vazifasini aniqlab, namunadagidek yozing.**

Bunda o‘quvchilar berilgan parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni namuna asosida tahlil qilib yozishlari lozim. Asosiy e’tibor so‘zlarga to‘g‘ri so‘roq berish orqali gap bo‘laklarini ajrata olishlariga qaratiladi.

*Javob: yaxshi yashash uchun – nima uchun? – ikkinchi darajali bo‘lak; bolalar – kimlar? – ega; qonunlarimizda – nimada? ikkinchi darajali bo‘lak; qayd etilgan – nima qilingan? – kesim; ma’muriy, jinoiy – qanday? sifat.*

## Yozma nutq. Infografika asosida matn yozish

**Soliqlarni elektron to‘lash bo‘yicha yo‘riqnoma bilan tanishing. Ushbu infografikani bog‘lanishli gaplardan iborat matnga aylantirib yozing.**

O‘quvchilar berilgan infografika bilan tanishib, undagi ma’lumotlar asosida matn yozishlari lozim.

Dastlab infografika bilan mustaqil tanishib chiqishlari aytiladi, so‘ng infografikani tushunishga qaratilgan savollar bilan suhbat boshlanadi.

Suhbat yakunlangach, infografikani tushunganlari asosida matn yozish aytiladi.

O‘qituvchi fikrlarni tinglab, tushuntirib berishi maqsadga muvofiq. Bundan maqsad o‘quvchilar infografika asosida matn yoza olishlari, elektron to‘lovlar haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari.

## Uyga vazifa

## Yozma nutq. Matn yaratish


**Quyida Davlat soliq qo‘mitasi to‘lov xabarnomasi keltirilgan. Fuqaro sifatida hujjat bilan tanishib, undagi ayrim ma’lumotlarni aniqlab, matn yozing.**

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilarga quyidagicha ko‘rsatma berib, tushuntirish maqsadga muvofiq:

- xabarnoma matni bilan tanishing;
- o‘zingiz uchun kerakli o‘rinlarni qayd etib oling;
- ko‘rsatma asosida muhim ma’lumotlarni ajratib oling;
- fikrlaringizni matn ko‘rinishiga keltiring.

Bu topshiriqdan asosiy maqsad to‘lov xabarnomasi haqida tushuncha hosil qilish, xabarnomadan muhim o‘rinlarni ajratib olish hamda ularni matn ko‘rinishida yozish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

## 4-soat



Yozgan matningizda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishiga e’tibor bering.

1. Soliqlarni elektron shaklda to‘lashning qanday usullari bor?
2. Soliqlarni elektron shaklda to‘lashning qanday afzalliklari bor?
3. Ushbu infografika kimlarga foydali bo‘lishi mumkin?
4. Infografikani qanday nomlash mumkin?

Quyida soliq idorasidan keladigan to‘lov xabarnomasi berilgan. Fuqaro sifatida xabarnoma bilan tanishib, undagi ayrim ma’lumotlarni aniqlab, matn yozing.

1. To‘lov xabarnomasi kimga yuborilgan?
2. To‘lov xabarnomasida soliqning qanday turini to‘lash haqida ogohlantirilmoqda?
3. To‘lanadigan soliq miqdorini aniqlang.
4. To‘lov muddatini aniqlang.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI

2023-yil uchun jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘larini to‘lash to‘g‘risida

TO‘LOV XABARNOMASI

Davlat Soliq Xizmati

Jami to‘lov 528 106,43 so‘m

Soliq turlari | Mol-mulk solig‘i | Yer solig‘i | SOBJ | Jami

Ko‘rsatkichlar

2022-yilga hisoblangan soliq summasi | 527 217,36 | 0 | 0 | 527 217,36

shundan

15-aprelgacha to‘lanishi lozim bo‘lgan summa | 263 608,68 | 0 | 0 | 263 608,68

15-oktyabrgacha to‘lanishi lozim bo‘lgan summa | 263 608,68 | 0 | 0 | 263 608,68

O‘tgan yildan qolgan soliq qarzi | 0 | 0 | 0 | 0

Soliq qarzi uchun hisoblangan penya | 0 | 0 | 1 443,99 | 1 443,99

**Cheksiz jami: soliq qarzi va o‘tgan yillar uchun hisoblangan soliq summasi | 0 | 0 | 0 | 0

Chiqindan amalga oshirilgan to‘lov summasi | 754,92 | 0 | 0 | 754,92

Jami to‘lanishi lozim bo‘lgan summa | 526 462,44 | 0 | 1 443,99 | 528 106,43

ILOVA

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘larini to‘lash to‘g‘risida

Mol-mulk solig‘i bo‘yicha:

Yer solig‘i (shaharlar bo‘yicha):

Yer solig‘i (shaharlardan tashqarida):

SOBJ uchun to‘lov:

MFO: 00014

MFO: 00014

MFO: 00014

MFO: 00014

O‘G‘OHLANTIRAMIZ!!!

111

## Dars jarayoni

### Kirish

*To‘lov xabarnomasi qanday qismlardan iborat bo‘ladi?*

### Asosiy qism

### Tinglab tushunish


"Chegarada nega boj to'lashadi?" audiomatnini tinglang.

1. Boj deb nimaga aytiladi?
2. Nega odamlar yoki davlatlar boj to'laydi?
3. Qanday holatlarda boj to'lanmasligi yoki kamaytirilishi mumkin?
4. Davlatlar uchun "umumiy bozor" deganda nimani tushunish mumkin?

Audiomatn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Germaniyadan sotib olingan avtomobil yurtimizga yetib kelgunicha qaysi davlatlarni bosib o'tadi? Ularni topib, to'g'ri ketma-ketlikda yozing.

Avstraliya | Qozog'iston | Pokiston | Avstriya
Ukraina | Rossiya | Gretsiya | Polsha

112

**“Chegarada nega boj to‘lashadi?” audiomatnini tinglang.**

Audiomatn: “Chegarada nega boj to‘lashadi?”

Muallif: Namoz Sa’dullayev.

***Chegarada nega boj to‘lashadi?***

*Ubaydulla bobo va’dasini ertaga qoldirib o‘tirmadi. To‘ydan barvaqt qaytdi-yu nabirasi to‘shab bergan ko‘rpachaga o‘tirib, uni yoniga chaqirdi.*

*– Kel, qizalog‘im, bojxona haqidagi savollaringga javob bera qolay.*

*Qizcha shoshib bobosining yoniga kelib o‘tirdi. So‘ng bobo gap boshladi:*

*– O‘rtog‘ingning dadasi yangi mashinasini Germaniyadan xarid qilgan bo‘lsa, demak, mashina bizning yurtga yetib kelgunicha 5 ta davlat chegarasidan o‘tgan. Chunki O‘zbekistonga qadar yo‘lda Avstriya, Polsha, Ukraina, Rossiya, Qozog‘iston degan mamlakatlar bor. Ana shu mamlakatlarning har birida o‘zlarining bojxonalari bor. Bojxonada har kim o‘zi bilan olib o‘tayotgan mollarni ko‘rsatib, ular uchun soliq, ya’ni boj puli to‘laydi.*

*– Nima uchun, bobojon?*

*– Ularning yo‘lidan foydalanishgani uchun. Bu – qadim zamonlardan bo‘lib kelgan soliq turi. Hozir bojlarni undirib oladigan idorani “bojxona” deyishadi. Boj solig‘idan tushadigan daromadlar har bir mamlakatning o‘zida qoldiriladi. Bordi-yu, davlatlar o‘zaro kelishib, bir-birlari uchun boj pulini bekor qilgan bo‘lsa, ular olib o‘tilayotgan tovar uchun bir-birlaridan boj olmaydilar. Yoki, kelishuvga ko‘ra, boj solig‘ini arzonlashtirishlari ham mumkin.*

*– Voy, shunisi zo‘r ekan-a, bobo?*

*– Ha-da. Buning uchun boya aytganimday davlatlar o‘zaro kelishib, “umumiy bozor” degan bitta bozorga uyushib olishlari kerak. O‘zbekiston ham mana shunday tashkilotlarning ayrimlariga a’zo bo‘lgan.*

*– Endi bariga tushundim, bobojon!*

*Malika shunday deb bobosini mahkam quchoqladi va nur yog‘ilib turgan yuzidan o‘pib qo‘ydi.*

### Muhokama

**1. “Boj” deb nimaga aytiladi?**

Bu audiomatnda aytilgan ma’lumotlarni integratsiya qilgan holda xulosa chiqarishga qaratilgan savol bo‘lib, o‘quvchilar *bobo Germaniyadan xarid qilingan mashina misoli orqali boj nima ekanini tushuntirgan o‘rinlardan* xulosa qilib, tushunchalarini aytib berishlari lozim.

O‘qituvchi o‘quvchilarning fikrini to‘ldirib borib, ushbu birlik ma’nosini izohlab berishi maqsadga muvofiq.

*Boj – chetdan keltirilgan mol uchun olinadigan, rasmiy ravishda belgilangan haq.*

**2. Nega odamlar yoki davlatlar boj to‘laydi?**

Bu matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. *Javob: yo‘lidan foydalanilgani uchun.*

**3. Qanday holatlarda boj to‘lanmasligi yoki kamaytirilishi mumkin?**

Bu ham matnda ochiq ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan bo‘lib, *o‘quvchilar davlatlar o‘zaro kelishganda bir-birlaridan boj solig‘i undirmasligi mumkinligini* tushunib, aytishi nazarda tutilgan.

**4. Davlatlar uchun “umumiy bozor” deganda nimani tushunish mumkin?**

Ushbu savol “umumiy bozor” birligining ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar audiomatn mazmunidan tushungan xulosalari asosida javob berishlari mumkin. Ularning fikri tinglangach, ushbu birlik ma’nosi tushuntirib o‘tilishi maqsadga muvofiq. Masalan, *umumiy bozor – hamma uchun umumiy, narx-navolar oldindan belgilangan, barcha birdek foydalanadigan bozor.*

## Orfografiya

**Germaniyadan sotib olingan avtomobil yurtimizga yetib kelgunicha qaysi davlatlarni bosib o‘tadi? Ularni topib, to‘g‘ri ketma-ketlikda yozing.**

O‘quvchilar topshiriq sharti bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng ularga audiomatn qayta eshittiriladi. O‘quvchilar eshitish davomida joy nomlarining to‘g‘ri ketma-ketligini aniqlab, yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor tinglab tushunish orqali ma’lumotlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish, joy nomlarning imlosini to‘g‘ri yoza olishga qaratiladi.

*Javob: Avstriya, Polsha, Ukraina, Rossiya, Qozog‘iston.*

## Morfologiya

**Berilgan gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nolari haqida o‘ylab ko‘ring. Ularni quyida berilgan so‘zlar bilan taqqoslang va qanday qo‘shimcha ma’no borligini aniqlang.**

Ushbu gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyida berilgan so‘zlar bilan taqqoslab, fikr bildirish aytiladi. Bunda o‘quvchilar ajratib ko‘rsatilgan so‘zdagi qo‘shimchalar orqali *“qizalog‘im”, “bobojon” erkalash, “qizcha” so‘zida kichraytirish* ma’nosi bor ekanini tushunib, aytib bera olishi lozim.

O‘qituvchi ularning fikrini to‘ldirib, otlarning lug‘aviy shakli haqida ma’lumot berib o‘tishi maqsadga muvofiq.

## Morfologiya

**Quyida berilgan so‘zlar va qo‘shimchalarni namunadagidek yozing.**

Bunda o‘quvchilar birinchi ustundagi so‘zlarga ikkinchi ustundagi qo‘shimchalarning mosini qo‘shib, namunadagidek izohlab yozishlari lozim.

*Javob: kitobcha, toychoq, tugunchak, akajon, Lolaxon, Zebinisa, bechoragina, bolakay.*

Bu topshiriqdan asosiy maqsad amaliy topshiriq orqali otning lug‘aviy shakli haqida ma’lumot berishdan iborat.

## Sintaksis

**Quyida “Chegarada nega boj to‘lashadi?” audiomatnidan olingan xulosalar berilgan. Ular tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning so‘rog‘i va gapdagi vazifasini aniqlang.**

O‘quvchilar audiomatndan olingan xulosalar bilan tanishib chiqib, ular tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning so‘rog‘i va gapdagi vazifasini aniqlab, yozishlari lozim.

***Javob:*** *idorani – nimani? – ikkinchi darajali bo‘lak; soliq — nima? – ega; to‘lanadi – nima qilinadi? – kesim; daromadlarning – nimaning? – ikkinchi darajali bo‘lak; o‘zaro kelishgan holda – qay holatda? – ikkinchi darajali bo‘lak.*

## Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Davlat bojxona qo‘mitasining logotipi bilan tanishing. Logotipda mavjud tasvirlarni izohlab yozing.**

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar mustaqil izlanib, ijodiy yondashishi lozim. Berilgan logotipni tasvirlab matn yozishdan avval ijtimoiy tarmoqlardan logotip ha-

qida ma’lumot izlashi, kattalardan yordam so‘rashi mumkinligi aytiladi.

Bunda asosiy e’tibor ma’lumot to‘plash hamda to‘plagan ma’lumotlari asosida berilgan logotipni tasvirlab matn yoza olishlariga qaratiladi.

**5-soat**

**Dars jarayoni**

**Kirish**

*Logotip nima? Davlat bojxona qo‘mitasining logotipida nima tasvirlangan?*

**Asosiy qism**

**Yozma nutq. Infografika asosida matn yozish**

**Berilgan rasmga qarang. Nima uchun soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash kerakligi haqida eslatma mazmunida matn yozing.**

O‘quvchilar berilgan rasmlardagi ma’lumotlarni tushungan holda soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash kerakligi haqida matn yozishlari lozim.

Dastlab o‘quvchilar bilan berilgan yo‘riqnoma savollari asosida savol-javob o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilar chizma asosida tushuncha hosil qilganidan so‘ng matn yozish topshirig‘i beriladi. Bunda rasmlarni bog‘lab turgan chizmalarga o‘z e’tiborlarini qaratishlari aytiladi, ya’ni soliqlar nima maqsadda yig‘ilishi hamda nimalarga sarf qilinishi haqida eslatma yozishlari lozim.

O‘qituvchi eslatma qanday yozilishiga bir-ikkita misol keltirishi maqsadga muvofiq.

*Soliqlarni o‘z vaqtida to‘lang. Davlat g‘aznasiga yig‘ilgan soliqlar ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy hayotni yaxshilash uchun sarf qilinadi. Masalan ...*

**Uyga vazifa**

**Og‘zaki nutq**

**Oila a’zolaringizga soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashning ahamiyati haqida ma’ruza qilib bering.**

Mazkur topshiriqni bajarishda o‘quvchilar dars davomida egallagan bilimlari hamda yozgan eslatmalariga asoslanadi. Bu jarayonda darslikdagi chizmalar va o‘zlari yozgan eslatmadan foydalanib oila a’zolariga tushuntirishlari lozim.

Bu topshiriqda asosiy e’tibor mavzuga oid til birliklarini o‘zlashtirib, og‘zaki nutqda faol qo‘llash, soliq to‘lashning ijtimoiy ahamiyati haqida tushunchaga ega bo‘lish hamda dars davomida egallagan ma'lumotlarini boshqalarga to‘g‘ri yetkazish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

## MUSTAHKAMLASH

**Dars jarayoni**

**Kirish**

*Maqol nima? Uni turli xil vaziyatlarda qo‘llash mumkinmi?*

**Asosiy qism**

**O‘qib tushunish. Tahlil**

**Maqollarni o‘qing. Avval tadbirkorlikka, keyin tejamkorlikka oid maqollarni ko‘chirib yozing.**

Bu topshiriq o‘quvchilarda maqollarni ma’no-mazmuniga ko‘ra farqlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan maqollarni o‘qib, ma’nosiga ko‘ra tadbirkorlik va tejamkorlikka oidligini aniqlab, yozishlari lozim.


**Morfologiya**

**Maqollarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering, ularning gapdagi vazifasini aniqlang.**

O‘quvchilar yuqorida tanishgan maqollari tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni aniqlab, ularni namunadagi singari tahlil qilib yozishlari lozim.

Bunda o‘quvchilarning so‘zlarga so‘roq bera olishi, ma’no-mazmuniga mos bo‘laklarga ajrata olishi tekshiriladi.

## Morfologiya



MUSTAHKAMLASH

Maqollarni o‘qing. Avval tadbirkorlikka, keyin tejamkorlikka oid maqollarni ko‘chirib yozing.

1. ***Puxtaning*** *ishi besh, shoshmaning ishi bo‘sh. 2. Daryoga* ***ot*** *solmasdan oldin kechuvini top. 3. To‘qlikda ochlikni* ***o‘yla****, boyiganda muhtojlikni. 4. Hisobini bilgan bir yil yetim,* ***hisobini bilmagan*** *o‘lguncha yetim. 5. Foydadan foyda chiqmasa,* ***qora*** *sigir qayda? 6. “Nimani o‘qiding?” deb* ***so‘rama****, “Nimani bilding?” deb so‘ra.*

Maqollarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering, ularning gapdagi vazifasini aniqlang.

Namuna *Puxtaning – kimning?, ikkinchi darajali bo‘lak.*

Maqollar tarkibidan kelishik qo‘shimchalari qatnashgan so‘zlarga misollar topib, yozing.

| Kelishik nomi | Misollar |
|---|---|
| Bosh kelishik | ? |
| Tushum kelishigi | ? |
| Qaratqich kelishigi | ? |
| Jo‘nalish kelishigi | ? |
| O‘rin-payt kelishigi | ? |
| Chiqish kelishigi | ? |

Tadbirkor shaxsiga xos sifatlarni sodda va qo‘shma sifatlarga ajratib yozing. Notanish so‘zlarning izohini kitob oxiridagi lug‘atdan topib, o‘qing.

Xushmuomala, kreativ (ijodkor), novator, tashkilotchi, shirinso‘z, intiluvchan, qat’iy, tejamkor, zamonaviy, mehnatsevar, halol, harakatchan, hozirjavob.

Sodda yasama sifatlarni asos va qo‘shimchaga, qo‘shma sifatlarni esa ikki asosga ajrating. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Kelinglar, iqtisod qilishni oiladan boshlaymiz. Buning uchun reja tuzib olish juda muhim! Quyidagicha jadval tuzing.

- Jadvalning birinchi ustuniga oilangizga bir oyda keladigan (maosh va boshqa) daromadlarni yozing.
- Ikkinchi ustun bir nechta qismdan iborat bo‘lishi mumkin. Siz unda xarajatlarning turlarini va pul miqdorini yozasiz.
- Uchinchi ustunda oylik xarajatlardan ortib qolgan pulni nimalarga sarflash mumkinligi haqida qisqa shaklda tavsiya yozing.

| Daromad | Xarajat | Jamg‘arma |
|---|---|---|
| | | |

115

**Maqollar tarkibidan kelishik qo‘shimchalari qatnashgan so‘zlarga misollar topib, yozing.**

Bu topshiriqda o‘quvchilarning so‘zni so‘zga bog‘laydigan birliklarni tushunishi hamda ma’no-mazmuniga ko‘ra guruhlarga ajratib yoza olishlari tekshiriladi.

O‘quvchilar berilgan maqollar tarkibidan kelishiklarga mos misol topib, yozishlari lozim. Dastlab kelishikning so‘roqlari va qo‘shimchalari, mazmuni haqida savol-javob qilish maqsadga muvofiq.

## Morfologiya

**Tadbirkor shaxsiga xos sifatlarni sodda va qo‘shma sifatlarga ajratib yozing. Notanish so‘zlarning izohini kitob oxiridagi lug‘atdan topib, o‘qing.**

Bu topshiriq sifatlarning ma’no-mazmuni hamda tuzilishini tushunishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar berilgan sifatlarni guruhlarga ajratib yozishlari lozim.

*Javob: sodda: ijodkor, novator, tashkilotchi, intiluvchan, tejamkor, zamonaviy, harakatchan; qo‘shma: xushmuomala, shirinso‘z, mehnatsevar, hozirjavob.*

## Morfologiya. Sintaksis

**Sodda yasama sifatlarni asos va qo‘shimchaga, qo‘shma sifatlarni esa ikki asosga ajrating. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.**

Mazkur topshiriq so‘zning asosini tushunish, so‘zga qo‘shimcha yoki so‘z qo‘shib, yangi so‘z hosil qilish, berilgan so‘zlarni tahlil qila olish hamda ma’no-mazmuniga ko‘ra kontekstda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar dastlab so‘zlar qanday yasalganini aniqlaydilar, so‘ngra ular ishtirokida gaplar tuzib yozishlari lozim.

*Javob: sodda: ijod+kor, novator, tashkilot+chi, intil+uvchan, tejam+kor, zamon+(a)viy, harakat+chan; qo‘shma: xush+muomala, shirin+so‘z, mehnat+sevar, hozir+javob.*

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Kelinglar, iqtisod qilishni oiladan boshlaymiz. Buning uchun reja tuzib olish juda muhim! Quyidagicha jadval tuzing.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda ma’lumot to‘plash, saralash hamda to‘plangan ma’lumotlarni jadvalga joylashtirish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bundan tashqari, topshiriq o‘quvchilarni hayotiy vaziyatga tayyorlash, oilaning ijtimoiy ahvolini o‘rganish, tahlil qilish, yanada yaxshi bo‘lishi uchun qanday harakatlanish kerakligini tushunishga yo‘naltirilgan.

O‘quvchilarga berilgan yo‘riqnoma asosida jadvalni ma’lumotlar bilan to‘ldirib, matn yozish aytiladi.

# RAQAMLASHGAN DUNYO

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilarda raqamlashgan dunyo haqida tasavvur uyg‘otish; internet bilan bog‘liq atamalar, ularning talaffuzi va imlosi; matn tarkibidan berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma’nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug‘at hosil qilish; o‘z va o‘zlashma so‘zlar, ulardan foydalanish qoidalari, o‘zlashma so‘zlar talaffuzi va imlosini o‘rganish; fikr va hissiyotlarni ifodalashning qo‘shimcha vositalaridan foydalanish (“emoji”lar, turli rasmlar, “gif”lar) qoidalari, ularning ma’nolari bilan tanishtirish; jonli nutq va audiomaterialning umumiy mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish; nutqiy mavzu yuzasidan chizma va ma’lumotlardan foydalanib matn yozish ko‘nikmasini shakllantirish.

## 1-soat




### Dars jarayoni

#### Kirish

*Raqamlashtirish deganda nimani tushunasiz? Sizningcha, nimalar raqamlashtiriladi?*

#### Asosiy qism

#### Og‘zaki nutq

**Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.**

Ushbu topshiriqda o‘quvchilarda raqamlashgan dunyo haqida tasavvur paydo qilish uchun izohli rasmlar berilgan. O‘quvchilarga rasm bilan tanishib chiqish aytiladi.

#### Muhokama

**1. Yuqoridagi rasmlar asosida “raqamli dunyo” deganda nimani tushunganingiz haqida gapiring.**

Bu savolga o‘quvchilar rasm asosida berilgan ma’lumotlarga tayanib, mantiqan o‘ylab javob berishi lozim. Bunda asosiy e’tibor “raqamlashgan dunyo” birligining ma’nosini tushunishga qaratiladi.

**2. Onlayn ta’limning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?**

Bu holat o‘quvchilarga notanish emas, karantin vaqtida onlayn tahsil olishgan, shundan kelib chiqib, onlayn ta’limning afzallik va kamchiliklarini aytib berishlari lozim.

**3. “Onlayn xarid”, “internet do‘kon”, “onlayn bozor” deganda nimalarni tushunasiz? Ularga misollar keltira olasizmi?**

Bu uchala birlikning asosini tushunishda o‘quvchilar bor e’tiborlarini "onlayn" so‘zini tushunishga qaratishi lozim. Bunda hayotiy kuzatishlari asosida onlayn xaridlarga misollar keltirib, fikrlarini asoslab berishi maqsadga muvofiq.

*Onlayn – internet tarmog‘i orqali ishlaydigan; foydalanuvchining ayni damda internetda ekani.*

**4. Onlayn to‘lovdan qachon, qay maqsadda foydalanamiz? Bu bizga nima uchun kerak?**

Bu o‘quvchilar uchun begona tushuncha emas, onlayn to‘lovdan kundalik hayotda foydalangan yoki ota-onalari nutqida u haqda eshitgan bo‘lishlari mumkin. Shundan kelib chiqib, ushbu holatga munosabat bildirishlari lozim. Masalan, *kommunal, kontrakt, soliq to‘lovlarida "Payme", "CLICK" ilovalari orqali onlayn to‘lash imkoni borligi haqida misol keltirib o‘tish maqsadga muvofiq.*

**5. Kriptovalyutalar, xususan, bitkoin haqida eshitganmisiz? Nimalarni bilasiz?**

Bu o‘quvchining lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan savol bo‘lib, dastlab uning fikri tinglanadi, so‘ngra ushbu so‘zlarga izoh beriladi.

*Kriptovalyuta – elektron ko‘rinishdagi kriptografiya texnologiyasi bilan himoyalangan valyuta.*

*Bitkoin – bir xil nomdagi birliklardan foydalaniladigan tizim.*

**6. Virtual borliq, virtual sayohat deganda nimalarni tushunasiz? Bu sohaning qanday imkoniyatlari bor? Kelajagini qanday tasavvur qilasiz?**

"Virtual" so‘zi o‘quvchilarga notanish emas, o‘quvchilar ushbu so‘z izohidan kelib chiqib, o‘z tasavvurlarini aytib berishi lozim. *Masalan, biz Oyni, o‘zga sayyoralarni qanday tomosha qilishimiz mumkin? Birgina internetdagi “Google xarita”ni oling, ushbu sayt orqali dunyoning istalgan burchagini tomosha qilishingiz mumkin. Bora olmagan joylarni virtual borliq orqali kuzatish, ko‘rish imkoniyatiga egasiz.*

### O‘qib tushunish

O‘quvchilar kundalik hayotda: yozishmalarda, xabarnomalarda foydalanadigan “smaylik” haqida qiziqarli ma’lumot berilgan. O‘quvchilar ushbu ma’lumot bilan tanishtiriladi.

### Muhokama

**Ayting-chi, siz ham “smaylik” so‘zini o‘zbekcha “hisbelgi” so‘ziga o‘zgartirish kerak deb hisoblaysizmi? Bu biz uchun nega kerak?**

Bu topshiriqdan asosiy maqsad o‘quvchilarga chetdan o‘zlashgan so‘zlarning o‘zbekcha muqobilini topish, so‘zlarni o‘z holicha emas, balki o‘zbekcha muqobili bilan o‘zlashtirishni o‘rgatish maqsad qilingan.

*Tilimizga rus tilidan to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashgan “smaylik” so‘zining o‘zbekcha nomi bor. Uni “hisbelgi” deb ataymiz.*

### Qoida. Leksikologiya

O‘zbek tilining boyish manbalari haqida ma’lumot beriladi.

### Leksikografiya

**Xorijiy tillardan olingan so‘zlar bilan tanishing. Kitob oxirida berilgan lug‘atdan izohini topib, ko‘chiring.**

Bu topshiriqdan o‘zlashma so‘zlarning talaffuzi va imlosini o‘zlashtirish hamda u haqida tushuncha berish maqsad qilingan. O‘quvchilar berilgan so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan topib, yozishlari lozim. Bunda o‘quvchilar lug‘at bilan ishlash barobarida shu so‘z haqida tushunchaga ega bo‘lishlariga e’tibor qaratiladi.

### Leksikografiya

**Yuqoridagi so‘zlarning ma’nosini sinfda muhokama qiling. Ularning o‘zbekcha muqobilini o‘ylab toping va yozing.**

Mazkur topshiriqda o‘quvchilar yuqorida berilgan so‘zlarning ma’nosini guruh bilan birgalikda muhokama qilib, izohlarini sharhlashlari lozim. Bunda har bir so‘z doskada yoziladi hamda o‘quvchilarning har biridan ushbu so‘zlarning o‘zbekchadagi muqobili uchun taklif so‘raladi. O‘quvchilar taklif qilgan muqobil so‘zlarini nima uchun tanlaganlarini izohlab berishlari lozim.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Xorijiy tillardan olingan va odamlar tomonidan ishlatib kelinayotgan so‘zlarning ro‘yxatini tuzing. Izohli lug‘atdan foydalaning. Bu so‘zlarning o‘zbekchasini o‘ylab toping.**

Bu topshiriq o‘quvchilardan izlanishni talab etadi. O‘quvchilar kundalik hayotida

duch keladigan, jamoa a'zolari nutqida qo'llagan o'zlashma so'zlarni to'plab, ro'yxatini tuzib chiqishlari lozim. So'ngra har bir topgan so'zlari uchun o'zbekcha muqobilini taklif qilishlari talab etiladi.

*Masalan, budilnik – bu so'z rus tilidan o'zlashgan, o'zbek tilida ham shu holatida ishlatiladi. Vazifasidan kelib chiqib, ushbu so'zga "uyg'otkich" degan muqobilini taklif qilish mumkin.*

## 2-soat



Yuqoridagi so'zlarning ma'nosini sinfda muhokama qiling. Ularning o'zbekcha muqobilini o'ylab toping va yozing.

1. Nega aynan shu so'zlar qo'llanadi?
2. Bu so'zlarni o'zbekchalashtirish mumkinmi?
3. O'zingiz yaratgan "atama"ni asoslang.

Xorijiy tillardan olingan va odamlar ishlatib kelayotgan so'zlardan iborat kichik ro'yxat tuzing. Lug'atdan foydalanib bu so'zlarning o'zbekchasini o'ylab toping.

RAQAMLI DUNYO

**Raqamlashtirish nima?**

Sodda qilib aytganda, axborotlarni **kompyuter** tiliga o'girish raqamlashtirishdir. Insonlar sezgi organlari orqali qabul qilgan turli ma'lumotlarni biz "axborot" deb ataymiz. Axborotlar matn, hujjat, rasm, videotasvir, tovush kabi shakllarga ega. Masalan, **fotokamera**da olingan rasm kompyuter xotirasida aynan rasm sifatida emas, balki raqamlar – bit ko'rinishida saqlanadi. Boshqacha aytganda, kompyuterning ichi matn, hujjat, rasm, videotasvir, tovushlar bilan emas, balki raqamlar bilan to'la.

**Dars jarayoni**

### Kirish

*Atama deganda nimani tushunasiz? Qanday atamalarni bilasiz? Misol keltiring.*

### Asosiy qism

**1. Raqamlashtirish deganda nimani tushundingiz? Bu jarayonda nima raqamlashtiriladi?**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. O'quvchilar 1-xatboshida berilgan ma'lumotlarga e'tiborlarini qaratib, o'z tushunchalarini aytib berishlari lozim.

*Raqamlashtirish – axborotlarni kompyuter tiliga o'girish.*

**2. Kompyuter, smartfon va televizor kabi qanday raqamli texnologiyalarni bilasiz?**

O'quvchilar bu savolga javob berishda raqamli texnologiyalar nima ekanini tushunib, hayotiy kuzatishlari asosida misollar keltirishlari lozim. *Masalan, kirmashina, havosovitgich, telefon, elektromobil va h.k.*

**3. Maqolaga ko'ra, "Iphone' smartfoni ixtiro qilinishi bilan "dunyoning raqamlashishi" tezlashib ketadi. Sizningcha, bu jarayonni yana qanday ixtirolar tezlashtirib yuborgan?**

Bu berilgan ma'lumotlarni parafraza qilib, ma'no chiqarishga qaratilgan savol bo'lib, o'quvchilar matnning 3-xatboshisida berilgan ma'lumotlar orqali qanday ixtirolar nazarda tutilganini aytib berishi lozim.

Masalan, *"Endi uydan chiqmay, poyezdga chipta olish, ovqat buyurtirish, xalqaro anjumanlarda ishtirok etish juda oson bo'lib qoldi"*. Ushbu ma'lumot orqali *"onlayn xarid", "onlayn bozor" tushunchalarini izohlash hamda ular uchun yaratilgan maxsus raqamli dasturlar haqida aytish mumkin.*

**4. "Sekin-asta biz foydalanadigan ko'p narsalar "raqamlashib" ketdi". Mazkur gapda ajratib ko'rsatilgan so'z nima uchun qo'shtirnoqqa olingan deb o'ylaysiz?**

Bu savol tinish belgisining qo'llanishini tushunishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar ushbu gap mazmunini tushunib, javob berishi lozim. *Bu yerda "raqamlashib" ko'chma ma'noda qo'llangani, bu gap orqali raqamli texnologiyalar ko'payganiga ishora borligini anglash mumkin.*

**5. "Hatto his-tuyg'u ham raqamli ko'rinishda mavjud" deganda nima nazarda tutilgan?**

Bunda o'quvchilar ushbu jumla orqali nimaga ishora qilinayotganini mantiqan tushunishib kundalik hayotida duch keladigan hamda xabarnomalarda foydalaniladigan *"hisbelgi"lar* nazarda tutilayotganini aytishi lozim.

**6. Dunyoning raqamlashishi natijasida “Inson insoniyligini yo‘qotib qo‘ymasmikan?” degan savolga siz qanday javob berasiz?**

Bu o‘quvchini tanqidiy fikrlashga yo‘naltiradigan savol bo‘lib, o‘quvchilar matndan olgan xulosalari hamda hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab, munosabat bildirishi lozim.

### Leksikologiya. Sintaksis

**Matn yordamida berilgan atamalar uchun ta’rif yozing.**

Bu birliklarga matnda ma’lumot berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu o‘rinlarni topib, ma’lumotlarni saralab, o‘z fikrlari bilan boyitib, izoh yozishlari lozim.

Bu topshiriqdan maqsad o‘quvchilarda turmush tarzida kerak bo‘ladigan til birliklari haqida tushuncha hosil qilish hamda berilgan ma’lumotlar asosida lug‘at tuzish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

### Leksikologiya

**Internet bilan bog‘liq atamalarni o‘qing. Ularni izohlari bilan moslab ko‘chiring.**

Mazkur topshiriq o‘zlashma so‘zlar imlosi va talaffuziga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar berilgan atamalar bilan tanishib, pastdagi jadvaldan izohi bilan moslashtirib ko‘chirishlari lozim.

Bu jarayonda o‘quvchilar lug‘atdan foydalanishlari mumkin. Bunda lug‘atdan ma’lumot izlab topish, o‘zlashma so‘z haqida tushuncha hosil qilishi muhim hisoblanadi.

*Javob:*

| | |
|---|---|
| *bloger* | *internet tarmoqlarida o‘z qarashlarini doimiy ravishda e’lon qilib boradigan shaxs* |
| *smartfon* | *kompyuter o‘rnini bosuvchi, undagi vazifalarni bajara oluvchi mobil aloqa vositasi* |
| *akkaunt* | *internet tarmoqlaridan birida ro‘yxatdan o‘tish jarayonida foydalanuvchiga atab qo‘yilgan nom* |
| *veb brauzer* | *internetdan foydalanish uchun ishlatiladigan dastur* |
| *admin* | *internet bilan bog‘liq muayyan tarmoq mas’uli, uni boshqaruvchi shaxs* |
| *“Iphone”* | *"Apple" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan smartfonlarning nomi* |

### Yozma nutq. Tahlil

**Raqamlashishning ijobiy va salbiy jihatlarini ikki ustunga ajratib yozing.**

Ushbu topshiriqda o‘quvchilar matndan olgan xulosalarini jamlab, hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab, raqamlashishning ijobiy va salbiy jihatlarini ikki ustunga ajratib yozishlari lozim.

Bu o‘quvchida ma’lumotlarni tushunish, uni saralay olish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

### Uyga vazifa

### Morfologiya

**Ijtimoiy tarmoqdagi do‘stingizga xat yozing. Uning ismiga quyida berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘shing. Ular so‘zga qanday qo‘shimcha ma’no berayotgani haqida o‘ylab ko‘ring.**

Mazkur topshiriq otlarning lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalari ma’nosini tushunish va ularni mustahkamlashga qaratilgan. O‘quvchilar jadvalda berilgan ismlarni o‘qib, ajratib ko‘rsatilgan qo‘shimchalar qanday ma’no yuklayotganini aytib bera olishi lozim. So‘ngra ushbu qo‘shimchalardan mosini qo‘llab, do‘stiga xat yozish talab etiladi.

## 3-soat


### Dars jarayoni

### Kirish

*Yozma nutqda fikrimizni aniqroq ifodalash uchun qanday til birliklaridan foydalanamiz?*

## Asosiy qism

**“Raqamli dunyo” matnida ajratib ko‘rsatilgan birliklar ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Muallif ushbu birliklarni qo‘llash orqali nima demoqchi ekanini izohlab yozing. Bunda “ya’ni” aniqlov bog‘lovchisidan foydalanishingiz mumkin.**



“Raqamli dunyo” matnida ajratib ko‘rsatilgan birliklar ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Muallif ushbu birliklarni qo‘llash orqali nima demoqchi ekanini izohlab yozing. Bunda “ya’ni” aniqlov bog‘lovchisidan foydalanishingiz mumkin.

Namuna Obrazli qilib aytganda, internet kaftimizga qo‘ndi. Ya’ni endi biz internet yordamida butun dunyoda bo‘layotgan voqealar va yangiliklardan hech bir qiyinchiliksiz xabardor bo‘lib turishimiz mumkin.

Eslatma!

“Ya’ni” bog‘lovchisi gap bo‘laklari va gaplarga aniqlik kiritish, ularni izohlash uchun qo‘llanadi.
Sarvar, ***ya’ni*** kenja ukam endi uchga kirdi.
Men aytgandek bo‘ldi, ***ya’ni*** kubok qo‘shni mahallaga nasib qildi.
“Ya’ni” so‘zidan oldin vergul qo‘yiladi.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi guruhlarga ajratib, yozing.

| Sodda so‘z | Qo‘shma so‘z | Juft so‘z |
|---|---|---|
| ? | ? | ? |

Matndan olingan quyidagi so‘zlarning ma’nodoshlarini aniqlab, yozing.

sodda | axborot | odamlar | xizmat | olish | kamxarj

tasvir | qurilma | tarix | ta’lim | xarid qilish

Uyingizda ota-onangiz bilan internet va undagi xizmatlar haqida suhbatlashing. Xizmatlardan foydalanish jarayoni, qanday ilovalar borligi, ulardan foydalanishning qulayliklari haqida matn yozing.

121

Ushbu topshiriqda o‘quvchilardan matnda ko‘k rangda ajratib ko‘rsatilgan gaplarni izohlab yozish talab etiladi. Dastlab o‘quvchilar matndan ushbu so‘zlarni aniqlab oladilar. So‘ng har birini namunadagidek, “ya’ni” so‘zi bilan izohlab berishlari lozim. Bu jarayonda matnda berilgan ma’lumotlardan foydalanish mumkin.

### Qoida. Yordamchi so‘zlar

O‘quvchilar “ya’ni” bog‘lovchisi haqida amaliy topshiriq orqali tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng ularga ushbu bog‘lovchi haqida nazariy ma’lumot beriladi.

### Morfologiya

**Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi guruhlarga ajratib yozing.**

O‘quvchilar matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni tuzilishiga ko‘ra guruhlarga ajratib yozishlari lozim.

*Javob:*

| Sodda so‘z | Qo‘shma so‘z | Juft so‘z |
|---|---|---|
| *kompyuter, smartfon, televizor, qurilma, texnologiya, bank* | *fotokamera, davr boshlandi, kamxarj, e’tibor qaratilmoqda* | *sekin-asta, his-tuyg‘u* |

### Leksikologiya

**Matndan olingan quyidagi so‘zlarning ma’nodoshlarini aniqlab, yozing.**

O‘quvchilar matndan olingan so‘zlarning ma’nodoshlarini topib yozishlari lozim. Bir so‘zning ma’nodoshlari ko‘p bo‘lishi mumkin. O‘quvchilardan aynan matn mazmuniga tushadiganini aniqlab, yozish talab etiladi. Bu jarayonda lug‘atdan foydalanish mumkin.

Asosiy e’tibor o‘quvchilarga bir tushunchani turli so‘z bilan atash mumkinligi haqida ma’lumot berish hamda ushbu ma’nodosh so‘zlar orqali ularning lug‘at boyligini oshirishga qaratiladi.

*Javob:*

*sodda – oddiy; tasvir – rasm; axborot – xabar; qurilma – moslama; odamlar – insonlar; tarix – o‘tmish; xizmat – ish; ta’lim olish – bilim olish; xarid qilish – sotib olish; kamxarj – cheklangan.*

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Uyingizda ota-onangiz bilan internet va undagi xizmatlar haqida suhbatlashing. Xizmatlardan foydalanish jarayoni, qanday ilovalar borligi, ulardan foydalanishning qulayliklari haqida matn yozing.**

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarda ma’lumot to‘plash, to‘plagan ma’lumotlarini saralash ko‘nikmasini shakllantirish maqsad qilingan.

O‘quvchilarga oila a’zolaridan to‘plagan ma’lumotlarini saralab, tushunchalarini matn ko‘rinishida ifodalab yozish aytiladi.

## 4-soat


### Dars jarayoni

### Kirish

*Ayting-chi, yaqin do‘stlaringiz bilan suhbatlashishda qanday muloqot shakllaridan foydalanasiz?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish




**SMS yoki onlayn yozma muloqot shakllariga diqqat qiling.**

Mazkur topshiriqda yozma muloqot shaklining ikki xil ko‘rinishi taqdim etilgan. O‘quvchilar ushbu shakllar bilan tanishib, yozishmalarga o‘z munosabatlarini bildirishlari lozim.

**1. Sizning yozishmalaringiz yuqorida berilgan qaysi namunaga ko‘proq o‘xshab ketadi?**

Bu o‘quvchining tanqidiy fikrlashiga qaratilgan savol bo‘lib, o‘quvchilar o‘z yozishmalarini berilgan yozishmalar bilan taqqoslab, fikrlarini aytishi lozim.

**2. Birinchi namunada qanday xatolarga yo‘l qo‘yilgan, so‘zlarning imlosiga, gap tuzish va tinish belgilarini qo‘llashga doir xatoliklarni ko‘rsating.**

Ushbu savol o‘quvchida berilgan matnlarni taqqoslab, xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchilar ikkala matnni o‘qib, birinchi matnda sezilib turgan kamchiliklarni topib, aytishlari lozim.

**3. Ikkinchi namunadagi yozishma sizga yoqdimi? Siz ham shunday yozasizmi yoki biroz boshqacharoq? Fikrlaringizni asoslab bering.**

Bunda o‘quvchi ikkinchi yozishmaning birinchi yozishmaga qaraganda ustun jihatlarini topib, aytib bera olishi lozim. Bu jarayonda o‘quvchilarga yozishmalar *insonlar o‘rtasidagi aloqa vositasi ekanini, o‘zaro xushmuomala bo‘lish, xato va kamchiliklarsiz yozish hurmat belgisi ekanini tushuntirish lozim.*

### Orfografiya. Sintaksis

**Birinchi namunadagi yozishmalarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatib ko‘chiring.**

Bu yuqoridagi topshiriqning davomi bo‘lib, o‘quvchilar birinchi yozishmadagi xatolarini aniqlab, daftarlariga to‘g‘rilab ko‘chirishlari lozim. Bunda yozishmadagi imloviy, uslubiy va punktuatsion xatolarga e’tibor qaratish kerakligi aytiladi.

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Berilgan SMS xabar namunalari bilan tanishing. Ularni qo‘llab, partadoshingiz bilan SMS yozishmasi namunasini yozing.**

Mazkur topshiriqda SMS xabarnomalarida qo‘llanuvchi birliklar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu birliklarni qo‘llab, partadoshlari bilan birgalikda xabarnoma yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilar o‘rtasida kommunikativ aloqa o‘rnatish, til birliklaridan o‘rinli foydalanish, o‘zaro hamkorlikda dialog (xabarnoma) yoza olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratiladi.

### Leksikologiya

**Berilgan hisbelgilarga mos bo‘lgan kayfiyat, his-tuyg‘u, fe’l-atvorga oid so‘zlarni yozing. Siz tanlagan so‘z boshqalarnikidan farq qilishi mumkin.**

Ushbu topshiriqda 10 ta hisbelgi berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu hisbelgilar nimani ifodalashini yozishlari lozim. Bunda ular rasmdan olgan tushunchalariga hamda o‘z yozishmalarida hisbelgini nimani ifodalash uchun qo‘llaganliklaridan kelib chiqib yozishlari mumkin.

Bunda hammaning tanlovi har xil bo‘lishi tabiiy. Asosiy e’tibor hisbelgini tushunib, ifodalashga qaratiladi.

### Sintaksis

**Yuqoridagi berilgan 1-, 5-, 7-, 10-hisbelgilar ma'nosiga mos gaplar tuzib, yozing.**

Bu topshiriqda o‘quvchilar yuqoridagilar orasidan 1-, 5-, 7-, 10-hisbelgilarni ajratib olib, ularni qo‘llash mumkin bo‘lgan holatlarga mos gap tuzishlari lozim. Bu jarayonda xabarnomalarda uchraydigan muloqotga oid gaplar, savol-javob mazmunli dialoglardan foydalanish mumkin. Bunda asosiy e’tibor hisbelgi anglatgan tushunchaga mos kontekst tuza olishga qaratiladi.

### Qoida. Leksikografiya

O‘quvchilarda amaliy topshiriqlar orqali hisbelgilar haqida tushuncha hosil qilingandan so‘ng hisbelgi haqida nazariy ma’lumot beriladi.

### Yozma nutq. Tahlil. Matn yaratish

**Sinfingizning ijtimoiy tarmoqdagi guruhiga kiring. Unda mavjud yozishmalarning ma’lum qismidagi xatolar haqida tahliliy ma’lumot tayyorlang.**

Mazkur topshiriqni o‘quvchilar mustaqil izlanib, bajarib kelishlari lozim. Bunda ular ijtimoiy tarmoqdagi guruhlarga kirib, yozishmalarning ma’lum qismini tahlil qilib, munosabat matni tayyorlashi lozim.

Bu jarayonda telefoni bo‘lmagan hamda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmaydigan o‘quvchilarga oila a’zolari, yaqin o‘rtoqlarining ijtimoiy tarmog‘ida mavjud bo‘lgan guruh va kanallardan foydalanish aytiladi.

## 5-soat

**Dars jarayoni**

### Kirish

*Xavfsizlik qoidalari deganda nimani tushunasiz? Qanday xavfsizlik qoidalaridan foydalanasiz?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Internet xavfsizligiga doir tavsiyalar bilan tanishing.**

Ushbu topshiriqda o‘quvchilarga internet xavfsizligiga oid tavsiyalar rasm va ma’lumot ko‘rinishida taqdim etilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu ma’lumotlar bilan tanishib, o‘z munosabatlarini bildirishlari lozim.

Bu topshiriqdan maqsad o‘quvchilarni hayotiy vaziyatlar yuzasidan ogohlikka chaqirishdir.

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Berilgan tavsiyalarga rioya qilmaslikning salbiy oqibatlarini yozing. Kompyuter o‘yinlari bilan bog‘liq berilgan tavsiyadan namuna sifatida foydalaning.**

O‘quvchilar yuqoridagi ma’lumotlar bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng, ushbu tavsiyalarga rioya qilmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida fikr yuritib, munosabatlarini matn ko‘rinishida yozishlari lozim.

Bu jarayonda yuqorida berilgan ma’lumotlardan foydalanish mumkin, asosiy e’tibor berilgan bog‘lovchilarni o‘rinli qo‘llab, gaplarni bir-biriga bog‘lab yoza olishga qaratiladi.

### O‘qib tushunish. Sintaksis

**Internet va ijtimoiy tarmoqlarga oid qisqartma so‘zlar va ularning izohi bilan tanishing. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.**

O‘quvchilar berilgan qisqartmalar va ularning izohi bilan tanishib, ular ishtirokida gaplar tuzib, yozishlari lozim. Bu topshiriqdan asosiy maqsad o‘quvchilarga kundalik hayotida duch keladigan qisqartma so‘zlarning ma’nosi haqida ma’lumot berish hamda ularni ma’no-mazmuniga mos kontekstda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

**Qoida. Orfografiya**

O‘quvchilarga qisqartma so‘zlar haqida nazariy ma’lumot beriladi.

**Muhokama**

**1. Qisqartma so‘zlar nima maqsadda yaratiladi?**

Bu savolga o‘quvchilar erkin fikr bildirishlari mumkin. Ularning javobi tinglangach, qisqartma so‘zlarning ijtimoiy ahamiyati haqida ma’lumot berish maqsadga muvofiq.

Masalan, *hammaga tushunarli bo‘lishi uchun, talaffuzda qiyinchilik tug‘dirmasligi, yozma nutqda takrorlarning oldini olish maqsadida* kabi.

**Ulardan qanday o‘rinlarda foydalanish mumkin?**

Bunda o‘quvchilardan hayotiy kuzatishlari hamda yuqorida qisqartma so‘zlar haqida egallagan bilimlari asosida mantiqan javob berish talab etiladi.

**Sizning shaxsiy qisqartmalaringiz bormi? Ulardan foydalanish o‘rinlimi?**

Bu o‘quvchining shaxsiy kuzatishlari asosida munosabat bildirishiga qaratilgan savol bo‘lib, o‘quvchilar kundalik muloqotda foydalanadigan qisqartmalari, ularning ahamiyati haqida munosabat bildirishi lozim.

Asosiy maqsad qisqartmalar hamma uchun tanish bo‘lishi, hamma yerda bir xilda foydalanilishi haqida ma’lumot berishdan iborat.

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Qisqartma so‘zlar yordamida kichik matn yarating. Partadoshingiz yozgan matnni tekshiring. Unda qanday xatolar borligini aniqlang.**

Ushbu topshiriq qisqartma so‘zlar imlosini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar yuqorida olgan amaliy va nazariy bilimlari asosida qisqartma so‘zlarni qo‘llab kichik matn yozishlari lozim. Bunda kundalik hayotida duch keladigan, o‘zlari tanish bo‘lgan qisqartma so‘zlardan foydalanishlari mumkin.

Asosiy e’tibor qisqartma so‘zlarni kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olishga qaratiladi. O‘quvchilar yozib bo‘lganlaridan so‘ng bir-birlari bilan yozgan matnlarini almashib, tekshirib, munosabat bildirishlari lozim.

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**"YouTube" platformasi yoki ijtimoiy tarmoqlarda o‘zingiz kuzatayotgan kanaldagi ma’lumotlar ostida qoldirilgan izohlar bilan tanishing. Izohlarni tanqidiy tahlil qiling. Kuzatuvlaringiz asosida kichik maqola yozing. Maqolada munosabat bildirishga doir qoidalarga to‘xtaling.**

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilardan mustaqil izlanib, ijtimoiy tarmoqlarda yozib qoldirilgan izohlar bilan tanishib, o‘z munosabatlarini maqola ko‘rinishida yozish talab etiladi.

Bu jarayonda quyidagilarga e’tibor qaratish kerakligi aytiladi:


- "Youtube" platformasi yoki ijtimoiy tarmoqlardan o‘zingiz kuzatadigan lavhani toping;
- ushbu lavha ostidagi izohlarni o‘qib chiqing;
- izohlarda lavhaga mos munosabat bildirishganmi? Taqqoslang;
- izohlardagi imloviy, uslubiy xatolarni kuzating;
- hisbelgi, tinish belgilari izohdagi gap mazmuniga mos qo‘llanganini aniqlang;
- ushbu izohlardagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, o‘z munosabatingizni yozing.

Topshiriqni bajarishda "YouTube" platformasidan foydalanish imkoni bo‘lmagan o‘quvchilarga gazeta-jurnallardan tanqidiy maqolalarni tahlil qilish mumkinligi aytilishi lozim.

# MENDELEYEV ELEMENTLARI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilarga D. I. Mendeleyevning ilmiy faoliyati, elementlar davriy jadvali va unga oid til birliklari haqida tushuncha berish; berilgan matn tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini aniqlash; ma’nodosh so‘zlar, ularning uslubiy xususiyatlari bilan tanishtirish; axborot matni, uning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash; sonlarning imlosi (ma’no turlari, yasalishi), hisob so‘zlar imlosi; berilgan matn bilan tanishish, matn yuzasidan berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olish, savol bera olish, nutqiy mavzuga oid matn yozish ko‘nikmasini shakllantirish.

## 1-soat




### Dars jarayoni

#### Kirish

*Ayting-chi, kimyo qanday fan? U nimalarni o‘rgatadi?*

#### Asosiy qism

#### O‘qib tushunish

**Kimyo faniga oid qiziqarli ma’lumotlar bilan tanishing. Sonlar va hisob-o‘lchov so‘zlari imlosiga e’tibor bering.**

Ushbu topshiriqda kimyo faniga oid qiziqarli ma’lumotlar hamda ularga aloqador rasmlar berilgan. O‘quvchilarga ma’lumotlar bilan tanishib chiqish hamda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar imlosiga alohida e’tibor qaratish aytiladi.

#### Muhokama

**1. Ayting-chi, kimyo fani nima uchun kerak?**

Bu savol yashirin ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan ma’lumotlardan xulosa chiqarib, kimyo fani nima uchun kerakligini tushuntirib berishlari lozim. Bu jarayonda o‘quvchilarning fikrlarini to‘ldirib, kimyo fani haqida ma’lumot berish maqsadga muvofiq.

*Kimyo – moddalarning tuzilishi, xossalari, bir moddaning boshqa moddaga aylanishini o‘rganuvchi fan.*

**2. Bizning kundalik hayotimiz kimyo fani bilan qanday aloqadorlikda o‘tadi? Misollar bilan javob bering.**

Bunda o‘quvchilar ma’lumotlardan olgan xulosalari hamda hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab javob berishlari lozim. Asosiy e’tibor o‘quvchilar fikrlarini asoslab berishiga qaratiladi.

Bunda hayotiy misollar keltirish maqsadga muvofiq. Masalan, *taom – o‘zingiz iste’mol qiladigan taomlarni eslang, ular qanday mahsulotlardan tayyorlanadi? Dastlab ushbu mahsulotlar tarkibidagi moddalar aniqlanib, qaysi mahsulotlar bir-biri bilan aloqaga kira olishi, ularning odam salomatligiga ta’siri borligi o‘rganilgan. Bu tajribalarda kimyo fanining xizmati kattaligini ko‘rishimiz mumkin.*

**3. Ayting-chi, ona tili va kimyo fanlari o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin? Kengroq mushohada yuriting va fikrlaringizni dalillang.**

Bu savol o‘quvchilardan mantiqan o‘ylab javob berishlarini talab qiladi.

O‘quvchilar fikri tinglangach, ona tili va kimyo fanining yaqinligi haqida misollar bilan ma’lumot berib o‘tiladi. Masalan, *Mendeleyev jadvalida aniqlangan moddalar uchun maxsus belgi, raqam tanlangan. Ushbu belgi bir moddani anglatadi. Moddalarni bir-biriga qo‘shib, yangi modda hosil qilishda tajribadan oldin mana shu belgilar bilan amallar bajariladi. Bundan tashqari, kimyo va unga oid tajribalar, Mendeleyev jadvali sizga qanday yetib keldi? Demak, so‘z – fikr quroli, axborot almashish vositasidir.*

**O‘qib tushunish**

**Hisob-o‘lchov so‘zlarining qisqartmalarini yodda saqlang.**

Bu topshiriqdan o‘quvchiga kundalik hayotda duch kelinadigan hisob-o‘lchov so‘zlari haqida ma’lumot berish maqsad qilingan. Bunda hisob-o‘lchov so‘zlari va ularning qisqartmalari berilgan bo‘lib, o‘quvchilardan yodlab, so‘zma-so‘z aytib berish talab etilmaydi. Asosiy e’tibor shu qisqartma haqida tushuncha hosil qilish hamda hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olishini o‘rgatishga qaratiladi.

**Qoida. Morfologiya**

O‘quvchilar jadval bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng hisob-o‘lchov so‘zlari haqida nazariy ma’lumot beriladi.

**Morfologiya**

**Berilgan gaplarni qoida asosida, hisob-o‘lchov so‘zlarini qisqartirib, qisqartmalarni esa kengaytirib ko‘chiring.**

Bu topshiriq hisob-o‘lchov so‘zlari haqida egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni qisqartmasi yoki qisqartmasi berilgan so‘zlarning kengaytmasini yozishlari lozim.

***Javob:***

- *Bir tonna okean suvidan taxminan 7 milligramm oltin ajratib olish mumkin.*
- *1 litr dengiz suvida taxminan 20 gramm tuz mavjud.*
- *Odam tanasining taxminan 75 foizi suvdan iborat.*
- *Zamonaviy samolyotlarning parvozi uchun taxminan 80 t kislorod kerak bo‘ladi. Bu miqdordagi kislorod 40 ming gektar o‘rmonda ishlab chiqariladi.*

**Morfologiya**

**Berilgan hisob-o‘lchov so‘zlarini quyidagi guruhlarga ajratib ko‘chiring.**

Ushbu topshiriqda hisob-o‘lchov so‘zlari aralash holda berilgan. O‘quvchilar ularni ma’no-mazmuniga qarab guruhlarga ajratib yozishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, jadval bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratiladi.

***Javob:***

| Og‘irlik o‘lchovlari | Uzunlik o‘lchovlari | Maydon o‘lchovlari |
|---|---|---|
| milligramm, kilogramm, gramm, tonna | millimetr, kilometr, santimetr, detsimetr | sotix, gektar, sentner |

**Morfologiya**

**Ulardan foydalanib gaplar tuzing va va yozing.**

O‘quvchilar hisob-o‘lchov so‘zlarini guruhlarga ajratib olganlaridan so‘ng ular ishtirokida gap tuzib, yozish aytiladi.

Bunda asosiy e’tibor imlo hamda so‘zlarni ma’no ko‘ra kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olishga qaratiladi.

**Morfologiya. Leksikologiya**

**Lug‘at yordamida tarixiy o‘lchov so‘zlarining ma’nolari bilan tanishing va izohi bilan yozing. Ulardan qanday o‘rinlarda foydalanish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.**

Bu topshiriq o‘quvchining lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar berilgan tarixiy hisob so‘zlarining ma’nolarini lug‘atdan topib, yozishlari hamda ularni qaysi o‘rinda ishlatish mumkinligi to‘g‘risida ma’lumot berishlari lozim.

***Javob:***

- *misqol – 4,35–4,86 gramm oralig‘idagi og‘irlik o‘lchov birligi;*
- *botmon – O‘rta Osiyoning, shuningdek, O‘zbekistonning turli yerlarida turli mezonga, salmoqqa ega bo‘lgan og‘irlik o‘lchov birligi;*
- *tanob – maydon o‘lchov birligi;*
- *chaqirim – metrik o‘lchov birligi qabul qilingunga qadar qo‘llangan, 1,06 kilometrga teng qadimgi uzunlik o‘lchov birligi;*
- *qadoq – qadimgi og‘irlik o‘lchov birligi;*
- *pud – 16,38 kg ga teng og‘irlik o‘lchov birligi;*
- *quloch – yelka balandligida kerilgan har ikki qo‘lning o‘rta barmoq uchlari orasidagi masofa.*

## Uyga vazifa

### Morfologiya

**Berilgan birikmalardagi hisob-o‘lchov so‘zlarini aniqlang, ularga so‘roq bering va namunadagidek yozing.**

**Ot so‘z turkumi bilan ifodalanadigan hisob-o‘lchov so‘zlariga misollar yozing.**

Bunda o‘quvchilar berilgan jumlalar tarkibidan hisob so‘zlarni aniqlab, namunadagi kabi tahlil qilib yozishlari lozim.

Ularni yozib bo‘lgach, ot so‘z turkumi bilan ifodalangan hisob-o‘lchov so‘zlariga boshqa misol topib, yozishlari aytiladi.

***Javob:*** *bir hovuch suv, hovuch — nima?, ot; ikki qop kartoshka, qop — nima?, ot; uch piyola sut, piyola — nima?, ot; to‘rt qarich yer, qarich — nima?, ot; ikki etak paxta, etak — nima?, ot; to‘rt chelak olma, chelak — nima?, ot; bir savat non, savat — nima?, ot; besh litr yoqilg‘i, litr — nima?, ot.*

## 2-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Ayting-chi, fantastika deganda nimani tushunasiz? Fantastik asar o‘qiganmisiz?*

### Asosiy qism


### O‘qib tushunish

**Matnni diqqat bilan o‘qing, savollarga javob bering.**

Matn: “Falsafa toshini qidirib”.

Manba: “Galaktikada bir kun” asari.

O‘quvchilar matnni o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.



Lug‘at yordamida tarixiy o‘lchov so‘zlarining ma’nolari bilan tanishing va izohi bilan yozing. Ushbu so‘zlardan qanday o‘rinlarda foydalanish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

misqol | botmon | tanob | chaqirim | qadoq | pud | quloch

Berilgan birikmalardagi hisob-o‘lchov so‘zlarini aniqlang, ularga so‘roq bering va namunadagidek yozing.

**Namuna:** *bir hovuch suv, hovuch — (nima?, ot).*

Bir hovuch suv, ikki qop kartoshka, uch piyola sut, to‘rt qarich yer, ikki etak paxta, to‘rt chelak olma, bir savat non, besh litr yonilg‘i.

Ot so‘z turkumi bilan ifodalanadigan hisob-o‘lchov so‘zlariga misollar yozing.

Matnni diqqat bilan o‘qing, savollarga javob bering.

**FALSAFA TOSHINI QIDIRIB**

Sarguzasht va fantastik **asarlar**ni yoqtiradigan bolalar falsafa toshi haqida ko‘p eshitgan bo‘lishlari kerak. Ertaklarda falsafa toshi har qanday moddani oltinga aylantira olishi haqida aytiladi.

Tarixda hatto olimlar ham bunday toshning borligiga ishonishgan. Juda boy bo‘lishni xohlagan podsholar esa olimlarga afsonaviy **tosh**ni topishni buyurgan. Bunday olimlarni “alkimyogar” deb atashgan.

Alkimyogarlar tarixiy **laboratoriya**da tuxum sarig‘iga toshbaqa kosasining kukunini yoki quritilgan qurbaqa ko‘ziga qalampir va kumush kukunini aralashtirib, noma’lum **modda**ni, ya’ni falsafa toshini tayyorlashga **uringan**. Lekin ular qanchalik **harakat qilishmasin**, afsonaviy toshni **yarata olishmagan**.

Biroq alkimyogarlar o‘zlari bilmagan holda ajib **kashfiyot**larga sababchi bo‘lishgan. Ular o‘zlarining ajabtovur **tajriba**lari mobaynida turli shifobaxsh **dorilar** va kimyoviy **moddalar**ni beixtiyor yaratib qo‘yishgan.

Masalan, 1602-yilda bolonyalik Kassiarolo ismli kosib va alkimyogar tog‘dan hajmiga nisbatan juda og‘ir, ko‘rinishi g‘alati bir **tosh**ni topib oladi. Albatta, kimyogar buni falsafa toshini topish uchun ajoyib imkoniyat deb o‘ylaydi. Kassiarolo toshni oltinga aylantirish maqsadida uni ko‘mir bilan eritadi va suyuq **metall**ga turli narsalarni qo‘shib ko‘radi. Afsuski, metall oltinga aylanmaydi. **Lekin** alkimyogar umrida duch kelmagan g‘aroyib **metall**ni kashf etganini bilardi. Bu metall hozir sanoatda ko‘p ishlatiladigan bariy edi. Mishyak, fosfor, rux, surma, vismut kabi kimyoviy **elementlar** ham falsafa toshini qidirayotgan alkimyogarlar tomonidan kutilmaganda **kashf qilingan**. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda hatto buyuk fizik Isaak Nyuton ham umrining yakunida falsafa toshini qidirib, alkimyo bilan shug‘ullangan ekan.

XVIII asrga kelib alkimyogarlar falsafa toshini qidirish befoyda ekanini tushunib yetishadi. Endi ular odamlar uchun foydali **moddalar**ni qidira boshlaydilar. To‘g‘ri, tarixda yashab o‘tgan alkimyogarlar o‘zlari orzu qilgan falsafa toshini topa olishmadi, lekin ular o‘z izlanishlari bilan zamonaviy **kimyo** fanining paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lishdi.

*“Galaktikada bir kun” asaridan*

128

### Muhokama

**1. Nega sarguzasht qissalar va fantastik asarni yoqtiradigan bolalar falsafa toshi haqida ko‘p eshitgan bo‘lishi mumkin?**

Bu savolning javobi matnda eksplitsit ifodalangan. O‘quvchi ushbu o‘rinni topib hamda o‘zi mantiqan o‘ylab, *falsafa toshi har qanday moddani oltinga aylantirishi mumkinligi* haqida gap bor ekanini anglab yetishi lozim.

**2. Falsafa toshining eng muhim xususiyati nimada edi?**

Bu matnda eksplitsit ifodalangan ma’lumot bo‘lib, falsafa toshining asosiy xususiyati *oddiy toshlarni oltinga aylantira* olishida ekanini tushunishi lozim.

**3. Nima deb o‘ylaysiz, alkimyogarlar rostdan ham tuxum sarig‘iga toshbaqa kosasi kukunini aralashtirib falsafa toshini**

**qidirishganmi yoki muallif asar qiziq chiqishi uchun shunday o‘xshatish qo‘llaganmi?**

Bu afsonaviy toshni topish uchun olib borilgan tadqiqotlar bizga ma’lum. Muallif o‘quvchilarga tushunarli va qiziqarli bo‘lishi uchun tanish bo‘lgan narsalardan misol keltirganini anglash mumkin. Axir bu – fantastik asar. Buni o‘quvchilarga tushuntirish maqsadga muvofiq.

**4. Alkimyogarlar nega o‘zlari bilmagan holda tasodifiy kashfiyotlar qilgan deb o‘ylaysiz?**

Matnda berilgan ma’lumotlar asosida o‘quvchilar asosiy e’tiborini "tasodifiy" so‘ziga qaratadilar, ya’ni falsafa toshini topishda olib borilgan jarayonlarda paydo bo‘lgan moddalar ham kashfiyot, lekin ular tasodifiy. Xo‘sh, tasodifiy deganda nima nazarda tutiladi?

*Tasodifiy – kutilmagan, favqulodda sodir bo‘ladigan hodisa.*

**5. Nima uchun alkimyogarlar falsafa toshini qidirish befoyda ekanini tushunib yetgan bo‘lishi mumkin?**

Bu savol o‘quvchining matndan olgan xulosasi asosida mantiqan o‘ylab javob berishiga qaratilgan savol bo‘lib, o‘quvchilar o‘z fikrlarini misollar bilan izohlab berishi lozim.

**6. Nega aynan XVIII asrga kelib, alkimyogarlarning fikrlari o‘zgargan? Buni qanday izohlay olasiz?**

Bu savol matndagi ma’lumotlarni dars davomida egallagan bilimlari bilan integratsiya qilgan holda ma’no-mazmun chiqarib, javob berishga qaratilgan. O‘quvchilarning fikri tinglanadi, asosiy e’tibor fikrlarini asoslashga qaratiladi.

## Test

**Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.**

1. Bu test matn g‘oyasini tushunishga qaratilgan. Matn g‘oyasi uchun variantlar berilgan bo‘lib, o‘quvchi matn bilan qayta ishlab, uning g‘oyasini topishi lozim.

To‘g‘ri javob: *D. Falsafa toshi cho‘pchak bo‘lsa-da, kimyo fanining rivojlanishiga turtki bo‘ldi.* Bunda matnda berilgan ma’lumotlar asosida shu xulosaga kelish mumkin. *Insonlar falsafa toshini topish uchun ko‘p tajribalar o‘tkazgan va bu tajribalarda falsafa toshi topilmagan bo‘lsa-da, ko‘plab metall va moddalar kashf etilgani hamda kimyo fani rivojiga sabab bo‘lganini* anglash mumkin. Bu matnning 5–6-xatboshilarida ifodalangan.

2. Bu test matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Matnning 5-xatboshida berilgan ma’lumot asosida to‘g‘ri javob: *C. “... tog‘dan hajmiga nisbatan juda og‘ir, ko‘rinishi g‘alati bir toshni topib olishi alkimyogarning falsafa toshini topish uchun ajoyib imkoniyat deb* o‘ylashini anglash mumkin.

## Leksikologiya. Sintaksis

**Berilgan so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nosida qo‘llab, gaplar tuzing hamda ikki ustunga yozing.**

Mazkur topshiriqni bajarishda o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari hamda lug‘atga tayanishlari mumkin. Bunda berilgan so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini aniqlab, ikki ustunga ajratib, gap tuzib yozish lozim. Bu jarayonda o‘quvchiga so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosi haqida misol orqali nazariy ma’lumot berish maqsadga muvofiq. *Masalan, oltin – qimmatbaho, nodir metall, uni ko‘rish, ushlash mumkin. "Zar", "tilla" deb ham yuritiladi. Bu oltin so‘zining o‘z ma’nosi deyiladi. Xalq orasida, kattalar nutqida: "oltin davrim", "oltin fikrlar", "oltin so‘z" degan iboralalarni eshitgansiz. Ularga "oltin" so‘zining qimmatbaho ma’nosi ko‘chib o‘tgan bo‘lib, bu "so‘zlarning ko‘chma ma’nosi" deyiladi.*

## Morfologiya

**Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning belgisini bildirib kelgan so‘zlarni aniqlang, ularni birgalikda ko‘chiring.**

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni o‘quvchilar uning belgisini ifodalagan so‘z bilan birgalikda ko‘chirib yozishi lozim.

Bunda asosiy e’tibor ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bera olish hamda uni o‘zi birikkan so‘z bilan birgalikda yozishga qaratiladi.

***Javob:*** *afsonaviy tosh, tarixiy laboratoriya, noma’lum modda, ajib kashfiyotlar, ajabtovur tajriba, shifobaxsh dorilar, kimyoviy moddalar, g‘alati tosh, suyuq metall, g‘aroyib metall, kimyoviy elementlar, foydali moddalar, zamonaviy kimyo*.

## Morfologiya

**Yozib olgan so‘z birikmalaringiz tarkibidagi yasama sifatlarni asos va qo‘shimchalarga ajrating.**

Bu yuqoridagi topshiriqning davomi bo‘lib, bunda o‘quvchilar yozgan birikmalari tarkibidan yasama sifatlarni aniqlab, ularni asos va qo‘shimchalarga ajratib yozishlari lozim.

***Javob:*** *afsonaviy – afsona+viy, tarixiy – tarix+iy, noma’lum – no+ma’lum, shifobaxsh – shifo+baxsh, kimyoviy – kimyo+viy, foydali – foyda+li, zamonaviy – zamona+viy.*

## Yozma nutq. Tahlil

**Matnni ko‘chiring. Xatboshilarni hamda ular tarkibidagi gaplarni o‘zaro bog‘lovchi vositalarni aniqlab, tagiga chizing. Matndagi 3- va 4-xatboshilar hamda 4- va 5-xatboshilarni qanday vositalar o‘zaro bog‘lab turganini tahlil qiling.**

Ushbu topshiriq matn qismlari o‘rtasidagi munosabatni tushunishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchi matn xatboshilari o‘rtasidagi munosabatlarni tushunib, ularni bog‘lovchi vositalarni aniqlab, yozishi lozim.

*Masalan, 4-xatboshi 3-xatboshidagi fikrlarni izohlab kelgan bo‘lsa, 5-xatboshi 4-xatboshidagi fikrlarni dalillab kelgan.*


## Yozma nutq. Matn yaratish

**Siz ham fantastik hikoya yoza olasizmi? O‘z xayolingizdagi fantastik hikoyani yozishga harakat qiling. Agar sizda hech qanday g‘oya bo‘lmasa, o‘zingiz eshitgan yoki o‘qigan fantastik hikoyangiz haqida yozing.**

Bu o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga qaratilgan topshiriq bo‘lib, o‘quvchilar dars davomida o‘zlashtirgan bilimlari hamda fantastikaga qiziqishlari asosida fantastik hikoya yozishlari lozim. Bunda internet saytlari, kitob, gazeta-jurnallardan fantastik asar qanday bo‘lishi kerakligi haqida qo‘shimcha ma’lumot to‘plash aytiladi.

Bu topshiriqdan asosiy maqsad ijodkor yoshlarni qiziqishlari asosida tarbiyalashdan iborat.

## 3-soat



“Falsafa toshini qidirib” matnidan olingan gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini yozing.

1. **Tarix**da hatto **olimlar** ham bunday toshning borligiga ishonishgan.
2. Juda boy bo‘lishni xohlagan **podsho**lar esa olimlarga afsonaviy toshni topishni buyurgan.
3. Masalan, 1602-yilda bolonyalik Kassiarolo ismli kosib va alkimyogar tog‘dan hajmiga nisbatan juda og‘ir, ko‘rinishi **g‘alati** bir toshni topib oladi.
4. Kassiarolo toshni **olting**a aylantirish maqsadida uni ko‘mir bilan eritadi va suyuq metallga turli narsalarni qo‘shib ko‘radi.
5. Alkimyogar umrida duch kelmagan, **g‘aroyib** metallni kashf etganini bilardi.

| tarix | olim | podsho | g‘alati | oltin | g‘aroyib |
|---|---|---|---|---|---|

O‘zingiz aniqlagan ma’nodosh so‘zlarni ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘rniga qo‘yib, gaplarni qayta o‘qing. Qanday o‘zgarish bo‘lganini aniqladingiz?

“Falsafa toshini qidirib” matnida ko‘k rangda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘zaro ma’nodosh so‘zlar sanaladi. Muallif nima uchun ushbu so‘zlarni qayta qo‘llamasdan, ularning ma’nodoshlaridan foydalangan?

Ajratilgan so‘zlarni matn mazmunini saqlagan holda boshqa so‘zlar bilan almashtirib, quyidagi parchada ko‘chiring.

XVIII asrga kelib, alkimyogarlar falsafa toshini **qidirish** befoyda ekanini **tushunib yetishadi**. Endi ular **odamlar** uchun foydali moddalarni qidira boshlaydilar. To‘g‘ri, tarixda yashab o‘tgan alkimyogarlar o‘zlari orzu qilgan falsafa toshini topa olishmadi, lekin ular o‘z izlanishlari bilan zamonaviy kimyo fanining paydo bo‘lishiga **sababchi bo‘lishdi.**

Matnda sonlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Quyida berilgan raqamli birikmalar ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

XXI asr | 6-“A” sinf | 21-qavat | 2022-yil

Biror taomning tayyorlanish jarayoni haqida hisob-o‘lchov so‘zlaridan foydalanib matn tuzing. U quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi lozim.

Kerakli masalliqlar:
.....
.....
.....
Tayyorlanish jarayoni:
.....



### Dars jarayoni

### Kirish

*“Falsafa toshini qidirib” matnidan nimalarni bilib oldingiz?*

### Asosiy qism

## Leksikologiya

**“Falsafa toshini qidirib” matnidan olingan gaplar tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini yozing.**

Mazkur topshiriqda har bir gap tarkibidan ayrim so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchilar

dastlab gaplarni o‘qib chiqishlari, so‘ngra pastdagi jadvalda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshini topib, yozishlari aytiladi. Bu jarayonda lug‘atdan foydalanishlari mumkin. Asosiy e’tibor so‘zning gapdagi ma’no-mazmuniga, ya’ni kontekstual ma’nosiga mos sinonimini topishga qaratiladi.

*Javob:*

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| tarix | olim | pod-sho | g‘ala-ti | oltin | g‘aro-yib |
| o‘tmish | fozil kishi | shoh | qiziq | tilla | ajoyib |

### O‘qib tushunish. Tahlil

**O‘zingiz aniqlagan ma’nodoshlarni ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘rniga qo‘yib, gapni qayta o‘qing. Qanday o‘zgarish borligini aniqladingiz?**

O‘quvchilarga yuqoridagi jadvalga yozgan ma’nodosh so‘zlarini ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘rniga qo‘yib, gaplarni qayta o‘qish aytiladi. Bu jarayonda ular topgan ayrim ma’nodoshlar kontekstga tushmasligi mumkin.

Bu jarayonda to‘g‘ri javoblar aytilib, bir ma’no-mazmunni turli so‘z bilan ifodalash mumkinligi, lekin ularni kontekstga qarab qo‘llash o‘rinliligi tushuntiriladi. Masalan, *e’tibor qiling, sizni ismingizdan tashqari bir necha nomlar bilan atashadi: sinfda sinfdosh, tengdoshlaringiz orasida do‘st, dugona, o‘rtoqsiz, uydagilaringiz qizim, bolam deydi, ularning o‘rnini almashtirib qo‘llab ko‘ringchi? Uydagilaringiz sizga sinfdosh deb murojaat qilsa, qanday bo‘ladi? Demak, ma’nodosh so‘zlar ham bir xil ma’noni har xil vaziyat, kontekstlarda turlicha ifodalaydi. Faqat uni mazmuniga moslab ishlatish lozim.*

### Og‘zaki nutq. Tahlil

**“Falsafa toshini qidirib” matnidan ko‘k rangda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘zaro ma’nodosh so‘zlar sanaladi. Muallif nima uchun ushbu so‘zlarni qayta qo‘llamasdan, ularning ma’nodoshlaridan foydalangan? Siz buni qanday tushuntirasiz?**

Matnda ko‘k rang bilan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar: *urinmoq – harakat qilmoq; yarata olmoq – kashf qilmoq.* Ushbu so‘zlar matndagi mazmuniga ko‘ra o‘zaro ma’nodosh sanaladi. Muallif bir so‘zni takror qo‘llamaslik maqsadida ushbu so‘zlardan foydalanganini o‘quvchi mantiqan o‘ylab, aytib berishi lozim. Agar to‘liq javob berilmasa, o‘qituvchi izohlab beradi.

### Leksikologiya

**Quyidagi parchada ajratilgan so‘zlarni matn mazmunini saqlagan holda boshqa so‘zlar bilan almashtirib, ko‘chiring.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning dars davomida ma’nodosh so‘zlar imlosi bo‘yicha to‘plagan bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar berilgan parchani o‘qib, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning o‘rniga ma’nodoshini qo‘yib ko‘chirishlari lozim. Bu jarayonda lug‘atdan foydalanish mumkin. Asosiy e’tibor kontekstga mos so‘zni ishlata olishga qaratiladi.

### Leksikologiya

**Matnda sonlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Quyida berilgan raqamli birikmalar ishtirokida gaplar tuzib, yozing.**

Ushbu topshiriq sonlar imlosini o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar rim raqamlarning, sonlar bilan birga qo‘shtirnoq, chiziqchaning ishlatilishini amaliy topshiriq orqali o‘zlashtirishlari maqsad qilingan.

O‘quvchilarga dastlab matn tarkibidan sonlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib yozish, so‘ngra berilgan raqamli birikmalarni ma’nosiga moslab, kontekstda to‘g‘ri qo‘llab, gap tuzish aytiladi.

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Biror taomning tayyorlanish jarayoni haqida hisob-o‘lchov so‘zlaridan foydalanib matn tuzing. U quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi lozim.**

Bu topshiriq o‘quvchining mustaqil izlanib, ijodiy yondashishiga qaratilgan. Bunda dastlab, taom tayyorlash yo‘riqnomasi haqida ma’lumot to‘plash aytiladi. Bu jarayonda taomnoma kitoblari, internet saytlari hamda oila a’zolari bilan suhbat orqali ma’lumot to‘plash maqsadga muvofiq. So‘ngra to‘plagan ma’lumotlari asosida berilgan yo‘riqnomadan foydalanib matn yozishlari hamda matnda hisob-o‘lchov so‘zlaridan o‘rinli foydalanishlari lozim.

**4-soat**

**Dars jarayoni**

**Kirish**

*Ayting-chi, tajriba nima? Siz ham tajriba o‘tkazib ko‘rganmisiz?*

**Asosiy qism**

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Rasmlar asosida ifodalangan tajriba jarayonini matn ko‘rinishida yozing.**

Ushbu topshiriqda rasmlar ketma-ketligida tajriba jarayoni aks etgan. O‘quvchilar ushbu jarayon bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng matn yozish yo‘riqnomasi o‘qib berilishi lozim. Unga ko‘ra, o‘quvchilarga rasmda aks etgan jarayonni yo‘riqnoma asosida matn ko‘rinishida yozish aytiladi.

Bu topshiriqda asosiy e’tibor, o‘quvchi tajriba haqida tasavvur hosil qilishi, yo‘riqnoma va rasmlar ketma-ketligini tushunib, bog‘lanishli nutq tuza olishiga qaratiladi.

**Og‘zaki nutq. Tahlil**

**Partadoshingiz bilan yozgan matnlaringizni almashing, ularni tekshiring. O‘zingiz aniqlagan xatolarni izohlab bering.**

O‘quvchilar yozgan matnlarini bir-birlari bilan almashib, tekshirishadi. Bu tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Tekshirish jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratish lozimligi aytib o‘tiladi:

- tajriba jarayonining to‘liq aks etishi;
- yo‘riqnoma asosida ketma-ketlikda tavsiflanishi;
- tajribani tushuntirishga oid til birliklaridan o‘rinli foydalanilishi;
- so‘zlar imlosi, tinish belgilarning qo‘llanishi;
- kirish, asosiy qism, xulosaning mavjudligi va har birining xatboshi bilan ajratilgani.

**Og‘zaki nutq. Orfoepiya**

**Yana qanday tajribalar haqida bilasiz? Hisob-o‘lchov so‘zlaridan foydalanib, yuqorida berilgan tartib asosida tajribaning borishi haqida og‘zaki ma’lumot bering.**

Ushbu topshiriqda o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari davomida ko‘rgan, tabiiy fanlar darsida duch kelgan tajriba jarayonlari haqida gapirib berishlari lozim. O‘quvchi boshqa tajriba haqida ma’lumotga ega bo‘lmasa, yuqoridagi tajriba jarayonini gapirishi mumkin. Bunda asosiy e’tibor tajriba jarayonini og‘zaki nutq me’yorlariga amal qilgan holda to‘g‘ri tavsiflay olishga qaratiladi.

Bunda nutqda hisob-o‘lchov so‘zlaridan foydalanish lozim. Og‘zaki nutqda ularning talaffuzi tekshiriladi.

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Ikki turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining qadog‘idagi ozuqaviy qiymatga oid ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslab yozing. Yozgan matningizda ularning foydaliligi bo‘yicha xulosalaringizni ham ifodalang.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, ijodiy yondashishiga qaratilgan. Dastlab, kundalik turmushda foydalaniladigan yog‘, tuz, choy, makaron va boshqa mahsulotlarning qadog‘idan ozuqaviy qiymati haqida ma’lumot to‘plash topshiriladi. So‘ngra ularni tahlil qilib, eng foydali deb bilgan mahsuloti haqida yozishi va nima uchun aynan shu mahsulotni foydali deb tavsiya qilganiga asoslar keltirishi lozimligi aytiladi.

# YONG‘IN XAVFSIZLIGI QOIDALARI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilarda yong‘in, uning kelib chiqish sabablari va yong‘in xavfsizligi qoidalari haqida tasavvur paydo qilish hamda unga oid til birliklarini nutqida faollashtirish; belgilar va ularga oid ifodalarni tushunish; ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi va uning imlosini o‘rgatish; muhokama matni, muhokama matnini yaratishda materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozish ko‘nikmasini shakllantirish.

## 1-soat


YONG‘IN XAVFSIZLIGI QOIDALARI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• yong‘in kelib chiqishi sabablari va yong‘in xavfsizligi qoidalari • xavfsizlik belgilari • ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi va ularning imlosi • muhokama matni.

Rasmlarga qarang. Yong‘in qanday holatlarda kelib chiqishi mumkinligini muhokama qiling.

1. Yong‘in yana qanday holatlarda kelib chiqishi mumkin?
2. Ayting-chi, nega ko‘p hollarda yong‘inning kelib chiqishiga bolalar sababchi bo‘lib qoladi?
3. Siz yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilasizmi? Misollar bilan javob bering.

Rasmlar asosida yong‘in xavfsizligiga doir qoidalar yozing.

133

### Dars jarayoni

### Kirish

*Ayting-chi, xavfsizlik qoidalari nima? Siz qanday xavfsizlik qoidalariga rioya qilasiz?*

### Asosiy qism

### Og‘zaki nutq

**Rasmlarga qarang. Yong‘in qanday holatlarda kelib chiqishini muhokama qiling.**

Darslikda yong‘inni keltirib chiqaradigan oltita holat aks etgan rasmlar berilgan. O‘quvchilar rasmdagi holatlar bilan tanishib chiqib, o‘z munosabatlarini og‘zaki tarzda ifodalab berishi lozim. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining rasmdagi holatlarni tushunishi, ushbu holatlarga mos bog‘lanishli nutq tuzib, aytib berishiga qaratiladi.

O‘quvchilar rasm bilan tanishib, o‘z munosabatlarini bildirganlaridan so‘ng rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. Ayting-chi, nega ko‘p hollarda yong‘inning kelib chiqishiga bolalar sababchi bo‘lib qoladi?**

Mazkur savol o‘quvchilarni mulohaza qilishga chorlaydi. Bunda ular o‘z hayotiy kuzatishlari asosida javob berishlari mumkin. O‘qituvchi tomonidan fikrlar tinglanib, *bolalarga xos bo‘lgan qiziquvchanlik, har narsani qilib ko‘rishga bo‘lgan intilish yoki yong‘in haqida ma’lumotga ega bo‘lmaslik oqibatida yuzaga keladigan e’tiborsizlik holatlari* izohlab berilishi lozim.

**2. Siz yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilasizmi? Misollar bilan javob bering.**

Bu savol o‘quvchining o‘z fikrini dalillab, javob qaytarishiga qaratilgan bo‘lib, har bir bola javobini misollar bilan izohlab aytib bera olishi lozim.

Ushbu rasm asosida berilgan topshiriqdan maqsad o‘quvchida yong‘inni keltirib chiqaradigan holatlar haqida tasavvur hosil qilish, ushbu holatlarga mos til birliklarini og‘zaki nutqida faollashtirish, vaziyatlarga mos munosabat bildirish hamda o‘z fikrini dalillay olish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Rasmlar asosida yong‘in xavfsizligiga doir qoidalar yozing.**

Bu topshiriqda asosiy e'tibor, o'quvchilarning vizual aloqa orqali olgan ma'lumotlariga munosabat bildira olishi, yong'inni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan vositalarga doir so'zlarni bilishi va ularni mazmunan to'g'ri qo'llay olishi hamda imloviy savodxonligiga qaratiladi.

O'quvchilarga quyidagicha ko'rsatma berish mumkin.

*Mana bu rasmga qarang, dazmolni shu holida qoldirsa, yong'in chiqarkan. Xo'sh, bunday vaziyatning oldini olish uchun nima qilishimiz kerak? Keling, ularni birma-bir yozamiz:*

*1. E'tiborli bo'ling!*

*2. Dazmolni tik holatda qo'ying!*

*3. Dazmoldan foydalanib bo'lgach, uni o'chiring!*

*4. Dazmol soviguncha xavfsiz joyga qo'ying.*

*Mana shu yozganlarimiz, yong'in kelib chiqishining oldini olish uchun yo'riqnoma, uni boshqalarga aytib ogohlantirsak va ular bunga rioya qilishsa, qoida bo'ladi. E'tibor bering, gaplarimiz buyruq ohangida bo'lganligi uchun undov belgisi, xabar mazmunida bo'lganligi uchun nuqta qo'ydik.*

## Morfologiya

**Xavfsizlik belgilarini diqqat bilan o'rganing. Belgilarning nomini topib yozing.**

Dastlab o'quvchilar bilan darslikdagi belgilar nimani ifodalab kelishi haqida suhbat o'tkaziladi. So'ng belgilar ostidagi jumlalar o'qib berilib, ular o'rtasidagi bog'liqlik so'raladi. Bunda o'quvchi jumlalar belgilarga mos izohlar ekanini tushunib yetishi lozim.

O'quvchilarning javoblari tinglab bo'lingach, belgilarni ularga mos izohlari bilan moslashtirib, namunada keltirilgan shaklda yozish aytiladi.

***Javob:***

| | | |
|---|---|---|
| *1 – I* | *4 – G* | *7 – E* |
| *2 – B* | *5 – A* | *8 – F* |
| *3 – H* | *6 – D* | *9 – L* |

Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning belgini tushunishi hamda unga mos izohni topib, moslashtirishiga qaratiladi.

## Morfologiya. Sintaksis

**Quyida berilgan fe'llarni "o'chirmoq" fe'liga bog'lab yozing. Ularni o'zaro taqqoslang, ma'nolarida qanday farqni sezdingiz?**

Dastlab o'quvchilardan **o'chirmoq** fe'lining ma'nosi so'raladi: *"O'chirmoq nima, u qanday holatlarga nisbatan ishlatiladi?"*

O'quvchilarning javoblari tinglab bo'lingach, ***o'chirmoq*** *– yonishdan to'xtatmoq ekani, tokni, gazni, olovni o'chirish mumkinligi, ya'ni yonib turgan narsani harakatdan to'xtatib qo'yishga nisbatan ishlatilishi* haqida ma'lumot beriladi.

So'ng o'chirmoq so'zini berilgan birliklar bilan birgalikda yozish aytiladi. O'quvchilar yozib bo'lgach, yozgan so'zlarini taqqoslab, ularning ma'nolari o'rtasidagi farqni aytishi lozim.

O'quvchilarning fikri tinglangach, hosil qilingan har bir birlikka o'qituvchi tomonidan izoh berib o'tiladi hamda ushbu so'z qo'shilmasi orqali harakatning turli darajalarini ifodalash mumkinligi misollar orqali tushuntiriladi:

- *o'chira boshlamoq – harakatning boshlanishi;*
- *o'chirib turmoq – harakatning davomiyligi;*
- *o'chirib qo'ymoq, o'chirib tashlamoq – harakatning tez va oson bajarilishi;*
- *o'chirib chiqmoq, o'chirib tugatmoq – harakatning to'la yakunlangan.*

## Morfologiya. Sintaksis

**Berilgan fe'llarni o'zaro juftlab so'z qo'shilmasi hosil qiling. Ular ishtirokida belgilarni izohlab gaplar tuzing.**

Dastlab o'quvchilar birinchi ustundagi so'zlarni ma'nosiga ko'ra ikkinchi ustunda berilgan so'zlar bilan bog'lab, yangi so'z hosil qilishlari lozim. Bunda o'quvchilar birinchi ustundagi so'zlar tarkibida bo'ladigan o'zgarishlarga e'tibor qaratishi, ya'ni ularni

o‘z holicha *portlamoq ketmoq* emas, balki *portlab ketmoq* shaklida yozishi lozim.

***Javob:*** *portlab ketmoq, ogohlantirib qo‘ymoq, yona boshlamoq, chiqa boshlamoq.*

So‘ng hosil bo‘lgan yangi so‘zlarni qo‘llab, namunadagidek, darslikda berilgan belgilarning ma’nosini izohlab, gap tuzishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining so‘zlarni mazmunan birlashtirib, yangi so‘z hosil qilishi hamda hosil bo‘lgan so‘zlarni kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olishiga qaratiladi.

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Yong‘in kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi holatlar bilan bog‘liq bo‘lgan taqiqlovchi belgilarni chizing. Belgi yoniga ularning izohini yozing.**

Bu topshiriq o‘quvchilarning ijodiy fikrlashiga turtki bo‘ladi. O‘quvchilarga dars davomida olgan bilimlariga asoslanib, mustaqil ravishda yong‘in kelib chiqishining oldini oladigan taqiqlovchi belgi chizish, so‘ngra shu belgiga mos izoh topib yozish aytiladi.

Bu topshiriq orqali o‘quvchida mustaqil izlanish, fikrini tasvir va so‘z orqali bog‘lab ifodalash ko‘nikmasi shakllantiriladi.

## 2-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Taqiqlovchi belgilardan qayerlarda foydalaniladi? Qanday taqiqlovchi belgini chizdingiz? Izohlab bering.*

### Asosiy qism

## O‘qib tushunish


**Matnni o‘qib, muhokamaga kirishing.**

Ushbu matn orqali o‘quvchilarda muhokama matnining ifoda shakli, matnning tuzilishi, unga oid til birliklari, mavjud bo‘lgan axborot haqida ma’lumot berish maqsad qilingan.

Sarlavha: "Kim ko‘proq aybdor?"

Muallif: Sa’dulla Quronov.

O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.



Yong‘in kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi holatlar bilan bog‘liq taqiqlovchi belgilarni chizing. Belgi yoniga ularning izohini yozing.

Namuna

Sayrga chiqqanda olov yoqmang! Bu belgi tabiat qo‘ynida olov yoqishni taqiqlaydi.

Matnni o‘qib, muhokamaga kirishing.

KIM KO‘PROQ AYBDOR?

Aniqlanishicha, 90 foiz holatlarda yong‘in odamlarning e’tiborsizligi tufayli kelib chiqadi. O‘rinli bir savol tug‘iladi: bu “e’tiborsiz odamlar” kimlar? Bolalarmi yoki kattalar? Albatta, bu savolga aniq javob topish mushkul. Ammo yong‘inni keltirib chiqaradigan eng ko‘p holatlarni tahlil qilib, jo‘yali xulosa chiqarish mumkin.

Demak, yong‘in ko‘proq quyidagi holatlarda kelib chiqadi:

- nosoz elektr qurilmalaridan foydalanganda;
- qurilmalarni o‘chirish yoddan ko‘tarilganda (asosan dazmol);
- gaz sizib chiqishi oqibatida;
- elektr simlarining qisqa tutashuvi natijasida;
- olovdan noto‘g‘ri foydalanganda;
- aerozol ballonlari olovga yaqin joyda qoldirilganda;
- sigaret cho‘g‘i yonuvchi narsalar ustiga tushishi oqibatida.

Endi mulohaza qiling, yuqorida sanalgan holatlarda kim ko‘proq xatoga yo‘l qo‘yadi: kattalarmi yoki bolalar?

Muhokama qizg‘in bo‘lishi uchun ayrim holatlarni batafsil yoritamiz.

Birinchi holat – nosoz qurilmalar. **Eskirib qolgan qurilmalarda yong‘in kelib chiqishi xavfi ko‘p bo‘ladi. Ular elektr tokini keragidan ko‘p ishlatib yuboradi.** Bunday qurilmalarning

135

## Muhokama

**1. Sizningcha, yong‘in kelib chiqishiga kim ko‘proq sababchi? Bolalarmi yoki kattalar? Javobingizni asoslang.**

Bu savol matnda yashirin ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning birinchi xatboshisi hamda tartib bilan sanalgan ma’lumotlarni integratsiya qilib, javobni topib, aytishlari lozim.

Demak, *yong‘inning kelib chiqishiga ko‘proq kattalar sababchi bo‘lishi, negaki, yong‘inni keltirib chiqaradigan holatlarning barchasi kattalarning e’tiborsizligi orqali yuzaga kelishini hayotiy misollar* bilan asoslab berish mumkin.

**2. Yong‘in xavfsizligi masalasida hamma birdek mas’ul bo‘lishi kerak deb o‘ylaysizmi?**

Ushbu savol matnning umumiy mazmunini tushunish hamda o‘quvchilarning matnda berilgan axborotni xulosalab olishiga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar “ha” yoki “yo‘q” deb javob berishlari mumkin. Asosiy e’tibor

mana shu javoblarini matndagi ma’lumotlar orqali isbotlashga qaratiladi.

**3. Yong‘in asosan odamlardagi qaysi illat tufayli kelib chiqadi?**

Bu matnda ifodalangan ochiq ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning birinchi xatboshisida keltirilgan ma’lumot orqali bu illat *e’tiborsizlik* ekanini aytishlari lozim.

**4. Elektr qurilmalarda qanday holatlarda yong‘in kelib chiqadi?**

Bu matnda berilgan ma’lumotlarni saralab olishga qaratilgan savol bo‘lib, o‘quvchilar matn tarkibidan ushbu holat aks etgan o‘rinlarni topib, fikr bildirishlari lozim.

**5. Gaz plitasidan foydalanganda qanday xavfsizlik qoidalariga amal qilish kerak?**

Bu savol matnda berilgan ma’lumotdan xulosa chiqarishga qaratilgan, ya’ni o‘quvchilar matnda gaz plitasidan qanday holatlarda yong‘in kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlardan xulosa qilib, javob berishi lozim. Bunda o‘quvchilar aynan ushbu o‘rinni mulohaza qilish orqali, *gazda ovqatni unutib qoldirmaslik, is gazi chiqqanda chiroq yoqmaslik kabi qoidalarni aytishi talab etiladi.*

**6. Yong‘in sodir bo‘lganda o‘t o‘chiruvchilarga xabar berish uchun qaysi raqamga qo‘ng‘iroq qilish kerakligini bilasizmi?**

Bu savoldan maqsad o‘quvchini ogohlikka chaqirish, hayotiy vaziyatlarda kerak bo‘lgan axborotni berishdan iborat.

*Javob: 101. Hech qanday belgi va isho-ralarsiz teriladi.*


## Test

**Matn mazmunidan kelib chiqib, berilgan xulosalarning qay biri matnning bosh g‘oyasiga mos ekanini toping. Javobingizni izohlang.**

Bu topshiriqdan asosiy maqsad matn tarkibidagi ma’lumotlarni birlashtirib, matnning umumiy mazmuniga mos keladigan ma’lumotni topishga qaratilgan.

Berilgan javoblarning barchasi matnning g‘oyasiga mos keladi, ammo o‘quvchilar e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan bir jihat bor, ya’ni matnning ma’lum qismidan chiqariladigan g‘oyalar va ushbu g‘oyalar jamlanmasidagi bosh g‘oya. O‘quvchi ushbu o‘rinni anglab, o‘z fikrini izohlab berishi lozim.

*Javob: B.*


bir nechtasini teng ishlatish xavfli. **Sababi elektr simlari bunday kuchlanishni ko‘tara olmay, qizib ketadi va yong‘in chiqishiga sabab bo‘ladi.**

**Ikkinchi holat – dazmolni o‘chirishni unutib qo‘yish.** Bu yong‘in chiqishiga eng ko‘p sabab bo‘ladigan holatlardan biridir. Shu sababli uydan chiqishdan oldin, har ehtimolga qarshi, dazmolni tekshirib qo‘yishni unutmaslik kerak.

Uchinchi holat – gaz sizib chiqishi. Ko‘p hollarda yong‘in gaz plitasidan foydalanganda xavfsizlik qoidalariga amal qilmaslik oqibatida ham kelib chiqadi. **Odatda qarovsiz qolgan qozondagi suyuqlik qaynab toshib ketadi va olovni o‘chirib qo‘yadi. So‘ng gaz butun oshxona bo‘ylab tarqala boshlaydi.** Bunday paytda hatto chiroq yonishi sababli yong‘in kelib chiqishi mumkin.

Xo‘sh, ayting-chi, kim ko‘proq aybdor? Yoki bu masalada hamma birdek mas’ul bo‘lishi kerakmi? Nima bo‘lganda ham, bir narsa aniq: biz uchun yong‘in bilan kurashishdan ko‘ra uning oldini olish afzalroq.



1. Sizningcha, yong‘in kelib chiqishiga kim ko‘proq sababchi? Bolalarmi yoki kattalar? Javobingizni asoslang.
2. Yong‘in xavfsizligi masalasida hamma birdek mas’ul bo‘lishi kerak deb o‘ylaysizmi?
3. Yong‘in asosan odamlardagi qaysi illat tufayli kelib chiqadi?
4. Elektr qurilmalarida qanday holatlarda yong‘in kelib chiqadi?
5. Gaz plitasidan foydalanganda qanday xavfsizlik qoidalariga amal qilish kerak?
6. Yong‘in sodir bo‘lganda o‘t o‘chiruvchilarga xabar berish uchun qaysi raqamga qo‘ng‘iroq qilish kerakligini bilasizmi?

136

## Test

**Matn mazmuni asosida chiqarilgan quyidagi xulosalarning uchtasi noto‘g‘ri. Ularni toping va javobingizni izohlang.**

Mazkur topshiriq ma’lumotlarni saralab olishga qaratilgan. Bunda matn mazmunidan chiqarilgan to‘g‘ri va noto‘g‘ri xulosalar berilgan. O‘quvchilar ushbu xulosalar asosidan noto‘g‘ri berilganlarini topib, nima uchun xato ekanini matn asosida isbotlab berishi lozim.

*Javob: 2, 3, 6.*

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarda matn bilan qayta ishlash va o‘z fikrini dalillash ko‘nikmasi shakllantiriladi.

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Yong‘in kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi holatlardan birini 3-4 gapdan iborat matn ko‘rinishida yozing.**

**Matnda nechta holat yoritib berilgan? Ayting-chi, ushbu holatlarsiz ham matnning mazmunini anglash mumkinmi? Fikringizni izohlang.**

Bunda o‘quvchilar matnda berilgan 3 ta holatni topib, o‘qiydi. So‘ng ushbu holatlarsiz matnni o‘qib ko‘radi. Shundan kelib chiqib, matnga munosabat bildiradi.

Matn tarkibida keltirilgan holatlar birinchi xatboshisidan anglashilgan ma’lumotni dalillab, asoslab berishga qaratilgan bo‘lib, bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarga *muhokama matni tarkibidagi axborotlarni dalillash, keltirilgan fikrlarni argumentlar orqali izohlash lozimligi haqida ma’lumot* berishdan iborat.

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Matn tarkibidan sizni muhokamaga undovchi gaplarni ajratib, yozing. Yozgan gaplaringizning ifoda shakli (so‘roq, darak, buyruq)ga e’tibor bering, ularni izohlang.**

Bu topshiriq “Kim ko‘proq aybdor?” matni muhokama mazmunidagi matn ekanini ta’minlovchi til birliklarini aniqlashga qaratilgan.

O‘quvchilar matn tarkibidan mulohaza qilishga chorlangan o‘rinlar, ta’kid, so‘roq mazmuni aks etgan jumlalarni ajratishi hamda ushbu gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini aniqlab, yozishi lozim.

O‘quvchilarning yozganlari tekshirilib, ushbu birliklarni matndan ko‘rsatib, izohlash maqsadga muvofiq.

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Quyidagi matnni berilgan savollar yordamida muhokama matniga aylantirib yozing.**

Bu topshiriq oldingi topshiriqlarning mantiqiy davomi bo‘lib, o‘quvchilar oldingi topshiriq orqali muhokama matniga xos til birliklari, ularning shakl va mazmuni hamda argumentlar keltirish haqida ma’lumotga ega bo‘lgan bo‘lsalar, bu topshiriq orqali o‘zlari muhokama matni yaratib ko‘radilar.

Bu matndan matn yaratish, ma’lumotlar asosida ijodiy fikrlashga qaratilgan topshiriq bo‘lib, o‘quvchilar berilgan parchani o‘qib chiqib, ular asosida muhokama matni yozishlari lozim.


Bunda o‘quvchiga muhokama matni yaratish uchun savollar ham berilgan. O‘quvchi parchani o‘qib, ko‘rsatma asosida savollarga og‘zaki javob berishi, so‘ngra ushbu fikrlarini tartiblab, matn yaratishi kerak.

## Yozma nutq. Sharhlash

**Maqollarni izohlab yozing.**

O‘quvchilar berilgan maqollarning mazmunidan kelib chiqib, ularni izohlab yozishlari lozim. Bunda maqollarning ma’nosiga e’tibor berishlari, kattalardan yordam so‘rashlari, lug‘atlardan foydalanishlari mumkinligi aytiladi.

## 3-soat



Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Matn mazmunidan kelib chiqib, berilgan xulosalarning qay biri matnning bosh g‘oyasiga mos ekanini toping. Javobingizni izohlang.

**A.** Yong‘in kelib chiqishiga ko‘proq kattalar sababchi bo‘ladi.
**B.** Yong‘in odamlarning e’tiborsizligi tufayli kelib chiqadi.
**C.** Yong‘inning oldini olish muhim.
**D.** Elektr qurilmalardan foydalanganda ularning sozligiga e’tibor qilish kerak.

Matn mazmuni asosida chiqarilgan quyidagi xulosalarning uchtasi noto‘g‘ri. Ularni toping va javobingizni izohlang.

1. Gaz plitasida qarovsiz qolgan qozon yong‘inga sabab bo‘lishi mumkin.
2. Ba’zida yong‘in odamlarning e’tiborsizligi tufayli kelib chiqadi.
3. Yong‘in bilan kurashish uning oldini olishdan afzalroq.
4. Eski qurilmalarda yong‘in kelib chiqish xavfi ko‘proq bo‘ladi.
5. Elektr qurilmalarini, xususan, dazmolni o‘chirish yoddan ko‘tarilganda yong‘in sodir bo‘lishi mumkin.
6. Bir nechta qurilmani teng yoqishning imkoni yo‘q.

Yong‘in kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi holatlardan birini 3–4 gapdan iborat matn ko‘rinishida yozing.

**Yong‘in quyidagi holatlarda ham kelib chiqadi:**

- nosoz elektr qurilmalaridan foydalanganda;
- elektr simlarining qisqa tutashuvi natijasida;
- olovdan noto‘g‘ri foydalanganda;
- sigaret cho‘g‘ining yonuvchi narsalar ustiga tushishi oqibatida.

Namuna *Nosoz elektr qurilmalarda elektr simlarining bir-biriga noto‘g‘ri ulanishi, simlarda ochiq joylarning mavjudligi, undan foydalanganda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik holatlari kuzatilganda yong‘in kelib chiqishi mumkin.*

137

### Dars jarayoni

### Kirish

*Ayting-chi, maqollardan nima maqsadda foydalaniladi? Misollar bilan izohlang.*

## Asosiy qism

### Yozma nutq. Matn yaratish

**“Kim ko‘proq aybdor?” matnida ajratib ko‘rsatilgan gaplarni namunadagidek yozing. Gaplar mazmunida qanday o‘zgarish bo‘lganini izohlang.**

O‘quvchilarga namunadagi gaplar o‘qib beriladi. O‘quvchilar ikkala gap mazmunida qanday o‘zgarish bo‘layotganiga o‘z munosabatlarini bildirishi lozim. So‘ng “Kim ko‘proq aybdor?” matni tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni namunadagidek yozib, izohlash aytiladi.

Bu topshiriqdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchiga ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasining gapdagi o‘rni, u anglatadigan ma’no haqida fikr berishdan iborat.

### Qoida. Morfemika

Topshiriq bajarib bo‘lingach, ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi haqida nazariy ma’lumot beriladi.

### Morfologiya

**“Kim ko‘proq aybdor?” matnida ajratib ko‘rsatilgan fe’llarni yetakchi va ko‘makchi fe’lga ajrating. Ko‘makchi fe’lning berilishiga ko‘ra so‘z qo‘shilmalarini quyidagi jadval yordamida ikki ustunga ajratib yozing.**

Mazkur topshiriq matn bilan qayta ishlash hamda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini matn tarkibidan ajratib, mazmuniga ko‘ra guruhlashga qaratilgan. Dastlab o‘quvchilar matn tarkibidan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasini aniqlab, uni ko‘makchi va yetakchi fe’lga ajratib yozadilar. So‘ng ko‘makchi fe’llarni harakatning bajarilish tarzini ifodalashiga ko‘ra guruhlarga bo‘lib yozish aytiladi.

*Javob:*

| Harakatning bajarilish tarzini ifodalovchi ko‘makchi fe’llar | Harakatning bajarilish bosqichini ifodalovchi ko‘makchi fe’llar |
|---|---|
| yubormoq | boshlamoq |
| olmoq | yotmoq |
| tashlamoq | yurmoq |
| qo‘ymoq | turmoq |
| | chiqmoq |

### Leksikologiya

**Quyida berilgan so‘zlarni o‘zaro ma’nodoshlik asosida ajrating. Ularni izohlari bilan ko‘chiring.**

Bunda o‘quvchilar berilgan so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan topib yozishi, ma’nosining bir-biriga yaqinlik darajasiga qarab guruhlarga ajratishi lozim.

*Javob:*

1. *Olov, o‘t.*
2. *Yolqin, alanga.*
3. *Cho‘g‘, kul.*

Bu topshiriqdan asosiy maqsad o‘quvchilarga bir ma’noni turli so‘z orqali ifodalash mumkinligi hamda so‘zlar ma’nosiga ko‘ra darajalanishi haqida ma’lumot berishdan iborat.


## Uyga vazifa

### Morfologiya. Sintaksis

**Berilgan yetakchi va ko‘makchi fe’llar ishtirokida so‘z qo‘shilmalari tuzing va ularni gap ichida keltiring. Gap mazmunida qanday o‘zgarish bo‘layotganini izohlang.**

Mazkur topshiriq o‘quvchining mustaqil fikrlab, ijodiy yondashishiga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar dars davomida egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashiga qaratilgan. Bunda jadvalda berilgan birliklarni ma’nosiga ko‘ra birlashtirib, ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi hosil qilish hamda ular ishtirokida gaplar tuzib, yozish lozim.

Bunda asosiy e’tibor ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasini tushunib, ma’no-mazmuniga ko‘ra kontekstda qo‘llashga qaratilgan.



Rasmlarga qarang. Muhokamaga sabab bo‘lgan mavzu yuzasidan o‘z xulosalaringizni asoslab esse yozing.



Sinfdoshlaringiz yozgan esse bilan tanishing. Ular yozgan matnda so‘z qo‘llash, ifoda usuli, matndagi fikrlarning asoslangani va gaplarning o‘zaro bog‘langaniga baho bering.

Berilgan fe’llarni avval o‘z ma’nosida, keyin esa ko‘makchi fe’l sifatida qo‘llab gaplar tuzing.

| | |
|---|---|
| yubormoq | boshlamoq |
| olmoq | yotmoq |
| tashlamoq | yurmoq |
| qo‘ymoq | turmoq |

Namuna *1. Oyim meni qo‘shnimiznikiga Oqila xolani chaqirib kelish uchun* ***yubordi.*** *2. Yangi uyga ko‘chishga qo‘shnimiz Anvar* ***qarashib yubordi.***

“Adabiyot” darsligidan ko‘makchi fe’llar ishtirok etgan gaplarga 10 ta misol topib, yozing. Ular qanday ma’noni ifodalayotganini tahlil qiling.

Namuna *Xavotirlangan ona Boburga taskin beradigan, uning ko‘nglini ko‘taradigan chora izlay boshladi. (P. Qodirov, “Yulduzli tunlar”)*



## 4-soat

### Dars jarayoni

#### Kirish

*Ayting-chi, ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarining nutqimizda qanday ahamiyati bor?*

#### Asosiy qism

#### Yozma nutq. Matn yaratish

**Muhokamaga sabab bo‘lgan mavzu yuzasidan o‘z xulosalaringizni asoslab, esse yozing.**

Darslikda turli vaziyatlar rasm ko‘rinishida berilgan va har bir vaziyat ostida izoh keltirilgan. Dastlab o‘quvchilar ushbu vaziyatlar yuzasidan bahs-munozara o‘tkazadilar.

Esse yozish uchun vaziyat, fikrlash uchun muhokamaga tortadigan jumlalar keltirilgan. O‘quvchilar shulardan foydalangan holda esse yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilar bosqichlarni tushunib, keltirilgan fikrlarni hayotiy kuzatishlari asosida dalillab, yakunida o‘z xulosalarini berib, bog‘lanishli matn tuzishlariga qaratiladi.

#### Og‘zaki nutq. Tahlil

**Sinfdoshlaringiz yozgan esse bilan tanishing. Ular yozgan matnda so‘z qo‘llash, ifoda usuli, matndagi fikrlarning asoslangani va gaplarning o‘zaro bog‘langaniga baho bering.**

Bunda o‘quvchilar daftarlarini bir-birlari bilan almashadi. Bir-birlari yozgan esseni o‘qib, munosabat bildirishlari lozim. Munosabat bildirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozimligi aytiladi:

- *so‘z qo‘llash;*
- *mazmun;*
- *fikrlar ketma-ketligi;*
- *fikrlarni dalillash;*
- *fikrlarni xulosalash.*

O‘quvchilar ushbu jihatlarni inobatga olib, sinfdoshlarining matniga munosabat bildiradi.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning matn mazmunini tushunishi, tanqidiy fikrlab, munosabat bildirishiga qaratiladi.

#### Morfologiya

**Berilgan fe’llarni avval o‘z ma’nosida, keyin esa ko‘makchi fe’l sifatida qo‘llab gaplar tuzing.**

Mazkur topshiriq ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarining ahamiyatini tushunib, mazmuniga mos kontekstda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar topshiriq sharti asosida fe’llarni yozib, gaplar tuzib, izohlab berishi lozim.

#### Uyga vazifa

#### Morfologiya

**“Adabiyot” darsligidan ko‘makchi fe’llar ishtirok etgan gaplarga 10 ta misol topib, yozing. Ular qanday ma’noni ifodalayotganini tahlil qiling.**

Bu o‘quvchining matn bilan ishlash, matn tarkibidagi til birliklarini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar adabiyot darsliklaridan misollar topib, namunadagidek yozishlari lozim.

# MUSTAHKAMLASH

## Dars jarayoni

### Kirish

*O‘zlashma so‘zlar nima? Ularning o‘zbekcha muqobili bormi?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Tengdoshingiz Aziza “Telegram”da internetdan foydalanish bilan bog‘liq maxsus darslarni joylashtirib borishni, shu orqali o‘z tengdoshlariga yordam berishni maqsad qilgan. Quyida u yozgan xabarnoma bilan tanishing.**

O‘quvchilarga berilgan matnni o‘qish aytiladi. Bu matndan asosiy maqsad o‘quvchilarga ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish haqida ko‘rsatma berishdan iborat.

### Leksikologiya

**Azizaning matnidan o‘zlashma so‘zlarni ajratib, yozing.**

O‘quvchilar yuqorida tanishgan matnlari tarkibidan o‘zlashma so‘zlarni topib yozishlar lozim. Dastlab o‘quvchilar bilan *o‘zlashma so‘zlar nimaligi, nima uchun kerak ekani, ularning o‘zbekcha muqobili bor-yo‘qligi* haqida savol-javob o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.

### Leksikologiya

**Qaysi so‘zlarning o‘zbekcha tarjimasi borligini aniqlang, ushbu so‘zlar yordamida kichik lug‘at yarating. So‘zlarni almashtirib, matnni qayta o‘qing.**

Bu topshiriq o‘quvchilarda lug‘at tuzish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan ajratib olgan o‘zlashma so‘zlarining muqobilini aniqlab, lug‘at tuzishlari hamda matn mazmuniga mos keladigan ma’nodoshi bilan almashtirib, qayta o‘qishlari lozim.

### Morfologiya. Sintaksis

**Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari ishtirokida gaplar tuzib, yozing. Ularning ma’nolarida qanday o‘zgarish bo‘layotganini izohlang.**

Jadvalda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari darajalab berilgan. O‘quvchilarga ularning mazmuniga mos gap tuzish aytiladi. Bu topshiriq o‘quvchilarda so‘zni ma’nosiga mos kontekstda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Quyida berilgan havola orqali olmali pirogning tayyorlanish retseptini yozib keling. Bunda barcha jarayonlarni batafsil yoritishga harakat qiling.**

O‘quvchilar berilgan havola orqali kirib, jarayonni tomosha qilishlari hamda olmali pirog tayyorlash retsepti va harakatlar ketma-ketligini batafsil yozib kelishlari lozim.

Bu jarayonda havoladan foydalanish imkoni bo‘lmagan o‘quvchilar oila a’zolaridan yordam so‘rashlari mumkin.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda ma’lumotlarni saralash, kerakli jumlalar bilan to‘ldirib, qayta matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.



MUSTAHKAMLASH

**Tengdoshingiz Aziza “Telegram”da internetdan foydalanish bilan bog‘liq maxsus darslarni joylashtirib borishni, shu orqali o‘z tengdoshlariga yordam berishni maqsad qilgan. Quyida u yozgan xabarnoma bilan tanishing.**

Bilasizmi, do‘stlar, bugun har birimiz zamon bilan hamnafas yashashimiz zarur. Bunda esa sotsial setlardan foydalanishning o‘ziga xos o‘rni bor. Sotsial set bu – maxsus programma asosida yaratilgan, informatsiya almashish imkonini beruvchi vosita. Hozirgi kunda uning turli xillari mavjud. Masalan, “Instagram”, “Telegram”, “Snapchat”, “Pinterest”. Sotsial setdan foydalanuvchi inson o‘zi uchun profil ochishi, uni nomlashi, o‘zi haqidagi ba’zi ma’lumotlarni kiritish orqali o‘z lichkasini yaratib olishi mumkin.

Menimcha, har bir yosh bugungi kunda o‘z vaqtining juda katta qismini aynan mana shunday setlarda o‘tkazib yuborsa kerak. Chunki sotsial setlar – o‘zaro obsheniya qilishning eng qulay usuli. Masalan, kimgadir qandaydir soobsheniya yoki informatsiyani jo‘natmoqchi bo‘lsangiz, uni sotsial set orqali bir zumda yetkazish mumkin. Ammo sotsial setlardan ham foydalanishning o‘ziga yarasha qoidalari mavjud. Bu haqida men sizga keyingi videolarimda ma’lumot bermoqchiman.

**Azizaning matnidan o‘zlashma so‘zlarni ajratib yozing.**

**Qaysi so‘zlarning o‘zbekcha tarjimasi borligini aniqlang, ushbu so‘zlar yordamida kichik lug‘at yarating. So‘zlarni almashtirib, matnni qayta o‘qing.**

**Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari ishtirokida gaplar tuzib yozing. Ularning ma’nolarida qanday o‘zgarish bo‘layotganini izohlang.**

| | | |
|---|---|---|
| o‘qib qo‘ymoq | o‘qiy ketmoq | o‘qib chiqmoq |
| o‘qib bermoq | o‘qib tashlamoq | o‘qib turmoq |

Namuna *Men yaqinda mashhur yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarini o‘qib chiqdim. (harakatning yakunlangani)*


**Quyida berilgan havola orqali olmali pirogning tayyorlanish retseptini yozib keling. Bunda barcha jarayonlarni batafsil yoritishga harakat qiling.**

141

# HADISLAR HIKMATI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** hadis ilmi, hadislarning hayotimizda tutgan o‘rni bilan tanishish; ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar, ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlash; matnni sharhlab yozishga oid nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

## 1-soat



HADISLAR HIKMATI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• hadis ilmi • hadislarning hayotimizda tutgan o‘rni • ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar • matnni sharhlash.

Imom Buxoriyning “Adab al-mufrad” nomli kitobida keltirilgan hadislarni o‘qing.

- Hadislardagi har bir so‘z, jumlaga e’tibor bering.
- Ulardagi farqni izohlang.
- Hadislar ma’nolariga ko‘ra bir-biridan qanday farq qilayotganini, farqlanishga sabab bo‘layotgan so‘z va jumlani muhokama qiling.

1. Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Salomni tarqating, salomat bo‘lasiz”, – dedilar.
2. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kichik kattaga, piyoda o‘tirganga, ozchilik ko‘pchilikka salom beradi”, – dedilar.
3. Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Otliq o‘tirganga, ozchilik ko‘pchilikka salom beradi”, – dedilar.
4. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Ulovdagi piyodaga, piyoda o‘tirganga, ozchilik ko‘pchilikka salom beradi”, – dedilar.
5. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Otliq piyodaga, piyoda turgan kishiga, ozchilik ko‘pchilikka salom beradi”, – dedilar.
6. Nabiy sollallohu alayhi vasallamning aytayotganlarini eshitdim: “Ulovdagi piyodaga salom bersin, piyoda o‘tirganga salom bersin, ozchilik ko‘pchilikka salom bersin. Kim salomga alik olsa, o‘ziga foyda. Kim alik olmasa, unga hech narsa yo‘q”.

1. Hadis nima?
2. Ayting-chi, bu hadislar bizga nimalarni o‘rgatadi?
3. Sizningcha, bu hadislarning qay biriga birinchi galda amal qilish kerak? Nima uchun?
4. Salom berishdan maqsad nima? Qaysi hadisda salomlashishning hikmati aks etgan?

142

### Dars jarayoni

### Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. O‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

*1. Hadislarni qayerlarda yoki kimlarning nutqida uchratgansiz?*

*2. Hadislar insonlar uchun nimaga kerak?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Imom Buxoriyning “Adab al-mufrad” nomli kitobida keltirilgan hadislarni o‘qing.**

Darslikda berilgan hadislar mazmun jihatidan bir-biriga juda yaqin. Biroq ularning shaklida, hajmida farq bor. O‘quvchi bir so‘zning farq qilishi hisobiga mazmun o‘zgarayotganini his qilishi kerak. Ya’ni hadisni tushunishda, umuman har bir gapni tushunishda kichik o‘zgarish ham mazmunga ta’sir qilishini anglashi lozim. Bunda o‘qituvchi “*2-hadis 3-hadisdan nimasi bilan farqlanyapti?*” kabi savollar berishi maqsadga muvofiq.

**1. Hadis nima?**

O‘quvchilar o‘zlarida mavjud bilimlar asosida hadisga imkon qadar ta’rif berishadi, o‘qituvchi esa ular aytgan fikrlarni to‘ldirib, hadis haqida to‘liqroq ma’lumot berishga tayyorlanib kelishi lozim.

**Hadis** – *payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, iqrorlari to‘g‘risidagi rivoyat. Islom dinida Qur’oni karimdan keyin ikkinchi manba hisoblanadi.*

**2. Ayting-chi, bu hadislar bizga nimalarni o‘rgatadi?**

Hadislarning ahamiyati haqida so‘ralgach, o‘qituvchi savolga yanada aniqroq javob olish uchun darslikda berilgan har bir hadisning ahamiyati haqida so‘rashi maqsadga muvofiq.

**3. Sizningcha, bu hadislarning qay biriga birinchi galda amal qilish kerak? Nima uchun?**

Olib borilgan tahlil asosida savolga javob beriladi. O‘quvchilar o‘z tanlovini izohlashga tayyorlanadilar.

**4. Salom berishdan maqsad nima? Qaysi hadisda salomlashishning hikmati aks etgan?**

Salom berish haqidagi hadisga alohida e’tibor qaratiladi. Uning mazmuni tahlil etilgach, bugungi kun bilan bog‘liq turli vaziyatlar haqida suhbat olib boriladi.

## Yozma nutq

**Hadislardan olgan bilimlaringizni tartib bilan yozing.**

O‘qiganlari asosida xulosalar chiqara olish, bir shaklda berilgan ma’lumotni ikkinchi shaklda ifodalash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

O‘quvchilar har bir hadisdan chiqarilgan xulosani qisqa shaklda tartib bilan yozadilar. Bunda xulosalarni imkon qadar o‘z so‘zlari bilan ifodalashiga e’tiborni qaratish kerak. Shuningdek, yozilgan gaplar xulosaviy xarakterga ega bo‘lishi kerakligini tavsiya etish lozim.

Ko‘chirma gap va uning imlosi bilan bog‘liq qoidaga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi. Sinf taxtasi yoki elektron doska orqali shunday gaplarga misollar keltiriladi. Ayrim tinish belgilari tushib qolgan gaplarda tushirilgan tinish belgilarini o‘z joyiga qo‘yishni so‘rash orqali berilgan qoidani mustahkamlab olish mumkin.

## Imlo qoidalari

Ko‘chirma gap va ularning imlosi bilan bog‘liq qoidalar mustahkamlanadi.

**Berilgan hadislardan muallif gapi va ko‘chirma gaplarni aniqlang.**

Darslikda berilgan gaplar tahlil qilinadi, ularda qo‘llangan tinish belgilariga e’tibor qaratiladi.

**Hadisni ko‘chirma gapning ikki xil shaklida ko‘chiring. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llang.**

O‘quvchilar yuqorida berilgan qoida yordamida ko‘chirma gapli qo‘shma gapning ikki xil shaklini hosil qiladilar.

## Uyga vazifa

## Tinglab tushunish va imlo qoidalari

**Hadisni tinglang. Uning mazmuni haqida o‘ylab ko‘ring. Hadisni ko‘chirma gapni yozish qoidalari asosida yozib oling.**

O‘quvchilar uylarida istalgan bir hadisni tinglashlari va uni matn shaklida yozib olishlari kerakligi tushuntiriladi. Hosil bo‘lgan matnlarda albatta ko‘chirma gaplar ishtirok etishi kerakligi yodga solinadi.

# 2-soat



BIR HADIS HIKMATI

**Hadis**

**Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Faqat ikki narsadan boshqada hasad yo‘q. (Birinchisi) Alloh bir odamga mol-u dunyo bersa-yu, u o‘shani to‘g‘ri yo‘lda sarf qilsa, (ikkinchisi) Alloh bir odamga ilm bersa-yu, u o‘sha ilmi ila hukm chiqarsa va ta’lim bersa”, – dedilar.**

**Sharh**

“Hasad” aslida boshqaga berilgan ne’matning **zavol**ini orzu qilishni anglatadi. Bu gunoh hisoblanadi. Gohida “hasad” so‘zi “havas qilish” ma’nosida, ya’ni boshqa kishiga 1 berilgan ne’matni ko‘rib, o‘zida ham bo‘lishini orzu qilish ma’nosida ham ishlatiladi. Bunga arablar “g‘ibta” deydilar. Ushbu hadisi sharifdagi “hasad” so‘zi ana o‘sha g‘ibta – havas qilish ma’nosida kelgan.

2 Demak, faqat ikki narsadagina birovga berilgan **ne’mat**ni ko‘rib turib, o‘ziga ham o‘shanday ne’mat berilishini orzu qilish mumkin.

3 “(Birinchisi) Alloh bir odamga mol-u dunyo bersa-yu, u o‘shani to‘g‘ri yo‘lda sarf qilsa”. Ya’ni “Menga ham Alloh shu odamga bergani kabi mol-u dunyo ato qilganida, men ham shu odamga o‘xshab, uni yaxshilik yo‘lida sarf qilar edim”, deb havas qilsa bo‘ladi.

4 “(Ikkinchisi) Alloh bir odamga ilm bersa-yu, u o‘sha ilmi ila hukm chiqarsa va ta’lim bersa”. O‘sha odamga ham boshqa musulmonlar havas qilsa bo‘ladi. Ilm bilan **hukm chiqarish** o‘sha ilm taqozo etgan narsaga o‘zi amal qilish va odamlarni ham shunga chaqirishdan iboratdir.

**Ushbu hadisdan olinadigan foydalar:**

**1.** Mol-dunyoni to‘g‘ri yo‘lda sarflashga **targ‘ib**.

**2.** Mol-dunyosi yo‘q kishilar ham, agar mol-u dunyosi bo‘lsa, yaxshilik yo‘lida sarflashni orzu qilishlariga targ‘ib.

**3.** Ilmga amal qilib, uni odamlarga o‘rgatishga amr.

**4.** Boshqalarni ham ilm olish, unga amal qilib, boshqalarga o‘rgatishga targ‘ib.

*Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Hadis va hayot” kitobidan olindi.*




144

## Dars jarayoni

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so‘ng o‘tgan darsda uyga berilgan vazifa so‘raladi. O‘quvchilar o‘z matnlarini taqdim etadilar. Yozma ishlarning mazmuni hamda ko‘chirma gaplar imlosi bilan bog‘liq o‘rinlarga alohida e’tibor qaratiladi. Bugungi darsning umumiy mazmuni haqida qisqa ma’lumot beriladi.

### Asosiy qism

## O‘qib tushunish

**Hadisni diqqat bilan o‘qing.**

Hadis va uning sharhi o‘qiladi. O‘qituvchi matn muallifini o‘quvchilarga tanishtirib o‘tishi maqsadga muvofiq.

**Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf** – yetuk alloma, mufassir. O‘z zamonasida islom olamining yirik namoyandasi, ulkan arbob, mustaqil O‘zbekistonning birinchi muftiysi, ko‘plab xalqaro ilmiy muassasalar, diniy tashkilotlarning a’zosi, o‘zbek tilli xalqlarning diniy rahnamosi bo‘lgan.

**1. Mazkur hadis nimasi bilan ahamiyatli, muhim?**

Bu hadisni tushunish mushkul. Agar uning sharhi bo‘lmasa, hatto kattalar ham uni tushuna olmagan bo‘lar edi. O‘quvchi ba’zan hadisni tushunish uchun olim odamning sharhi zarur ekanini anglashi lozim. Bu hadisning birinchi ahamiyatidir. Qolaversa, o‘quvchi *hasad* so‘zining boshqa ma’nosi bor ekanini ham bilib oldi. Hasadning yomon ekanini, u odamning zavoli ekanini anglaydi. Bu ham hadisning ahamiyati.

**2. Bu hadisga barcha amal qilsa, jamiyatimizda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi deb o‘ylaysiz?**

Hadisning mazmuni bugungi kun bilan bog‘lanadi. Insonlarning fe’l-atvorida uchraydigan holatlar haqida suhbat olib boriladi. Har kim o‘ziga nisbatan ushbu hadisning mazmunidan kelib chiqqan holda tanqidiy ko‘z bilan nazar tashlab ko‘rishi so‘raladi.

**3. Nima deb o‘ylaysiz: nega aynan shu ikki holatda “hasad” qilish mumkinligi aytilgan?**

Matn asosida javob beriladi.

**4. Hasad so‘zining qanday ma’nolari bor ekan?**

“Hasad” so‘zining ma’nosi tahlil qilinadi, hadis sharhidagi ushbu so‘zning talqinlariga e’tibor qaratiladi.

**5. Hadisdagi “u o‘sha ilmi ila hukm chiqarsa” jumlasini qanday tushundingiz? Sharhlab bering.**

Bu jumla *olim odam o‘zining ilmi, bilimi asosida yaxshi yashasa, hayotidagi turli vaziyatlarga shu ilm asosida yechim topsa* degan ma’noda qo‘llanmoqda.

**6. Matnda hasadga “boshqaga berilgan ne’matning zavolini orzu qilish” deya ta’rif berilgan. Siz buni qanday tushunasiz? Sharhlab bering.**

Ne’mat moddiy yoki nomoddiy bo‘lishi mumkin. Masalan, boylik, salomatlik, farzand, yaxshi kasb, ilm – Alloh bergan ne’matdir. “Boshqaga berilgan ne’matning zavolini orzu qilish” deganda mana shu birovga berilgan ne’matning yo‘q bo‘lib ketishini istash tushuniladi. Shu hasaddir. O‘quvchi bu jumlaning ayni shu mazmunini his qilishi lozim.

**Matn asosida berilgan testlarni yeching. Test kalitini tuzib, javoblarni daftarga belgilang.**

Test savollarini umumiy muhokamaga qo‘ygan holda yechish maqsadga muvofiq. Bu jarayon bahs-munozarali o‘tishi, o‘quvchi o‘zi belgilagan javobni asoslashga harakat qilishi lozim.

Berilgan test topshiriqlari bajariladi, aksariyat o‘quvchilar tomonidan noto‘g‘ri bajarilgan test topshiriqlari alohida tahlil qilinadi.

| 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|
| B | C | C | D |

***Izoh:***

1-test savolida o‘quvchi “Faqat ikki narsadan boshqada **hasad** yo‘q” jumlasidagi “hasad” so‘zini hadis sharhidan kelib chiqqan holda “havas” so‘zi bilan almashtirib tushunishi lozim. Shunda u javobni oson topib oladi.

## Leksikologiya

**Berilgan so‘zlarning izohi bilan tanishib, ular matnda qanday ma’noda kelayotganini aniqlang. So‘zlarning matndagi ma’nosi keltirilgan izohlarni ko‘chiring.**

Ko‘p ma’noli so‘z va uning ma’nolari ustida ishlash, so‘zning kontekstdagi ma’nosini farqlay olish zarur.

O‘qituvchi bir so‘z uchun bir nechta izoh keltirilganini aytadi. O‘quvchilar esa ushbu izohlardan qaysilari berilgan so‘zning aynan matndagi ma’nosini ifodalay olishini aniqlashi kerak. Ko‘p ma’noli so‘z haqidagi xulosalar chiqariladi.

*Rivoyat — avloddan avlodga o‘tib kelayotgan voqea va hodisalarni, inson faoliyatini ba’zan uydirmalar, ba’zan haqiqat vositasida tasvirlovchi og‘zaki hikoya.*

*Zavol — yo‘q bo‘lish, mahv bo‘lish, o‘lim.*

*Ne’mat — ezgu ish, yaxshi narsa.*

*Hukm chiqarmoq — umuman, biror ish, masala yuzasidan xulosa yasamoq.*

**Jadvalda berilgan ko‘p ma’noli so‘zlarning matndan tashqaridagi ma’nolari ishtirokida gaplar tuzib, yozing.**

So‘zning matn mazmuniga mos kelmaydigan ma’nolari asosida gaplar tuzib, yozish so‘raladi, shu orqali ko‘p ma’noli so‘zlar bilan bog‘liq bilimlar mustahkamlanadi.

### Uyga vazifa

**Matnning ushbu qismida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ma’nodoshlari bilan almashtirib, uni qayta ko‘chiring. Ma’nodosh so‘zlarning ahamiyati haqida xulosa chiqaring.**

Ma’nodosh so‘zlar va ularning qo‘llanishi bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

O‘qituvchi birinchi ajratib ko‘rsatilgan so‘z misolida topshiriqni bajarish tartibini tushuntiradi. Ma’nodosh so‘zlardan foydalanishga oid qoidalarni yodga soladi. Ya’ni har qanday ma’nodosh so‘zlar qatoridagi so‘z birining o‘rnida ikkinchisi qo‘llanib ketavermasligini misollar asosida tushuntiradi.

## 3-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

Darsning tashkiliy qismi o‘tkaziladi. Nutqiy mavzu yuzasidan hamda o‘tilgan darslar bilan bog‘liq bo‘lgan fikrlar tinglanadi.

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Matnni diqqat bilan o‘qing.**

Darslikda berilgan kichik matn diqqat bilan o‘qiladi, uning mazmuni yuzasidan suhbatlashiladi, shundan so‘ng darslikda berilgan matn bilan bog‘liq lingvistik mashqlar ustida ish olib boriladi.

### Morfologiya

**Matnning ajratib ko‘rsatilgan qismidan quyidagi turkumlarga kiruvchi so‘zlarni topib, ularning so‘roqlarini aniqlab, yozing.**

So‘z turkumlari, ularni so‘roq berish orqali aniqlash bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

Matnning ajratilgan qismiga e’tibor qaratiladi, har bir ustunga mos keladigan so‘zlar aniqlanadi va yoziladi.

Keyingi mashqlarda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari haqidagi bilimlar mustahkamlanadi.

**Berilgan matnlarni o‘zaro taqqoslang. Fe’llar ifodalagan ma’nolarga e’tibor bering. Ularni izohlang.**

Ikkala matn o‘zaro taqqoslanadi, unda fe’llarning qo‘llanish shakliga e’tibor qaratiladi. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasining sodda fe’ldan farqi haqida so‘raladi, ushbu fe’l qanday qo‘shimcha ma’noni ifodalayotgani tahlil qilinadi.

**Matnda ajratib ko‘rsatilgan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini sodda fe’llarga almashtiring. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.**

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi hamda sodda fe’l o‘zaro taqqoslanadi, ularning ma’nolari o‘rtasidagi farq izohlanadi. Gaplar tuzib yozishda imkon qadar nutqiy mavzudan chetga chiqmaslik tavsiya etiladi. Tinish belgilarining qo‘llanishi va gaplarning uslubiy tomonlariga alohida e’tibor qaratiladi.

**“Hadislar hikmati” mavzusi doirasida uchragan atoqli otlarni yozing. Ularning qaysi biri ism, qaysi biri taxallus ekanini ayting.**

Atoqli otlar, ularning turlari va imlosi bilan bog‘liq bilimlar mustahkamlanadi.

Darslikda berilgan matnga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi, kerakli so‘zlar aniqlanib, ikki ustunga ajratilgan holda daftarga ko‘chirib olinadi.

### Punktuatsiya

Ko‘chirma gap va uning ifodalanishi bilan bog‘liq bilimlar rivojlantiriladi.

**Matndan olingan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni ko‘chirma gap va muallif gapiga ajrating. Tinish belgilarining qo‘llanishiga e’tibor bergan holda ularning qoliplarini tuzing.**

Darslikda keltirilgan gaplar tahlil qilinadi. ko‘chirma gap va muallif gapini

o‘zaro farqlashda nimalarga e’tiborli bo‘lish kerakligi, tinish belgilarining qo‘llanishi haqidagi qoidalar yodga solinadi.


**Quyidagi qoliplar asosida ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarga misollar tuzib, yozing.**

O‘quvchilar berilgan qoliplarga mos keladigan gaplar tuzib, yozadilar. Topshiriqni bajarish jarayonida o‘qituvchi muallif gapini ifodalashda qanday birliklardan foydalanish mumkinligini tavsiya qiladi. O‘quvchilar bitta birlik (dedi)dan foydalanib qolmasliklari kerakligi aytiladi.

## Yozma nutq

**Taxallus insonga nimaga kerakligi haqidagi fikrlaringizni yozma ifodalang. “Adabiyot” darsligingizdagi shoir va yozuvchilarning ismlari va taxalluslarini yozib, ular nima uchun shunday taxallus tanlaganlarini sharhlashga harakat qiling.**

Atoqli otlar: taxallus bilan bog‘liq ma’lumotlar o‘rganiladi, taxallus va ism o‘rtasidagi farq haqida suhbat olib boriladi. Taxallusning vazifalari hamda taxallus va laqab o‘rtasidagi farqlar haqida ma’lumot beriladi.



“Hadislar hikmati” mavzusi doirasida uchragan atoqli otlarni yozing. Ularning qaysi biri ism, qaysi biri taxallus ekanini ayting.

Matndan olingan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni ko‘chirma gap va muallif gapiga ajrating. Tinish belgilarining qo‘llanishiga e’tibor bergan holda ularning qoliplarini yozing.

1. Bir qancha kun shu tarzda o‘tganidan keyin sheriklari undan: “Sen biz bilan birga darsga qatnashasan, lekin yozib olmaysan. Bu ishingning ma’nosi nima?” – deb so‘rashdi.
2. O‘n olti kundan so‘ng yosh Buxoriy ularga: “Juda gapni ko‘paytirib yubordingiz va mahkam turib oldingiz. Yozganlaringizni menga o‘qib beringlar-chi!” – dedi.
3. So‘ngra Buxoriy ularga qarata dedi: “Aying-chi, men darsga behuda qatnashayotgan va kunlarimni zoye qilayotgan ekanmanmi?!”

1) M: “K”.
2) M: “K”, – m.
3) “K”, – m.
4) “K, – m, – k”.

M: “K?”
M: “K?” – m.
“K?” – m.

M: “K!”
M: “K!” – m.
“K!” – m.

M: “K?!”

Quyidagi qoliplar asosida ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarga misollar tuzib, yozing.

M: “K!” | “K!” – m. | M: “K”, – m.

Taxallus insonga nimaga kerakligi haqidagi fikrlaringizni yozma ifodalang. “Adabiyot” darsligingizdagi shoir va yozuvchilarning ismlari va taxalluslarini yozib, ular nima uchun shunday taxallus tanlaganlarini sharhlashga harakat qiling.

Buyuk sahoba Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuning ilm haqida aytganlarini sharhlab matn tuzing.

Ali ibn Abu Tolib: “Ilm moldan yaxshidir, u seni muhofaza qiladi, molni esa sen qo‘riqlaysan. Ilm hokim, mol mahkumdir. Nafaqa qilish bilan mol kamaysa, ilm tarqatish bilan ziyoda bo‘ladi”, – deganlar.

O‘zingiz yozgan matn uchun 5 ta savol tuzib, yozing. Ularga berilgan javobning mukammalligi haqida o‘ylab ko‘ring.

Matnni tahrir qilishga ehtiyoj tug‘ilgan bo‘lsa, uni qayta yozing.

148

## 4-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

Bugungi darsning umumiy mazmuni haqida ma’lumot beriladi. O‘quvchilar ijodiy matn yaratish jarayoniga tayyorlanadilar.

### Asosiy qism

## Yozma nutq

**Buyuk sahoba Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuning ilm haqida aytganlarini sharhlab matn tuzing.**

Berilgan matn asosida o‘z fikrini izchil, dalillab yozish, bunda uslub va punktuatsiya qoidalariga rioya qilish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

Berilgan matn bilan tanishish so‘raladi. Sahobaning ilm haqidagi fikrlari tahlil qilinadi, bir necha savollarni berish orqali o‘quvchilar ijodiy matn yaratish jarayoniga tayyorlanadilar. O‘qituvchi mavzuning avvalida berilgan hadis va uning sharhini o‘quvchilarga eslatadi. So‘ng yoziladigan sharhda Ali ibn Abu Tolibdan kelgan hadisning mazmuni aks etishi kerakligini aytadi.

**O‘zingiz yozgan matn uchun 5 ta savol tuzib, yozing. Ularga berilgan javobning mukammalligi haqida o‘ylab ko‘ring.**

Har bir o‘quvchi o‘zi yozgan matn asosida savol tuzadi. Savollarning salohiyatidan kelib chiqqan holda matn mazmuniga baho berish mumkinligi aytiladi. Shuningdek, berilgan savollarga javob olish uchun matndagi ma’lumotlar qay darajada mukammal ekani haqida o‘ylab ko‘rish so‘raladi.

O‘qituvchi shunday mazmundagi matn uchun qanday savollar tuzish mumkinligini o‘quvchilarga yordam tariqasida tavsiya qilishi mumkin.

## Uyga vazifa

**Matnni tahrir qilishga ehtiyoj tug‘ilgan bo‘lsa, uni qayta yozing.**

Olib borilgan tahlil asosida matnni to‘ldirish bilan bog‘liq tavsiyalar aytiladi, ushbu tavsiyalar asosida matnni qayta yozib kelish vazifa sifatida beriladi.

## SAYYOHLARGA GIDLIK QILSAM-CHI?

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** grafik ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni o‘qiy olish, ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida berish, tasviriy matn yaratish, audiomaterialning umumiy mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish, bino, tarixiy obidalarni tasvirlashda qo‘llanuvchi til birliklari, ularni qo‘llash, yozma nutq orqali bino tasviriga bag‘ishlangan matnni yaratish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar ustida ishlash; bino tasviriga bag‘ishlangan matnni yaratish, audiomatnda berilgan muhim ma’lumotlarni eslab qolish, berilgan grafik rasmlar bilan ushbu ma’lumotlarni bog‘lay olishga oid nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash.

### 1-soat


SAYYOHLARGA GIDLIK QILSAM-CHI?

Bu mavzuda o'rganamiz

• O'zbekistonning tarixiy yodgorliklari, turistik salohiyati • ma'lumotlarni jadval ko'rinishida berish • tasviriy matn yaratish • grafik rasmlar bilan ma'lumotlarni bog'lay olish.

1. Qaysi davlatlar O'zbekistonga qo'shni hisoblanadi? Xaritadan ko'rsating.
2. O'zbekistonga yaqin, lekin qo'shni bo'lmagan davlatlar qaysi?
3. Xaritada ko'rsatilgan davlatlar haqida nimalarni bilasiz?



149

### Dars jarayoni

#### Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Ushbu mavzu doirasida quyidagi savollar asosida kirish suhbati olib boriladi.

*1. Qaysi davlatlar O‘zbekistonga qo‘shni hisoblanadi? Xaritadan ko‘rsating.*

*2. O‘zbekistonga yaqin, lekin qo‘shni bo‘lmagan davlatlar qaysi?*

*3. Xaritada ko‘rsatilgan davlatlar haqida nimalarni bilasiz?*

O‘quvchilar savollarga javob beradilar. Darslikdagi xaritani o‘qiy olish, unga oid ma’lumotlarni og‘zaki ifodalash, davlatlar va ular haqidagi muhim ma’lumotlarni aytish orqali o‘quvchilar ushbu mavzuga olib kiriladi.

#### Asosiy qism

##### Og‘zaki nutq

**Ta’tilda, dam olishda qayerlarga borganingizni eslang. Ularning ro‘yxatini tuzing. Qayerga borganingizda ko‘proq maza qilgansiz? Sizga yoqish darajasiga qarab 1 balldan 5 ballgacha baholang.**

O‘quvchilar nutqiy mavzu doirasida fikrlarini tartiblashni, ularni baholashni va ushbu jarayonga oid ma’lumotlarga nisbatan tanqidiy munosabatni ifodalashni o‘rganib oladilar, shuningdek, ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalash va ularni og‘zaki nutq orqali yetkazish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Berilgan topshiriqni bajarishdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga ta’til paytida qayerlarga borganlarini eslashni aytishi, ushbu joylarga borishdan maqsad nima ekani, u yerlarda o‘zini qanday his qilgani haqida bir necha savollarni berishi mumkin. Shundan so‘ng o‘quvchilar ro‘yxat tuzishni boshlaydilar. Topshiriq bajarib bo‘lingach, ayrim o‘quvchilar bilan ular tuzgan jadval asosida og‘zaki suhbat olib boriladi.

##### Yozma nutq

**Yana qayerlarga borishni orzu qilasiz? Nima maqsadda bormoqchisiz? Ularning ham ro‘yxatini tuzing.**

Berilgan topshiriq fikr ifodalash va ularni izohlashga oid yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Nutqiy mavzu doirasidagi til birliklaridan ham og‘zaki nutqda, ham yozma nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

O‘qituvchi ro‘yxatni shakllantirish jarayonida nimalarga e’tibor berish kerakligi, javob to‘liq bo‘lishi uchun unda nimalar ifodalanishi lozimligini hamda tirening qo‘llanish o‘rni va uning vazifasi bilan bog‘liq eslatmalarni berishi lozim.

**Yordamchi qoida:**

Biror so‘z, birikma, ibora yoki tushuncha izohlanayotganda izohlovchi qismdan oldin tire qo‘yiladi. Masalan, *Samarqand – Registon maydoniga bormoqchiman.* Bunda Samarqand izohlanayotgan tushuncha bo‘lib, u yerga nima uchun bormoqchi ekanimizni izohlaymiz. Shuning uchun Samarqand so‘zidan keyin tire qo‘yish o‘rinli bo‘ladi.

## Uyga vazifa

### Yozma nutq

**Ota-onangizdan bolalikdagi uylarini tasvirlab berishlarini so‘rang. Ularning aytib bergani asosida kichik matn yozing.**

Tasviriy matn yaratish, mavzuga oid til birliklaridan o‘rinli foydalanish, fikrni izchillik bilan ifodalash, bunda kerakli tinish belgilarini o‘z o‘rnida qo‘llashga oid yozma nutq bilan bog‘liq ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan ota-onasi yoshlikda qayerda yashagani, ushbu uyning qanday o‘ziga xos jihatlari borligi, ular o‘z bolaliklari haqida gapirganda qanday hissiyotlarni boshidan o‘tkazgani haqida ba’zi savollarni muhokama qiladi *(Yoshlikda yashagan uyingizni eslay olasizmi? U qanday ko‘rinishda edi? Qanday xonalari bo‘lgan? Hozirgi uylardan qanday farq qiladi? Bolalikda yashagan uyingiz haqida gapirayotganda o‘zingizni qanday his qilasiz? Nega shunday his qilishingizni tushuntirib bera olasizmi? kabi)*. Shu asosda rejalashtirilayotgan matnda qanday ma’lumotlarni yozish, qanday til birliklaridan foydalanish mumkinligi haqida tavsiyalar beradi.

## 2-soat


Charos ismli qizning nutqini tinglang. Yuqoridagi savollarga javob bering.

Charosning nutqidan quyidagilarni aniqlab yozing.

1. Qonun-qoidalar.
2. Ehtiyot choralari.
3. Diqqatga sazovor joylar.

Charosning nutqi asosida gidlar mehmonlarni kutib olganda nimalarni gapirib berishi muhimligi haqida munozara uyushtiring. Har bir aytgan fikringizni isbotlashga harakat qiling. Sizningcha, Charos yana nimalarni aytishi mumkin edi?

151

### Dars jarayoni

### Kirish

Berilgan savollar asosida suhbat olib boriladi.

*1. Sizningcha, gid kim? U nimalar bilan shug‘ullanadi?*

*2. Gidlik qilish uchun odamda qanday ko‘nikmalar bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?*

Suhbatning asosiy mazmuni gidlik kasbi, uning vazifasi nimalardan iborat ekaniga qaratiladi. O‘qituvchi ikkinchi savolning mazmunini “Gid bo‘lish uchun qanday sifatlarga ega bo‘lish kerak yoki nimalarni bajara olish kerak?” kabi o‘zgartirib berishi ham mumkin. Bundan tashqari, “gid” so‘zining yana qanday muqobillari borligi haqida so‘rash ham foydadan xoli bo‘lmaydi.

## Asosiy qism

### Tinglab tushunish

O‘qituvchi berilgan savollar bilan o‘quvchilarni tanishtiradi. Ularni audiomatnni tinglash jarayoniga tayyorlaydi. Matnni tinglab bo‘lgach, ushbu savollarga javob berish lozimligini aytib o‘tadi.

Audiomaterialning umumiy mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish, savollarni tushuna olish va javob berish, ochiq va yopiq ko‘rinishdagi axborotlarni anglay olish, ayrim ma’lumotlarning berilishidan ko‘zlangan maqsadni tushunish, og‘zaki nutq jarayonida maqsadga ko‘ra mantiqiy urg‘uni qo‘ya olish bilan bog‘liq ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

**Charos ismli qizning nutqini tinglang. Yuqoridagi savollarga javob bering.**

*Assalomu alaykum! Mening ismim Charos. Maftunkor va qadimiy Samarqand shahriga xush kelibsiz! Samarqandga sayohatingiz davomida men sizlarga yo‘lboshchilik qilaman. Mehmonxonaga 10 daqiqada yetib olamiz. Yo‘lga tushishdan oldin chamadon va buyumlaringiz yoningizda ekaniga ishonch hosil qilib olishingizni iltimos qilaman. Bundan tashqari Samarqand shahrida ko‘chalarda mast holda yurish va boshqalarga xalal berish taqiqlanishini eslatib qo‘ymoqchiman. Juda muhim bo‘lgan yana bir qoida: masjidlarga mast holda kirmang. Diniy ibodatlaringizni amalga oshirish uchun masjidlar, cherkovlar va sinagogalar mavjud.*

*Endi sizlarni ba’zi qoidalar va ehtiyot choralari bilan tanishtirmoqchiman. Birinchidan, keyingi 5 kun davomida Samarqand shahrida havo +30 darajadan yuqori bo‘ladi, shuning uchun yetarli miqdorda suyuqlik ichayotganingizni nazorat qiling, bundan tashqari, quyoshda kuyishdan saqlanish uchun maxsus kremlardan ham foydalanish to‘g‘ri bo‘ladi. Qora ko‘zoynaklarni ham doim o‘zingiz bilan olib yuring. Ikkinchidan, shahar bo‘ylab piyoda sayr qilayotganimizda shaxsiy narsalaringizga ko‘z-quloq bo‘ling.*

*Endi ruxsatingiz bilan Samarqandning diqqatga sazovor, sayyohlarni ko‘proq jalb etadigan joylari haqida ba’zi ma’lumotlarni yetkazaman. Samarqandning eng mashhur maydoni bo‘lmish Registonga albatta boring. Ushbu maydon Samarqandni butun dunyoga mashhur qilib turgan majmualardan hisoblanadi. Majmua Samarqand tarixida muhim siyosiy va ilmiy o‘rin egallagan. Ulug‘bek rasadxonasi ham sayyohlar e’tiborini ko‘p jalb qilishi bilan mashhur. Ushbu rasadxonada Mirzo Ulug‘bek samo ilmi bilan shug‘ullangan.*

*Bu majmualardan tashqari Shohi Zinda ansambli, Amir Temur maqbarasi, Hazrati Xizr maqbarasi, Hazrati Dovud g‘ori kabi ko‘plab diqqatga sazovor maskanlarni tavsiya qila olaman. Biz 5 kun davomida yuqorida sanalgan barcha maskanlarga sayohatlarni amalga oshiramiz.*

*Samarqandda esdalik buyumlarni yirik savdo markazlarimiz yoki Registon maydonidan 10 daqiqalik masofada joylashgan Siyob bozoridan xarid qilishingiz mumkin. Siyob bozoriga Registon maydonidan minibuslar ham qatnaydi.*

*O‘ylaymanki, biz bilan qilgan sayohatingiz butun umr yodingizda qoladi. Yana bir bor Samarqand shahriga xush kelibsiz! Maroqli hordiq tilayman.*

**Savollarni diqqat bilan o‘qing.**

**1. Charos kim?**

O‘quvchilar o‘tkazilgan suhbat asosida javob beradilar. O‘qituvchi shu o‘rinda suhbatda qatnashmagan ayrim o‘quvchilarning fikrlarini alohida tinglashi mumkin. Shu orqali ularni darsga jalb qilish tavsiya etiladi. **Javob:** *gid, yo‘lboshchi.*

**2. Sayyohlar qaysi shaharga tashrif buyurishgan?**

Ushbu savol ham matnda ochiq holda ifodalangan axborotni anglash bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonda ham o‘qituvchi darsda faol bo‘lmagan o‘quvchilarni javob berishga undashi kerak. **Javob:** *Samarqand.*

**3. Matnga ko‘ra, sayyohlar qayerdan qayerga yo‘l olishgan?**

O‘quvchilar matn doirasida o‘zlari anglagan ma’lumotlar asosida javob beradi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining javobini tinglab, o‘z fikrini izohlab berishini so‘rashi mumkin. Har bir o‘quvchining fikri tinglangach, umumiy xulosa chiqariladi va ushbu xulosaga matndagi qaysi ma’lumotlar asos bo‘lgani aytib o‘tiladi. **Javob:** *mehmonxonaga.*

**4. Charos nima uchun ob-havo haqida ma’lumot bermoqda?**

Muallifning maqsadi hamda gidlik kasbining vazifalaridan kelib chiqqan holda savolga javob beriladi. Shunday vaziyatda yo‘lovchilarga yana nimalarni tavsiya etish mumkinligi haqida so‘raladi, o‘quvchilarning bergan javoblari qisqa muhokama asosida izohlanadi. **Javob:** *havoning issiq bo‘lishidan ogohlantirish.*

**5. Samarqandning diqqatga sazovor joylaridan qayerlar tilga olindi?**

O‘quvchilar matnda berilgan ma’lumotlarni qay darajada eslab qolganliklari hamda ularni qayta ifodalab berishlari sinovdan o‘tkaziladi. O‘qituvchi mana shunday o‘rinlarda matnda berilgan ma’lumotlarni qayd etib borishning afzalligi va buni qay tartibda amalga oshirish qulayligi haqida tavsiyalar berib o‘tishi kerak. **Javob:** *Registon maydoni, Ulug‘bek rasadxonasi, Shohi Zinda ansambli, Hazrati Xizr maqbarasi, Hazrati Dovud g‘ori, Siyob bozori, Amir Temur maqbarasi.*

**6. Sayyohlar necha kunga kelishgan?**

Savol ochiq bo‘lmagan holatdagi ma’lumotlarni anglash bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilar savolga javob berish jarayonida o‘z javoblarini izohlaydilar, matndagi qaysi ma’lumotlar bunday xulosaga kelishiga asos bo‘lganini tushuntirib beradilar. **Javob:** *5 kunga.*

**7. Siyob bozoridan nimalar xarid qilish mumkin deb o‘ylaysiz?**

O‘quvchilar savolga javob berar ekanlar, tarixiy shaharlarda, umuman olganda sayohat davomida nimalarni xarid qilish mumkinligi haqida suhbat olib boradilar. O‘qituvchi ayrim xarid qilish mumkin bo‘lmagan (masalan, ho‘l meva, o‘z sifatini tezda yo‘qotadigan buyumlar) narsalarni taklif qilishi, ularni xarid qilishga nimalar to‘siq bo‘lishi haqida so‘rashi mumkin. **Javob:** *do‘ppi, taqinchoqlar, suratlar, mato, hunarmandchilik buyumlari kabi esdalik sifatida olib ketish mumkin bo‘lgan narsalar.*

**Charosning nutqidan quyidagilarni aniqlab yozing.**

Audiomatnda berilgan ma’lumotlarni yozma ko‘rinishda ifodalay olish, matndagi ma’lumotlarni tartib bilan ifodalash, ularni kichik mavzularga ajrata olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga matndagi ma’lumotlarni tartib bilan, bir kichik mavzu doirasida o‘zaro birlashadigan ma’lumotlarni alohida ifodalash kerakligini tushuntiradi. O‘z fikrlarini ifodalashda qanday shakldan foydalanish mumkinligi haqida tavsiyalar beradi. Qonun-qoidalar, ehtiyot choralarini yozish hamda diqqatga sazovor joylarni yozma ifodalashda qanday qoidalarga rioya qilish kerakligini eslatadi. Agar lozim deb topilsa, o‘qituvchi audiomatnni qayta eshittirishi mumkin.

## Og‘zaki nutq

**Charosning nutqi asosida gidlar mehmonlarni kutib olganda nimalarni gapirib berishi muhimligi haqida munozara uyushtiring. Har bir aytgan fikringizni isbotlashga harakat qiling. Sizningcha, Charos yana nimalarni aytishi mumkin edi?**

Mavzu yuzasidan fikrni mazmun ketma-ketligini rejalashtira olgan holda izchil va tushunarli tarzda ifodalay olish, mavzu muhokamasida o‘zining shaxsiy qarashlarini himoya qila olish bilan bog‘liq og‘zaki nutq ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga navbat bilan fikr ifodalash, so‘z tanlashda nimalarga e’tibor berishni, aytilgan fikrlar tavsiya xarakteriga ega ekanligini tushuntiriladi, o‘quvchilar nutqini kuzatib, ularga munosabat bildiradi.

**Yozma nutq**

**Uyga vazifa**

**Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent shaharlaridan birini tanlang. Daftaringizga quyidagi jadvalni chizib, so‘ralgan ma’lumotlarni yozing. Uydagi kattalardan yordam olsangiz bo‘ladi, ular sizga internetdan ma’lumot topishda yordam berishlari mumkin.**

Nutqiy mavzu doirasidagi ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalay olish, muhim ma’lumotlarni nomuhimlaridan ajrata olish, tasviriy matn yozish jarayoniga tayyorlanish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

O‘qituvchi berilgan ma’lumotlarni qayerdan olish mumkinligi (masalan, internet nashrlari, ensiklopedik kitoblar) haqida, ularni ifodalashda qanday til birliklaridan foydalanish, imlo qoidalari (masalan, joy nomlari, shaxs otlarining bosh harflar bilan boshlanishi) bilan bog‘liq bo‘lgan eslatmalarni berib o‘tishi kerak.

**3-soat**

**Dars jarayoni**

**Kirish**

Berilgan savollar asosida kirish suhbati tashkillashtiriladi.

*1. Biror bino, tarixiy obida haqida kimgadir ma’lumot berishingizga to‘g‘ri kelganmi? Bu qanday bo‘lgan?*

*2. Biror binoni tavsiflash qayerlarda kerak bo‘lishi mumkin?*

Ushbu suhbatning mazmuni bino, tarixiy obidalarni tasvirlashda qo‘llanuvchi til birliklari bilan tanishtirish, ularni qo‘llash jarayoniga oid nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi.

O‘quvchilarning fikrlari tinglanadi, ushbu jarayonda qo‘llanayotgan til birliklariga alohida e’tibor beriladi. O‘qituvchi shunday mazmundagi suhbatni qayerlarda tashkillashtirish mumkinligi, bino yoki tarixiy obidani tasvirlashda uning qaysi jihatlariga to‘xtalish muhimligi haqida so‘raydi. Agar o‘quvchilar bunga qiynalsalar, istalgan bir bino tasvirini berib, “Uni qanday tasvirlagan bo‘lar edingiz?” deya murojaat etishi tavsiya etiladi.

**Asosiy qism**

**Topshiriq**

**Siz doimo o‘qib boradigan jurnalda dunyoning eng chiroyli binolari haqida maqola e’lon qilindi. Siz ham o‘zingiz chiroyli deb bilgan bino haqida maqola yozib, jurnalga yuborishni maqsad qildingiz. Maqolada nimalarni yozgan bo‘lar edingiz?**

Yozma nutq orqali bino tasviriga bag‘ishlangan matnni yaratish, uning mazmuni, qismlari, bino bilan bog‘liq qanday muhim ma’lumotlar bo‘lishi kerakligi haqida ma’lumot beriladi va tasviriy matn yaratish jarayoniga olib kiriladi.

Ushbu topshiriqda o‘quvchilar binoni tasvirlash uchun qanday ma’lumotlar kerak bo‘lishini taxmin qiladilar, o‘z taxminlarini asoslashga urinadilar.

**O‘qib tushunish**

**Maqolani o‘qing. Xatboshilarni quyidagilar bilan moslashtiring.**

Maqolani o‘qish jarayoniga kirishishdan oldin o‘quvchilar bilan kichik suhbat tashkillashtirish mumkin. Maqola matni nima haqida bo‘lishi mumkinligi haqida so‘raladi. Matnning sarlavhasiga e’tibor qaratiladi. Ushbu nom bilan bog‘liq qanday ma’lumotlarni bilishlari haqida so‘raladi.

Berilgan topshiriqning asosiy maqsadi matn va uning tarkibiy qismlarini ajratish, ularning mazmuniga e’tibor qaratish va ularni nomlash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlashdir.

Matnni o‘qish jarayoniga kirishiladi. Matn bir necha marta o‘qib eshittirilishi yoki har bir o‘quvchi ichda o‘qib olishi uchun muayyan vaqt berilishi mumkin. Shundan so‘ng o‘quvchilar xatboshilarni berilgan nomlar bilan moslashtirish topshirig‘ini bajaradilar. O‘qituvchi o‘quvchilarning ishlarini o‘zaro taqqoslash imkoniyatini berishi hamda tanlangan nomlarga izoh so‘rashi tavsiya etiladi.

A) tashqi ko‘rinish tavsifi – uchinchi xatboshi;

B) nomi, joylashuvi hamda o‘ziga xosliklari, alohida xususiyatlari – birinchi xatboshi;

D) tavsiya – beshinchi xatboshi;

E) ichki ko‘rinish tavsifi – to‘rtinchi xatboshi;

F) tarixiy ma’lumotlar – ikkinchi xatboshi.

### O‘qib tushunish

**Matnni yana bir marta o‘qing hamda ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini belgilang.**

Matnda ochiq va yopiq shaklda berilgan ma’lumotlarni aniqlash, so‘ralayotgan ma’lumotga oid qidiruvni amalga oshirish bilan bog‘liq o‘qib tushunishga doir nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

O‘quvchilar berilgan ma’lumotlarni o‘qiydilar, ushbu ma’lumot matnda qanday aks etganiga e’tibor qaratadilar. To‘g‘ri deb topilgan ma’lumotlarni yozib, noto‘g‘ri deb topilgan ma’lumotlarni izohlaydilar. Nima uchun shunday xulosaga kelganlarini tushuntirib berishlarini so‘rash mumkin.

1. To‘g‘ri (Saroy qurilishi 1459-yilda boshlanib, 1465-yilda tugatilgan).

2. Noto‘g‘ri (Ba’zi xosxonalar o‘z holatini to‘liq saqlab qolgan).

3. To‘g‘ri (Bu yerdan Bosfor bo‘g‘ozi hamda Marmara dengizi go‘zalligi yaqqol namoyon bo‘ladi).

4. To‘g‘ri (To‘rtta asosiy hovlilardan birida dunyoning turli burchaklaridan noyob gullar va daraxtlar ekilgan bog‘ bor).

5. Noto‘g‘ri (Saroy ichidagi muzeyda sultonlar kiygan liboslar, shuningdek, Xitoy va Yaponiyadan keltirilgan kumush, billur va chinni idishlar kabi bebaho buyumlar kolleksiyasi ko‘rgazmaga qo‘yilgan).

6. To‘g‘ri (Dunyoda buyuk saroylar ko‘p. Ularning qaysi biri eng chiroyli, eng jozibador manzaraga ega? Ko‘pchilik bu savolga Turkiyaning Istanbul shahrida, qoya tepasida joylashgan To‘pqopi saroyi deb javob beradi.)

Tasviriy matn yaratish va uning tarkibiy qismlariga oid qoida yuqorida berilgan matn yordamida tushuntiriladi. Aynan tarixiy obida haqidagi matnlarni yaratishda qaysi jihatlarga alohida to‘xtalish kerakligiga e’tibor qaratiladi.

### Uyga vazifa

### Leksikologiya

**So‘zlarni mos ustunga yozing.**

O‘quvchilar nutqiy mavzu doirasidagi til birliklari bilan tanishtiriladi, ularni o‘z o‘rnida qo‘llash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar ustida ishlanadi.

O‘quvchilarga berilgan so‘zlar bilan tanishgach, ularni ikki ustunga ajratib yozish kerakligi tushuntiriladi. Bunda ular ifodalayotgan ma’noga alohida e’tibor qaratish va o‘ziga tegishli bo‘lgan ustunga joylashtirish muhim sanaladi.

## 4-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

Berilgan savollar asosida suhbat tashkillashtiriladi.

*1. Binolar tavsifini qayerlarda uchratish mumkin?*

*2. Sizningcha, sayyohlik agentliklari nega gidlarni ishga oladi?*

Ushbu suhbatning asosiy mazmuni binolarni tavsiflash bilan bog‘liq og‘zaki va yozma nutqni qayerda uchratish mumkinligini yodga solish, bu jarayonning qanday kechishi, undan ko‘zlangan asosiy maqsadni va ushbu nutq bilan bog‘liq til birliklari haqidagi ma’lumotlarni eslashdir.

### Asosiy qism

### Nutq uslublari

**Binolarning tavsifi turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Quyidagi parchalarni o‘qing va qaysi turga oid ekanini ayting.**

Berilgan parchalar asosida ushbu tasvirning qanday maqsadda yaratilganini aniqlash, ushbu maqsadni yuzaga chiqarayotgan vositalarni ajratish, ularning qo‘llanishiga e’tiborni qaratish bilan bog‘liq ko‘nikmalar shakllantiriladi.

O‘quvchilar matn parchalari bilan tanishtiriladi, matn parchalari qanday maqsadda

yaratilgani muhokama qilinadi. O‘quvchilarga ushbu maqsadni yuzaga chiqarayotgan vositalarni ajratish hamda matndagi ayrim so‘zlarning ma’nolarini izohlash topshirig‘ini berish mumkin. **Javob:** *Sarguzasht hikoya – A; orzudagi uyning tavsifi – B; do‘stga maktub – C.*

### Yozma nutq

**Charos Samarqandga kelgan sayyohlarga yo‘lboshchilik qilayotganidan xabaringiz bor. U ertaga Ulug‘bek rasadxonasini tanishtirishi kerak. Guruhlarga bo‘lining va Charos foydalanishi uchun matn tayyorlang.**

Ushbu topshiriqni bajarishdan oldin o‘quvchilar bilan darslikda berilgan rasmni muhokama qilish tavsiya etiladi. Unda tasvirlangan manzara hamda odamlarning kayfiyati, maqsadlari, qiziqishlari haqida suhbatlashish mumkin.

Berilgan topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilar nutqiy mavzu doirasida o‘rganganlari asosida bino tasviriga bag‘ishlangan matn yaratadilar.

O‘qituvchi matnni yaratishda qanday ko‘rsatmalarga rioya qilish kerakligini eslatadi, yuqoridagi qaysi mashq va topshiriqlardan ushbu matnni yaratishda foydalanish mumkinligini hamda jadvaldagi bino haqida berilgan eng muhim ma’lumotlardan foydalanish zarurligini aytib o‘tadi. O‘quvchilarning yozma nutqini kuzatadi, jarayon davomida ularga qo‘shimcha tavsiyalar berib boradi.

### Tinglab tushunish

**Qo‘shimcha ma’lumot uchun “Ulug‘bek rasadxonasi” audiomatnini tinglang.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning tinglab tushunish, matndagi muhim ma’lumotlarni eslab qolish, berilgan grafik rasmlar bilan ma’lumotlarni bog‘lay olishga oid nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

*Islomdagi eng avvalgi astronomik asarlar “Zij” deb atalib, ular asosan jadvallardan iborat bo‘lgan. Movarounnahrda mog‘ul istilosidan keyin birorta "Zij" yozilmagan edi. Ana shu sabablarga ko‘ra Ulug‘bek eng avvalo astronomik izlanishlarni yo‘lga qo‘yishi, buning uchun rasadxona barpo etishi kerak edi. Bu haqida Abu Tohirxo‘ja shunday xabar qiladi: “Madrasaga asos solinganidan 4 yil keyin Mirzo Ulug‘bek Qozizoda Rumiy, Mavlono G‘iyosiddin Jamshid va Mavlono Muiniddin Koshoniylar bilan maslahatlashib, Ko‘hak tepaligida, Obi Rahmat arig‘ining bo‘yida rasadxona binosini qurdiradi. Uning atrofida esa baland hujralar barpo etadi. Rasadxona qurilishi 1424-yildan 1429-yilgacha davom etadi. Mazkur rasadxona ishga tushirilganda uning bosh teleskopining aniqlik darajasi atigi bir necha yoy sekundigacha borib, to optik teleskoplar ixtiro qilingan asrga qadar uning samaralari o‘rta asr astronomlari uchun astronomik kuzatishlarda erishilgan yuqori natija bo‘lib xizmat qildi.*

Avval audiomatn eshittiriladi, o‘quvchilarga audiomatnning muhim o‘rinlarini qayd etish orqali ularni eslab qolish kerakligi tushuntiriladi. Berilgan rasmlar yordamida binoning oldingi va hozirgi ko‘rinishlari o‘zaro taqqoslanadi. Audiomatndagi ma’lumotlar hamda rasmlar asosida suhbat olib boriladi.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq

**Orzungizdagi uyni tavsiflab matn yozing.**

Nutqiy mavzu doirasida yozma ish bajariladi. Bunda o‘quvchilarning o‘rganilgan nutqiy mavzu doirasidagi bilimlari, nutqiy ko‘nikmalari sinovdan o‘tkaziladi va mustahkamlanadi.

O‘qituvchi tasviriy matn yozish bilan bog‘liq tavsiyalarni beradi. Unda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklarini eslatadi. Tasviriy matnni yaratishda qanday qoidalarga rioya qilish kerakligini aytib o‘tadi. Buning uchun namuna sifatida bir o‘quvchi bilan suhbat tashkillashtirish, uning nutqini kuzatish va kerakli tuzatishlarni kiritish orqali ayrim tavsiyalarni berish mumkin.

# PESHTOQDAGI BITIKLAR

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** reklama qoidalari, unda qo‘llanadigan til birliklari bilan tanishtirish, ularni qo‘llashga oid tavsiyalarni berish, nomlanishi va imlosida xatolari mavjud bo‘lgan reklama bannerlari, oshxona va korxona nomlarini muhokama qilish hamda davlat tili va unga bo‘lgan munosabat masalasida ijodiy matn yaratishga o‘rgatish; berilgan mavzuda reklama yozish, unda mavzuga mos keladigan til birliklaridan foydalana olish qoidalariga rioya qilish, e’lon matni va ko‘rinishiga tanqidiy, ijodiy yondashish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

## 1-soat


PESHTOQDAGI BITIKLAR

Bu mavzuda o‘rganamiz

• ko‘cha-ko‘yda xabar, ma’lumot, reklama sifatida berilgan lavhalar va ularning imlosiga doir bilimlar • davlat tiliga hurmat • reklamaga oid til birliklari • e’lon matnini yaratish.

Berilgan reklamalar matnidagi xatolarni toping.

1 G'Sh SOTL ADI

2 REMONT TILVIZR KONPYUTER XIZMATI BARCHA TURDAGI ELEKTR QURILMALARINI REMONT QILAMIZ

3 KRIDIT BITAVOY TEXNIKA

4 BO'T KAFRMAS ASTANOVKA BO'TIA OVQATLANMIDI

Rasmlarni quyidagi guruhlarga ajrating.

| Qanday aytilsa, shunday yozib qo‘yilgan | Lotin yozuvida ruscha so‘z yozilgan | Sheva so‘zlari bilan yozilgan |
|---|---|---|
| | | |

158

### Dars jarayoni

### Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Nutqiy mavzuga izoh beriladi. Ya’ni o‘qituvchi “peshtoq” va “bitik” so‘zlarini izohlaydi, shundan so‘ng ushbu mavzular doirasida suhbat olib boriladi.

Suhbatning asosiy maqsadi o‘quvchini dars jarayoniga olib kirish, nutqiy mavzu doirasidagi tasavvurlarini va ushbu mavzu bilan bog‘liq jarayonlarga o‘quvchilarning munosabatlarini aniqlashtirishga qaratiladi. O‘qituvchi shu maqsadga xizmat qiluvchi qo‘shimcha savollar bilan murojaat etishi maqsadga muvofiq.

### Asosiy qism

### Og‘zaki nutq

**Berilgan reklamalar matnidagi xatolarni toping.**

Nutqiy mavzu doirasida jamiyatimizda mavjud bo‘lgan muammolar, reklama bannerlaridagi xatolikni aniqlash, buning sabablari va unga e’tiborsiz bo‘lmaslik kerakligi haqida suhbat olib boriladi, shu orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqi rivojlantiriladi.

O‘quvchilarning e’tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi. Unda nimalar tasvirlangani haqida so‘raladi. Qanday xatoliklar borligi, ularni shu holatda qoldirsa, nimalar bo‘lishi mumkinligi haqida suhbat tashkillashtiriladi. Yana shunday holatlarga qayerlarda duch kelganliklari to‘g‘risida gapirib berishlari mumkin. O‘qituvchi imkon qadar har bir rasmga alohida to‘xtalishi, unda tasvirlangan vaziyatga nisbatan o‘quvchilarning munosabatini aniqlashtirishi juda muhim.

### Imlo qoidalari

**Rasmlarni quyidagi guruhlarga ajrating.**

Maqsad – o‘quvchilarning yozma savodxonlikka oid bilimlarini mustahkamlash, bu jarayonda yo‘l qo‘yiladigan xatolarning kelib chiqish sabablariga e’tiborni qaratish, savodxonlik borasidagi ayrim xulosalarni chiqarishga ko‘maklashish.

Rasmlarda berilgan holatlarga sabab bo‘lgan omillar alohida-alohida sanaladi, har

bir vaziyat tahlil etilgach, nima uchun shunday xatolik ro‘y bergani aniqlanadi. Tegishli xulosalar chiqariladi. Yana qanday so‘zlarning yozilishida shunday xatoliklar ro‘y berishi mumkinligi, bunday e’tiborsizlikning oldini olish kerakligi haqida suhbat tashkillashtiriladi.

**Javob:**

| *Qanday aytilsa, shunday yozib qo‘yilgan* | *Lotin yozuvida ruscha so‘z yozilgan* | *Sheva so‘zlari bilan yozilgan* |
|---|---|---|
| *1, 2, 3, 4* | *2, 3, 4* | *4* |

## Ijodiy ish

**Guruhlarga bo‘lining. Quyidagilardan birini tanlab, unga mos reklama bannerini tayyorlang.**

O‘quvchilarda berilgan mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini turli shakllar, yordamchi vositalarni qo‘llagan holda ijodiy yetkazib bera olish, guruh bilan ishlash, boshqalarning o‘rinli fikrlarini inobatga olish, ularga nisbatan munosabat bildirish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsad qilingan.

O‘quvchilar berilgan mavzulardan birini tanlab shu asosda o‘z bannerlarini yaratish topshirig‘ini bajaradilar. Ushbu topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilarni imkon qadar bir soat oldingi darsda ogohlantirish lozim. Yoki o‘qituvchi ushbu ijodiy topshiriqni bajarish uchun oldindan tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lishi va sinfda topshiriqni bajarish uchun kerakli sharoitni yaratib berishi kerak. O‘quvchilarning guruh bo‘lib ishlash jarayonlari kuzatiladi, qanday vositalardan foydalanayotgani, bir-birlariga nisbatan munosabat bildirish bilan bog‘liq jarayonlarga o‘qituvchi o‘z fikrini aytishi, ularni to‘g‘ri yo‘naltirib turishi juda muhim.

## Og‘zaki nutq

**Tayyorlagan banneringizni taqdimot qiling.**

Adabiy talaffuz me’yorlari asosida nutqqa mos keluvchi iqtiboslar tanlagan holda mazmunli, ta’sirchan va ravon nutq orqali taqdimot qilish, guruh sifatida faoliyat yuritish, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni shakllantirish, savodxonlikni oshirish maqsad qilingan.

Har bir guruh uchun muayyan vaqt beriladi, o‘qituvchi taqdimot qilish shartlarini oldindan belgilab berishi, baholashda aynan nimalarga alohida e’tibor qaratish haqida o‘quvchilarni ogohlantirishi lozim. Bundan o‘quvchilarning og‘zaki nutqi, bannerlari uchun tanlagan rasmlar, keltirilgan iqtiboslar va so‘zlarning mavzu bilan qanchalik bog‘langani, kishining e’tiborini qay darajada torta olishi va xatoliklarga yo‘l qo‘yilmagani muhim hisoblanadi.

**Savollarga javob bering.**

Maqsad – o‘tkazilgan dars bilan bog‘liq xulosalarni aniqlashtirish, savodxonlikning ijtimoiy ahamiyati, savodxon shaxsning qanday yutuqlari bo‘lishi mumkinligi haqidagi fikrlar bilan tanishish, nutqiy mavzuning maqsadiga mos keluvchi o‘zbek xalq maqollari tahlilini olib borish, undan og‘zaki nutqda foydalanishga o‘rgatish.

Suhbat davomida o‘qituvchi imkon qadar o‘quvchilarning fikrlarini rivojlantirishi, maqsaddan uzoqlashmaslik uchun yo‘naltiruvchi savollar bilan murojaat etib borishi kerak.

**1. Reklama banneri nima uchun kerak?**

Reklama banneri va uning nima uchun kerakligi haqida so‘raladi, shu asosda uning inson hayotidagi o‘rni va unga qo‘yiladigan talablar aniqlashtiriladi. Ya’ni agar biror shaxs reklama bannerida o‘z mahsuloti yoki xizmatlarini reklama qilmoqchi bo‘lsa, bunda u qanday talablarga rioya etishi kerakligi haqida suhbat tashkillashtiriladi.

**2. Reklama banneridagi imloviy xatolar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?**

Reklama bannerining ijtimoiy hayotdagi o‘rni va undagi xatolarning qanday oqibatlari borligi haqida so‘raladi. O‘quvchilardan o‘zlari yashaydigan hududda shunday xatoliklar mavjud bannerlarni uchratgan, ulardagi xatolarga nisbatan qanday munosabat shakllangani haqida so‘raladi. Shunday vaziyatlar haqida suhbat olib boriladi.

**3. “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz” maqolini tahlil qiling.**

Avval ushbu maqolning mazmuni izohlanadi. Shundan so‘ng maqolning mazmuni va reklama bannerlaridagi xatoliklar bilan bog‘liq vaziyatlar o‘zaro bog‘lanadi. Mavzu yuzasidan kerakli xulosalar chiqariladi.

### Uyga vazifa

### Imlo qoidalari

**Ko‘chada, televideniyeda, avtobusda beriladigan yozuvlarga diqqat qiling. Qanday xatolarni uchratgansiz? To‘g‘risi qanday? Shu haqida ma’lumot tayyorlang.**

Nutqiy mavzu yuzasidan tahliliy ma’lumot tayyorlash, o‘z fikrlarini dalillash, ularni izohlash va tavsiyalar berish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar ustida ishlanadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga tahliliy ma’lumotni tayyorlash, unda o‘zlari uchratgan holatlarni qanday ifodalash, o‘z munosabatini qanday yetkazish mumkinligi haqida tavsiyalar berishi kerak.

## 2-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

O‘quvchilarga o‘tilgan mavzu bilan bog‘liq savollarni berish tavsiya etiladi. Ularning reklama bannerlarini tayyorlashda nimalarga e’tiborli bo‘lish kerakligi bilan bog‘liq xulosalari tinglanadi. Bugungi darsning umumiy mazmuni haqida ma’lumot beriladi.

### Asosiy qism

### Og‘zaki nutq

**Quyidagi birliklar nimani reklama qilishda ishlatilishi mumkinligi haqida bahs yuriting. O‘z qarashingizni asoslashga harakat qiling.**

Muayyan vaziyatga mos keluvchi til birliklarini tanlash, ushbu birlik orqali aniq bir maqsadni yuzaga chiqarish, reklama uchun so‘z tanlash va uni qo‘llashda nimalarga alohida ahamiyat berish lozimligi bilan bog‘liq bilimlar bilan tanishiladi.

O‘quvchilar berilgan rasmlar va birliklarni o‘zaro bog‘laydi, ular qaysi jihatdan o‘zaro bog‘lanishi mumkinligi haqidagi fikrlarini aytadi. Yana qanday birliklardan foydalanish mumkinligi, nima uchun aynan ushbu tanlovni amalga oshirganligi haqida so‘raladi.

### O‘qib tushunish

**Reklama tarixi haqidagi matnni o‘qing. Savollarga javob bering.**

O‘quvchilarni nutqiy mavzu doirasidagi matn bilan tanishtirish, matn mazmunini tahlil qilish, o‘qib tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Berilgan matnni bir necha marta yoki har bir o‘quvchi ichda o‘qib chiqishi uchun vaqt beriladi. Shundan so‘ng matn ichida va matndan so‘ng berilgan savol va topshiriq ustida ish olib boriladi.

Eng avvalo matndan so‘ng berilgan savollarga e’tibor qaratiladi.

**1. Qoraytirib qo‘yilgan gapda muallif nima demoqchi?**

O‘quvchilar matnning aynan shu qismiga qayta murojaat etadilar. Uning mazmuni tahlil qilinadi va muallifning maqsadi aniqlashtiriladi. O‘quvchilar bergan javoblar mazmuni reklamaning maqsadi hech qachon o‘zgarmasligi, ammo uning ifoda shakliga vaqt, taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar ta’sir qilishi mumkinligi haqida bo‘lishi kerak. O‘qituvchi bu vaziyatda berilgan reklama matnini shu mazmundagi bugungi kunga oid reklama matni bilan taqqoslash imkoniyatini berishi lozim. Ulardagi ifoda shakli bilan bog‘liq farqlarni aniqlashtirish, reklama qilishning qanday usullari borligi haqida suhbat tashkillashtirishi kerak. **Javob:** *reklamaning maqsadi hech qachon o‘zgarmaydi. Shu kungacha qanday maqsad bo‘lgan bo‘lsa, hamon shu, lekin shakli o‘zgarib turadi. Ya’ni reklama avval ko‘chada baqirish orqali berilgan bo‘lsa, keyinroq yozuvga ko‘chdi. Hozirga kelib, video, animatsiya ko‘rinishidagi reklamalarni uchratish mumkin.*

**2. Professional reklamachilar nima bilan shug‘ullangan?**

Ayrim o‘quvchilar uchun “professional” so‘zi izohlanadi, shundan so‘ng o‘z davri uchun professional deb hisoblangan reklamachilarning faoliyati haqida matndagi ma’lumotlar asosida tushuncha beriladi. **Javob:** *ular reklama xizmatlarini ko‘rsatadigan shu sohaning egalari hisoblanishgan, turli e’lonlar, yo‘lko‘rsatkichlar, taxtachalar yasagan.*

**3. Rim hukumatiga reklama tayyorlashda tilni yaxshi bilgan odamlar nima uchun kerak bo‘lgan deb o‘ylaysiz?**

Ushbu savolga javob berish uchun ham o‘quvchidan mantiqiy fikrlay olish talab etiladi. O‘quvchilar kutilgan javobni bera olishmasa, o‘qituvchi ularning e’tiborini o‘sha davrlarda reklama qilish qanday shaklda amalga oshirilganini eslatadi. Og‘zaki va yozma tarzda berilgan reklama uchun tilni bilish naqadar muhim ekani haqida xulosalar chiqariladi va bu xulosa hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagani haqida eslatma beriladi. **Javob:** *reklama qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, til orqali yetib boradi, shuning uchun tilni mukammal bilish, so‘zning ta’sir kuchini his qilish va to‘g‘ri so‘zlardan, jumlalardan foydalanish reklamaning sifatli va foydali chiqishini ta’minlaydi.*

**4. Reklamaning yana qanday shakllarini bilasiz?**

Reklama qilishning bir necha xil shakllari borligi, ushbu shakllar qulayligi bilan bir qatorda qaysi jihatdan reklama beruvchiga noqulaylik tug‘dirishi mumkinligi haqida suhbat olib boriladi. Reklamaning har ikki tomonga foydali bo‘lishi, ya’ni ham reklama beruvchiga, ham reklamani qabul qiluvchi – iste’molchiga qulay bo‘lishi uchun qanday qoidalarga rioya qilish kerakligi haqida xulosaviy fikrlar tinglanadi.

## Og‘zaki nutq

Shundan so‘ng matn ichida berilgan topshiriqlarni bajarishga kirishiladi.

## Uyga vazifa


## Yozma nutq

**Yuqoridagi matnning davomini o‘qing. Matndan olgan ma’lumotlaringiz asosida reklama tarixi haqida kichik nutq tayyorlang.**

O‘rganilgan ma’lumotlar asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o‘z fikrini to‘g‘ri, izchil ifodalash, shuningdek, 12–14 ta gapdan iborat matn yoza olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsad qilingan.

Berilgan QR koddan foydalanish, matnni o‘qish, undagi qiziqarli ma’lumotlar aytib o‘tiladi. Shu asosda kichik matn tayyorlash kerakligi tushuntiriladi. Nutq tayyorlash jarayonida uning asosiy mazmuni nimaga qaratilgani, uslub va imlo bilan bog‘liq tavsiyalar beriladi.

## 3-soat



Yuqoridagi matnning davomini o‘qing. Matndan olgan ma’lumotlaringiz asosida reklama tarixi haqida kichik nutq tayyorlang.

To‘liq maqola uchun havola

Ikkala ustundagi so‘zlarni o‘zaro moslashtirib yozing.

| | |
|---|---|
| xushbo‘y | suv |
| shaffof | non |
| toza | atir |
| tabiiy | sharbat |
| mazali | somsa |
| tilyorar | ta’m |
| qaynoq | qovun |
| haqiqiy | |
| issiq | |

Bilib oling!

Reklama bannerini tayyorlashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:
- sarlavhaning jalb qiluvchi xususiyati;
- asosiy so‘zlarning boshqa so‘zlardan ajralib turishi;
- ma’lumotlarning yetarliligi;
- ma’lumotlar qisqa shaklda berilishi;
- kamida bitta taklif bo‘lishi.

“Peshtoqdagi bitiklar” mavzusining birinchi soatida guruh bo‘lib yasagan banneringizni oling. Xatolaringizni tahlil qiling.

Bilib oling!

Reklama matnlarida mahsulot yoki xizmatlarning o‘ziga xos jihatlari alohida ta’kidlanib, bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Bunda *xushbo‘y, shirin, asil, sof, toza, tabiiy, tezkor, arzon, qulay, ko‘rkam, yorqin* kabi so‘zlardan foydalaniladi.

Shuningdek, reklama matnlarida da’vat ohangidagi so‘zlardan ham foydalaniladi: *his eting, tashrif buyuring, tanishib chiqing, tanlang, shoshiling, lazzatlaning.*

Bundan tashqari, reklama matnlarida kompaniyaning, tashkilotning shiori aks etishi ham mumkin. Masalan:

*Yagona tibbiy ma’lumotlar xizmati! Har doim siz bilan. Biz bilan betakrorsiz! Tashvishsiz hayot davri keldi!*

Televizorda ko‘rgan yoki radioda eshitgan reklamalaringizni eslang. Ularni quyidagi jadval asosida tahlil qilib, yozing. Qolgan guruh vakillari nima reklama qilinganini topishga urinib ko‘radi.

| Bo‘rttirish uchun so‘z | Da’vat yoki chorlov | Shior |
|---|---|---|
| | | |

161

## Kirish

Bugungi darsning umumiy mazmuni haqida ma’lumot beriladi. O‘tilayotgan

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

darslar, ularning mazmuni, ushbu mavzu doirasida yana nimalar haqida suhbat qurishga qizishning mavjudligini aniqlashga qaratilgan kirish suhbati tashkillashtiriladi.

**Asosiy qism**

**Ikkala ustundagi so‘zlarni o‘zaro moslashtirib yozing.**

Ushbu topshiriqning asosiy maqsadi e’lon va reklama matnlarida qo‘llanuvchi til birliklari bilan tanishtirish, ularni qanday shaklda qo‘llash kerakligi bilan bog‘liq xulosalarni chiqarish imkonini berishdir.

Jadvalning birinchi ustunida berilgan so‘zlar ikkinchi ustundagi so‘zlar bilan qaysi jihatdan bog‘lanishi mumkinligi haqida so‘raladi. Namuna ko‘rsatiladi. O‘quvchilar topshiriqni mustaqil ravishda bajaradilar. Shundan so‘ng hosil bo‘lgan birliklarning mazmuni tahlil qilinadi, qanday mahsulotni reklama qilishda undan foydalanish mumkinligi yoki shunday birliklarni qaysi mahsulotning reklamalarida uchratganligi haqida so‘raladi. **Javob:** *xushbo‘y atir, shaffof suv, toza suv, tabiiy sharbat, tabiiy ta’m, mazali non, mazali somsa, mazali sharbat, mazali qovun, tilyorar qovun, qaynoq non, qaynoq somsa, haqiqiy ta’m, issiq non, issiq somsa.*

**“Peshtoqdagi bitiklar” mavzusining birinchi soatida guruh bo‘lib yasagan banneringizni oling. Xatolaringizni tahlil qiling.**

Darslikda berilgan yangi ma’lumotlar asosida reklama bannerini tahlil qilish, unga qanday qo‘shimchalar kiritish mumkinligi bilan bog‘liq tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Har bir guruh o‘z bannerini tahlil qiladi. O‘qituvchi tahlil jarayonida darslikda berilgan eslatmalarga tayanish kerakligini aytadi. Bannerning qaysi jihatlari ushbu eslatmalarga muvofiq kelishi yoki kelmasligi haqida fikrlar bildiriladi. Yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatishga qaratilgan tavsiyalar so‘raladi.

**Televizorda ko‘rgan yoki radioda eshitgan reklamalaringizdan eslang. Ularni quyidagi jadval asosida tahlil qilib yozing. Qolgan guruh vakillari nima reklama qilinganini topishga urinib ko‘rsin.**

Reklama matnlarida so‘z qo‘llash, ularning vazifasi va maqsadi bilan bog‘liq xulosalarni chiqarish, reklama matnlariga so‘z tanlash va ularni qo‘llashga o‘rgatish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsad qilingan.

O‘quvchilar o‘z xotiralari asosida reklamalarda ishlatilgan so‘zlarni tahlil qiladilar. O‘qituvchi bir nechta misollarni eslatishi va namuna sifatida ko‘rsatishi mumkin. So‘zlarning ishlatilish maqsadini aniqlagan holda ularni jadvalga joylaydilar. Tayyor jadvallarning bir nechtasi o‘quvchilar bilan birgalikda muhokama qilinishi mumkin.

**Og‘zaki nutq**

**Muhokama uchun savol: reklamalar, peshlavhalar qaysi tilda bo‘lishi lozim? Nima uchun?**

Muhokama jarayonida munosib ishtirok etish, o‘z fikrlarini tushunarli va aniq tarzda yetkazish, o‘z qarashlarini himoya qilish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

O‘quvchilar muhokama jarayoniga tayyorlanadi. Bunda fikr ifodalash va uni himoya qilish bilan bog‘liq qoidalar yodga olinadi.

**Uyga vazifa**

**Tahlil va tahrir soati**

Nutqiy mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini dalillab yozishga o‘rgatish, ularni ma’lum tartib va izchillikda berish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash, imlo va uslubiy qoidalarga oid bilimlar rivojlantiriladi.

O‘quvchilarga topshiriqning maqsadi tushuntiriladi. Yoziladigan matnning mazmuni, undagi fikrlar qanday ketma-ketlikda bo‘lishi kerakligi haqida tavsiyalar beriladi. Imlo va uslub bilan bog‘liq muhim qoidalar yodga solinadi.



Muhokama uchun savol: reklamalar, peshlavhalar qaysi tilda bo'lishi lozim? Nima uchun?

Shu paytgacha o'rganganlaringiz asosida "Reklamalardagi xatolar" mavzusida matn yozing. Matnda quyidagi ma'lumotlar bo'lishiga diqqat qiling.

**Kirish.** *Nima uchun shu mavzuda gapirish lozim?*
**Asosiy qism:**
*a) reklamalarda uchrayotgan xatolar va ularga misollar;*
*b) reklamalarda davlat tiliga bo'lgan e'tiborning holati va bunga misollar.*
**Xulosa.**
*Fikrlaringizning umumlashmasi va shaxsiy qarashlaringiz.*

Tahlil va tahrir soati.

MUSTAHKAMLASH

Berilgan rasmlardagi xatolarni aniqlang. To'g'risini yozing.



**"Birikma yasaymiz" o'yinini o'ynang.** Siz narsalarning o'ziga xos jihatini bo'rttirib ko'rsatishda ishlatiladigan so'zlardan birini ayting, partadoshingiz unga mos boshqa so'z aytsin. Masalan, siz ***lazzatli*** desangiz, partadoshingiz ***sharbat*** deyishi mumkin.

Guruh bo'lib ishlang. Tasavvur qiling: sizdan oziq-ovqat do'koni uchun reklama banneri tayyorlab berishni so'rashdi. Siz qanday banner tayyorlagan bo'lar edingiz? Qog'ozda tayyorlab ko'rsating.

162

## 4-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

Bugungi darsda o'quvchilarning yozma ishlari tahlil qilinadi, tahlil jarayonida nimalarga e'tiborli bo'lish kerakligi hamda baholash jarayoni qanday mezonlar asosida tashkillashtirilishi haqida ma'lumot beriladi.

### Asosiy qism

### Yozma nutq

### Tahlil va tahrir soati

**Berilgan topshiriq asosida yozib kelingan matnlar tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish talab etiladi:**

– matnning mazmunida yuqorida berilgan izchillikning mavjudligi;

– matnning maqsadi to'g'ri tanlangani;

– berilgan muammoga nisbatan shaxsiy munosabatning ifodalangani;

– dalillarning to'g'ri keltirilgani;

– dalil keltirish, mavzu doirasidagi va xulosaviy fikrlarni ifodalashda kerakli til birliklaridan o'rinli foydalana olishi;

– uslubiy, imloviy va ishoraviy xatolarga yo'l qo'ymaganlik.

**Tahlil asosida o'quvchilarning har biriga alohida tavsiyalar beriladi.**

### Mustahkamlash

### Dars jarayoni

### Kirish

Bugungi darsning mustahkamlash darsi ekani aytiladi. O'tilgan mavzular yuzasidan bir nechta savollar beriladi:

*1. Peshtoqdagi bitiklar deganda nima tushunasiz?*

*2. Reklama bannerlari qanday talablarga javob berishi kerak deb hisoblaysiz?*

*3. Reklama matnlarini yaratishda so'zning qanday ahamiyati bor?*

*4. Savodxonlikning ijtimoiy ahamiyati haqida gapirib bering.*

*5. Bugungi kunda jamiyatimizda reklamaning ifoda shakli bilan bog'liq qanday muammolar bor deb o'ylaysiz?*

### Asosiy qism

### Imlo qoidalari

**Rasmlardagi xatolarni aniqlang. To'g'risini yozing.**

O'quvchilarning yozma savodxonligini rivojlantirish, savodxonlikning ahamiyati, so'zni to'g'ri yozish qoidalari bilan bog'liq bilimlarni mustahkamlash maqsad qilingan.

Berilgan rasmlarning har biri alohida tahlil qilinadi. Unda qanday xatolik borligi, aslida qanday bo'lishi kerakligi bilan bog'liq suhbat olib boriladi. Bannerlardagi bunday xatolarning salbiy oqibatlari haqidagi fikrlar tinglanadi. **Javob:**

***1-rasm:*** so'zlar qanday aytilsa, shunday yozib qo'yilgan. Aslida *aksessuar, batareya, naushnik (quloqchin), zaryadka (quvvatlagich), korpus* bo'lishi kerak edi.

**2-rasm:** so‘z qanday aytilsa, shunday yozib qo‘yilgan, aslida *yopiq* bo‘lishi kerak edi.

***3-rasm:*** JahoH deb yozilgan, aslida *jahon* bo‘lishi kerak edi. *H* belgisi kirill alifbosida *n* harfini anglatadi, so‘zning qolgan harflari lotin yozuvida bo‘lgani uchun bu so‘z *jahoh* deb o‘qilishiga sabab bo‘ladi.

***4-rasm*:** Shaxrisabs emas, *Shahrisabz* ko‘chasi deb yozilishi kerak edi.

***5-rasm:*** Matnni o‘zbek tilini bilmaydigan odam yozgani ko‘rinib turibdi, bu yerda so‘z qanday aytilsa, shunday yozilishi kuzatilmaydi, shunchaki harflarni yozishda ham xatolar mavjud. Bundan tashqari, imlo qoidalari qo‘pol buzilgan. Shundan xulosa qilib, bu matnni yozgan odam o‘zbek tilini umuman bilmaydi, bu tilga birinchi marta duch kelgan deyish mumkin. Aslida *O‘zbekiston uchun ishlab chiqarilgan patnis. Zanglamaydigan metalldan tayyorlangan. Xitoyda ishlab chiqarilgan* bo‘lishi lozim.

***6-rasm:*** *russ tili* emas, *rus tili* bo‘ladi.

**“Birikma yasaymiz” o‘yinini o‘ynang. Siz narsalarning o‘ziga xos jihatini bo‘rttirib ko‘rsatishda ishlatiladigan so‘zlardan birini ayting, partadoshingiz unga mos boshqa so‘z aytsin. Masalan, siz "lazzatli" desangiz, partadoshingiz "sharbat" deyishi mumkin.**

Reklama bilan bog‘liq til birliklarini tanlash, so‘zning kuchi, undan foydalanish qoidalari bilan bog‘liq bilimlarni mustahkamlash maqsad qilingan.

O‘quvchilar bilan juftlikda ishlash aytiladi, topshiriqning sharti va maqsadi tushuntiriladi. Shu asosda so‘z tanlash o‘yini o‘ynaladi. O‘yinda yaxshi ishtirok etayotgan o‘quvchilarni ajratib olish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun alohida shug‘ullanish yoki so‘z tanlashda qiynalayotgan o‘quvchilar bilan alohida shug‘ullanish tavsiya etiladi. Buning uchun bunday o‘quvchilar juftligi sinf taxtasi yoniga chiqariladi. Topshiriqni bajarishga qiynalayotgan o‘quvchilar uchun o‘qituvchi bir so‘z uchun juft bo‘la oladigan bir nechta so‘zni taklif qilishi, ular ichidan eng jarangdor, ta’sirlisini tanlashni topshiriq sifatida berishi mumkin.

### Ijodiy jarayon

**Guruh bo‘lib ishlang. Tasavvur qiling: sizdan oziq-ovqat do‘koni uchun reklama banneri tayyorlab berishni so‘rashdi. Siz qanday banner tayyorlagan bo‘lar edingiz? Qog‘ozda tayyorlab ko‘rsating.**


O‘quvchilarda berilgan mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini turli shakllar, yordamchi vositalarni qo‘llagan holda ijodiy uslubda yetkazib bera olish, guruh bilan ishlash, boshqalarning o‘rinli fikrlarini inobatga olish, ularga nisbatan munosabat bildirish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsad qilingan.

O‘qituvchi ushbu ijodiy topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilarga kerakli vositalarni tayyorlab olishni aytadi. O‘quvchilarning guruh bo‘lib ishlash jarayonlari kuzatiladi, qanday vositalardan foydalanayotgani, bir-birlariga nisbatan fikr ifodalashi bilan bog‘liq jarayonlarga o‘qituvchi o‘z munosabatini bildirishi, ularni to‘g‘ri yo‘naltirib turishi juda muhim. Qolaversa, nutqiy mavzu doirasida o‘rgangan tavsiyalari va ma’lumotlariga rioya qilish kerakligi tez-tez eslatib turiladi. O‘z bannerlarini tayyorlashni tugatgan guruhlarning ishlari taqdim etiladi.

# MINORAYI KALON

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** ma’lumotlarni yaxlit holda ifodalash, bunda mundarijaning o‘rni, kitoblarda mundarijadan qanday foydalanish kerakligi bilan bog‘liq qoidalar bilan tanishtirish, o‘rganilgan ma’lumotlardan qay darajada foydalana olish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish, ommabop kitoblar, ularda ifodalangan mavzular yuzasidan ma’lumot berish, ommabop kitoblarni ko‘rib chiqish, butun mazmuni bilan tanishmasdan turib, ular haqida xulosa chiqarish yo‘llari, kitob tanlash, ularda berilgan shartli belgilarni o‘qiy olish va uni mutolaa qilish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish.

## 1-soat



MINORAYI KALON

Bu mavzuda o‘rganamiz

• Buxoro shahrining tarixi • milliy-madaniy yodgorliklar • mundarijadan foydalanish • kitob tanlash • shartli tushunish • mutolaa bilan bog‘liq ko‘nikmalar.

1. Kitob mundarijasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Nima deb o‘ylaysiz, kitobda mundarija bo‘lmasa, nima bo‘ladi?
3. Kitobning mazmuni haqida uni to‘liq o‘qimasdan ham xulosa qilsa bo‘ladimi? Qanday qilib?

Quyida Buxoro haqidagi kitob mundarijasi va ko‘rsatkichlari berilgan. Mundarijadan o‘rin olgan mavzularga diqqat qiling. Ushbu mavzularni kitobning qayerida uchratish mumkin? Ulardan nimalarni bilib olsak bo‘ladi?

MUNDARIJA


Buxoro qayerda joylashgan? ... 4
Nomlanishi va etimologiyasi ... 5
Shaharning yoshi haqida ma’lumotlar ... 6
Buxoro Turk xoqonligi davrida ... 8
Arablar fathidan so‘ng ... 12
Somoniylar hukmronligi davrida ... 16
Qoraxoniylar hukmronligi davrida ... 24
Muhammad Xorazmshoh hukmronligi davrida ... 31
Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida ... 37
Temuriylar hukmronligi davrida ... 48
Buxoro – O‘zbek xonligi poytaxti ... 63
Buxoro amirlik davrida ... 72
Sovet hukmronligi davrida ... 81
Hozirgi kunda ... 90
Tarixiy arxitektura yodgorliklari ... 109
Manbalar ... 121


163

### Dars jarayoni

### Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. O‘quvchilardan Minorayi kalon haqida nimalarni bilishi so‘raladi. Ushbu mavzu doirasida nimalar haqida suhbatlashish, nimalarni bilib olish mumkinligi haqida o‘qituvchi tomonidan umumiy ma’lumotlar beriladi.

### Asosiy qism

Quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

***1.*** *Kitob mundarijasi haqida nimalarni bilasiz?*

***2.*** *Nima deb o‘ylaysiz, kitobda mundarija bo‘lmasa, nima bo‘ladi?*

***3.*** *Kitobning mazmuni haqida uni to‘liq o‘qimasdan ham xulosa qilsa bo‘ladimi? Qanday qilib?*

Ushbu suhbatning asosiy maqsadi kitob va uning tarkibiy tuzilishi, mundarijaning ahamiyati, undan qanday ma’lumotlarni bilib olish mumkinligi haqida tasavvurlarni aniqlashtirishga qaratilishi lozim.

### Og‘zaki suhbat

**Quyida Buxoro haqidagi kitob mundarijasi va ko‘rsatkichlari berilgan. Mundarijadan o‘rin olgan mavzularga diqqat qiling. Ushbu mavzularni kitobning qayerida uchratish mumkin? Ulardan nimalarni bilib olsak bo‘ladi?**

O‘quvchilarda ma’lumotlarni yaxlit holda ifodalash, bunda mundarijaning o‘rni, kitoblarda mundarijadan qanday foydalanish kerakligi bilan bog‘liq qoidalarga oid ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

O‘quvchilarning e’tibori kitobning birinchi sahifasida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga qaratiladi. Mundarija va uning ifoda shakli, uning vazifalari bilan bog‘liq savollar bilan murojaat etiladi. Nima uchun kitobda berilgan ma’lumotlarni mazmuniy qismlarga ajratish kerakligi, uning kitobxon uchun qanday foydali jihatlari borligi haqida so‘raladi. Shuningdek, kitobning birinchi sahifalaridagi rasmlar nimalar haqida ma’lumot berishi, rasm tanlashda nimalarga alohida ahamiyat qaratish kerakligi haqida suhbat olib boriladi.

Shundan so‘ng ikkinchi sahifada berilgan ma’lumotlar haqida so‘raladi. Ushbu ko‘rsatkichlar nimalarni ifodalashi, ulardan foydalanishning ahamiyati hamda shunga o‘xshash qo‘shimcha vositalar haqida suhbat olib boriladi. Xususan, “Ona tili” darsligining birinchi va ikkinchi sahifalaridagi ma’lumotlar tahlil qilinishi, ular nima uchun kerakligi haqida ma’lumot berish mumkin.

### O‘qib tushunish va yozma nutq

**Savollarga javob yozing.**

O‘quvchilarning o‘zlari o‘rgangan ma’lumotlaridan qay darajada foydalana olishi bilan bog‘liq ko‘nikmalari sinovdan o‘tkaziladi va mustahkamlanadi.

**1. Qaysi sahifadan Bidun haqida ma’lumot topish mumkin?**

**Javob:** *9-sahifadan.*

**2. 6–7-sahifalarda nima haqida so‘z boradi?**

**Javob:** *shaharning yoshi haqida.*

**3. Ushbu sahifalarda nimalar (ism, joy, nom) haqida ma’lumot topishimiz mumkin?**

**Javob:** *dehqon, madrasa, Afrosiyob.*

1–3-savollarga javob yozish orqali o‘quvchilar mundarija va u bilan ishlashga oid ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar, mundarijaning vazifasini anglaydilar.

**4. Buxoroda kimlar hukmronlik qilgan?**

**Javob:** *Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, mo‘g‘ullar, temuriylar, o‘zbeklar.*

**5. 121-sahifada nimalar yozilgan deb o‘ylaysiz?**

**Javob:** *kitobni yozishda foydalanilgan manbalar – kitoblar, maqolalar, filmlar, ko‘rsatuvlar.*

**6. Arab tili haqida 3 ta mavzuda o‘qishimiz mumkin, ular qaysilar?**

**Javob:** *12, 37, 90.*

4-6-savollarga javob yozish orqali ko‘rsatkichlar va u bilan ishlashga oid ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar, kitoblarda berilgan ko‘rsatkichlarning vazifasini anglaydilar.

### Yozma nutq

### Uyga vazifa

**Ommabop kitoblardan turli xil ma’lumotlar olish mumkin. Bir nechta ommabop kitoblarni ko‘rib chiqing, ularni qiyoslashga harakat qiling. Biror kitobdan topgan kichik ma’lumotingizni yozing. "Bilib oling" ruknida berilgan ma’lumotlarga mos sahifalarni toping.**

Ommabop kitoblar, ularda ifodalangan mavzular yuzasidan ma’lumot beriladi. Ommabop kitoblarni ko‘rib chiqish, butun mazmuni bilan tanishmasdan turib ular haqida xulosa chiqarish yo‘llari, kitob tanlash, ularda berilgan shartli belgilarni o‘qiy olish va uni mutolaa qilish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsad qilingan.

Berilgan eslatmalar yordamida kitob va unda berilgan belgilar, ma’lumotlarning joylashish o‘rniga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi. Topshiriqni shartlariga e’tibor berish, har bir so‘ralgan ma’lumotni topish orqali bajarish kerakligi tushuntiriladi.

## 2-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

Darsda berilgan eslatmalar mazmuni asosida savol-javob o‘tkaziladi. Berilgan ko‘rsatmalarning ahamiyati, foydali jihatlari haqida suhbat tashkillashtiriladi.

### Asosiy qism

### Og‘zaki nutq

Berilgan savollar asosida suhbat tashkillashtiriladi, suhbatning asosiy mazmuni o‘quvchilarning mavzu doirasidagi tasavvurlarini aniqlashtirib olishdan iborat.

Quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

**1. Minora qanday inshoot?**

“Minora” so‘zining izohi so‘raladi, o‘quvchilarning javoblari tinglangach, ushbu so‘zning lug‘atda berilgan izohi bilan tanishtiriladi.

**Minora** – yorug‘lik manbai bo‘lgan joy, biror binoga qo‘shib yoki alohida qurilgan baland inshoot.

Ushbu so‘zni qayerlarda uchratish mumkinligi, u bilan bog‘liq xotiralarni yodga olish so‘raladi, shu asosda suhbat olib boriladi.

**2. Nima deb o‘ylaysiz, minoradan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?**

“Minora” so‘ziga berilgan izoh yordamida uning o‘ziga xos jihatlari va undan qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligi haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilar o‘zlari ko‘rgan minoralar haqida so‘zlab, haqiqatdan ham ular izohlardagi xususiyatlarga ega ekanini tahlil qilib berishlari mumkin.

**3. Qanday shakldagi minoralarni bilasiz?**

Minoralarning shakllari haqida so‘z boradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning nutqini kuzatadi. Minoraga oid shakllarni ifodalashda qanday atamalardan foydalanish kerakligiga, so‘z tanlashga alohida e’tibor qaratiladi.

## O‘qib tushunish

**Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.**

O‘quvchilar matnni o‘qish jarayoniga tayyorlanadi. O‘qish bilan bog‘liq ko‘rsatmalarga muvofiq matn o‘qib chiqiladi.

Matn asosida savollarga javob beriladi. Bu orqali o‘quvchilarning o‘qib tushunish bilan bog‘liq ochiq va yopiq holatda berilgan ma’lumotlarni aniqlash, so‘ralgan ma’lumotni matndan topish kabi nutqiy ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

**1. Buxoro necha yoshni qarshilagan?**

Matnda ochiq holatda berilgan ma’lumot aniqlanadi va savolga javob beriladi. **Javob:** *30 asr – 3000 yil.*

**2. Sizningcha, *“kalon”* so‘z qanday ma’noni anglatadi?**

Ushbu savolning javobi ham matnda ochiq holatda berilgan bo‘lib, o‘quvchilar uni aniqlaydilar va savolga javob beradilar.

**Javob:** *katta.*

**3. Qadimda minoralar qanday vazifalarni bajargan?**

Minoralarning qadimdagi vazifalari sanab o‘tiladi, ushbu jarayonda o‘quvchilar matnda berilgan ma’lumotlarga asoslanishiga e’tibor qaratiladi. Savolga kerakli javoblar tinglangach, bugungi kunda uning qanday vazifalari borligi haqida qo‘shimcha savollar bilan murojaat etish mumkin.

**Javob:** *odamlarni namozga chorlash, mayoq.*

**4. Arslonxon Qoraxoniy qanday sabab bilan minora qurdirmoqchi bo‘ldi?**

Matnda berilgan ma’lumot asosida savolga javob beriladi. Uning maqsadi va minora o‘rtasidagi aloqa izohlanadi.

**Javob:** *savdo karvonlarining adashib qolmasligini ta’minlash.*

**5. Minorayi Kalonning asl vazifasi nimadan iborat edi?**

Matnda ochiq holatda berilgan ma’lumotlar asosida savolga javob beriladi.

**Javob:** *mayoq.*

**6. Matndan minoraning mahobati va go‘zalligi ko‘rsatib berilgan o‘rinlarni topib, o‘qing.**

Muallif ushbu maqsadni yuzaga chiqarish uchun qanday til birliklaridan foydalangani aniqlanadi, shunday mazmundagi gaplarga o‘quvchilarning e’tibori qaratiladi.

## Lug‘at bilan ishlash

**Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga diqqat qiling. Ular, sizningcha, nimani ifodalamoqda? Izohlang.**

**Lug‘atdan quyidagi so‘zlarning ma’nosini toping.**

**tarz** **payt** **daraja** **miqdor** **o‘rin**

## Morfologiya

Ushbu topshiriqni bajarish orqali ravish so‘z turkumi, uning ma’nosi va vazifasi bilan bog‘liq lingvistik bilimlar beriladi.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq beriladi, ular qanday mazmunni yuzaga chiqarishga xizmat qilayotgani aniqlanadi. Ushbu so‘z qaysi so‘zga bog‘lanib kelayotgani va bu so‘zning ma’nosi bilan qanday aloqadorlikda ekanini aniqlashga qaratilgan savollar bilan murojaat etiladi.

**Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi jadvalga joylashtiring.**

Ravish va uning ma’no turlari bilan bog‘liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ifodalagan mazmuni asosida jadvalga joylashtiriladi. Buning uchun so‘zlarga so‘roq berish, o‘zi bog‘lanib kelgan so‘zning qaysi jihatdan belgisini ifodalab kelayotganiga e’tibor qaratilishi kerak.

| Tarzni bildirayotgan so‘zlar | Paytni bildirayotgan so‘zlar | O‘rinni bildirayotgan so‘zlar | Daraja-miqdorni bildirayotgan so‘zlar |
|---|---|---|---|
| alohida, qator-qator, shaxsan, shu asnoda | qadimdan, o‘shanda, kechalari | yuqoriga | eng, ko‘plab, ortiq, yanada |

**Uyga vazifa**

**Quyidagi jadvalni chizib, to‘ldiring. Birinchi ustunda berilgan fe’lning turli belgilarini bildira oladigan ravishlarni yozing.**

Jadvalda berilgan so‘zlar bilan bog‘lana oladigan ravishlarni aniqlash orqali uning vazifasi, qo‘llanish o‘rni va qanday mazmundagi so‘zlar bilan birika olishiga oid bilimlarni hosil qilish maqsad qilingan.

Berilgan so‘zlar o‘zlari birikib kela oladigan so‘zlarga mos qatorga yoziladi, shuningdek, ushbu ravish qanday mazmunni ifodalayotgani ham aniqlanib, kerakli ustun tanlanadi.

## 3-soat

### Dars jarayoni

**Kirish**

Berilgan savollar asosida kirish suhbati tashkillashtiriladi.

*1. Minorayi Kalon haqida nimalarni bilib oldingiz?*

*2. Har bir ma’lumotni qisqa shaklda xattaxtaga yozing.*

O‘quvchilar o‘tilgan darsda o‘rgangan ma’lumotlari asosida savollarga javob beradilar, qanday muhim ma’lumotlarni eslab qolganlarini sinovdan o‘tkazadilar. Bunday paytda o‘qituvchi o‘quvchilar imkon qadar darslikka qaramasliklarini, iloji bo‘lsa, ularni yopgan holda topshiriqni bajarishlarini nazorat qilishi lozim.

**Asosiy qism**

**Tinglab tushunish**

**Savollar bilan tanishib chiqing.**

O‘quvchilar darslikda berilgan savollar bilan tanishar ekanlar, ushbu savollarga audiomatnni tinglash orqali javob olishlari mumkinligini bilib oladilar. O‘quvchilar ushbu jarayonga tayyorlanadilar.

**Audiomatnni bir marta tinglang.**

**MINORAYI KALON**

Minorayi Kalonni "Arslonxon minorasi" deb ham atashadi. Buxorodagi ushbu me’moriy obida Poyi Kalon masjidi ansamblining bir qismi. Eski Buxoroning eng baland inshooti. Balandligi salkam 48 metr. O‘z vaqtida Chor Rossiyasi hujumi paytida 26 ta bomba borib teggan, lekin qulab tushmagan.

**Minorayi Kalon tarixi**

Minorayi Kalon o‘rnida avval ham minora bo‘lgan, u qulab tushgach, hozirgisi mustahkam qilib qayta qurilgan. O‘z vaqtida Minorayi Kalon yuqoridan kuzatish va din ishlari, xususan, aholini Poyi Kalon masjidiga Hayit va juma namozlariga chaqirish uchun xizmat qilgan.

Bu ulug‘ inshoot bilan bog‘liq ko‘plab afsonalar keltirilgan. Ulardan birida aytilishicha, tuya suti va alebastr qorishmasidan minoraning poydevorini tiklagan usta-quruvchi birdan g‘oyib bo‘lgan va ikki yildan keyin, poydevor pishiq va mustahkam bo‘lgandan so‘ng qaytib kelib, inshootni g‘ishtdan ko‘tarish ishlarini boshlagan.

Muhandis va me’mor Usta Baqo loyihasi asosida qoraxoniylar sulolasidan Arslonxon Muhammad 1127-yilda qurdirgan. Poydevori tosh va maxsus qir qorishmasidan terilgan.

**Me’morchiligi**

Yer sathidan 10 metr chuqur, balandligi 47,5 metr, tanasi g‘o‘lasimon, tepasi gumbazli davra bilan bog‘langan. Minora yuqoriga tomon ingichkalashib boradi va muqarnas

bilan tugaydi. Yuqorisidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Tepaga minora ichidagi 105 pillapoyali aylanma zina orqali chiqiladi. Masjidi Kalon tomonidan minoraga o‘tiladigan ko‘prikcha bo‘lgan. Minorayi Kalonning o‘zagi ham, bezagi ham chorsi g‘isht ganchxok loyida terilgan. Bezak g‘ishti o‘rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mazmundagi yozuvlar uchraydi. Minorayi Kalon shu turdagi qadimiy inshootlar orasida alohida o‘rin tutadi. Shakllarning o‘zaro monandligi va mutanosibligi, geometrik uyg‘unlik, ajoyib ko‘rk va mahobatlilik Minorayi Kalonga chinakam go‘zallik bag‘ishlaydi.

**Yaqin o‘tmishda**

1924-yili minora ta’mirlangan. 1960-yili yer ostidagi asosi usta Ochil Bobomurodov tomonidan ochib ta’mirlangan. 1997-yil Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan Minorayi Kalonda ta’mirlash ishlari olib borildi. Minorayi Kalon Buxoro shahrining noyob va ko‘hna yodgorliklari qatoridan asosiy o‘rin egallagan.

Ushbu suhbatning asosiy maqsadi o‘quvchilarda tinglab tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlashdir. Auiomatnda berilgan ma’lumotlarni qayd etish, muhim axborotlarni eslab qolish, ularni qayta so‘zlab berish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

**Audiomatnni ikkinchi marta tinglang. Tinglash jarayonida yuqoridagi savollarga javob yozing.**

Darslikning 168-betida berilgan, audiomatnni tinglashdan oldin tanishib chiqilgan savollarga javob yozish kerak bo‘ladi. Buni audiomatnni ikkinchi marta tinglash jarayonida amalga oshirish lozim.

**1. Minorayi Kalonga nechta bomba teggan?**

Matnda ochiq holatda berilgan ma’lumot yodga olinadi va javob beriladi. Javob tinglangach, ushbu ma’lumot muhokama qilinishi mumkin. Nima uchun minora qulab tushmagani haqida so‘rash, o‘quvchilarning bu voqeaga nisbatan taxminiy va aniq fikrlarini tinglash tavsiya etiladi. **Javob:** *26 ta.*

**2. Minorayi Kalon qaysi masjidga odamlarni chorlash uchun ishlatilgan?**

Audiomatnda berilgan masjid nomi tilga olinadi, uning nomi va Minorayi Kalon nomi o‘rtasidagi aloqadorlik aniqlanadi. Aynan shunday savollarga javob berishda matnni tinglash jarayonida muhim ma’lumotlarni qayd etib olishning foydali tomonlari haqida eslatma berish tavsiya etiladi. **Javob:** *Poyi Kalon.*

**3. Minoraning muhandisi kim?**

Ushbu savolga ham matndagi ochiq ma’lumotlar asosida javob beriladi. **Javob:** *Usta Baqo.*

**4. Minoraning yer ostidagi qismi necha metr?**

Ushbu ma’lumotning berilish shakliga e’tibor qaratiladi. So‘ralgan ma’lumot matnda “yer sathidan 10 metr chuqur” shaklida berilgan. Savol ham aynan shu qism bilan bog‘liq ekani haqida eslatib o‘tiladi. **Javob:** *10 metr.*

**5. Minoraning eng yuqorisiga chiqish uchun nechta zinani bosib o‘tish kerak?**

**Javob:** *105 ta.*

**6. 1960-yilda minorani kim ta’mirlagan?**

**Javob:** *usta Ochil Bobomurodov.*

**7. Minorada qaysi yillari ta’mirlash ishlari olib borilgan?**

O‘quvchilar 5–7-savollarga ham oldindan qayd etib olgan ma’lumotlari asosida javob berib boradilar. **Javob:** *1960- hamda 1997-yillarda.*

## Morfologiya

**Quyidagi gaplarga mos ravishlarni qo‘ying. Ravishlarni qo‘shib o‘qiganda ularning ma’nosida qanday o‘zgarish bo‘layotgani haqida fikrlashing.**

Ravish va uning qo‘llanishi bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni mustahkamlash maqsad qilingan.

Matndan olingan gaplar o‘qladi, berilgan ravishlarning qaysilari mos kelishi aniqlanadi va o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplar qayta o‘qiladi.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq

**Minorayi Kalon haqida shu paytgacha bilib olgan ma'lumotlaringiz ro'yxatini tuzing. Bundan tashqari, kattalar yordamida internet hamda kitoblardan qo'shimcha ma'lumotlar topib, ro'yxatni to'ldiring.**

Materialni tartiblash, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yoza olishga oid nutqiy ko'nikmalar shakllantiriladi.

Tartib bilan fikr ifodalash, ro'yxat tuzish, uni yozma ifodalashda qanday belgilardan foydalanish mumkinligi, bunda qo'llanadigan tinish belgilariga oid qoidalar haqida eslatmalar va tavsiyalar beriladi.

## 4-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

Quyidagi savollar asosida kirish suhbati tashkillashtiriladi.

*1. Siz omma oldida nutq so'zlaganmisiz?*

*2. Nutqqa tayyorlanish haqida o'ylab ko'ring, sizningcha, biror mavzu haqida gapirish uchun nimalar qilish kerak?*

Ushbu suhbatning asosiy mazmuni o'quvchilarni omma oldida nutq so'zlashga tayyorlashdan iborat.

### Asosiy qism

### Og'zaki nutq

Ushbu darsning asosiy maqsadi – adabiy talaffuz me'yorlari asosida nutqqa mos keluvchi iqtiboslar tanlagan holda mazmunli, ta'sirchan va ravon so'zlay olish, turli mavzular yuzasidan fikrni mazmun ketma-ketligini rejalashtira olgan holda izchil va tushunarli tarzda ifodalay olish bilan bog'liq og'zaki nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

**Guruhlarga bo'lining. Siz Minorayi Kalon haqida gapirmoqchisiz. Nutq tayyorlang.**

Berilgan ko'rsatmalar asosida nutq tayyorlanadi, nutq tayyorlash jarayonida qanday muhim ma'lumotlar haqida so'zlash kerakligini berilgan jadval asosida aniqlashtirib olish tavsiya etiladi.

**Nutq so'zlang. So'zlashdan oldin guruhda mashq qilib oling.**

Tayyorlangan nutqni omma oldida so'zlab berishda nimalarga e'tiborli bo'lish kerakligi haqida eslatib o'tiladi.

**Sinfdoshingiz nutqini hurmat va diqqat bilan tinglang. Ortiqcha shovqin qilmang hamda nutqni bo'lmang. Ravishlarni qo'lladimi, yo'qmi – diqqat qiling, qo'llangan ravishlarni yozib oling va o'qib bering.**

O'quvchilarning og'zaki nutqi kuzatiladi, ularning berilgan tavsiyaga qay darajada amal qilayotgani aniqlanadi, har bir o'quvchining nutqiga nisbatan munosabat bildiriladi, kerakli qo'shimcha tavsiyalar beriladi. O'qituvchi o'quvchi o'z nutqi davomida yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalarning qay biriga a'lo darajada amal qilganini alohida qayd etishi va namuna sifatida ko'rsatishi maqsadga muvofiq.

### Uyga vazifa

**Oila a'zolaringizga nutq so'zlash haqidagi tavsiyalarni tanishtiring. Ularga sinfdagi nutqingizni so'zlab bering. Ular sizning tavsiyalarga qanchalik amal qilganingizni baholashlari kerak bo'ladi.**

Topshiriq o'quvchining nutqiga ota-onasining munosabatini aniqlash, bu orqali o'quvchida nutq so'zlash bilan bog'liq mas'uliyatni oshirish, o'z-o'zining nutqini tanqidiy ko'rib chiqishiga erishish maqsadida berilgan.

# BUYUK IPAK YO‘LI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** grafik ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish, ularni yozma matn ko‘rinishida ifodalay olish, tinglab tushunish, matnlarning uslubi, ularni tashkil qilgan komponentlarning asosiy maqsadi, so‘z qo‘llash, jadval shaklida berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish, ular ustida mulohaza yuritish va undan foydalana olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash; bosh harflar imlosi, ravish, uning ma’no jihatidan turlari, qo‘llanishi bilan bog‘liq lingvistik bilimlarni mustahkamlash.

## 1-soat



BUYUK IPAK YO‘LI

Bu mavzuda o‘rganamiz

• Buyuk ipak yo‘lining tarixiy, ijtimoiy-madaniy ahamiyati • ravishlarni aniqlash • matnlarni qiyoslash • matn uslubi • imlo qoidalari.

1. Mahsulotni bir davlatdan ikkinchi davlatga olib borishning qanday usullari bor?
2. Qadimda davlatlar mahsulotni qanday usullar va vositalar bilan almashlagan?
3. Nima deb o‘ylaysiz, nega qadimda odamlar zamonaviy texnologiyalarsiz ham yo‘ldan adashishmagan?

Xaritadan foydalanib Buyuk ipak yo‘li qaysi davlatlar hududidan o‘tganini ro‘yxat shaklida yozing.

1. Nima deb o‘ylaysiz, mazkur savdo yo‘liga nega “Buyuk ipak yo‘li” deb nom berishgan?
2. Sizningcha, Buyuk ipak yo‘li savdo-sotiqni rivojlantirish bilan birga yana nimalarga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin?

170

### Dars jarayoni

### Kirish

Yangi nutqiy mavzuni e’lon qilishdan oldin o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

*1. Mahsulotni bir davlatdan ikkinchi davlatga olib borish uchun qanday usullar bor?*

*2. Qadimda davlatlar mahsulotni qanday usullar bilan almashtirishgan?*

*3. Nima deb o‘ylaysiz, nega odamlar zamonaviy texnologiyalarsiz yo‘lda adashib qolishmagan? Qanday usullar bilan yo‘lni topib ketaverishgan?*

Ushbu suhbatning asosiy mazmuni o‘quvchilarni nutqiy mavzuga olib kirish, ushbu mavzu bilan bog‘liq tasavvurlarini faollashtirishdan iborat bo‘lishi lozim.

### Asosiy qism

### Yozma nutq

**Xaritadan foydalanib Buyuk ipak yo‘li qaysi davlatlar hududidan o‘tganini ro‘yxat shaklida yozing.**

Ushbu topshiriqni bajarishdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarning grafik ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni turli shakllarda ifodalash, bosh harflar imlosiga oid bilimlarini mustahkamlashdan iborat.

O‘quvchilarning e’tibori darslikdagi xaritaga qaratiladi. Xarita nima haqida ekani so‘raladi. Undagi belgilar to‘g‘risida ma’lumot, topshiriqni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi. **Javob:** *Xitoy, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Eron, Misr, Farg‘ona.*

**1. Nima deb o‘ylaysiz, ushbu qadimgi savdo yo‘liga nima uchun “Buyuk ipak yo‘li” deb nom berishgan? Javob:** *asosiy savdo mahsuloti ipak bo‘lgani uchun.*

**2. Sizningcha, Buyuk ipak yo‘li savdo-sotiqni rivojlantirish bilan birga yana nimalarga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin?**

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilar nutqiy mavzu doirasidagi audiomatnni tinglash jarayoniga tayyorlanadilar. O‘quvchilar o‘zlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni audiomatnda berilgan ma’lumotlar bilan taqqoslaydilar. **Javob:** *savdo yo‘llari madaniyat va ilm almashish uchun ham juda qulay hisoblanadi. Turli karvonlarda turli millat va elat vakillari bo‘lgani uchun ular bir-birining urf-odatlarini o‘rganishi mumkin. Bundan*

*tashqari, karvonlarda tashilgan kitoblar orqali ilm toliblari turli hududlardagi ilmlarni egallashi mumkin edi.*

## Tinglab tushunish

**Audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.**

*Bir yarim ming yildan ortiq vaqt davomida Buyuk ipak yo'li nomi bilan mashhur yo'nalish tarmog'i turli madaniyatlar o'rtasida mahsulot va g'oyalar almashinuvida juda katta rol o'ynadi. Bu transport magistrali miloddan avvalgi 130-yilda Xitoyning Xan sulolasiga asos solingandan to 1453-yil Usmoniylar imperiyasi G'arb bilan savdoni to'xtatgunga qadar mavjud bo'lgan. Ipak yo'li taxminan 6437 km gacha cho'zilgan bo'lib, yer yuzining eng qiyin nuqtalari – Gobi sahrosi va Pomir tog'laridan o'tgan. Hech bir davlat yomon holatdagi yo'llarni ta'mirlamagani sabab qaroqchilik odatiy hol edi. Muhofaza maqsadida savdogarlar tuyalar va boshqa hayvonlardan iborat karvonlar tuzib, birlashishgan. Juda kamchilik savdogarlar marshrutning oxirigacha borgan. Bu esa Ipak yo'lida vositachilik, savdo nuqtalari, mo'l-ko'lchilik kelib chiqishiga sabab bo'lgan.*

*"Ipak yo'li" nomi 1877-yilda Baron Ferdinand Fon Rexdgofen tomonidan o'ylab topilgan. U geograf bo'lgan, Xitoy va Yevropani bog'lovchi xaritani yaratish vaqtida bu yo'lni "Ipak yo'li" deb atagan. Ipak yo'li bo'ylab nafaqat mahsulotlar, balki kasalliklar ham tarqalgan. 1347-yilda paydo bo'lgan qora o'lat savdo yo'llari bo'ylab tarqalgan dahshatli kulfat bo'ldi. Ayrim tadqiqotlar shohidlik berishicha, qora o'lat asosan Ipak yo'li orqali tarqalgan.*

Audiomatn tinglangach, quyidagi savollar asosida suhbat tashkillashtiriladi.

O'tkaziladigan suhbat orqali o'quvchilarning tinglab tushunish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalari rivojlantiriladi.

**1. Buyuk ipak yo'lidagi savdoning to'xtashiga sabab sifatida qanday voqea keltirilgan?**

Ushbu savolga javob berish uchun o'quvchilar matndagi ochiq ma'lumotni yodga olishlari va uni qayta so'zlab berishlari lozim. **Javob:** *Usmoniylar imperiyasining G'arb bilan savdoni to'xtatishi.*

**2. Nima uchun Gobi sahrosi hamda Pomir tog'lari eng qiyin nuqtalar deb atalmoqda?**

Savolga javob berish uchun o'quvchilar matnda keltirilgan ma'lumotlar asosida mushohada qilishi, tegishli xulosalarni chiqara olishi va uni og'zaki ifodalashi so'raladi. **Javob:** *sahro juda issiq, tog'larda esa harakatlanish qiyinligi uchun.*

**3. Qora o'latning tarqalishi qanday kechgan?**

Matnda so'ralgan ma'lumot bilan bog'liq tafsilotlar haqida suhbat tashkillashtiriladi. **Javob:** *kasallangan kalamushlar savdo karvonlari bilan birgalikda O'rta dengizgacha borgan, u yerdan esa Afrika va Yevropaga tarqalgan.*

**4. Samarqandning mashhurligi nimalarda ko'zga tashlanadi?**

Matndagi ma'lumotlar hayotiy bilimlar bilan o'zaro bog'lanadi va savolga javob beriladi. O'quvchilar Samarqandning mashhurligi qaysi jihatdan Buyuk ipak yo'li bilan aloqador ekani haqida so'zlab berishlari kerak. **Javob:** *Samarqand ko'plab yo'nalishlar tutashuvchi va Yevropaga yo'naltiruvchi markaz bo'lgan, bundan tashqari, Samarqand juda ko'plab shoir, usta va astronomlarning vatani bo'lgan, 200 ming kishini suv bilan ta'minlay olgani ham katta mashhurlik keltirgan.*

**5. Nima uchun eng keng tarqalgan mahsulot ipak bo'lgan?**

Bunda ham hayotiy bilimlar bilan matnda berilgan ma'lumotlar o'zaro bog'lanadi. Mantiqiy mushohada qilish asosida savolga javob beriladi. **Javob:** *karvonlarda yengil, ammo qimmat mahsulotlarni tashish foydali bo'lgan, bu talabga ipak to'la javob bergan.*

## Uyga vazifa

## Yozma nutq

**Xaritadan foydalanib gaplarni davom ettiring.**

Grafik ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish, ularni yozma matn ko‘rinishida ifodalay olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar ustida ishlash maqsad qilingan.

O‘quvchilarning e’tibori topshiriqning shartiga qaratiladi. Topshiriq shartiga ko‘ra, xaritada berilgan ma’lumotlarni yozma shaklda ifodalash kerakligi tushuntiriladi. Bunda tinish belgilaridan foydalanish, bosh harflar imlosiga oid qoidalar yodga olinadi.

## 2-soat

### Dars jarayoni

## Kirish

Nutqiy mavzu doirasida suhbat o‘tkaziladi. O‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi.

*1. Sizningcha, savdogarlar sahroda suvni qanday topishgan?*

*2. Nima deb o‘ylaysiz, nega savdogarlar aynan tuyalardan foydalanishgan?*

Bugungi darsda qanday ma’lumotlar bilan tanishish mumkinligi haqidagi kirish suhbati tashkillashtiriladi.

## Asosiy qism

## O‘qib tushunish

**Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.**

Matn o‘qib chiqilgach, ostida berilgan savollar asosida o‘quvchilarning o‘qib tushunishga oid matnni tashkil qilgan komponentlar ma’nosini anglash, unga sarlavha tanlash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

**1. Sayyohlar duch kelgan asosiy muammo nima edi?**

**Javob:** *savdo yo‘nalishining asosiy qismida suvning yo‘qligi.*

**2. Qumliklar orasida quduqlarning barpo etilishiga nimalar sabab bo‘lgan?**

**Javob:** *suvning yo‘qligi, suv olib yurish savdogarlar uchun qimmatga tushardi, ya’ni suv idishlar boshqa narsalarning o‘rnini egallab qo‘yar, savdogarlarni foydadan quruq qoldirardi.*

**3. Sardobadagi tuynuklar qanday vazifani bajargan?**

**Javob:** *havoning aylanib turishini ta’minlagan.*

1-3-savollarga javob berishda o‘quvchilar matnda kelgan ma’lumotlarni aniqlashi va ularga asoslanishi kerak.


1. Sizningcha, savdogarlar sahroda suvni qanday topishgan?
2. Nima deb o'ylaysiz, nega savdogarlar transport sifatida aynan tuyalarni tanlashgan?

Matnni o'qing. Savollarga javob bering.

...

Buyuk ipak yo'li ko'p asrlar davomida Xitoy va Markaziy Osiyo shaharlarini O'rta dengiz mamlakatlari bilan bog'lovchi ko'prik bo'lib kelgan. Yo'l mazkur hududlar o'rtasidagi savdo va madaniyat almashinuvi jarayonlarida muhim rol o'ynagan. U miloddan oldin II asrda Xitoy va Farg'ona vodiysi shaharlari o'rtasidagi savdo yo'li sifatida yuzaga kelgan bo'lib, keyinroq Sharq va G'arb o'rtasidagi muhim transport aloqa yo'li maqomini egalladi va o'rta asrlarga qadar amal qildi.

Buyuk ipak yo'lining asosiy qismi Osiyoning cho'l hududlaridan o'tgan. Savdogarlar qimmatbaho yuklarni tashish uchun qizib turgan qumda yurishga yaxshi moslashgan tuyalardan foydalangan.

Sayyohlar duch kelgan eng asosiy muammo yo'nalishning katta qismida suvning yo'qligi edi. Savdogarlar o'zlari bilan ko'p miqdorda suv olishmagan. Sababi katta suv idishlari boshqa savdo yuklarining o'rnini band qilib qo'yardi. Savdogarlar suvni karvon yo'lining qulay joyida mahoratli muhandislar qurgan suv inshootidan olishgan. Sardoba deb atalgan bunday inshootlarda doim suv bo'lgan. Sardobalarni bugungi kunda ham O'rta Osiyoning ba'zi shaharlarida uchratish mumkin.

Noyob muhandislik inshootlari yo'lning har 12–15 kilometrida uchrab, 150–200 tuyadan iborat karvonning chanqog'ini qondira olgan. Bu quduqlar yerosti suvlaridan emas, balki yomg'irlar va atmosfera havosidagi namlik hisobidan suv yig'ishga qodir o'ziga xos tuzilmaga ega bo'lgan.

Ishonish qiyindek ko'rinsa-da, qadimgi muhandislar quduqlarni qurishda uyurma effektidan foydalangan. Inshoot konstruksiyasi tashqaridan qaraganda toshdan ishlangan kichikroq chodirni eslatgan va bir nechta tuynuklari bo'lgan. Quduqning yarmidan ortiq qismi yer ostiga ko'milgan bo'lib, suvga yetish uchun zinadan pastga tushish

Quduqning kanalli qatlami
Havoning uyurma oqimi
Gumbazning sopol qoplamasi
Quduq devori
Quduqqa tushish zinasi
Suv o'tkazmaydigan qatlam
To'plangan suv qatlami
Toshlar uyumi
Suvbardosh loy qatlam – quduq poydevori
Sardobalar tuzilmasi

172

**4. Sardobalarda suv qanday to‘plangan?**

**Javob:** *quduqning ichi salqin bo‘lgan, undan o‘tayotgan havo esa sovib, tomchilarga aylangan va quduq ichida to‘plangan*

**5. Nega sardobalar “noyob muhandislik inshooti” deb atalmoqda?**

4–5-savollar o‘quvchining mushohada qilish bilan bog‘liq ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar matndagi ma’lumotlarni qay darajada tushunib yetganliklari aniqlanadi. **Javob:** *o‘sha payt uchun suv olishning bunday usuli katta mahoratni talab etar edi. Cho‘lning issiq havosidan suv ajratib olishni ta’minlash uchun murakkab qurilish usullaridan foydalanish, har bir santimetrni to‘g‘ri hisoblash kerak bo‘lardi.*

**6. Ushbu matn orqali muallif nimani ko‘zlagan deb o‘ylaysiz?**

Muallifning matnni yaratishda ko‘zlagan maqsadi haqida suhbat olib boriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘ylantirish uchun bir nechta variantlarni berishi mumkin. **Javob:** *quduq muhandislarining qanchalar salohiyatli ekanini ko‘rsatish hamda sardobalar haqida ma’lumot berish.*

**7. Ushbu matnga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?**

6-savol asosida olib borilgan suhbatning mazmunidan kelib chiqqan holda matn uchun sarlavha tanlash mumkinligi aytiladi.

**Buyuk ipak yo‘li haqida esingizda qolgan ma’lumotlarni ro‘yxat ko‘rinishida yozing.**

Ushbu topshiriqning asosiy maqsadi o‘quvchilarning matnda berilgan muhim ma’lumotlarni yodda saqlash, ularni birinchi shakldan ikkinchi shaklga o‘zgartirgan holda yozma ifodalay olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarini mustahkamlashdan iborat.

Matndagi muhim, ya’ni esda saqlab qolinishi kerak deb hisoblangan ma’lumotlar ro‘yxat tarzida yozilishi kerakligi aytiladi. Ro‘yxatni shakllantirish bo‘yicha ayrim tavsiyalar berib o‘tiladi.

**Guruhlarga bo‘lining. “Adabiyot” darsligingizda berilgan matnlarni eslang. “Minorayi Kalon” hamda ushbu mavzuda berilgan matnlar bilan ularni qiyoslang. Qanday farqlar mavjud ekanini yozing. Quyidagi namunaviy savollardan foydalaning.**

Ushbu topshiriq orqali matnlarning uslubi, ularni tashkil qilgan komponentlarning asosiy maqsadi, so‘z qo‘llash bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalar ustida ish olib boriladi.

O‘quvchilar adabiyot darsligidagi istalgan bir mavzuni darslikda berilgan savollar asosida tahlil qiladilar. Informativ va badiiy uslubda yozilgan matnlar o‘zaro qiyoslanadi. So‘z qo‘llash, ko‘chma ma’nodagi so‘zlar, tasviriy vositalarning qo‘llanishiga oid jihatlarga e’tibor qaratiladi.

## Uyga vazifa

## Yozma nutq

**Buyuk ipak yo‘lining O‘zbekistondan o‘tgan tarmog‘i haqida matn yozmoqchisiz. 169-betdagi jadvalga qarang. Xuddi shu tarzda jadval ishlab chiqing. Kattalar yordamida ma’lumot to‘plang.**

O‘quvchilarning jadval shaklida berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish, ular ustida mulohaza yuritish va undan foydalana olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Aytilgan jadvalga e’tibor qaratiladi. Jadval shaklida berilgan ma’lumotlarning o‘ziga xosligi, buning sabablari haqida savollar bilan murojaat etiladi. Jadval ishlab chiqishga oid tavsiyalar beriladi.

## 3-soat



kerak bo‘lgan. Tom va yon tomon tuynuklarining maxsus konstruksiyasi tufayli ichkarida muntazam cho‘l havosi aylanib turgan. Mutaxassislarning baholashicha, cho‘l havosi hajmi sutkasiga bir necha ming kubometrga yetgan.

Hatto cho‘lning qizigan havosida ham suv bug‘lari mavjud. Katta mahorat bilan barpo etilgan inshoot g‘oyasi aynan mazkur bilimga asoslangan. Arab sayyohlarining xotirlashicha, doim salqin bo‘lgan quduq ichiga tushgan issiq havo sovigan va undagi suv tomchi shaklida ajralib chiqqan. Musaffo, salqin suv tosh gumbazdan quduq tubidagi maxsus chuqurlikka sizib tushgan. Odamlar ichish va tuyalarini sug‘orish uchun u yerdagi suvdan foydalangan.

*daryo.uz saytidan olindi*

1. Sayyohlar duch kelgan asosiy muammo nima edi?
2. Qumliklar orasida sardobalarning barpo etilishiga nima sabab bo‘lgan?
3. Sardobadagi tuynuklar nima vazifani bajargan?
4. Sardobalarda suv qanday to‘plangan?
5. Nega sardobalar “noyob muhandislik inshooti” deb atalmoqda?
6. Ushbu matn orqali muallif nimani ko‘zlagan deb o‘ylaysiz?
7. Ushbu matnga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?

Buyuk ipak yo‘li haqida esingizda qolgan ma’lumotlarni ro‘yxat ko‘rinishida yozing.

Guruhlarga bo‘lining. “Adabiyot” darsligingizda berilgan matnlarni eslang. Minorayi Kalon hamda ushbu mavzuda berilgan matnlar bilan ularni qiyoslang. Qanday farqlar mavjud ekanini yozing. Quyidagi namunaviy savollardan foydalaning.

- Qanday mavzularni qamrab olgan?
- Qaysi biri ma’lumot berishni nazarda tutadi?
- So‘zlarning qo‘llanishida qanday farqlar bor?

| “Adabiyot” darsligidagi matnlarning xususiyatlari | Minorayi Kalon hamda Buyuk ipak yo‘li mavzusidagi matnlarning xususiyatlari |
|---|---|
| | |

Buyuk Ipak yo‘lining O‘zbekistondan o‘tgan tarmog‘i haqida matn yozmoqchisiz. 169-betdagi jadvalga qarang. Xuddi shu tarzda jadval ishlab chiqing. Kattalar yordamida ma’lumot to‘plang.

Uyda tayyorlab kelgan ma’lumotlaringizga qarang. Ular asosida matn yozing. Matn yozishda quyidagilarga amal qiling:

- tuzgan jadvalingizdan foydalaning;
- har bir xatboshida yangi g‘oya yoki fikr berishga harakat qiling;
- xatboshilaringizga sarlavha qo‘ying;
- fe’llarga mos ravishlardan foydalaning.

173

## Dars jarayoni

### Kirish

Bugungi dars davomida yozma nutqni rivojlantirish ustida ish olib borilishi aytiladi, bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar haqida umumiy ma’lumotlar beriladi.

## Asosiy qism

### Yozma nutq

**Uyda tayyorlab kelgan ma’lumotlaringizga qarang. Ular asosida matn yozing. Matn yozishda quyidagilarga amal qiling:**

• tuzgan jadvalingizdan foydalaning;

• har bir xatboshida yangi g‘oya yoki fikr berishga harakat qiling;

• xatboshilaringizga sarlavha qo‘ying;

• fe’llarga mos ravishlardan foydalaning.

Jadval shaklida berilgan ma’lumotlarni bog‘lanishli matnga aylantirish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsad qilingan.

O‘quvchilar uyda tuzib kelgan jadvallarini bog‘lanishli matnga aylantirib yozishlari kerakligi aytiladi, bunda darslikda berilgan ko‘rsatmalarga rioya qilish lozimligi eslatib turiladi.

**Yozgan matningizni partadoshingizga bering. Partadoshingiz yozgan matnni quyidagi mezonlar asosida tekshirib chiqing:**

- *imloviy xatolarni belgilang;*
- *o‘zingiz uchun qiziq bo‘lgan ma’lumotning ostiga chizing;*
- *xatboshilar to‘g‘ri ajratilganiga diqqat qiling;*
- *ravishlarning ostiga chizing;*
- *qanday ma’lumot bilan boyitish mumkinligi haqida maslahat bering.*

Berilgan topshiriqni bajarish orqali matnni o‘qib tahlil qilish, xatboshilarni ajratish, imlo va uslubiy qoidalar bilan bog‘liq bilimlar rivojlantiriladi, ravishlarga oid bilimlar takrorlanadi.

O‘quvchilar partadoshi yozgan matnni yuqoridagi mezonlar asosida tekshiradi. Matnlar tahlili olib borilganda o‘quvchidan o‘z munosabatini bildirish jarayonida yuqorida keltirilgan mezonlarga qay darajada asoslanganini tushuntirib berishini so‘rash kerak.

## Uyga vazifa


### Yozma nutq

**Shu paytgacha olgan bilimlaringiz va quyidagi rasmlar asosida matn yozing.**

Berilgan rasm asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o‘z fikrini to‘g‘ri, izchil ifodalash, shuningdek, 12–14 ta gapdan iborat matn yoza olish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsad qilingan.

Matn yozish, bunda nimalarga e’tiborli bo‘lish kerakligi, unda qanday ma’lumotlar aks etgan bo‘lishi lozimligi bilan bog‘liq qo‘shimcha tavsiyalar beriladi, imlo va punktuatsiya bilan bog‘liq ayrim qoidalar yodga solinadi.

## 4-soat


Yozgan matningizni partadoshingizga bering.

Partadoshingiz yozgan matnni quyidagi mezonlar asosida tekshirib chiqing:

- imloviy xatolarni belgilang;
- o‘zingiz uchun qiziq bo‘lgan ma’lumotning ostiga chizing;
- xatboshilar to‘g‘ri ajratilganiga diqqat qiling;
- ravishlarning ostiga chizing;
- yana qanday ma’lumot bilan matnni boyitish mumkinligi haqida maslahat bering.

Shu paytgacha olgan bilimlaringiz va quyidagi rasmlar asosida matn yozing.

174

## Dars jarayoni

### Kirish

Quyidagi savollar yordamida kirish suhbati tashkillashtiriladi.

*1. Uyda qanday mavzuda matn yozdingiz?*

*2. Matningizning sarlavhasi qanday?*

*3. Matningizda qanday ma'lumotlar mavjud?*

Ushbu savollar yordamida suhbat olib borilganidan so'ng bugungi darsning umumiy mazmuni haqida ma'lumot beriladi.

**Asosiy qism**

**Berilgan topshiriq asosida yozib kelingan matnlar tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish talab etiladi:**

– matnning mazmunida izchillikning mavjudligi;

– matnning maqsadi to'g'ri tanlangani;

– matnda tasviriy vositalarning qo'llangani;

– dalillar to'g'ri keltirilgani;

– dalil keltirish, mavzu doirasidagi va xulosaviy fikrlarni ifodalashda kerakli til birliklaridan o'rinli foydalana olingani;

– uslubiy, imloviy va ishoraviy xatolarga yo'l qo'yilmagani.

**Tahlil asosida o'quvchilarning har biriga alohida tavsiyalar berib boriladi.**

## MUSTAHKAMLASH



1. Uyda qanday mavzuda matn yozdingiz?
2. Matningizning sarlavhasi qanday?
3. Matningizda qanday ma'lumotlar mavjud?

Uyda yozib kelingan matnlarning tahlili va tahriri.

O'qituvchingiz to'g'rilagan o'rinlarga diqqat qiling. O'qituvchingiz tavsiyalari asosida matnni qayta ko'chiring. Xatolaringizni anglab, keyingi safar ularni takrorlamaslikka harakat qiling.

MUSTAHKAMLASH

1. Ushbu bo'limda qanday mavzular bilan tanishdingiz?
2. Yodingizda qolgan ma'lumotlardan uchtasini ayting.

2 ta gap tuzib, yozing. Gaplaringizda ravishlarni qo'llash mumkin bo'lsin, lekin ravishlarni yozib qo'ymang.

Hamma bajarib bo'lgach, gaplaringizni o'qing, qolganlar qanday ravish qo'llash mumkinligini aytishlari kerak.

Guruhlarga bo'lining. Quyidagi so'zlarni jadvalga joylashtiring. Har bir guruh bittadan ustunni tanlashi lozim. Topshiriqni xattaxtada bajaring.

| Tarz, holat | Payt | O'rin | Daraja-miqdor | Maqsad-sabab |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |

**Qo'yish uchun so'zlar:** *bir tarafdan, jim, u yerda, endi, sal, atayin, yayov, bir yoqqa, picha, hozircha, har yerda, yakkama-yakka, xiyol, tashqariga, azza-bazza, so'ng, hanuz, noiloj, oz, ko'p, hech joydan, noilojlikdan, bir necha, hamisha, kam, ancha, chindan, doimo, mo'l, qo'qqisdan, bir qancha, to'satdan, jo'rttaga, xiyla, hamon, behad, dastlab, erta-indin, biroz, qishin-yozin, piyoda, tasodifan, kecha-kunduz, qasddan, hozir, bafurja, arang, astoydil, hech vaqt, ilojsizlikdan, qatorasiga, beri, har doim, nari, bir mahal, eskicha, oldinda, birma-bir, uzoqdan, yonma-yon, olg'a, ichkarida, bir talay, ataylab.*

175

### Dars jarayoni

**Kirish**

Berilgan savollar asosida kirish suhbati tashkillashtiriladi.

*1. Ushbu bo'limda qanday mavzular bilan tanishdingiz?*

*2. Yodingizda qolgan ma'lumotlardan uchtasini ayting.*

**Asosiy qism**

**Morfologiya**

**2 ta gap tuzib, yozing. Gaplaringizda ravishlarni qo'llash mumkin bo'lsin, lekin ravishlarni yozib qo'ymang.**

**Hamma bajarib bo'lgach, gaplaringizni o'qing, qolganlar qanday ravish qo'llash mumkinligini aytishlari kerak.**

Ravish va uning qo'llanishi bilan bog'liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

O'quvchilar ikkitadan gap tuzib, yozadilar, topshiriqning asl mohiyatini yaxshiroq anglash uchun o'qituvchi shunday mazmundagi gaplarni misol tariqasida keltirib, o'quvchilar bilan birgalikda bajarib ko'rishi tavsiya etiladi.

**Guruhlarga bo'lining. Quyidagi so'zlarni jadvalga joylashtiring. Har bir guruh bittadan ustunni tanlashi lozim. Topshiriqni xattaxtada bajaring.**

Ravish, uning ma'no jihatidan turlari, qo'llanishi bilan bog'liq lingvistik bilimlar mustahkamlanadi.

Ravishlarning har biriga so'roq berish orqali ularni jadvalga joylashtirish topshirig'i bajariladi. O'qituvchi ravish bilan bog'liq qoidani yodga soladi, unga murojaat etish mumkinligini aytib o'tadi.

# MINIATYURA – MO‘JAZ SURAT

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilarda miniatyura, kitobat san’ati haqida tasavvur uyg‘otish hamda unga oid til birliklarini faollashtirish; fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlari, juft va takroriy fe’llar, mavzu yuzasidan berilgan matn tarkibidan fe’llarni aniqlash, berilgan mavzu yuzasidan fe’llarni qo‘llagan holda mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlash va fikrini og‘zaki bayon qilish; matn yoki kitob mazmuniga mos keladigan sarlavha va muqova tanlash; kitob muqovalariga qarab uning mazmuniga baho berish bilan bog‘liq tavsifiy matn yaratish.

## 1-soat


MINIATYURA – MO‘JAZ SURAT

Bu mavzuda o‘rganamiz

• Sharq mumtoz miniatyurasi va kitobat san’ati • fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlari • fe’llarni to‘g‘ri qo‘llash • sarlavha.

1. Kompyuter grafikasi haqida ma’lumotlar bilan tanishgan edingiz. Ayting-chi, u qaysi sohalarda keng qo‘llanadi?
2. Ushbu darslikning barcha nusxalaridagi rasmlar bir xil. Nima deb o‘ylaysiz, rasmlar qanday qilib bir xil shaklda chop etiladi?
3. Qadimda kitoblarni nimalar bilan bezashgan deb o‘ylaysiz?

Quyidagi rasmlarga qarang. O‘qituvchingizning savollariga javob bering.

176

### Dars jarayoni

#### Kirish

Mavzuga kirishib olish uchun o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Unda o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

*1. Kompyuter grafikasi haqida ma’lumotlar bilan tanishgan edingiz, ayting-chi, u qaysi sohalarda keng qo‘llanadi?*

*2. Ushbu darslikning barcha nusxalaridagi rasmlar bir xil. Nima deb o‘ylaysiz, rasmlar qanday qilib bir xil shaklda chop etiladi?*

*3. Qadimda kitoblarni nimalar bilan bezashgan deb o‘ylaysiz?*

Savollar umumiy tarzda beriladi, istagan o‘quvchi javob berish mumkin.

#### Asosiy qism

##### Og‘zaki nutq

**Quyidagi rasmlarga qarang. O‘qituvchingizning savollariga javob bering.**

Darslikda kompyuter grafikasida ishlangan tasvir hamda miniatyura namunasi berilgan. O‘qituvchi ushbu tasvirlarni tushuntirish, o‘zaro taqqoslash uchun savollar berishi lozim.

Masalan, quyidagicha savol berish mumkin:

1. *Rasmlar o‘rtasida qanday farq sezdingiz?*
2. *1-rasmda nima aks etgan? Uni ko‘rish, qarab chizish imkoni bormi?*
3. *2-rasmda nima ko‘ryapsiz? Sizningcha, u qo‘lda chizilganmi?*
4. *3-, 4-rasmlarda qanday voqealar tasvirlangan?*
5. *4-rasm chetlarida qanday yozuvlar bor? Nima uchun rasmda yozuvlardan foydalanishgan deb o‘ylaysiz?*
6. *Qo‘lda chizilgan tasvirlarning qanday ustunlik va kamchiliklari bor?*
7. *Kompyuter grafikasida rasm chizishning qanday ustunlik va kamchiliklari bor?*

##### Tinglab tushunish

**Miniatyura san’ati haqidagi audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.**

Audiomatn: “Miniatyura”.

*"Miniatyura" fransuzcha “miniature” hamda lotincha “minium” so‘zlariga aloqador bo‘lib, “qizil bo‘yoq” degan ma’noni anglatadi. Miniatyuralar odatda kichik hajmli, mo‘jaz*

*bo‘lishi hamda tasvirning nafisligi bilan ajralib turadi. O‘rta asrlarda qo‘lyozma asarlarni bezatish uchun qo‘llangan. Shuningdek, suyak, pergament, toshqog‘oz, metall, chinni, ba’zan tamakidon, soat, uzuk kabi maishiy buyumlarga ishlangan kichik hajmdagi rangtasvirga ham "miniatyura" atamasi qo‘llanadi.*

*Qadimda miniatyura asosan bezak vazifasini o‘tagan. Avval Beruniyning “Osor ul-boqiya” asari kabi ilmiy qo‘lyozmalarni bezagan miniatyuralar biroz vaqt o‘tib, badiiy asarlar, dostonlar ko‘chirilgan sahifalarni bezay boshlagan. Miniatyuraning asosiy ahamiyati matn mazmunini tushuntirish va, umuman olganda, dunyoviy xarakterga ega bo‘lgan asarlarni bezashdan iborat bo‘lgan.*

*Bundan tashqari, sopol va chinni idishlarning sirtiga ham turli mazmundagi suratlar tushirilgan bo‘lib, ular ham asosan shu yuzani bezash maqsadida edi.*

*Buyuk musavvir sifatida Sharqda Moniydan so‘ng Junayid Bag‘dodiy, Xoja Abdulhay, Mahmud Siyohqalam, G‘iyosiddin Naqqosh, Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Abdulla Musavvir, Basavan, Rizoyi Abbosiy va boshqalarning nomlari mashhur.*

*Sharq miniatyurasining eng mashhur rassomlaridan biri Kamoliddin Behzod hisoblanadi. Uning musavvir sifatida shakllanishida Alisher Navoiyning beqiyos o‘rni bor. Behzodning rassomchilikdagi ustozi Mirak Naqqosh hisoblanadi. Kamoliddin Behzodning ijodiy kamolot davri miniatyura san’atining ham yuksak taraqqiy etgan davri bo‘ldi. Bu davrda miniatyuralarning mavzu ko‘lami kengaydi. Endi afsonaviy dostonlar, badiiy asarlardagi voqealarni aks ettirish bilan cheklanib qolinmadi. Behzod miniatyura janrini tabiat bilan uyg‘un, voqealarni ham aks ettiradigan, kundalik maishiy hayot tasvirlanadigan janrga aylantirdi. Bundan tashqari, endi yagona shaxs yoki bir necha shaxslardan iborat jamoaning portreti ham miniatyura usulida ishlana boshladi. Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod ana shunday usulda mo‘jaz suratlar soluvchi shogirdlaridan iborat maktab yaratib ketdi.*

**Muhokama**

Mazkur savollar audiomatnni tinglash davomida eksplitsit (ochiq ifodalangan) ma’lumotlarni tushunishni baholashga qaratilgan. Quyida ularning javobi keltirildi. O‘quvchilardan bu javoblarni so‘zma-so‘z aytib berish talab etilmaydi. Asosiy e’tibor ma’lumotlarni tushunib, munosabat bildira olishlariga qaratiladi.

**1. Miniatyura usulidagi rasmlar nimalarga chizilishi mumkin?**

**Javob:** *suyak, pergament, toshqog‘oz, metall, chinni, ba’zan tamakidon, soat, uzuk kabi maishiy buyumlarga chizilishi mumkin.*

**2. Miniatyuralardan qanday maqsadlarda foydalanishgan?**

**Javob:** *qo‘lyozma asarlarni hamda sopol va chinni buyumlarni bezash uchun ishlatishgan.*

**3. Mashhur miniatyurachilarni sanang.**

**Javob:** *buyuk musavvir sifatida sharqda Moniydan so‘ng Junayid Bag‘dodiy, Xoja Abdulhay, Mahmud Siyohqalam, G‘iyosiddin Naqqosh, Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Abdulla Musavvir, Basavan, Rizoyi Abbosiy kabilar nom qozongan.*

**4. Kamoliddin Behzod miniatyura san’atida qanday burilish qildi?**

**Javob:** *u miniatyura janrini tabiat bilan uyg‘un, voqealarni ham aks ettiradigan, kundalik maishiy hayot tasvirlanadigan janrga aylantirdi.*

**5. Nima deb o‘ylaysiz, kompyuterda chizilgan rasmlar qimmatliroqmi yoki miniatyura asarlari? Nega bunday deb hisoblaysiz?**

Bu o‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan savol bo‘lib, ulardan audiomatndan olgan xulosalari asosida mantiqan o‘ylab javob berish talab qilinadi.

Bundan asosiy maqsad o‘quvchilarga miniatyura san’ati bir necha asrlar oldin paydo bo‘lgani, o‘tmishda bo‘lib o‘tgan janglar, bizdan avval yashab o‘tgan ajdodlarimiz qiyofasi haqida ma'lumot berishini tushuntirishdan iborat.

## Og‘zaki nutq. Tasvirlash

**Guruhlarga bo‘lining. Quyidagilardan birini tanlang. Miniatyura namunalarida nimalar tasvirlanganini so‘zlab bering.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning gapirish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar darslikda berilgan miniatyura namunalaridan birini tanlab, unda aks etgan voqeani tasvirlab berishlari lozim.

Bu jarayonda bir o‘quvchi gapirganda o‘tirgan o‘quvchilar kuzatuvchi maqomida bo‘ladilar hamda nutqini yakunlagach, uning tasvirlashiga o‘z munosabatlarini bildirishlari maqsadga muvofiq.

Bunda asosiy e’tibor miniatyuradagi voqeani tasvirlab berish, tasvirlashga oid til birliklaridan o‘rinli foydalanish hamda o‘zgalar nutqiga munosabat bildira olishga qaratiladi.

## Uyga vazifa

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Quyida qo‘lingizdagi darslikning yaratilish jarayoni aks etgan. Tasvirni diqqat bilan kuzating hamda darslikning yaralish jarayoni haqida matn yozing. Tushunmagan so‘zlaringizni kattalar yordamida lug‘atlardan toping.**

Bu topshiriqdan asosiy maqsad o‘quvchilarning chizmani tushunish, chizmada berilgan tasvirlarni yaxlit matn holida yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ularga foydalanayotgan darsliklari qo‘llariga kelgunga qadar qanday jarayonlardan o‘tishi haqida ma’lumot berishdan iborat.

O‘quvchilar berilgan ketma-ketlikni tushunib, darslikning yaralish jarayonini tasvirlab yozishlari aytiladi. O‘zlariga notanish so‘zlar izohi uchun lug‘atdan foydalanishlari maqsadga muvofiq.

## 2-soat

### Dars jarayoni

### Kirish


*1. Darslikning yaratilishi necha bosqichdan iborat ekan?*

*2. Sizningcha, rassom va dizaynerlarsiz darslik qanday ko‘rinishda bo‘lardi?*

*3. Uyga vazifani bajarishda qanday so‘zlarni o‘rganib oldingiz?*

Bu savollar o‘quvchining uyga vazifani qay darajada bajarganini tekshirish hamda darsga olib kirish maqsadida berilgan. O‘quvchilar ushbu savollarga bajargan uy ishlari hamda dars davomida o‘zlashtirgan bilimlari asosida javob berishlari lozim.

### Asosiy qism


Quyida qo‘lingizdagi darslikning yaratilish jarayoni aks etgan. Tasvirni diqqat bilan kuzating hamda darslikning yaralish jarayoni haqidagi tasavvurlaringiz asosida matn yozing. Tushunmagan so‘zlaringizni kattalar yordamida lug‘atlardan toping.

QO‘LYOZMA MUALLIFLAR
MUHARRIR
SAHIFALOVCHI
DIZAYNER
RASSOM
METODIST
SES STANDART
TASHQI TAQRIZ
MUSAHHIH
TASDIQLASH
EKSPERTLAR
TARJIMA NUSXA MAKETLARI
TARJIMON
MUHARRIR (MUSAHHIH)
SAHIFALOVCHI
EKSPERTLAR VA METODIST

1. Darslikning yaratilishi necha bosqichdan iborat ekan?
2. Sizningcha, rassom va dizaynerlarsiz darslik qanday ko‘rinishda bo‘lardi?
3. Uyga vazifani bajarishda qanday so‘zlarni o‘rganib oldingiz?

Quyidagi ma’lumotni o‘qing. Uyda yozgan matningizdagi kamchiliklarni aniqlab, ularni to‘g‘rilang va matnni qayta yozing.

Jarayonni tavsiflashda e’tibor qaratish zarur bo‘lgan birinchi unsur – voqealar xronologiyasi **– ketma-ketligini to‘g‘ri belgilab olishdir.**
Jarayonning har bir bosqichi yangi qatordan yozilishi maqsadga muvofiq. Har bir yangi bosqichni raqamlash ham mumkin, lekin bu tavsiflovchining ixtiyorida, ya’ni raqamlamasa ham bo‘ladi.
Jarayonni tavsiflashda tartibni anglatuvchi so‘z va qo‘shimchalardan keng foydalaniladi: *birinchidan, ikkinchidan, avval, keyin, so‘ng, oxirida, oldin, ...gacha, ...shi bilan.*
Jarayonni tavsiflayotganda odatda jumlalar o‘tgan zamonda tuziladi. Bundan tashqari, harakatni bajaruvchi shaxs aniq bo‘lmagani uchun fe’lning quyidagi shakllaridan foydalanish to‘g‘ri bo‘ladi: *solinadi, qilinadi, quriladi, yoziladi, tekshiriladi, ochiladi, yopiladi.*

178

### O‘qib tushunish. Nazariy ma’lumot. Yozma nutq. Matnni qayta tahrirlash

**Quyidagi ma’lumotni o‘qing. Uyda yozgan matningizdagi kamchiliklarni aniqlab, ularni to‘g‘rilang va matnni qayta yozing.**

O‘quvchilar darslikda berilgan ma’lumot bilan mustaqil tanishib chiqqanlaridan so‘ng o‘qituvchi tomonidan qisqa savol-javob o‘tkazilishi hamda berilgan nazariy ma’lumot tushuntirilishi lozim.

O‘quvchilar tasviriy matn yozishda nimalarga e’tibor qaratishlari lozimligi haqida tushunchaga ega bo‘lganlaridan so‘ng o‘zlari

yozgan matnni tahrir qilishlari aytiladi. Bu jarayonda dastlab yozgan matnlari o‘zlashtirgan nazariy ma’lumotlaridagi qoidalarga qanchalik mosligini taqqoslab ko‘rishlari, so‘ng kamchiliklarini tuzatib, matnlarini to‘ldirib, qayta yozishlari lozim.

Bu jarayonda o‘quvchilarga matnlaridagi faktik xatolarni tuzatib olish uchun quyidagi havola ham taqdim etiladi.

Havola: https://telegra.ph/Bir-darslikning-yaralish-tartibi-01-05

## Tinglab tushunish. Morfologiya

**Audiomatnni tinglang, juft va takroriy fe’llarni yozib oling.**

O‘quvchilarga topshiriq sharti tushuntiriladi. So‘ngra audiomatn qayta eshittiriladi. O‘quvchilar audiomatnni tinglash davomida fe’llarni aniqlab, ularni ikki ustunga: juft va takroriy fe’llarga ajratib yozishlari lozim.

## Uyga vazifa

## Yozma nutq. Morfologiya

**Quyidagi jadvalni chizing. Berilgan gaplardagi fe’llarni tuzilishiga ko‘ra jadvalga joylashtiring.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning fe’llarni tuzilishiga ko‘ra ajrata olish bo‘yicha bilimini mustahkamlashga qaratilgan. O‘quvchilar jadvalni daftarlariga chizib, jadval ostida berilgan gaplardagi fe’llarni aniqlab, tuzilishiga ko‘ra jadvalga joylashtirishlari lozim.

**Javob:**

***Sodda fe’l:*** *qurmoq, buzmoq, yurmoq, tegmoq, ketmoq, yupatmoq, pichirlamoq, eshitmoq, tugamoq, qutlamoq, tilamoq, to‘planmoq, turmoq, bosmoq, qaytmoq, ochmoq, sekinlamoq, kutmoq, uyg‘onmoq, chiqarmoq.*

***Qo‘shma fe’l:*** *uxlab qolmoq, xizmat qilmoq, ovoz chiqmoq, o‘rnashib olmoq, andisha qilmoq, egilib turmoq.*

***Juft fe’l:*** *unmoq-o‘smoq, urinmoq-turtinmoq.*

***Takroriy fe’l:*** *o‘yladi-o‘yladi.*

***Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi:*** *olib kelmoq, gapira olmoq, kirib olmoq, o‘qiy boshlamoq, cho‘zilib ketmoq.*

## 3-soat



Matnni o‘qing. Topshiriqlarni bajaring.

KITOBAT SAN’ATI

Insoniyat rivojida aql-idrok va ruhiy barkamollik vositasi bo‘lgan kitob – buyuk mo‘jiza. Darhaqiqat, kitob odamzodning yaqin sirdoshi, yo‘ldoshi va uni asrlardan asrlarga olib o‘tgan ziyo mash’alidir. Kitoblar faqat bilim manbai bo‘libgina qolmay, madaniy hayotimizning betakror san’ati sifatida yashab kelayotir. Xalqimiz azal-azaldan ilmga, kitobga chanqoq. Shu bois yurtimizda kitobatchilik qadimdan rivojlanib kelgan. Fikrimizga dalil sifatida “Avesto” qo‘lyozmalari, sopol idishlar, charm o‘ramlari, metall buyumlardagi yozuvlarni aytsak bo‘ladi.

Kitobat san’ati bir qancha qo‘li gul hunarmandlar tomonidan bajariladigan murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, bular – qog‘ozrez, xattot (kitob va risolalarni ko‘chiruvchi kotib), lavvoh (kitob sahifalarini tasvirlar va naqshinkor lavhalar bilan bezovchi), muzahhib (zarhal beruvchi mo‘yqalam sohibi), musavvir (rassom), sahhof (muqovasoz)lardan iborat jamoadir.

Qo‘lyozma kitoblarni tayyorlashda kitob uchun yaxshi, sifatli qog‘oz tanlash muhim bo‘lgan. Samarqand qog‘ozi, ayniqsa, o‘zining bejirimligi va sifati bilan dong taratgan. Samarqand qog‘ozlari miloddan avvalgi davrda Buyuk ipak yo‘li orqali Eron, Hindiston, Shom va Rumgacha yetib borgan. “Maroqand qog‘ozlari, – deb yozgan edi qadimgi yunon olimi Herodot “Tarix” asarida, – o‘zining sifati, yozuvning tiniq ko‘rinishi, ixchamligi bilan Xitoy qog‘ozlaridan yuqori turadi”. Narshaxiyning VI–VII asrlardan hikoya qiluvchi mashhur “Buxoro tarixi” hamda Firdavsiyning “Shohnoma” asari ham Samarqand qog‘oziga bitilgani tufayli bugungi kungacha yetib kelgan.

Xattotlar matnni qog‘ozga mistar (maxsus qog‘oz-karton) ustiga ip tortib, uning izini tushirib olganlaridan so‘ng yozishga kirishganlar. Matnni qanday joylashtirish xattotning mahoratiga bog‘liq bo‘lgan. ***Yozilgan matnni sahhof hoshiyali qog‘ozga yelimlagan, uning ustidan jadvalkash turli-tuman ranglarda chiziqlar tortib, matnni jadvalga olgan.*** Keyin esa muzahhib oltin suvi va turli ranglar bilan qo‘lyozmani ziynatlagan. Bunda muzahhiblar “shams”, “lavha”, “sarlavha”, “zarvaraq”, “xotima” kabi naqshlardan foydalanganlar. Bo‘sh qoldirilgan joylarga musavvirlar miniatyura ishlaganlar. Ular rasmlarni turli ranglarda, oltin, kumush ishlatgan holda bo‘yaganlar. Nihoyat muqovachilar qo‘lyozmaga naqsh va turli xil bo‘yoqlar bilan jilo bergan, oltin suvlari yurgizilgan charm muqovaga biriktirgan. Muqovaning g‘ilofi ko‘pincha bosma, o‘yma, qadama naqshlar, yorqin rasmlar bilan bezatilgan kumush yoki yog‘ochdan bo‘lgan.

180

### Dars jarayoni

## Kirish

*Kitobat san’ati nima? U haqida nimalarni bilasiz?*

## Asosiy qism

## O‘qib tushunish

**Matnni o‘qing. Topshiriqlarni bajaring.**

Matn: “Kitobat san’ati”.

Muallif: Sh. Azimova.

O‘quvchilarga matnni o‘qib chiqishlari aytiladi.

## Leksikologiya

**Quyidagi so‘zlarni ularning izohi bilan moslashtirib ko‘chiring.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, tarixiy so‘zlar hamda ularning ma’nosi haqida tushuncha hosil qilishga qaratilgan. Topshiriqni bajarishda o‘quvchilar matndan foydalanishlari mumkin.

Berilgan izohlar matnda aynan uchramaydi, o‘quvchilar matndagi ma’lumotlar

mazmunidan xulosa qilib, so‘zlarni izohi bilan to‘g‘ri moslashtirishlari lozim.

**Javob:**

| | |
|---|---|
| *Xattot* | *kitoblarni, asarlarni husnixat bilan ko‘chira oladigan, aniq va chiroyli yoza oladigan odam* |
| *Lavvoh* | *qo‘lyozma kitoblarni turli naqshlar va bezaklar bilan boyituvchi usta* |
| *Qog‘ozrez* | *qog‘oz tayyorlovchi, ularni qirqib, kesib, kitob shakliga moslovchi odam* |
| *Muzahhib* | *qimmatbaho metall kukuni aralashtirib tayyorlangan bo‘yoqlar bilan kitoblarga ishlov beruvchi usta* |
| *Sahhof* | *qog‘ozni sahifalash va kitoblarni muqovalash bilan shug‘ullanuvchi usta* |
| *Musavvir* | *turli tasvirlar ishlovchi, rasmlar chizuvchi ijodkor odam* |

**Muhokama**

**Yuqoridagi topshiriq asosida quyidagi savollarga javob bering.**

**1. "Qog‘ozrez" so‘zi qadimda qo‘shma so‘z bo‘lgan. Endi ayting-chi, “rez” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?**

Bu savoldan o‘quvchilarga tarixiy so‘zlar etimologiyasini tushuntirish maqsad qilingan. O‘quvchilar yuqoridagi topshiriqda qog‘ozrez so‘ziga berilgan ta’rifdan *rez* so‘zi qanday ma’no anglatishini aniqlab, aytishlari mumkin.

***rez*** **–** *kesuvchi; tuzatuvchi.*

**2. Lavvoh so‘zining ma’nosi asosida lavh nima ekanini tushuntiring.**

Bu savolga javob berishda ham o‘quvchilar lavvoh so‘ziga berilgan izohdan, uning bajaradigan vazifasidan kelib chiqib, javob berishi nazarda tutilgan.

***lavh*** **–** *qog‘oz, lavha, biror ma’lumot yozib, ilib qo‘yilgan taxtacha yoki qog‘oz.*

**3. Kitobingizning eng oxirgi betini oching. Kitob ustida ishlagan qaysi kasb egasi sahhofga mos keladi?**

Bunda o‘quvchilar mos keluvchi so‘zni topishlari uchun ushbu kasb egalari bajaruvchi vazifalarga e’tibor qaratishlari lozim.

*Dizayner va sahifalovchi mos keladi, ismi Oloviddin Sobir o‘g‘li.*

**4. "Musavvir" so‘zi "tasvir" so‘zi bilan bog‘liq. Tasvirlarni yaratuvchi odam musavvir deyiladi. Endi shunga o‘xshash o‘zaro aloqadagi so‘zlarga misol ayting.**

Bu savolga javob berishda o‘quvchilar hayotiy kuzatishlariga hamda dars davomida egallagan bilimlariga tayanadilar. Bunda berilgan namuna asosida o‘zaro aloqadorligi bor so‘zlarga misol topib, aytishlari lozim.

*Masalan, muharrir – tahrirlovchi kabi.*

**Uyga vazifa**

**Yozma nutq. Matn yozish**

**Quyidagi miniatyuralarga diqqat qiling. Ular qaysi asar asosida ishlangan bo‘lishi mumkin? Asarning qaysi voqealarini o‘zida aks ettirmoqda? Isbotlashga harakat qiling.**

Bu topshiriq o‘quvchining mustaqil izlanib, ijodiy yondashishiga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar berilgan miniatyuralar qaysi asarga tegishli ekanini aniqlab, ularni izohlashlari lozim.

Bu jarayonda kitoblar hamda internet manbalaridan foydalanish mumkin. Asosiy e’tibor miniatyuralardagi tasvirlarni asar voqealari bilan taqqoslab, isbotlab berishga qaratiladi.

**Javob:** *“Shum bola” asari.*

**4-soat**

**Dars jarayoni**

**Kirish**

*Bitta kitob tayyor bo‘lgunga qadar qanday kasb egalari mehnat qilishadi? O‘rta asrlar va hozirgi kun misolida aytib bering.*

## Asosiy qism

### Test

**“Kitobat san’ati” matni asosida tuzilgan testlarni yeching. Javoblarni daftaringizga belgilang. Matndan foydalanishingiz mumkin.**

O‘quvchilarga “Kitobat san’ati” matni asosida tuzilgan testlar berilgan. O‘quvchilar to‘g‘ri javoblarni aniqlab, daftarlariga yozishlari lozim. Test ishlash jarayonida matndan bemalol foydalanish mumkinligi aytiladi.

Bunda asosiy e’tibor matnni o‘qib tushunish, test javoblarini to‘g‘ri aniqlay olish hamda noto‘g‘ri javoblar nima uchun xato ekanini tushunishga qaratiladi.



Quyidagi miniatyuralarga diqqat qiling. Ular qaysi asar asosida ishlangan bo‘lishi mumkin va qaysi voqealarni o‘zida aks ettirmoqda? Isbotlashga harakat qiling.

“Kitobat san’ati” matni asosida tuzilgan testlarni yeching. Javoblarni daftaringizga belgilang. Matndan foydalanishingiz mumkin.

TEST TOPSHIRIQLARI

**1. To‘g‘ri javobni toping.**
Quyidagi gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z qanday ma’noni anglatmoqda?
*Xalqimiz azal-azaldan ilmga, kitobga* ***chanqoq****.*
A) suvsiragan B) zor bo‘lmoq
C) ishtiyoqmand D) tashna bo‘lmoq

**2. Hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.**
Kitob tayyorlash jarayonida bir necha mutaxassislar ishlaydi.
A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri

182

### Test tahlili

**Test topshiriqlarini o‘qituvchingiz bilan tahlil qiling.**

**1. To‘g‘ri javob:** D) ishtiyoqmand.

Bu test so‘zning kontekstual ma’nosini topishga qaratilgan. Variantlarda “chanqoq” so‘zining ma’nolari berilgan. O‘quvchilar berilgan gapning ma’no-mazmuniga qarab ushbu so‘z qanday ma’noda kelganini topishlari lozim. Buning uchun variantlarda berilgan so‘zlarni "chanqoq" so‘zi o‘rniga qo‘yib o‘qishlari aytiladi.

**2. To‘g‘ri javob:** A) to‘g‘ri.

Bu test matndagi gaplarni integratsiya qilgan holda mazmun chiqara olishga qaratilgan. Matnning 2-xatboshisida berilgan ma’lumotlar mazmunidan kitob tayyorlash jarayonida bir necha kasb ustalari faoliyat olib borishini anglash mumkin.

**3. To‘g‘ri javob:** A) to‘g‘ri.

Bu test matndagi gaplarni parafraza qilish orqali ma’lumot chiqarishga qaratilgan. Matnning 3-xatboshisida berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, *Samarqand qog‘ozlariga yunon olimi Herodot “Tarix” asarida "o‘zining sifati, yozuvning tiniq ko‘rinishi, ixchamligi bilan Xitoy qog‘ozlaridan yuqori turadi”, deya baho bergan. Ushbu gapda ajratib ko‘rsatilgan jumla orqali Samarqand qog‘ozlari bilan Xitoy qog‘ozlari raqobatda bo‘lganini* anglash mumkin.

**4. To‘g‘ri javob:** A) to‘g‘ri.

Bu test matndagi gaplarni integratsiya qilgan holda mazmun chiqara olishga qaratilgan. Matnning 3-xatboshisida berilgan ma’lumotlar mazmunidan *Maroqand Samarqandning qadimgi nomi ekanini, ikkalasi bir hududni anglatganini bilish* mumkin.

**5. To‘g‘ri javob:** A) Herodot.

Bu test matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Variantlarda berilgan tarixiy shaxs nomlari matnda tilga olingan.

Matnning 3-xatboshisida Herodot haqida aytilgan ikki ma’lumotdan: *yunon olimi ekani hamda “Tarix” asarini yozganidan uning tarixchi olim ekanini anglash mumkin.*

**6. To‘g‘ri javob:** D) xattot.

Bu test matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Variantlarda berilgan kasb nomlarining barchasi matnda tilga olingan.

Matnning 4-xatboshisida berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, kitob *sahifasidagi matnning joylashuvi xattot mahoratiga bog‘liqligini* anglash mumkin.

**7. To‘g‘ri javob:** B) kitobning matn qismi hamda hoshiya qismi alohida tayyorlangan.

Bu test matndagi gaplarni integratsiya qilib, xulosa chiqarishga qaratilgan. Matnda ajratib ko‘rsatilgan gap mazmunidan kitobning matn hamda hoshiya qismi alohida tayyorlangan degan xulosaga kelish mumkin.

**8. To‘g‘ri javob:** D) charm.

Bu test matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Matnning 4-xatboshisida berilgan ma’lumotlardan kitob muqovasi charmdan tayyorlanganini anglash mumkin.

**9. To‘g‘ri javob:** *xattot, lavvoh, jadvalkash, muzahhib, musavvir, muqovachi.*

Bu test matndagi ma’lumotlarni saralab olishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar matndagi ma’lumotlardan kitob tayyor holatga kelgunga qadar mehnat qiladigan ustalarni aniqlab, ketma-ketlikda yozishi lozim.

**Uyga vazifa**

**Morfologiya**

**"Kitobat san’ati" matnida qo‘llangan sodda hamda qo‘shma fe’llarni ajratib yozing.**

Bu topshiriq matnni lingvistik tahlil qilishga qaratilgan. O‘quvchilar fe’l tuzilishi haqida egallagan bilimlari asosida matn tarkibidan fe’llarni aniqlab, ularni sodda va qo‘shma fe’llarga ajratib yozishlari lozim.

Bu jarayonda qo‘shma fe’llarni aniqlashda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalariga chalg‘ib ketmaslik, sodda fe’llarga sodda tub va sodda yasama fe’llarni ham olishlariga alohida e’tibor qaratiladi.

## 5-soat

### Dars jarayoni

**Kirish**

*Kitob tayyorlashning qanday bosqichlari bor ekan? Ketma-ketlikda aytib bering.*

**Asosiy qism**

**Yozma nutq. Matn yaratish**

**Quyidagi chizma asosida o‘z kitobingizni yasang. Uni turli naqshlar va rasmlar bilan bezang. Unga o‘zingiz istagan mavzuda matn yozing.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning dars davomida o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy qo‘llashiga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar berilgan chizmalar ketma-ketligini, undagi shakllarni tushunib, mustaqil ravishda o‘z kitoblarini yasashi lozim.

Yasash jarayoniga o‘tishdan avval o‘quvchilar berilgan chizmalar ketma-ketligini og‘zaki aytadi. Bu jarayonda chizmalarni tasvirlashdagi mahorati hamda ularga oid til birliklarini o‘rinli qo‘llashi tekshiriladi.

O‘quvchilar gapirib bo‘lganlaridan so‘ng o‘qituvchi ushbu chizmani ko‘rsatib, namunali tarzda tasvirlab berishi maqsadga muvofiq.

O‘quvchilar yasash jarayonini mustaqil amalga oshirishlari, dars davomida egallagan bilimlari asosida o‘zlarining yangi kitoblarini yaratishlari lozim. Yasagan kitoblarini turli yozuv, naqshlar, suratlar bilan bezashlari talab etiladi.

Bu topshiriq o‘quvchilarni kitob yaratish jarayoniga amaliy olib kirish bilan birga ularning ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi.

**Uyga vazifa**

**Og‘zaki nutq**

**Oila a’zolaringizga tayyorlagan kitobingiz haqida gapirib bering.**


Ushbu topshiriqni har bir o‘quvchi o‘zi mustaqil ravishda bajaradi. Ular oila a’zolariga tayyorlagan kitobi haqida gapirib berishi lozim. Buning uchun avval o‘zi yasagan kitobcha asosida tayyorlanib, keyin gapirib berishi aytiladi.

Tasvirlash jarayonida publitsistik, badiiy uslubdan foydalanish mumkin. Bu topshiriq o‘quvchida yaratgan mahsulotini tasvirlash, reklama matni yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

# OQSAROYGA BITILGAN HIKMAT

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilar nutqida tarixiy obidalar, me’morchilikka oid til birliklarini faollashtirish; taqlid so‘zlar va ularning imlosini tushuntirish; nutq uslublari: badiiy uslub, badiiy va badiiy bo‘lmagan uslubga oid til birliklaridan o‘rinli foydalanish; nutqiy mavzu doirasida tavsifiy matn yaratish.

## 1-soat


OQSAROYGA BITILGAN HIKMAT

Bu mavzuda o‘rganamiz

• O‘zbekiston me’morchiligi an’analari • tarixiy obidalar • me’morchilikka oid til birliklari • taqlid so‘zlar • badiiy va badiiy bo‘lmagan uslub • tavsifiy matn yaratish.

1. Taqlid deganda nimani tushunasiz?
2. Biror marta hayvonlarning, narsalarning ovozini o‘xshatishingiz kerak bo‘lganmi?
3. Nimalarning ovozini o‘xshata olasiz?

Rasmlardagi holatlarni ifodalovchi so‘zlarni yozing.

Eshitgan tovushlaringizni yozuvda ifodalang.

Jonzotlar va jonsiz narsalarning tovushi va holatiga taqlidni bildirgan so‘zlar **taqlid so‘zlar** deyiladi. ***Inga*** *(chaqaloq ovozi)*, ***vov-vov*** *(kuchukning ovozi)*, ***g‘iyq*** *(eshik ovozi)* kabilar **tovushga taqlid so‘zlar;** ***lip-lip*** *(olov holati)*, ***yal-yal*** *(tovlanish)* kabilar **holatga taqlid so‘zlar** hisoblanadi.

185

### Dars jarayoni

#### Kirish

**1. Taqlid deganda nimani tushunasiz?**

Bu savol o‘quvchining lug‘at boyligini oshirish, “taqlid” so‘zining ma’nosi haqida tushuncha hosil qilishdan iborat. Dastlab o‘quvchilardan ushbu so‘z haqidagi tushunchalari so‘raladi, so‘ngra izoh beriladi.

*Taqlid – shaxs yoki narsaning ovozi, xatti-harakati va shu kabilarni iloji boricha aniqlik bilan, o‘ziday qilib aytish, bajarish; o‘xshatma ovoz, harakat qilish.*

**2. Biror marta hayvonlarning, narsalarning ovozini o‘xshatishingiz kerak bo‘lganmi?**

Bu savoldan maqsad o‘quvchilarga kundalik turmushda hayvonlarni chaqirish holatlarini ifodalash uchun taqlid so‘zdan foydalanishni tushuntirishdan iborat.

**3. Nimalarning ovozini o‘xshata olasiz?**

Bu savol o‘quvchilar nutqida taqlid so‘zlarni amaliy qo‘llab ko‘rishga qaratilgan.

#### Asosiy qism

##### Alohida so‘zlar

**Rasmlardagi holatlarni ifodalovchi so‘zlarni yozing.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarga taqlid so‘z va uning imlosini amaliy topshiriq orqali o‘rgatishni maqsad qilgan. O‘quvchilar darslikda berilgan rasmlarning holatlarini ifodalovchi birliklarni yozishlari lozim.

Bitta rasmga bir nechta taqlid so‘z mos kelishi mumkin. Bunda o‘quvchilar yozgan taqlid so‘zlarning rasmdagi holatni ifodalashi hamda imlosiga e’tibor qaratiladi.

##### Tinglab tushunish

**Eshitgan tovushlaringizni yozuvda ifodalang.**

Bu topshiriqda o‘quvchilar eshitgan tovushlarini yozishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning tovushlarni so‘zlarda ifodalay olishi hamda taqlid so‘zlar imlosiga qaratiladi.

##### Qoida. Alohida so‘zlar

Yuqoridagi ikkita topshiriq orqali o‘quvchilar taqlid so‘zlar bilan amaliy tanishganlaridan so‘ng taqlid so‘z haqida nazariy ma’lumot berib, imlosi tushuntiriladi.

##### Alohida so‘zlar. Sintaksis

**Yuqoridagi qoida asosida *holatga taqlid so‘zlar*ning qanday bo‘lishi haqida qoida yarating. Misollar keltiring.**

Bunda o‘quvchilar yuqorida tanishgan qoidalari hamda hayotiy kuzatishlari asosida holatga taqlid so‘zlar uchun qoida va uni ifodalashga oid misol yozishlari lozim.

Bu jarayonda o‘quvchidan aynan bir qoida yozib berishi talab etilmaydi. Asosiy e’tibor holatga taqlid so‘zlar nima ekanini, qanday vaziyatlarda qo‘llanishini tushunish hamda yozgan qoidasini fikrlari bilan asoslay olishiga qaratiladi.

### Uyga vazifa

### Alohida so‘zlar. Sintaksis

**Quyidagi so‘zlarni ikki ustunga moslab ko‘chiring. Istalgan 6 ta so‘zni qatnashtirib gap tuzing.**

Bu topshiriq dars davomida taqlid so‘zlar haqida o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan taqlid so‘zlarni o‘qib, ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajratib yozishlari, so‘ng ularning istalgan 6 tasini olib, ular ishtirokida gap tuzishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor taqlid so‘zlarning ma’nosini tushunish hamda unga mos kontekst tuzishga qaratiladi.

*Javob:*

| Holatga taqlid so‘zlar | Tovushga taqlid so‘zlar |
|---|---|
| *dag‘-dag‘, dir-dir, yal-yal, lip-lip, yilt-yilt, yarq, milt.* | *chars-churs, gurs-gurs, g‘uv-g‘uv, ship-ship, qars-qurs, g‘a-g‘a, g‘iyq, taq, jiz-jiz, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir, dupur, qah-qah, shildir, tfu, paq, paq-puq.* |

## 2-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*1. Badiiy uslub deganda nimani tushunasiz?*

*2. Sizningcha, badiiy uslub oddiy so‘zlashuv nutqidan qanday farq qiladi?*

*3. Badiiy uslubdagi nutqni qayerlarda uchratish mumkin?*

Ushbu savollar o‘quvchilarni mavzuga olib kirish, badiiy uslub va uni qo‘llash holatlari haqida tasavvur uyg‘otishga qaratilgan. Savolga istagan o‘quvchilar javob berishi mumkin.


### O‘qib tushunish

**Matnni o‘qing. Taqlid so‘zlarni aniqlang. Nimaga taqlid ekanini tushuntiring.**

Matn: "Oqsaroy favvoralari".

Muallif: Farhod Eshmo‘minov.

O‘quvchilar berilgan matnni o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng undagi taqlid so‘zlarni aniqlab, ularga o‘z munosabatlarini bildirishlari lozim.



Yuqoridagi qoida asosida ***holatga taqlid so‘zlar*** qanday bo‘lishi haqida qoida yarating. Misollar keltiring.

Quyidagi so‘zlarni ikki ustunga moslab ko‘chiring. Istalgan 6 ta so‘zni qatnashtirib gap tuzing.

*dag‘-dag‘, chars-churs, dir-dir, yal-yal, gurs-gurs, g‘uv-g‘uv, ship-ship, tars-tars, qars-qirs, lip-lip, g‘a-g‘a, g‘iyq, yilt-yilt, taq, yarq, jiz-jiz, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir, milt, dupur, qah-qah, shildir, tfu, paq, paq-puq.*

| Holatga taqlid so‘zlar | Tovushga taqlid so‘zlar |
|---|---|
| | |

1. Badiiy uslub deganda nimani tushunasiz?
2. Sizningcha, badiiy uslub oddiy so‘zlashuv nutqidan qanday farq qiladi?
3. Badiiy uslubdagi nutqni qayerlarda uchratish mumkin?

Matnni o‘qing. Taqlid so‘zlarni aniqlang. Nimaga taqlid ekanini tushuntiring.

**OQSAROYNING FAVVORALARI**

***(1-qism)***

Elchini katta e’zoz bilan Oqsaroyga olib kirishdi. Ulkan ko‘shkli saroy darvozasidan kirib borar ekan, Klavixo bu shohona koshonaning har burchiga ***yosh boladek intiq boqar,*** o‘zgacha nur taralib turgan devorlarning ***mahobati va bejirim naqshlaridan ko‘zi qamashardi.*** Oyog‘i ostidagi yilt-yilt ***marmarda mavjlanayotgan o‘z aksini ko‘rib*** turgan mehmon qadamini yengillatdi. ***Go‘yoki oyna ustida sirpanib uchayotgandek ko‘ngli hapriqdi.***



### Muhokama

**1. Klavixo kim? Sizningcha, uning yurtimiz tarixida qanday o‘rni bor?**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnda alohida ajratib berilgan Klavixo haqidagi ma’lumotlarni tushunib, javob berishi lozim. Bunda ma’lumotlarni so‘zma-so‘z aytib berishlari talab etilmaydi. Asosiy e’tibor Klavixoning tariximizda tutgan o‘rnini tushunish hamda u haqidagi axborotni yetkaza olishga qaratiladi.

**2. Ushbu minoraning Klavixo ko‘rgan boshqa minoralardan farqi nimada edi?**

Bu savolga javob berishda o‘quvchilar minora tasviri berilgan o‘rinlar hamda Klavixoning minorani ko‘rgandagi holatiga e’tibor qaratib, aytib bera olishi lozim.

**3. Mag‘rib va Mashriq qayer?**

Bu savol so‘z ma’nosini tushunishga qaratilgan.

*Mag‘rib – G‘arb, Mashriq – Sharq.*

**4. Klavixo anglagan haqiqat nima edi?**

Bu savolning javobini matnning oxirgi qismida Klavixoning holati hamda uning safdoshlariga aytgan nutqidan anglash mumkin. O‘quvchilar ushbu o‘rinlarni topib, munosabatlarini bildirishlari lozim.

O‘quvchilardan yetarlicha javob bo‘lmasa, o‘qituvchi ularni to‘g‘ri javobga yo‘naltiruvchi savollar berishi maqsadga muvofiq.

## Uslub. Badiiy uslub

**Ajratib ko‘rsatilgan birliklar matnda qanday o‘rin tutayotganini muhokama qiling. Bunday birliklarni muallif nima maqsadda qo‘llagan bo‘lishi mumkin?**

Mazkur savol o‘quvchilarga badiiy uslubga oid til birliklari hamda ushbu birliklarning matn mazmuniga ta’sirini amaliy topshiriq orqali tushuntirishdan iborat.

Bunda o‘quvchilar matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni aniqlab, ushbu so‘zning matn mazmuniga ta’siri qandayligi xususida o‘z munosabatlarini bildirishlari lozim.

## Qoida. Badiiy uslub

O‘quvchilarning matnda ajratib ko‘rsatilgan gaplarga oid munosabatlari tinglangach, ularga badiiy uslub haqida nazariy ma’lumot berib, misollar bilan tushuntirilishi lozim.

## Uyga vazifa

## Alohida so‘zlar. Sintaksis

**Quyidagi gaplarni o‘qing. Kerakli o‘rinlarga taqlid so‘zlarni qo‘shib, gaplarni qayta tuzing. So‘ng daftaringizga yozing.**

Bu topshiriq taqlid so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra kontekstda qo‘llay olishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, uning ma’nosiga mos tushadigan taqlid so‘zni tanlab, gapni to‘ldirib, qayta yozishi lozim.

***Javob:***

*1. Karimning jahli chiqdi, u dag‘-dag‘ qaltiray boshladi.*

*2. Salima kiyib olgan ko‘ylakka qadalgan toshlar yal-yal yonardi.*


*3. Yarim tun payti hovlida tap-tap ovoz eshitildi.*

*4. Mehnat qilaverib horigan bu qo‘llar tars-tars yorilib ketgan edi.*

*5. Kunlar isishi bilan Abdulloh ayvonda uxlardi, chunki unga milt-milt yulduzlarga termilib yotish yoqardi.*

*6. Yostig‘ini urib to‘g‘riladi-yu unga boshini qo‘yib, ship-ship uyquga ketdi.*

## 3-soat



Quyidagi gaplarni o‘qing. Kerakli o‘rinlarga taqlid so‘zlarni qo‘shib, gaplarni qayta tuzing. So‘ng daftaringizga yozing.

1. Karimning jahli chiqdi, qaltiray boshladi.
2. Salima kiyib olgan ko‘ylakka qadalgan toshlar yonardi.
3. Yarim tun payti hovlida ovoz eshitildi.
4. Mehnat qilaverib horigan bu qo‘llar yorilib ketgan edi.
5. Kunlar isishi bilan Abdulloh ayvonda uxlardi, chunki unga yulduzlarga termilib yotish yoqardi.
6. Yostig‘ini urib to‘g‘riladi-yu unga boshini qo‘yib, uyquga ketdi.

**Qo‘yish uchun so‘zlar:** *dag‘-dag‘, tap-tap, ship-ship, milt-milt, yal-yal, tars-turs.*

1. Badiiy uslub haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Nima uchun badiiy uslubdagi matnlarning ta’sirchanligi yuqori bo‘ladi?
3. Sizningcha, ta’sirchan nutq o‘zi nima uchun kerak?

Matnni o‘qing. Topshiriqlarni bajaring.

OQSAROYNING FAVVORALARI

(2-qism)

Biroz muddat o‘tib, saroy cho‘qqisida qabulgoh sahnidan avval eshikog‘asi, keyin mehmon bo‘y ko‘rsatdi. Klavixo avvaliga atrofni kuzatdi. So‘ng pastga qaradi. Ajib go‘zallikdan, betakror shahar va maftunkor tabiat uyg‘unligidan ko‘zlari qamashdi. Ko‘rganlarini tafakkur qilishga ulgurmay, elchini qabulgohning ichki xonasiga olib o‘tishdi. Bu yerda Ispaniya elchisi Klavixoni rasmiy kutib olish marosimi uchun barcha tadorik ko‘rilgan. Davra to‘rida kishi bo‘yi barobar oltin taxt turibdi. Sohibqiron Amir Temur bir qo‘lini taxt suyanchig‘iga qo‘yib, ikkinchi qo‘li bilan tizzasiga kaft bosgan. Elchi taxtga yaqinroq borish maqsadida oldinga qadam bosdi. Oyog‘i cho‘g‘ gilamga yetishi hamon o‘rtadagi hovuz ichidan o‘nlab favvoralar otilib chiqdi. Bir tekis ko‘kka intilayotgan billur tomchilar qoshida elchining avvaliga xayoli qochdi. So‘ng tanasiga singa boshlagan hayajon bilan davra to‘ridan mehmonga ko‘z uzmay razm solib turgan Sohibqironga qaradi. Buyuk Temur xushnud kayfiyatda mehmonni kuzatar, uning jilovlashga harchand urinsa-da, toshib

188

## Dars jarayoni

### Kirish

*1. Badiiy uslub haqida nimalarni bilib oldingiz?*

*2. Nima uchun badiiy uslubdagi matnlarning ta’sirchanligi yuqori bo‘ladi?*

*3. Sizningcha, ta'sirchan nutq o'zi nima uchun kerak?*

Mazkur savollar o'quvchilarni mavzuga olib kirish, ta'sirchan nutq, badiiy uslubning ta'sirchanligi va uni qo'llash holatlari haqida tasavvur uyg'otishga qaratilgan. Savolga istagan o'quvchilar javob berishi mumkin.

### O'qib tushunish

**Matnni o'qing. Topshiriqlarni bajaring.**

Matn: "Oqsaroy favvoralari" (2-qism).
Muallif: Farhod Eshmo'minov.

### Muhokama

**1. Klavixoni nimalar hayratga soldi?**

Bu savolning javobi matn mazmunidagi badiiy tasvir vositalaridan anglashiladi. O'quvchilar Klavixoning holati berilgan tasvir vositalari orqali ushbu o'rinlarni topib, aytib berishi lozim.

**2. Klavixoning Amir Temur qudratiga tan berishiga nimalar sabab bo'ldi?**

Bu savolning javobi matnda aynan so'zma-so'z keltirilmagan. O'quvchilar matndan xulosa qilib, aytishlari lozim. Javoblar turli xil bo'lishi mumkin. Asosiy e'tibor o'quvchilarning tasvirni tushunib, xulosa chiqarib, aytib bera olishiga qaratiladi.

**3. Klavixo qaysi so'zlarning to'g'ri ekaniga ishondi?**

Bu savolning javobi matnning so'nggi qismida keltirilgan jumlalar orqali anglashiladi. O'quvchilar ushbu jumlani Klavixo tasvirlab yozgan go'zallik bilan qiyoslab, munosabat bildirishi lozim.

**4. Ayting-chi, yozuvchi *"Klavixo yutunib qo'ydi"* deyish bilan nima demoqchi?**

Bu savol holatni tushunishga qaratilgan. O'quvchilar Klavixoning nega bunday holatga tushganini Amir Temur aytgan jumla hamda Klavixoning bunga o'z ko'zlari bilan amin bo'lganidan anglashi mumkin.

### Uslub. Badiiy uslub

**Matndan badiiy uslubga unchalik xos bo'lmagan gaplarni topib, daftaringizga ko'chiring.**

Mazkur topshiriqda o'quvchilar matndan badiiy uslubga xos bo'lmagan so'zlarni aniqlab yozishlari lozim. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning badiiy uslubga xos deb olgan birliklari nima uchun badiiy uslubga xos emasligini asoslab berishga qaratiladi.

### Badiiy uslub. Sintaksis

**Quyidagi birliklarni qo'shgan holda ko'chirgan gaplaringizni badiiy uslubga moslang.**

Ushbu topshiriq o'quvchilarda badiiy uslubga xos birliklarni ma'no-mazmuniga ko'ra kontekstda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi.

Bunda o'quvchilar yuqoridagi matndan badiiy uslubga xos bo'lmagan deb olgan gaplariga quyida berilgan birliklardan mosini qo'yib, badiiy uslubga aylantirib yozishlari lozim.

Bu jarayonni o'qituvchi bitta so'z misolida tushuntirib, doskada yozib ko'rsatishi maqsadga muvofiq. *Masalan, Klavixo avvaliga atrofni* ***kuzatdi*** *– Klavixo atrofga* ***ko'z qirini tashladi.***

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Quyida badiiy uslubdagi kichik matn berilgan. Siz uni badiiy bo'lmagan uslubga aylantirib, qayta yozing.**

Bu topshiriq o'quvchida matnni tahrir qilish, ma'no-mazmunini saqlagan holda qayta yoza olish ko'nikmasini shakllantiradi.

O'quvchilarga berilgan matnni o'qib, undagi badiiy uslubga xos so'zlarni aniqlashlari hamda ushbu birliklarni qo'llamay, matn mazmunini saqlagan holda oddiy uslubga aylantirib yozishlari tushuntiriladi.

## 4-soat

**Dars jarayoni**

### Kirish

*Taqlid so'zlar hamda badiiy uslub o'rtasida qanday munosabat bor?*

### Asosiy qism

#### Yozma nutq. Qoida yaratish

**Guruhlarga bo‘lining. Shu paytgacha siz uchratgan taqlid so‘zlarning yozilishiga diqqat qiling. Umumiylikni aniqlab, qoida yarating.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilar taqlid so‘zlar haqida egallagan amaliy bilimlari asosida nazariy qoida tuzib, uni amalda sinab ko‘rishlariga qaratilgan.

Bunda o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadilar hamda har bir guruh dars davomida taqlid so‘zlarga oid egallagan bilimlari asosida qoida va topshiriq tuzib yozish lozim.

Bu jarayonda o‘quvchilarga berilgan yo‘riqnomaga amal qilgan holda guruh bilan ishlash tushuntiriladi.

#### Qoida. Alohida so‘zlar

O‘quvchilar tuzgan qoida va topshiriqlari asosida guruh bilan ishlab bo‘lganlaridan so‘ng ularga taqlid so‘zlarning imlosiga oid nazariy ma’lumot beriladi.

#### Alohida so‘zlar

**Narsalar va hayvonlar chiqaradigan tovushni ifodalovchi so‘zlarni yozing. Ba’zi narsalar bir nechta tovushga ega bo‘lishi mumkin.**

O‘quvchilar darslikda berilgan rasmlarga oid taqlid so‘zlarni topib, uni namunadagi kabi gap bilan ifodalab yozishlari lozim.

*Masalan, it vovullaydi, akillaydi, uvullaydi.*

### Uyga vazifa

#### Yozma nutq. Matn yaratish

**“Hayvonot bog‘iga sayohat” nomli matn yozing. Unda badiiy uslub hamda taqlid so‘zlardan foydalaning. Joyni tavsiflash qoidalariga amal qiling.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, ijodiy yondashishiga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan mavzuga oid taqlid so‘zlardan foydalanib badiiy uslubda matn yozishlari lozim.

Bunda ma’lumot to‘plash maqsadida kitoblar, gazeta va jurnallar, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish mumkinligi aytiladi.

## 5-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Badiiy uslubda yozilgan matnlarda qanday til birliklaridan foydalaniladi?*

### Asosiy qism

#### Muhokama. Tahlil

**O‘quvchilar yozgan matn tahlili.**

Bunda tahlil jarayonini turlicha tashkil qilish mumkin.

1. Har bir o‘quvchi ketma-ketlikda “Hayvonot bog‘iga sayohat” nomli yozgan matnini o‘qib eshittiradi, qolgan o‘quvchilar sinfdoshlarining nutqini tinglab, matnga og‘zaki munosabat bildiradi.

2. Har bir o‘quvchi o‘z partadoshi bilan daftar almashadi. Ular bir-birlarining ishlarini tekshirib, munosabatini yozma ifodalab beradi.

3. O‘qituvchi daftarlarni yig‘ib olib, qator bo‘ylab, aralash holda o‘quvchilarga tarqatadi. O‘quvchi o‘ziga tushgan matnni tahlil qilib, munosabatini yozma ifodalaydi.


O‘quvchilar munosabat bildirishda quyidagilarga e’tibor qaratishlari lozimligi aytiladi:

- *Matn sarlavhaga mosmi?*
- *Badiiy uslubga oid til birliklariga e’tibor bering. Matn badiiy uslubda yozilganmi?*
- *Matnda taqlid so‘zlardan to‘g‘ri foydalanilganmi?*
- *Gaplar bir-birga mantiqan to‘g‘ri bog‘langanmi?*
- *Matnda tasviriy ifodalardan foydalanilganmi?*
- *Matnda qo‘llangan tasviriy ifodalar tilga olingan voqea-hodisani ochib berganmi?*
- *Matn kirish, asosiy qism va xulosadan iboratmi?*

# KONSTITUTSIYA – BOSH QOMUSIMIZ

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilar ongida qonun, huquq, burch haqida tasavvur hosil qilish hamda ularga oid til birliklarini nutqida faollashtirish; fe’llarning munosabat shakli (zamon, shaxs-son) va uning ifodalanishi, berilgan matn tarkibidan fe’llarning munosabat shakllarini aniqlash; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan ayrim moddalarni sharhlab yozish.

## 1-soat



KONSTITUTSIYA – BOSH QOMUSIMIZ

Bu mavzuda o‘rganamiz

• qonunlarning jamiyatdagi o‘rni • insonning huquq va burchlari • sohaga oid til birliklari • fe’llarning munosabat shakli • huquqiy mazmundagi matnni tushunish.

1. Huquq deganda nimani tushunasiz?
2. Sizningcha, odamlarning qanday huquqlari bor?
3. Odamlarning huquqlari himoyalanganmi? Nimalar bilan?

Tasavvur qiling, siz shifoxonaga bordingiz. Shifokorlar sizni davolashdan bosh tortdi.

1. Ularning bu ishi to‘g‘rimi?
2. Bunday paytda sizning qaysi huquqingiz buzilmoqda?
3. Sizning huquqlaringizni qaysi hujjat himoya qiladi?

Quyidagi so‘zlarning izohini ayting. Bu so‘zlarni qayerda uchratgansiz?

qonun, burch, xalq, jamiyat, hokimiyat, fuqarolik, huquq, sud, modda

Yuqoridagi so‘zlarni lug‘atdan toping. O‘zingiz aytgan izoh bilan qiyoslab ko‘ring.

Quyidagi ikki moddani o‘qing. Ushbu moddalar mazmunini qisqacha tarzda daftaringizga yozing.

15-modda

O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.
Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar.

191

### Dars jarayoni

### Kirish

### Muhokama

**1. Huquq deganda nimani tushunasiz?**

Bu savolga javob berishda o‘quvchi “huquq” so‘zining ma’nosiga e’tibor qaratishi lozim. Dastlab o‘quvchidan ushbu so‘z haqidagi tushunchalari so‘raladi. So‘ngra hayotiy misollar bilan ushbu so‘zga izoh beriladi:

***Huquq*** *– davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo‘riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o‘zaro munosabatlarini va boshqalarni tartibga soladigan qonun-qoidalar, me’yorlar majmui. Masalan, maktabda bepul ta’lim olish sizning huquqingiz, u Konstitutsiyada bir qator moddalar bilan tasdiqlab qo‘yilgan.*

**2. Sizningcha, odamlarning qanday huquqlari bor?**

O‘quvchilar huquq nima ekani haqidagi tasavvurga ega bo‘lganlaridan so‘ng hayotiy kuzatishlari asosida ushbu savolga javob berishlari lozim.

Masalan, saylov huquqi, fuqarolik huquqi, erkinlik huquqi kabi.

**3. Odamlarning huquqlari himoyalanganmi? Nimalar bilan?**

Bu savolga o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida mantiqan o‘ylab javob berishlari lozim.

Bunda o‘quvchi bosh qomusimiz – Konstitutsiya ekani, unda insonning barcha huquqlari himoyalangani, moddalar bilan tasdiqlab qo‘yilgani, kimdir undagi qonun-qoidalarga rioya qilmasa, javobgarlikka tortilishi haqida tushunchaga ega bo‘lishi lozim.

### Asosiy qism

### Og‘zaki nutq

**Tasavvur qiling. Siz shifoxonaga bordingiz. Shifokorlar sizni davolashdan bosh tortdi.**

Bu topshiriq o‘quvchilarni hayotiy vaziyatga olib kirish orqali mavzu haqida tasavvur paydo qilishdan iborat. Bunda o‘quvchilar berilgan vaziyatga savollar orqali munosabat bildirishlari lozim.

1. *Ularning ishi to‘g‘rimi?*
2. *Bu paytda sizning qaysi huquqingiz buzilmoqda?*
3. *Sizning huquqlaringizni qaysi hujjat himoya qiladi?*

## Leksikologiya

**Quyidagi so‘zlarning izohini ayting. Bu so‘zlarni qayerda uchratgansiz?**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. Taqdim etilgan so‘zlar notanish emas, ularni hayotlari davomida kattalar nutqida, jamoat joylarida, televideniyeda eshitganliklari inobatga olingan. Bunda o‘quvchilar ushbu so‘zlarni qayerda uchratganligi va nima ma’no anglatishini aytishlari lozim.

Asosiy e’tibor ushbu so‘z haqidagi tushunchalarini misollar bilan aytib berishlariga qaratiladi.

## Leksikologiya

**Yuqoridagi so‘zlarni lug‘atdan toping. O‘zingiz aytgan izoh bilan qiyoslab ko‘ring.**

O‘quvchilar berilgan so‘zlar haqida o‘z tushunchalarini aytganlaridan so‘ng ushbu so‘zlarni lug‘atdan topib, qanday ma’no anglatishi haqida ma’lumot olishlari hamda o‘zlarining izohi bilan qanchalik o‘xshash yoki farqli ekanini taqqoslab ko‘rishlari mumkin.

*Javob:*

***Qonun –*** *davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy me’yor va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida; ana shunday munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi.*

***Burch –*** *ado etilishi, bajarilishi majburiy bo‘lgan vazifa; majburiyat.*

***Xalq –*** *biror joyga to‘plangan odamlar.*

***Jamiyat –*** *biror maqsadda tuzilgan ixtiyoriy birlashma, ijtimoiy tashkilot.*

***Hokimiyat –*** *davlatni boshqarish huquqi; siyosiy hukmronlik; davlat organlarining huquq va vakolati.*

***Fuqarolik –*** *fuqaroning huquqiy holati.*

***Sud –*** *muayyan fuqaroviy nizolarni hal qiluvchi hamda jinoiy ishlarni ko‘rib chiquvchi — odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi.*

***Modda –*** *rasmiy hujjat, majmua, qonun va shu kabilarning raqam yoki harf bilan ajratiladigan mustaqil bo‘limi.*

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Quyidagi ikki moddani o‘qing. Ushbu moddalar orqali nima deyilmoqchi ekanini qisqacha tarzda daftaringizga yozing.**

Bu topshiriq rasmiy matnni publitsistik matnga aylantirib yozishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan moddalarning mazmuni bilan tanishib, ushbu moddalarda nima deyilmoqchi ekanini matn ko‘rinishida yozishlari lozim. Bunda berilgan modda mazmunini tushunishlariga e’tibor qaratiladi.

## Yozma nutq. Tahlil

**Quyidagilarni huquq va burchga ajratib yozing.**

Bu topshiriq so‘zlarni ma’no-mazmuniga ko‘ra guruhlarga ajratib yozishni talab etadi. Bunda o‘quvchilar lug‘at bilan ishlash mashqi orqali "huquq" va "burch" so‘zlari haqida o‘zlashtirgan bilimlari asosida berilgan birliklarning qay biri huquq, qay biri burch ekanini farqlay olishlari lozim.

***Javob:***

| ***Huquqlarim*** | ***Burchlarim*** |
|---|---|
| *Yashash, tibbiy xizmatdan foydalanish, shaxsiy daxlsizlik, so‘z erkinligi, turarjoy daxlsizligi, axborot izlash, bilim olish, mehnat qilish, kasb tanlash, bepul umumiy ta’lim, axborot olish, erkinlik, dam olish.* | *Soliq to‘lash, qonunga rioya etish, madaniy merosni asrash, atrof-muhitni ifloslantirmaslik, boshqalarni hurmat qilish.* |

## Matn bilan ishlash

**Yuqoridagi tushunchalar hamda konstitutsiya moddalarini moslashtiring.**

Bu yuqoridagi topshiriqning davomi bo‘lib, o‘quvchilar so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajratib bo‘lganlaridan so‘ng ushbu tushunchalar moddalarning qay birida yoritilganini topib, namunadagi kabi moslashtirib yozishlari lozim.

Mazkur topshiriqda asosiy e’tibor o‘quvchilarga rasmiy uslubda yozilgan matnlar, ularda til birliklarining qo‘llanishi hamda o‘zlarining qanday huquq va burchlari borligi haqida ma’lumot berishga qaratiladi.

***Javob:*** *yashash – 24-modda; tibbiy xizmatdan foydalanish – 40-modda; erkinlik, shaxsiy daxlsizlik – 25-modda; turarjoy daxlsizligi – 27-modda; bilim olish, bepul umumiy ta'lim – 41-modda; mehnat qilish, kasb tanlash, dam olish – 37-modda; boshqalarni hurmat qilish, qonunga rioya etish — 48-modda; madaniy merosni asrash – 49-modda; atrof-muhitni ifloslantirmaslik – 50-modda; soliq to'lash – 51-modda.*

### Muhokama

**Konstitutsiya moddalarini o'qib, nimalarni tushundingiz? Qanday xulosalar chiqardingiz? Buni sinfda muhokama qiling.**

O'quvchilar berilgan moddalar bilan tanishib chiqqanlaridan so'ng o'z munosabatlarini bildirishlari lozim. Bu jarayonda rasmiy nutqda berilgan moddalarni og'zaki nutqda qay shaklda gapirib berishlari tekshiriladi.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Savollarga javob yozish

Ushbu savollarga o'quvchilar "Soliqlarni to'lab borasizmi?" mavzusida egallagan bilimlari hamda dars davomida o'zlashtirgan huquq va burchlar haqidagi bilimlari asosida javob yozishlari aytiladi.

## 2-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*1. Konstitutsiya qanday hujjat?*

*2. Konstitutsiyada nimalar aks etadi?*

Bu o'quvchini mavzuga olib kirish uchun berilgan savol bo'lib, o'quvchidan ushbu hujjat va unda nimalar aks etishi haqidagi dastlabki tushunchalari so'raladi.

***Konstitutsiya –*** *davlatning yuksak yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy qonuni; barcha joriy qonunlarning asosi.*

### Asosiy qism


### O'qib tushunish

Matn: "Qonun ijodkorligi".

Manba: "Davlat va huquq nazariyasi" kitobi.

O'quvchilarga matnni o'qib chiqish aytiladi, so'ngra matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama




**1. Qonun ijodkorligi jarayoni yana qanday nomlanadi?**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. Matnning 2-xatboshisida berilgan ma'lumotlar hamda qavs ichidagi *birlik orqali qonun ijodkorligini "qonun yaratish" deb ham nomlash mumkinligini* va nima uchun shunday deyilishini o'quvchi misollar bilan aytib bera olishi lozim.

**2. Biror qonunni bekor qilish ham qonun yaratishga kiradimi?**

Bu savol gaplarni integratsiya qilib, ma'no chiqarishga qaratilgan. Matnning 2-xatboshisida *qonun ijodkorligiga berilgan ta'rifdan eskirgan qonunlarni bekor qilish ham qonun yaratishga kirishini anglash mumkin.*

**3. Qonun yaratishda birinchi bo'lib nimani hisobga olish zarur?**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan.

Matnning *2-xatboshida tartib bilan sanalgan ma'lumotlardan o'quvchilar qonun yaratishda dastlab qonun bilan belgilanishi kerak bo'lgan vaziyatni hisobga olish kerakligini tushunib, aytib bera olishi lozim.*

**4. Agar qonunga ehtiyoj bo'lmasa, nima bo'ladi?**

Bu savol ham matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. O'quvchilar matnning 3-xatboshida berilgan qonunga ehtiyoj bo'lmasa, nima bo'lishi haqidagi ma'lumotlarni aniqlab, aytishi lozim.

**5. Ikkinchi o'qish deganda nimani tushundingiz?**

Bu matndagi ma'lumotlarni integratsiya qilib, ma'no chiqarishga qaratilgan savol. O'quvchilar matnning 5-xatboshisida berilgan ma'lumotni o'qib, gaplarni o'zaro integratsiya qilgan holda ma'no chiqarishi, *ya'ni birinchi o'qilgan qonun hujjatlariga kiritilgan tuzatishlardan keyin yana ikkinchi marta taqdim etilishi hamda qonun hujjatining muhokamalardan keyin tuzatish kiritilgan nusxasi "ikkinchi o'qish" deyilishini* tushunib, aytib berishi lozim.

**6. Qonun yaratishning so'nggi bosqichi qanday amalga oshiriladi?**

Bu savol ham matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. O'quvchilar matnning oxirgi xatboshisida berilgan ma'lumotlar mazmunidan qonun yaratishning so'nggi bosqichi qanday amalga oshirilishini tushunib, aytib bera olishi lozim.

**7. Ehtiyoj bo'lmagan bitta qonunga misol ayting.**

Bu savolga o'quvchilar mantiqan o'ylab javob berishi lozim. Matnning 3-xatboshisida *qonunchilik jarayonining boshlang'ich nuqtasi – qonun yaratishga bo'lgan ehtiyojni o'rganish ekanligi aytildi. Demak, ehtiyoj bo'lmaganda qonun ham yaratilmaydi. Ushbu jarayonni o'quvchi tushunib,* aytib bera olishi lozim.

## Munozara

**Xattaxtaga "Qonun yaratish" chizmasini chizib, matnga tayangan holda to'ldiring.**

Bu topshiriq matndagi ma'lumotlarni tushunib, chizmada ifodalashga qaratilgan.

Berilgan chizma shakliga ko'ra qanday ma'lumotni ifodalashni talab etyapti? Ushbu savolga o'quvchining erkin javobi tinglanadi hamda chizmaga joylashtirish mumkin bo'lgan ma'lumotlar aniqlashtirib olinadi. O'quvchilardan ma'lumotlarni chizmaga tartib bilan mazmunan joylashtirishlari talab etiladi.

## Muhokama

## Leksikografiya

**Guruhlarga bo'lining. Matnda ostiga chizilgan birliklardan "Qonun yaratishning kichik izohli lug'ati"ni tuzing.**

Mazkur topshiriq o'quvchining guruh bilan ishlash, lug'at boyligini oshirish hamda lug'at tuzish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Dastlab o'quvchilar guruhlarga bo'linib, matndan ostiga chizilgan so'zlarni aniqlab oladilar, so'ngra berilgan yo'riqnoma asosida lug'at tuzib, yozishlari lozim.

Bunda matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlar boshqa ma'noda ham kelishi mumkin, o'quvchilar so'zlarning kontekstdagi ma'nosidan kelib chiqib, lug'at tuzib, yozishlari lozim.

## Uyga vazifa

## Sintaksis. Punktuatsiya

**Gaplarni davom ettirib yozing. Fikringizni asoslang.**

O'quvchilardan berilgan gaplarni mazmuniga ko'ra davom ettirib yozishlari hamda yozgan gaplarini asoslab berishlari talab etiladi.

Bu topshiriqdan asosiy maqsad o'quvchilarga qonun hujjatlari rasmiy uslubda yozilishi va unda tinish belgilarining ishlatilishi haqida bilim berishdan iborat.

## 3-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

1. *Qonunlar nima uchun kerak?*
2. *Ularsiz nima bo‘ladi?*

Ushbu savollar o‘quvchilarning dars davomida egallagan bilimlarini mustahkamlash hamda ushbu birliklar haqida dastlabki tushunchalarini ifodalashga qaratilgan.

O‘quvchilar dars davomida o‘zlashtirgan bilimlari hamda hayotiy kuzatishlari asosida javob berishi lozim.

### Asosiy qism

### Yozma nutq. Matn yaratish



Konstitutsiya moddalarini o‘qib, nimalarni tushundingiz? Qanday xulosalar chiqardingiz? Buni sinfda muhokama qiling.

Quyidagi savollarga javob yozing.

1. Soliq nima?
2. Odam qanday hollarda soliq to‘lashi kerak?
3. Siz hozir soliq to‘lash majburiyatini bajaryapsizmi? Nega?

1. Konstitutsiya qanday hujjat?
2. Konstitutsiyada nimalar aks etadi?

QONUN IJODKORLIGI

Qonun davlat hokimiyatining maxsus faoliyati mahsuli sifatida vujudga keladi. Davlat amrining oliy ifodasi bo‘lmish qonun hokimiyatning alohida vakolatli organi tomonidan amalga oshiriladigan murakkab jarayon natijasida yaratiladi.

***Qonun ijodkorligi (qonunni yaratish) jarayoni*** – davlat oliy vakillik organining konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi qonunlarni yaratishga, amaldagi qonunlarga

**Guruhlarga bo‘lining. “Maktab qoidalari” loyihasini ishlab chiqing va taqdimot qiling. Qoidalar ham o‘quvchilar, ham o‘qituvchilar uchun ishlab chiqilishi lozim. Qoidalarni ishlab chiqishda quyidagilarga diqqat qiling.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarni qonun tuzish jarayoniga olib kirish, qonun tuzishni o‘rgatish, unga oid til birliklarini nutqida faol qo‘llashga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, berilgan yo‘riqnoma asosida o‘z “Maktab qoidalari”ni ishlab chiqishlari lozim.

### Og‘zaki nutq

**Boshqa guruhlarning taqdimotini tinglang. Quyidagilarga diqqat qiling.**

Bu yuqoridagi topshiriqning davomi bo‘lib, o‘quvchilarni o‘zlari tuzgan qonunlar muhokamasiga olib kirish, ularda tanqidiy fikrlash, fikrlarni qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan yo‘riqnoma asosida sinfdoshlarini kuzatishlari, muhokamaga kirishib, munosabat bildirishlari lozim.

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Barchaning qoidalari asosida “Maktab qoidalari” kitobini yozing. Kitob quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi lozim.**

Bu topshiriq o‘quvchilarni qonunni qabul qilish jarayoniga olib kirish, o‘zaro hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar muhokamadan o‘tkazgan qonunlari asosida “Maktab qoidalari” kitobini yozishlari lozim. Bu jarayonda kitob qanday qismlardan iborat bo‘lishi kerakligiga rioya qilib, ketma-ketlikda yozish talab etiladi.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**“Oiladagi qoidalar” kitobini ishlab chiqing. Qoidalarni ishlab chiqishda oila a’zolaringiz bilan maslahatlashing. Kitobni barchaga o‘qiting va amal qilishlarini so‘rang.**

Bu topshiriq o‘quvchining mustaqil izlanib, ijodiy yondashishini talab etadi. O‘quvchilar dars davomida qonunni ishlab chiqish bosqichlari bo‘yicha egallagan amaliy ko‘nikmalaridan foydalanib “Oiladagi qoidalar” nomli kitob ishlab chiqishlari lozim.

## 4-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Qonun yaratishning qanday bosqichlari bor ekan? Misollar bilan izohlang.*

## Asosiy qism

### Yozma nutq. Tahlil qilish

***bolahuquqlari.uz*** **saytida e'lon qilingan ushbu tasvirlarga diqqat qiling. Savollarga qisqa javob yozing.**

Mazkur topshiriqda konstitutsiya, fuqarolarning huquq va burchlari aks etgan tasvir berilgan. Tasvir – chizma, rasm, ma'lumotdan iborat. O'quvchilar ushbu tasvir bilan tanishib, savollarga javob topib, yozishlari lozim.

Berilgan savollar tasvirda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga yo'naltirilgan. Bunda asosiy e'tibor tasvirni tushunish, undan axborot olish, ma'lumotlarni parafraza qilish hamda savollarga javob topib yozishga qaratiladi.

***Javob:*** *1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan. 2. Konstitutsiya 128 ta moddadan iborat. 3. Tarixiy merosni avaylash fuqarolik burchi hisoblanadi. 4. Bilim olish huquqimiz sanaladi.*

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Guruhlarga bo'lining. Har bir guruh o'zi uchun bitta tasvirni tanlasin va uni matnga aylantirib yozsin. Oxirida barcha yozilganlarni birlashtirib, "Konstitutsiya – bosh qomusimiz" matnini yarating.**

Ushbu topshiriqdan asosiy maqsad o'quvchilarda guruh bilan ishlash, tasvirni matn ko'rinishida ifodalab yozish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Bunda o'quvchilar 4 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga bittadan tasvir berilib, uni izohlab yozishlari uchun bir xil vaqt ajratiladi.

Bu jarayonda guruh a'zolari bir-birlarining fikr-mulohazalarini tinglab, jamoa bo'lib tasvir haqida munosabat bildirishi hamda aytilgan fikr-mulohazalarni birlashtirib, matn ko'rinishida yozishlari lozim.

Guruhlar o'zlariga taqdim etilgan tasvirni matn ko'rinishida yozib bo'lganlaridan so'ng uni o'qib berishi hamda yozganlarni birlashtirib, "Konstitutsiya – bosh qomusimiz" sarlavhasi ostida yaxlit matn yaratishi lozimligi aytiladi.

### Morfologiya

**"Konstitutsiya – bosh qomusimiz" matnidan quyidagilarni topib, jadvallarga joylashtiring. Yo'q bo'lsa "–" belgisini qo'ying.**

Bu topshiriqda o'quvchilardan yozgan matnlarini lingvistik tahlil qilish talab qilinadi. Bunda yozgan matnlari tarkibidan fe'llarni ajratib olib, zamoni, shaxs-soni, birlik va ko'plikda qanday ifodalaganini aniqlab, jadvalga joylashtirishlari lozim.

Jadvalni to'ldirib bo'lganlaridan so'ng nima uchun aynan shu zamonda ifodalanganini matn mazmuni bilan birga izohlab berishlari maqsadga muvofiq.

### Uyga vazifa

### O'qib tushunish

**Konstitutsiyaning 24-, 25-, 27-, 40-, 41-, 50-, 51-moddalarini yod oling.**

Bu topshiriq o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun uyga vazifa sifatida berilgan. Bunda o'quvchi dars davomida berilgan ushbu moddalarni topib, ularni yod olishi zarur. Bunda asosiy maqsad o'quvchilar o'z huquq va burchlari haqida ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlashdan iborat.

Bunda o'quvchidan moddalarni so'zma-so'z yodlash talab etilmaydi. O'quvchi o'z huquq va burchlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi hamda bu qaysi modda bilan tasdiqlab qo'yilganini bilishi yetarli.

## DAVLATNI KIM BOSHQARADI?

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilarda davlat boshqaruvi haqida tasavvur hosil qilish va unga oid til birliklaridan foydalanish; matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma’nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug‘at tuzish; murojaat xatlarini tahlil va tahrir qilish; qisqartmalar imlosi va ulardan o‘rinli foydalanishni o‘rganish; Prezidentga taklifi asosida matn yaratish.

### 1-soat

**Dars jarayoni**

### Kirish

### Muhokama

***1. O‘zbekiston Respublikasida hokimiyat necha turga bo‘linadi?***

***2. “To‘rtinchi hokimiyat ham bor”, deyishadi. U qaysi hokimiyat?***

***3. Sizningcha, davlatni kim boshqaradi?***

Bu savollardan asosiy maqsad o‘quvchilarni mavzuga olib kirish, hokimiyat nima ekani, O‘zbekistondagi davlat boshqaruvi haqida ma’lumot berishdan iborat.

Dastlab o‘quvchilarning fikrlari tinglanadi, so‘ngra bu haqida ma’lumot berib o‘tiladi.

***Hokimiyat*** *– davlatni boshqarish huquqiga ega hukumat.*

*O‘zbekistonda hokimiyat 3 turga bo‘linadi:*

1. *Qonun chiqaruvchi.*
2. *Ijro etuvchi.*
3. *Sud.*

*Ommaviy axborot vositalari – norasmiy to‘rtinchi hokimiyat.*

### Asosiy qism

### Og‘zaki nutq. Infografika asosida suhbat

**Quyidagi infografikalarga qarang. Ular asosida berilgan gaplarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.**

Berilgan infografikada davlat boshqaruvi aks etgan. O‘quvchilar ushbu infografika bilan tanishib chiqib, quyida berilgan ma’lumotlarni to‘g‘ri va noto‘g‘riga saralab olishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor infografikani tushunish, berilgan ma’lumotlarni nima uchun to‘g‘ri, nima uchun noto‘g‘ri sifatida olganlarini asoslab berishlariga qaratiladi.

*Javob:*

| To‘g‘ri | Noto‘g‘ri |
|---|---|
| Oliy Majlis hamda Parlament tushunchalari bir xil.<br>Oliy Majlis 2 ta palatadan iborat.<br>Quyi palatada ishlaydiganlar "deputatlar" deyiladi. | Yuqori palatani spiker boshqaradi.<br>Chet el fuqarolari ham O‘zbekiston Prezidenti bo‘la oladi.<br>Vazirlar Mahkamasi qonunlar ishlab chiquvchi tuzilma. |
| Har ikki palataning vakillik qilish huquqi muddati – 5 yil.<br>30 yoshli shaxs Prezident sifatida saylana olmaydi.<br>Bir odam 4 marta Prezident sifatida saylanishi mumkin emas.<br>Prezident davlat tilini bilishi shart.<br>Bosh vazirning o‘rinbosarlari ham mavjud. | |

### Og‘zaki nutq

**Infografikalarda quyidagi so‘zlar nega bosh harf bilan yozilgan deb o‘ylaysiz?**

Bu topshiriq bosh harflar imlosini o‘rgatishga qaratilgan. Dastlab o‘quvchilarning fikri tinglanadi, so‘ngra ushbu so‘zlar nima uchun bosh harf bilan yozilgani tushuntiriladi.

### Qoida. Bosh harflar imlosi

Bosh harflar imlosiga oid nazariy ma’lumot beriladi.

### Muhokama

**Nima deb o‘ylaysiz, nega quyidagi birikmalar tarkibidagi barcha so‘zlar bosh harf bilan boshlanmayapti?**

Bu savolga o‘quvchilar oldinroq egallagan nazariy bilimlari hamda hayotiy kuzatishlari asosida mantiqan o‘ylab, javob berishlari lozim.

O‘quvchilar fikri tinglangach, ushbu birikmalar imlosi o‘qituvchi tomonidan tushuntirib berilishi maqsadga muvofiq.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Orfografiya

**Boshqa sinflarda o‘rganganlaringiz, o‘z shaxsiy kuzatishlaringiz asosida bosh harflar imlosiga oid quyidagi ma’lumotlarni yozib keling.**

Bu topshiriq o‘quvchilarni mustaqil izlanishga yo‘naltiradi. Bunda o‘quvchilarga dars davomida bosh harflar imlosiga oid egallagan bilimlari asosida hamda qo‘shimcha manbalardan bosh harflar imlosiga oid ma’lumotlar bilan tanishib, namunada berilgan qoidaga mos misollar topib, yozib kelishlari aytiladi.

## 2-soat

**Dars jarayoni**

### Kirish

### Muhokama

*1. Davlatni Prezident boshqarishi ma’lum, lekin hamma qarorni uning o‘zi chiqaradimi?*

*2. Prezidentga kimlar yordam beradi deb o‘ylaysiz?*

*3. Prezident ham kimgadir hisobot beradimi?*

Bunda o‘quvchilarning hayotiy kuzatishlari asosidagi dastlabki tushunchalari so‘raladi.

Asosiy maqsad o‘quvchilarni mavzuga olib kirish hamda davlat boshqaruvi haqida ma’lumot berishdan iborat.

### Asosiy qism

### Test

**Quyidagi testlar bilan tanishib chiqing. Daftaringizni olib, 1 dan 7 gacha raqam qo‘ying.**

Bu tinglab tushunish testi bo‘lib, o‘quvchilarni test ishlash jarayoniga tayyorlashga qaratilgan. Dastlab o‘quvchilar berilgan testlarni o‘qib chiqishlari hamda test javobini belgilash uchun daftarlariga raqam qo‘yishlari lozim.

**Audiomatnni bir marta tinglang. Tinglab bo‘lgach, test savollarini yana bir marta o‘qing.**

**Audiomatnni ikkinchi marta tinglang. Tinglash jarayonida daftaringizga test javoblarini belgilang.**

Bu topshiriqlar o‘quvchilarda tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish hamda ularni tinglab tushunish testlarini ishlash jarayoniga olib kirishdan iborat. O‘quvchilar berilgan topshiriqlarni ketma-ket bajarishlari lozim.

### Test. Tahlil

Testlarni ishlab bo‘lgach, har bir test audiomatn asosida tahlil qilinadi.

**1. To‘g‘ri javob:** D) Bundestag.

Matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Matnning boshlanishida parlament qaysi davlatda qanday atalishi haqida ma’lumot berildi. Unga ko‘ra, Germaniyada parlament "Bundestag" deyilishi aytib o‘tildi.

**2. To‘g‘ri javob:** A) kengash ruxsatini olmasdan yangi soliq joriy qilishni.

Matndagi gaplarni integratsiya qilgan holda ma’no-mazmun chiqarishga qaratilgan.

**3. To‘g‘ri javob:** A) to‘g‘ri.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. Yevropadagi demokratik tamoyillarning rivojlanishida musulmon davlatlarning ta'siri bo'lgani haqida aytib o'tildi.

**4. To'g'ri javob:** D) Parlamentning boshqa organlardan mustaqil bo'lishi.

Matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan.

**5. To'g'ri javob:** A) noto'g'ri.

Matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. Audiomatnga ko'ra, parlamentning asosiy vazifasi qonun ishlab chiqish ekanligi aytib o'tildi.

**6. To'g'ri javob:** B) 3.

Matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. O'zbekistonda hokimiyat: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi aytildi. Demak, to'g'ri javob: 3 ta.

**7. To'g'ri javob:** B) quyi palatada.

Bu test matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. Unga ko'ra, qonunlar quyi palatada ishlab chiqilishi haqida ma'lumot berib o'tildi.

## Orfografiya

**Quyidagilardan qaysi biri bosh harf bilan yozilishi kerak? Nega?**

Bu topshiriq bosh harflar imlosini mustahkamlashga qaratilgan. O'quvchilar egallagan bilimlari asosida berilgan so'zlar orasidan bosh harf bilan yoziladiganini aniqlashi hamda uni nima uchun bosh harf bilan yozilishi kerakligini asoslab berishi lozim.

Javob: B*undestag, Seym, Oliy Majlis, Vazir, Prezident, Reyxstag, Rim.*

## Matn bilan ishlash

**Quyidagi ma'lumotlarni o'qing. Jadvalning tegishli o'rniga joylashtiring.**

Mazkur topshiriq ma'lumotlarni saralashga qaratilgan. O'quvchilar jadval ostida berilgan ma'lumotlarni o'qib, jadvalning qaysi bir ustuniga mos kelishini aniqlab, ularni alohida ustunlarga ajratib yozishi lozim.

Bu jarayonda o'quvchilar dars davomida o'zlashtirgan bilimlariga tayanadi. Darslikda berilgan infografik ma'lumotlardan foydalanish ham mumkin. Asosiy e'tibor davlat boshqaruvi va unga oid til birliklarini o'zlashtirishga qaratiladi.

| Prezidentga tegishli | Oliy Majlisga tegishli | Vazirlar Mahkamasiga tegishli |
|---|---|---|
| Kamida 10 yil mamlakatda muqim yashagan bo'lishi shart.<br>Quyidagicha qasamyod qiladi: *"O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman".*<br>Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.<br>Vazifasini bajarishga saylov natijasiga ko'ra kirishadi.<br>Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish huquqiga ega. | Oliy davlat vakillik o'rgani bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.<br>Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega.<br>Yuqori va quyi palatalardan iborat.<br>Vakolat muddati 5 yil. | O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.<br>Ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi.<br>Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni ta'minlaydi.<br>Saylanmaydi, tayinlanadi. |


## Uyga vazifa

### Orfografiya

**Kattalar yordamida xalqaro tashkilotlarning nomlarini yozib keling (kamida 6 ta).**

Bu topshiriq o‘quvchining mustaqil izlanishiga yo‘naltirilgan. O‘quvchilar kattalar yordamida yoki kitob, gazeta, jurnal hamda ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda xalqaro tashkilot nomlarini yozib kelishi kerakligi aytiladi. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining ma’lumot izlashiga hamda xalqaro tashkilot nomlarini imlo qoidalari asosida yoza olishiga qaratiladi.

### 3-soat



Kattalar yordamida xalqaro tashkilotlarning nomini yozib keling (kamida 6 ta).

1. Qisqartmalar nima?
2. Qisqartmalar bizga nima uchun kerak?
3. Qanday qisqartmalarga ko‘zingiz tushgan? Qayerda?

Quyidagi qisqartmalar nimani anglatishini aytib bering.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| TV | AQSH | O‘zLiDep | XTV | OTM |
| VM | FVV | XDP | FHDY | IDUM |

Tarkibli nomlarning ilk harfidan iborat qisqartmalar bosh harf bilan yoziladi: **AQSH** (Amerika Qo‘shma Shtatlari), **BMT** (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), **AES** (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo‘g‘inga teng qism bo‘lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: **ToshDTU** (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

Siz uyda yozib kelgan xalqaro tashkilotlarning qisqartma nomi qanday bo‘ladi? Yuqoridagi qoida asosida yozing.

**DAVLATNING BOSHLIG‘I KIM?**

“Shu ham savolmi? Davlatni Prezident boshqaradi-da”, – dersiz. Bir qarashda shunday ko‘rinishi – bor gap. To‘g‘ri-da, barcha manbalarda ham davlat boshlig‘i sifatida Prezident ko‘rsatiladi. Prezident hammaga – hokimlarga, vazirlarga, tashkilot rahbarlariga buyruq beradi. Aslida ham shundaymi? Davlatni to‘liq Prezident boshqaradi deyishimiz to‘g‘rimi? Buning javobini bilish uchun bir necha qo‘shimcha savollarni berib ko‘ramiz.

***Savol. Davlat qanday boshqariladi?***
***Javob.*** *Qonunlar va qonunosti hujjatlari orqali.*
***Savol. Qonunlarni kim tasdiqlaydi, kimlar ishlab chiqadi?***
***Javob.*** *Qonunlarni parlament ishlab chiqadi va Prezident tasdiqlaydi.*
***Savol. Parlament a’zolarini kim saylaydi?***
***Javob.*** *Parlament a’zolarini xalq saylaydi.*
***Savol. Prezidentni kim saylaydi?***
***Javob.*** *Prezidentni ham xalq saylaydi.*
***Savol. Qonunlarning bajarilishini kim nazorat qiladi?***
***Javob.*** *Prezident, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi*

205

## Dars jarayoni

### Kirish

*1. Qisqartmalar nima?*

*2. Qisqartmalar bizga nima uchun kerak?*

*3. Qanday qisqartmalarga ko‘zingiz tushgan?*

Bu savollar o‘quvchilarni mavzuga olib kirishga yo‘naltirilgan. O‘quvchilarning qisqartma so‘zlar imlosi haqidagi tushunchalari tinglanadi.

*Qisqartma – so‘zning ma’lum shaklda qisqartirib berilgan ifodasi – shartli qisqartmalar. Masalan, RTM – Respublika ta’lim markazi.*

### Asosiy qism

### Orfografiya

**Quyidagi qisqartmalar nimani anglatishini aytib bering.**

Bunda o‘quvchilar hayoti davomida duch kelishi mumkin bo‘lgan qisqartmalar berilgan bo‘lib, ular ushbu qisqartmalar nimani anglatishini aytib berishi lozim.

Ayta olmagan taqdirda, ushbu birliklarning to‘liq shakli yozilib, nimani anglatishi tushuntirib berilishi maqsadga muvofiq.

*TV – Transport vazirligi;*

*AYQSH – avtomobillarga yonilg‘i quyish shoxobchasi;*

*O‘zLiDep – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi;*

*XTV – Xalq ta’limi vazirligi;*

*OTM – Oliy ta’lim muassasasi;*

*VM – Vazirlar Mahkamasi;*

*FVV – Favqulodda vaziyatlar vazirligi;*

*XDP – Xalq demokratik partiyasi;*

*ASDP – Adolat sotsial-demokratik partiyasi;*

*O‘EP – O‘zbekiston Ekologik partiyasi.*

### Qoida. Orfografiya

O‘quvchilar savol-javob hamda amaliy topshiriq orqali qisqartmalar haqida tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng qisqartmalar imlosiga oid nazariy ma’lumot beriladi.

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Siz uyda yozib kelgan xalqaro tashkilotlarning qisqartma nomi qanday bo‘ladi? Yuqoridagi qoida asosida yozing.**

Ushbu topshiriqda o‘quvchilar mustaqil topib kelgan qisqartmalari uchun qoida yozishlari lozim. Bunda darslikda berilgan nazariy ma’lumotdan foydalanish mumkinligi aytiladi. Asosiy e’tibor o‘quvchilar o‘zlari topib kelgan birlikning yozilishini tahlil qila olishi va u asosida qoida yarata olishiga qaratiladi.

### O‘qib tushunish

**Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.**

Matn: “Davlat boshlig‘i kim?”

Muallif: Hoshimjon Ayoziy.

O‘quvchilarga matnni o‘qib chiqish aytiladi, so‘ngra matn ostida berilgan savollar bilan suhbat boshlanadi.

### Muhokama

**1. O‘zbekiston demokratik davlatmi?**

Bu savolning javobi matnda aynan keltirilmagan. O‘quvchilar matnda berilgan ma’lumotlar asosida ushbu savolga javob topishi nazarda tutilgan. Bunda asosiy e’tibor “demokratiya” so‘ziga qaratiladi.

*Demokratiya – fuqarolar erkinligi va tengligi konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatining shakllari amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum; xalq hokimiyati.*

**2. Ushbu matn orqali muallif nima demoqchi?**

Bu savol matn mazmunini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan olgan xulosalari asosida javob berishlari lozim. Bunda matn mazmunini qay darajada tushunganlari hamda fikrlarini asoslay olishlariga e’tibor qaratiladi.

*Javob: "Davlatni xalq boshqaradi" degan fikrni ilgari surgan.*

**3. Muallif "Davlatni xalq boshqaradi" degan g‘oyani nima bilan isbotlamoqchi bo‘lgan?**

Bu savolning javobi matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan. O‘quvchilar matnda berilgan savol-javoblar ketma-ketligidan ushbu g‘oyani anglashi mumkin.

**4. Sizningcha, muallifning fikrlari to‘g‘rimi?**

Bu savolga o‘quvchilar matndan olgan xulosalari asosida javob berishlari mumkin. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilar muallifning fikriga qo‘shilsalar, nima uchun qo‘shilganlari, qo‘shilmasalar, nima uchun qo‘shilmaganlarini asoslab berishga qaratiladi.

**5. Prezidentning yana qanday huquqlarini bilasiz?**

O‘quvchilar bu savolga matndan olgan xulosalari, dars davomida o‘zlashtirgan bilimlari hamda hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab javob berishlari lozim.

### Og‘zaki nutq

**Sinf majlisi tashkil eting. Unda avvalgi mavzularda ishlab chiqilgan “Maktab qoidalari” asosida “Sinf qoidalari”ni yozing. Qoidalarni qo‘l ko‘tarib ovoz berish yo‘li orqali tasdiqlang yoki kerakli o‘rinlariga o‘zgartirishlar kiriting.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarni qonun loyihasi yaratish va uning ijrosini ta’minlash jarayoniga amaliy olib kirishga qaratilgan. O‘quvchilar oldingi mavzuda yaratgan “Maktab qoidalari” asosida “Sinf qoidalari”ni yozib chiqishlari hamda uni guruh bilan birgalikda tasdiqlashlari lozim.

Bu jarayonda “Maktab qoidalari”ni yaratish ketma-ketligidan foydalanish maqsadga muvofiq.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq

**Prezidentga murojaat xati yozing.**

Bu topshiriq o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ayta olish, murojaat xati tayyorlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga berilgan ko‘rsatma asosida Prezidentga murojaat xati yozishlari tushuntiriladi.

## 4-soat


## Dars jarayoni

### Kirish

### Og‘zaki nutq. Murojaat xatlari tahlili va tahriri

Bunda o‘quvchilar yozgan murojaat xatlari tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida o‘qituvchi 1–2 ta o‘quvchiga matnini o‘qittirishi, tahlilga tortishi lozim. Tahlil murojaat xati yozishga berilgan ko‘rsatma hamda imloviy savodxonligiga qaratilishi maqsadga muvofiq.

## Asosiy qism


Quyidagi rasmga diqqat qiling. Unda nima tasvirlangan bo'lishi mumkin? Taxminlaringizni ayting.

Nima deb o'ylaysiz, hukumat tashkilotlariga murojaat qilganimizda o'zimiz haqimizdagi qanday ma'lumotlarni so'rashadi? Nima uchun so'rashadi?

Tasavvur qiling: maktabingizga prezident keldi. U bilan suhbatlashish, unga savollar va takliflar berish imkoniyatingiz bor.

- *Prezidentga qanday murojaat qilasiz? Gapni nimadan boshlaysiz?*
- *Qanday savollar berasiz? Nimalarni so'raysiz?*
- *Qanday takliflaringiz bor?*
- *So'zingizni qanday yakunlaysiz?*

Prezidentning rasmiy vebsaytidan olingan rasmga qarang. Rasm asosida quyidagi savollarga javob bering.

1. Veb-saytning qanday sahifalari bor?
2. Prezidentga murojaat yo'llashning nechta uslubi bor?
3. Qaysi raqamlarga qo'ng'iroq qilish orqali murojaat yo'llash mumkin?
4. Virtual qabulxonaga murojaat yo'llash qaysi usulda amalga oshiriladi?
5. Sizningcha, bu bo'limga yana qanday qo'shimchalar qo'shish kerak?

207

### Og'zaki nutq

**Quyidagi rasmga diqqat qiling. Unda nima tasvirlangan bo'lishi mumkin? Taxminlaringizni ayting.**

Mazkur topshiriqdan asosiy maqsad o'quvchilarga murojaat xatlari qanday bo'lishi va undan foydalanish usullarini o'rgatishdan iborat.

O'quvchilarga taqdim etilgan ushbu rasmda murojaat xati berilgan. O'quvchilar rasm bilan tanishib, undagi ma'lumotlar asosida o'z munosabatlarini bildirishlari lozim.

Dastlab o'quvchilar fikri tinglanib, so'ngra ushbu rasmni ko'rsatgan holda murojaat xatlarida qanday ma'lumot bo'lishi va nima uchun kiritilishi haqida aytilishi lozim.

### Muhokama

**Nima deb o'ylaysiz, hukumat tashkilotlariga murojaat qilganimizda o'zimiz haqimizdagi qanday ma'lumotlarni so'rashadi? Nima uchun so'rashadi deb o'ylaysiz?**

Bu savolga o'quvchilar dars davomida egallagan bilimlari hamda hayotiy kuzatishlari asosida mantiqan o'ylab javob berishlari lozim.

Asosiy e'tibor murojaat xatlari haqida tasavvur uyg'otish hamda o'quvchilar aytgan fikrlarini misollar bilan asoslay olishiga qaratiladi.

### Og'zaki nutq

**Tasavvur qiling: maktabingizga Prezident keldi. U bilan suhbatlashish, unga savollar hamda takliflar berish imkoniyatingiz bor.**

Mazkur topshiriq o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmasini o'stirishga qaratilgan. Bunda o'quvchilardan berilgan savollar asosida Prezident bilan suhbatlashish uchun nutq tayyorlashlari so'raladi.

Bu jarayonda o'quvchilarning savol va takliflari tinglanishi bilan birga ularga nutq so'zlaganda o'zini tutish, murojaat birliklaridan o'rinli foydalanish hamda nutqqa xos ohang, pauzani o'rgatish maqsadga muvofiq.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Savolga-javob yozish

**Prezidentning rasmiy vebsaytidan olingan ushbu rasmga qarang. Savollarga javob bering.**

Berilgan savollarga o'quvchilar yozma hamda og'zaki javob berishlari mumkin. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarga vebsaytning tuzilishi hamda undan foydalana olish haqida ma'lumot berishdan iborat.

*Javob:*

***1.*** *Rasmning yuqori qismida bosh harf bilan berilgan: "Prezident", "Voqealar", "Hujjatlar", "Administratsiya", "Mediateka" va "Bog'lanish" vebsayt sahifalari sanaladi.*

***2.*** *Bu rasmda raqamlab berilgan ma'lumotlarda aks etgan.*

***3.*** *Bu rasmda 2-raqam bilan belgilangan.*


***4.*** *Elektron murojaat yo'llash usulida.*

***5.*** *Bunda o'quvchilar vebsayt haqida egallagan bilimlari, hayotiy kuzatishlari asosida o'z takliflarini aytishlari lozim.*

# O‘Z DEPUTATINGIZNI BILASIZMI?

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilarda saylov, dastur, partiya, deputat haqida tasavvur hosil qilish va bunga oid til birliklaridan foydalanish; berilgan mavzu yuzasidan muhokama matni yozish, turli mavzular yuzasidan fikrini mazmun ketma-ketligini rejalashtirgan holda izchil va tushunarli tarzda ifodalash; so‘z turkumlarini o‘zaro farqlash; partiya nomidan nomzod sifatida saylovoldi dasturini tuzish, fikrini tanqidiy va ijodiy ifodalab berish.

## 1-soat



O‘Z DEPUTATINGIZNI BILASIZMI?

Bu mavzuda o‘rganamiz

• xalq saylagan deputatlarning majburiyatlari, ularning yurt taraqqiyotidagi o‘rni • saylovning ahamiyati • muhokama matni yozish • tanqidiy fikrlar • fikrni izchil ifodalash • so‘z turkumlarini farqlash.

1. Sizningcha, deputat kim?
2. Davlatda deputatlarning bo‘lishi yoki bo‘lmasligi nimalarni o‘zgartirishi mumkin?
3. Birorta deputatni taniysizmi?

“Deputat kim?” nomli nutqni tinglang. Savollarga javob bering.

1. Hokimiyat nechaga bo‘linadi?
2. Qanday darajadagi deputatlar bor?
3. Qanday deputatlar oylik olib ishlaydi?
4. Jamoatchilik asosida ishlashni qanday tasavvur qilasiz?
5. Deputatlikning asosiy talabi qanday ekan?
6. Deputatlar kimning vakili?
7. Deputatlar kim uchun ishlashi kerak?

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “deputat” so‘ziga berilgan izoh bilan tanishing, audiomatndan olgan ma’lumotlaringiz bilan uyg‘unlashtiring hamda “Deputat kim?” degan savolga javob yozing.

DEPUTAT

1. Vakolatli davlat organiga saylangan kishi, vakil.
2. Jamoa (guruh), tashkilot biror topshiriqni bajarish uchun vakil qilgan shaxs.

208

### Dars jarayoni

### Kirish

### Muhokama

**1. Sizningcha, deputat kim?**

Bunda o‘quvchilardan “deputat” so‘zining ma’nosini so‘zma-so‘z aytishlari talab etilmaydi. Asosiy e’tibor ushbu so‘z haqidagi dastlabki tushunchalarini ayta olishlariga qaratiladi. O‘quvchilar javobi tinglangach, ushbu so‘z haqida ma’lumot beriladi.

*Deputat – xalq tomonidan vakolatli davlat organlariga saylangan kishi.*

**2. Davlatda deputatlarning bo‘lishi yoki bo‘lmasligi nimalarni o‘zgartirishi mumkin?**

O‘quvchilar "deputat" so‘zi haqida tasavvurga ega bo‘lganlaridan so‘ng hayotiy kuzatishlari asosida deputatlarning bo‘lishi yoki bo‘lmasligi nimalarni o‘zgartirishini misollar bilan aytib berishlari lozim.

**3. Birorta deputatni taniysizmi?**

Bunda o‘quvchilar o‘zlariga tanish bo‘lgan deputat kimligini aytib o‘tishlari nazarda tutilgan. Asosiy maqsad o‘quvchida deputat kimligi, uning davlat va fuqarolar o‘rtasidagi vazifasi haqida tasavvur hosil qilishdan iborat, o‘quvchilar “yo‘q” deb javob bergan holda ularga o‘qituvchi tomonidan tuman deputatlari kim ekani va vazifasi haqida qisman ma’lumot berilishi maqsadga muvofiq.

### Asosiy qism

### Tinglab tushunish

**“Deputat kim?” nomli nutqni tinglang. Savollarga javob bering.**

Audiomatn: “Deputat kim?”

O‘quvchilarga audiomatn eshittirilganidan so‘ng savollar asosida suhbat boshlanadi.

### Muhokama

Ushbu savollar audiomatnni tinglash davomida eksplitsit (ochiq ifodalangan) ma’lumotlarni qay darajada tushunishni

baholashga qaratilgan. Quyida ularning javobi keltirildi. O‘quvchilardan bu javoblarni so‘zma-so‘z aytib berish talab etilmaydi. Asosiy e’tibor ma’lumotlarni tushunish, deputat kimligi va uning ish faoliyati haqida ma’lumotga ega bo‘lishga qaratiladi.

**1. Hokimiyat nechaga bo‘linadi?**

*Hokimiyatning 3 ta turi mavjud. Bular: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati.*

**2. Qanday darajadagi deputatlar bor?**

*Deputatning 3 ta turi bor. Bular: tuman, viloyat va respublika deputatlari.*

**3. Qanday deputatlar oylik olib ishlaydi?**

*Tuman va viloyat deputatlari oylik maoshsiz ishlaydilar.*

**4. Jamoatchilik asosida ishlashni qanday tasavvur qilasiz?**

*Qatnashchilarning asosiy ish joyi boshqa bo‘ladi, lekin jamoatchilik asosida birikib ishlashadi. Masalan, o‘qituvchi ham, tadbirkor ham deputat bo‘lishi mumkin.*

**5. Deputatlikning asosiy talabi qanday ekan?**

*Bir maqsad yo‘lida birlashib, muammolarni birgalikda aniqlab, bartaraf etish.*

**6. Deputatlar kimning vakili?**

*Bu audiomatnda aynan keltirilmagan. O‘quvchilar ularning vazifasidan kelib chiqib, xalqning vakili ekanini tushunib, aytib bera olishlari lozim.*

**7. Deputatlar kim uchun ishlashi kerak?**

*Deputatlar xalq va uning manfaatlari uchun ishlashi lozim.*

### Leksikografiya

**"O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da *“deputat”* so‘ziga berilgan izohlar bilan tanishing. Audiomatndan olgan ma’lumotlaringiz bilan uyg‘unlashtiring hamda “Deputat kim?” degan savolga javob yozing.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"dan olingan “deputat” so‘zi sharhi bilan tanishadi hamda Rasul Kusherbayevning nutqidan olgan ma’lumotlari asosida “Deputat kim?” degan savolga javob yozishadi.

### Leksikografiya. Morfologiya

**"Deputat" so‘zi atrofida birlasha oladigan so‘zlarni xattaxtada yozib chiqing. Yozgan so‘zlaringizni ot, sifat hamda fe’lga ajrating.**

Bu topshiriqni bajarishdan avval xattaxtada klaster chiziladi. O‘quvchilar navbat bilan chiqib, “Deputat kim?” savoliga yozgan javoblaridan o‘zlari uchun eng kerakli deb bilgan jumlani ushbu klasterga yozishlari lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, o‘qituvchi tomonidan ushbu klaster hamda undagi ma’lumotlar tekshirilib, deputat haqida umumiy ma’lumot beriladi.

So‘ngra o‘quvchilarga klasterda yozgan jumlalarini so‘z turkumlariga: ot, sifat hamda fe’lga ajratib yozish aytiladi. Ajratishda turli belgilardan foydalanishlari mumkin. Asosiy e’tibor so‘zlarga to‘g‘ri so‘roq berish hamda ma’no-mazmuniga ko‘ra so‘z turkumlariga ajrata olishga qaratiladi.

### Uyga vazifa


### Yozma nutq. Ma’lumot to‘plash

**Quyidagi so‘rovnomaga oila a’zolaringizning javobini yozib keling.**

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanib, erkin fikrlashlarini talab etadi. Bunda o‘quvchilar darslikda berilgan so‘rovnoma bilan tanishib, u asosida oila a’zolaridan ma’lumot to‘plashlari tushuntiriladi.

Bu topshiriqni bajarib kelishgach, dars davomida o‘quvchilarning so‘rovnoma asosida to‘plagan ma’lumotlari jamlanib, qisman statistika tarzida ko‘rsatilishi hamda so‘rovnoma nimaligi, qanday holatlarda olinishi haqida ma’lumot berilishi maqsadga muvofiq.

## 2-soat



"Deputat" so'ziga bog'liq so'zlarni xattaxtada yozib chiqing. Yozgan so'zlaringizni ot, sifat hamda fe'lga ajrating.

DEPUTAT

Quyidagi so'rovnomaga oila a'zolaringizning javobini yozib keling.

1. Ism, familiyangiz nima?
2. Biror marta deputatlarni saylashda qatnashganmisiz?
3. Hududingizdan saylangan biror deputatni taniysizmi? U kim?
4. O'zbekistondagi birorta deputatni taniysizmi? U kim?
5. Deputatlar tufayli hal qilingan biror muammoni bilasizmi? U qaysi?

1. Oilangizdan kimlar deputatlarni saylashda qatnashgan ekan?
2. Oila a'zolaringiz deputatlardan kimlarni tanir ekan?
3. Televizorda saylov jarayonini ko'rganmisiz? U qanday bo'ladi?

**SAYLOV NIMA?**

Saylov — shaxsni deputatlikka, biror tashkilot a'zoligiga yoxud mansabga **ochiq** yoki **yopiq** shaklda ovoz berish yo'li bilan saylash.

Kishilarning birlashmasi **jamiyat** deb nomlanadi. Jamiyat bo'lib yashash odamlarga ko'plab qulayliklar **keltiradi.** Zero, jamiyatda odamlar birlashib, o'z hayotiy muammolarini **hal qilishadi.**

Jamiyat qanchalik jips bo'lsa, shunchalik **muvaffaqiyatli** bo'ladi. Tarqoq bo'lsa – muvaffaqiyatsiz.

Jamiyatni haqiqiy jamiyat qiluvchi omillardan biri – hayotiy qarorlarni ko'pchilik bo'lib **qabul qilishdir.** Buning yaxshi tarafi shundaki, qarorlar qabul qilishda yakka shaxslar yoxud jamiyatning **ba'zi** guruhlari emas, balki hamma bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. Ko'pchilikning aqliy salohiyati ishga solinadi.

Bu narsani ro'yobga chiqarish vositalaridan biri saylovdir. Bunda kishilar ichlaridan eng salohiyatlilarini saylab olishadi va ularga qarorlar qabul qilishni ishonib topshirib, ulardan kengash tuzishadi. Ammo ish **shu** bilan tugamaydi – saylaganlar saylanganlardan qabul qilingan qarorlar bo'yicha hisobot so'rab turishadi, faoliyatlarini kuzatib borishadi.

Shu tarzda ba'zilargina emas, balki hamma jamiyat ishlarida, qarorlarni qabul qilishda qatnashadi va barchaning manfaati inobatga olinadi.

209

### Dars jarayoni

### Kirish

### Og'zaki nutq

O'quvchilarni mavzuga olib kirish, ularning ushbu mavzu yuzasidan dastlabki bilimlarini sinab ko'rish maqsadida quyidagi savollar bilan suhbat olib boriladi.

*1. Oilangizdan kimlar deputatlarni saylashda qatnashgan ekan?*

*2. Oila a'zolaringiz deputatlardan kimlarni tanishar ekan?*

*3. Televizorda saylov jarayonini ko'rganmisiz? U qanday bo'ladi?*

### Asosiy qism

### O'qib tushunish

Matn: "Saylov nima?"

Manba: *kun.uz sayti.*

O'quvchilarga matnni o'qib chiqishlari aytiladi, so'ngra matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.


### Muhokama

**1. Saylov nima uchun kerak deb o'ylaysiz?**

Bu savol matndagi gaplarni integratsiya qilib, xulosa chiqarishga qaratilgan. O'quvchilar matnda berilgan ma'lumotlar hamda hayotiy kuzatishlari asosida saylov nima uchun kerakligini tushunib, fikr bildirishlari lozim.

**2. Jamiyatning muvaffaqiyatida saylovning o'rni qanday?**

Bu matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni tushunishga qaratilgan savol. O'quvchilar matnning 3-, 4-xatboshilaridagi ma'lumotlar asosida ushbu savolga javob berishlari lozim.



Demak, saylov – muhim va kerakli hodisa.

Saylov kuni va maqsadi **avvaldan** belgilab qo'yiladi va maxsus saylov joylari tashkil etiladi. Ular "saylov okrugi" deb nomlanadi. Odamlar saylov bo'ladigan kuni shu okruglarga o'z pasportlari bilan kelib, o'zlari tanlagan nomzodga ovoz berishadi.

Nomzodlarning ismi yozilgan qog'oz "byulleten" deb ataladi. Saylov okrugida alohida xonalar ajratiladi. Saylovchilar o'sha xonaga kirib, o'z nomzodining ismi oldiga kerakli belgini qo'yadi va chiqib, **tashqarida**, **hamma**ga ko'rinarli joyga qo'yilgan saylov qutisiga byulletenni tashlaydi. **Bir** kishi faqat bir marta ovoz berish huquqiga ega hisoblanadi.

Saylov okrugida **nomzodlar** haqidagi ma'lumotlar maxsus taxtaga ilib qo'yilgan bo'ladi. Nomzodlarni **yaxshi** tanimagan saylovchilar **o'sha** ma'lumotlar bilan tanishib, **keyin** ovoz berishlari mumkin.

Eng **ko'p** ovoz olgan nomzod saylovda g'olib bo'lgan hisoblanadi.

*kun.uz saytidan*

1. Saylov nima uchun kerak deb o'ylaysiz?
2. Jamiyatning muvaffaqiyatida saylovning o'rni qanday?
3. Nima deb o'ylaysiz, nega byulletenlarni tashlash qutisi hammaga ko'rinadigan joyda bo'lishi kerak?
4. Nomzodlarni tanimagan saylovchi uchun qanday qulaylik joriy qilinadi?
5. Nomzodlar haqida ma'lumot beradigan qog'ozda nimalar aks etar ekan?

Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni quyidagi jadvalga joylashtiring.

| Ot | Sifat | Son | Olmosh | Fe'l | Ravish |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | |

**Saylovoldi dasturi** – nomzod muammolarni va ularga o'z yechimlarini ko'rsatadigan hujjat. Ya'ni nomzod hududdagi muammolarni aniqlaydi va ularni yechish uchun nimalar qila olishi yoki qanday qilib shu muammoni hal etish mumkinligi haqida ma'lumot tayyorlaydi va saylovchilarga yetkazadi.

Guruhlarga bo'lining. Sinfdagi yoki maktabdagi bitta muammoni aniqlang va unga yechim taklif qiling.

O'z yashash hududingizdagi muammolarni o'rganing. Sizningcha, hududingizda qanday muammolar bor? Qanday o'zgarishlarni amalga oshirish zarur? Ulardan bittasini hal qilishga oid o'z taklifingizni tayyorlang. Oila a'zolaringizga taqdimot qiling.

1. Siz hududingizdan deputat bo'lib saylansangiz, qanday ishlarni amalga oshirasiz?
2. Sizningcha, hududingizdagi eng katta muammo qaysi?

210

**3. Nima deb o'ylaysiz, nega byulletenlarni tashlash qutisi hammaga ko'rinadigan joyda bo'lishi kerak?**

Bu savolga o'quvchi matndan olgan ma'lumotlari asosida mantiqan o'ylab javob berishi nazarda tutilgan. Bunda o'quvchiga *saylov adolatli olib borilishi uchun buning muhimligini* aytib o'tish lozim.

**4. Nomzodlarni tanimagan saylovchi uchun qanday qulaylik joriy qilinadi?**

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotni topishga qaratilgan. Matnning oxirgi qismida nomzodlar haqidagi ma'lumot maxsus taxtaga ilib qo'yilgan bo'lib, tanish bo'lmagan saylovchilar shu ma'lumotlarni o'qib olishlari mumkinligi ko'zda tutilganini tushunib, aytib bera olishi lozim.

**5. Nomzodlar haqida ma'lumot beradigan qog'ozda nimalar aks etar ekan?**

Bu haqida matnda ma'lumot berilmagan. O'quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida mantiqan o'ylab, javob berishlari mumkin.

O'qituvchi bildirilgan fikrlarni tinglab, ushbu savolga javobni namuna tarzida ko'rsatib, izohlab o'tishi maqsadga muvofiq.

## Morfologiya

**Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni quyidagi jadvalga joylashtiring.**

Bunda o'quvchilar matnda berilgan so'zlarni aniqlab, ularni turkumiga ko'ra ustunlarga ajratib yozishlari lozim. Asosiy e'tibor o'quvchining so'z ma'nosini tushunishi hamda ularga so'roq bera olishiga qaratiladi.

*Javob:*

| Ot | Sifat | Son | Olmosh | Fe'l | Ravish |
|---|---|---|---|---|---|
| *jamiyat, tashqari, nomzod* | *ochiq, yopiq, muvaffaqiyatli, yaxshi,* | *bir* | *hamma, o'sha,* | *keltiradi, hal qilishadi, qabul qilishadi* | *ba'zi, ko'p, keyin, avval* |

## Nazariy ma'lumot

O'quvchilarga saylovoldi dasturi haqida ma'lumot beriladi.

## Munozara

**Guruhlarga bo'lining. Sinfdagi yoki maktabdagi bitta muammoni aniqlang va unga yechim taklif qiling.**

Mazkur topshiriq o'quvchilarning guruh bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bunda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan guruhlarga bo'linadi hamda har bir guruh mustaqil izlanib, maktabidagi bitta muammoni tanlaydi va shu muammoni yechish uchun taklif ishlab chiqadi.

Guruhlar o'z muammolari hamda takliflarini taqdim qilganlaridan so'ng aniqlangan muammo va uning yechimiga qaratilgan eng yaxshi taklif tanlanadi hamda o'sha guruh o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

## Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**O'z yashash hududingizdagi muammolarni o'rganib keling. Sizningcha, hududingizdan qanday muammolar bor? Nimalarni amalga oshirish zarur? Ulardan bittasini yechishga oid o'z taklifingizni tayyorlang. Oila a'zolaringizga taqdimot qiling.**

Ushbu topshiriq mustaqil izlanishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar dars davomida egallagan bilimlari asosida erkin izlanishlari talab etiladi.

Bunda ular o'z yashash hududidagi muammolarni *so'rovnoma tashkil qilib: oila a'zolaridan, qo'ni-qo'shnilaridan so'rashi, o'z kuzatishlari asosida aniqlashi mumkinligi aytiladi.*

Muammolarni aniqlab bo'lgandan so'ng uni yechishga doir takliflar ishlab chiqishi lozim. Bunda muammo hamda taklif etayotgan yechimini turli shakl (matn, chizma, jadval, rasm)da ifodalashi mumkin. Asosiy e'tibor o'quvchining jamiyat bilan aloqaga kirishishi, muammoni o'rganib, tanqidiy baholashi hamda unga yechim taklif qila olishiga qaratiladi.

## 3-soat



MUQOBILLAR ICHIDAN MAQBULINI TANLASH

Deputatlarning yana bir muhim vazifasi bor – ular tanlov qilishlari kerak. Bu tanlov asosan davlatning pulini qayerga sarflash haqida qaror qabul qilish bilan bog'liq. Iqtisodchilar mana shu jarayonlarda muqobillar ichidan maqbulini tanlay olish haqida gapirar ekan, shunday deyishadi: "Masalan, bir maktabda kitoblar yetishmaydi, lekin hokim shu tumanning futbol jamoasiga pul bermoqda. Mana shu payt deputatlar futbol jamoasidan ko'ra maktabga kitob olish uchun pul berish maqbulroq ekanini hokimga uqtirishlari kerak". Ya'ni futbol jamoasi va maktab uchun kitob muqobillardir, ulardan eng foydalisini tanlash esa muqobillar ichidan maqbulini tanlash bo'ladi.

Guruhlarga bo'lining. Tasavvur qiling, har biringiz tuman deputatisiz. Hokim ba'zi masalalarni o'rtaga tashlamoqda. Siz ulardan maqbulini tanlashingiz, zarur o'rinda hokimning xatosini tushuntirishingiz kerak. Bunda o'qituvchingiz hokim rolini o'ynaydi. Har bir guruh alohida deputatlar jamoasini tashkil qiladi va fikr bildiradi.

1 milliard so'mga yo'l chetiga gul ekish

1 milliard so'mga maktablarga kompyuter olib berish

1 milliard so'mga haykal o'rnatish

1 milliard so'mga kasalxona qurish

100 million so'mga kutubxona qurish

50 million so'mga favvora qurish

211

### Dars jarayoni

### Kirish

#### Og'zaki nutq

*1. Siz hududingiz deputati bo'lib qolsangiz nimalarni amalga oshirasiz?*

*2. Sizningcha, hududingizdagi eng katta muammo qaysi?*

Ushbu savollarga javob berishda o'quvchilar tayyorlagan uyga vazifalaridan foydalanishlari mumkin. O'rgangan muammolari va uni bartaraf qilishga oid takliflarini og'zaki taqdimot qilib berishlari maqsadga muvofiq.

### Asosiy qism

#### O'qib tushunish

**Quyidagi kichik matn bilan tanishib chiqing. Mavzuni muhokama qiling.**

**Matn**: "Muqobillar ichidan maqbulini tanlash".

O'quvchilarga matnni o'qib chiqish aytiladi. So'ngra matn yuzasidan munosabatlari tinglanadi. O'quvchilar matndagi ma'lumotlarni tushunib, hayotiy misollar bilan fikr bildira olishlari lozim. Bunda asosiy e'tibor "muqobil" va "maqbul" birliklarining ma'nosini tushunishga qaratiladi.

*Muqobil – qarama-qarshi yo'nalgan narsa yoki hodisa.*

*Maqbul – ma'qul keladigan narsa yoki hodisa.*

#### Munozara

**Guruhlarga bo'lining. Tasavvur qiling, har biringiz tuman deputatisiz. Hokim ba'zi masalalarni o'rtaga tashlamoqda. Siz ulardan maqbulini tanlashingiz, zarur o'rinda hokimning xatosini tushuntirishingiz kerak. Bunda o'qituvchingiz hokim rolini o'ynaydi. Har bir guruh – alohida deputatlar jamoasini tashkil qiladi va fikr bildiradi.**

Mazkur topshiriqni bajarishda o'qituvchi sinfda hokim vazifasini bajarib, har bir o'quvchiga familiyasi bilan deputat deb murojaat qilishi, darslikda berilgan masalalarni bir-ma-bir ko'rsatib tanishtirishi, so'ngra har bir o'quvchidan ushbu masalalar yuzasidan fikr so'rashi lozim.

O'quvchilar ushbu masalalarni qo'llab-quvvatlashi, tanqid qilishi mumkin. Asosiy e'tibor maqbullar ichidan muqobilini tanlab, uni o'z fikrlari bilan asoslay olishiga qaratiladi.

### Uyga vazifa

#### Yozma nutq. Matn yaratish

**"Men deputat bo'lsam" mavzusida matn yozing. Matnda deputatlik paytingizda amalga oshiradigan hamda yo'l qo'ymaydigan ishlaringiz haqida yozing.**


Ushbu topshiriqni bajarishda o'quvchilarga oldinroq egallagan bilimlari yordam beradi. Dars davomida bo'lib o'tgan muhokamadan olgan xulosalari asosida o'quvchilar o'zlarini deputat sanab, ushbu vaqt davo-

mida qanday ishlarni amalga oshirishlari-yu qaysi ishlar amalga oshirilishiga qarshi ekanliklarini misollar bilan asoslab, matn ko‘rinishida yozishlari lozim.

*Masalan, darslikda ikki xil holat aks etgan rasm berilgan. Birinchi holatga ko‘ra, deputat daraxt kesilishiga qarshi, u tabiatni, ekologiyani asrab qolish tarafdori, ikkinchi holatga ko‘ra, deputat daraxtlar kesilishiga qarshi emas, daraxtlar kesilib, o‘rnida yangi binolar barpo etilishini qo‘llab-quvvatlaydi.*

Xo‘sh, bu o‘rinda o‘quvchi deputat bo‘lganda qanday yo‘l tutadi? Nima uchun? Shu kabi savollarga munosabatni matn ko‘rinishida yozib berish tushuntiriladi.

**4-soat**


"Men deputat bo'lsam" mavzusida matn yozing. Matnda deputatlik paytingizda amalga oshiradigan hamda yo'l qo'ymaydigan ishlaringiz haqida yozing.

212

**Dars jarayoni**

**Kirish**

*1. Deputatlar haqida nimalarni bilib oldingiz?*

*2. Deputatdan nimalarni talab qilishingiz mumkin ekan?*

**Asosiy qism**

**Og‘zaki nutq**

**Sinfda deputatlik saylovi tashkil qiling.**

Mazkur topshiriqni bajarishda o‘quvchilar dars davomida egallagan bilimlarini amaliy sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ladilar. O‘qituvchi tomonidan yo‘riqnoma tushuntirib o‘tiladi. O‘quvchilar yo‘riqnomaga asoslanib, sinfda deputatlik saylovi tashkil qilishi lozim.

Saylovni tashkil qilishdan avval o‘quvchilarga partiya nimaligi, yurtimizda qanday partiyalar borligi haqida ma’lumot berilishi maqsadga muvofiq.

*Partiya – bir maqsad yo‘lida, bir g‘oya atrofida birlashgan kishilar jamoasi.O‘zbekistonda 5 ta partiya faoliyat yuritadi, har bir partiyaning o‘z maqsad va vazifalari bor.*

*1. O‘zXDP – O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi.*

*2. O‘ZLiDeP – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi.*


*3. O‘zMTDP – O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi.*

*4. ASDP – O‘zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasi.*

*5. Ekopartiya – O‘zbekiston ekologik partiyasi.*

# O‘QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

## 1-soat




### Dars jarayoni

#### Kirish

*1. Ko‘pmillatli davlat deganda nimani tushunasiz?*

*2. O‘zbekistonda qaysi millat vakillari yashaydi?*

Ushbu savollar o‘quvchilarni mavzuga olib kirish hamda “ko‘pmillatli” so‘zining ma’nosini tushunib, hayotiy misollar bilan javob berishga qaratilgan. Savol o‘quvchilarga umumiy beriladi, istagan o‘quvchi javob berishi mumkin.

#### Asosiy qism

##### Og‘zaki nutq

**Diagramma bilan tanishing hamda topshiriqlarni bajaring.**

Mazkur topshiriqda O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisining etnik tarkibi aks etgan diagramma berilgan bo‘lib, o‘quvchilarning diagrammani tushunish va og‘zaki tushuntirib bera olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga diagramma bilan tanishib, munosabat bildirish aytiladi.

##### Muhokama

**1. Diagramma sarlavhasidagi “doimiy aholi” nimani anglatadi?**

Bu savol “doimiy aholi” birligi ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu birlikning ma’nosini misollar bilan tushuntirib berishlari lozim.

*Doimiy aholi – yashash hududida muqim, doimiy yashaydigan aholiga nisbatan ishlatiladi.*

**2. Etnik tarkib deganda nimani tushundingiz?**

Ushbu savol ham “etnik tarkib” birligining ma’nosini tushunishga qaratilgan.

*Etnik tarkib – kelib chiqish jihatidan biror xalqqa oid, mansub bo‘lgan qatlam.*

##### Og‘zaki nutq

**Diagrammani izohlab bering. Nutqingiz kirish, asosiy qism hamda xulosadan iborat bo‘lishi lozim. Diqqat bilan bir-biringizning nutqingizni kuzating. Munosabat bildiring.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning og‘zaki nutq o‘stirish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilardan diagrammani izohlab berish talab etiladi.

Bu jarayonda o‘quvchilar ketma-ketlikda chiqib nutq so‘zlaydi, kuzatuvchi bo‘lgan o‘quvchilar sinfdoshlarining nutqini kuzatib, munosabat bildirishlari lozim.

Bunda o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash, munosabat bildirish, nutq so‘zlaganda o‘zini tutish, murojaat birliklaridan o‘rinli foydalanish hamda nutqqa xos ohang, pauzani o‘rgatish maqsad qilingan.

##### Orfografiya

**Imlo qoidalariga rioya qilgan holda O‘zbekistonda yashovchi millatlar nomini yozing.**

O‘quvchilar diagramma orqali O‘zbekistonda yashovchi aholi tarkibi bilan tanishgandan so‘ng aholi etnik tarkibini tashkil qilgan millat nomlarini yozishi lozim.

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Berilgan diagrammani xabar matni ko‘rinishida yozing.**

Bu topshiriq o‘quvchilarning diagrammani tushunish, unda berilgan ma’lumotlardan foydalanib matn yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarga berilgan diagrammani xabar matniga aylantirib yozish aytiladi. Ularga matnni yozishga oid yo‘nalish berishda kirish so‘zlar bilan boshlash maqsadga muvofiq. *Masalan, “Sizga taqdim etilgan ushbu diagrammada…”, “Ko‘rib turganingizdek, ushbu diagrammada…”* kabi.

### Yozma nutq. Tahlil

**Sinfdoshingiz yozgan matnni tahrir qiling.**

Bu o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va baho bera olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan topshiriq bo‘lib, o‘quvchilar diagrammani izohlab yozgan xabar matnlarini partadoshlari bilan almashtirib, tahrir qilishlari lozim.

O‘quvchilarga bu jarayonda quyidagilarga e’tiborli bo‘lish aytiladi:

- *imloviy savodxonlik;*
- *diagrammadagi barcha ma’lumotlarning izohlangan;*
- *xabar matniga oid til birliklaridan o‘rinli foydalanilgani;*
- *matnning qismlari shakllantirilgani (kirish, asosiy qism, xulosa).*

### Uyga vazifa

### Leksikografiya

**Darsligingiz asosida yil davomida o‘rganilgan olinma so‘zlarning izohli lug‘atini tuzing.**

Bu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at tuzish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Dastlab o‘quvchilar bilan olinma so‘zlarni takrorlash uchun savol-javob o‘tkaziladi. So‘ngra yil davomida o‘tilgan mavzulardan olinma so‘zlarni to‘plab, lug‘at tuzish aytiladi. Bunda o‘quvchilar bir nutqiy mavzuni tanlab olishlari ham mumkin. Asosiy e’tibor so‘zlarni izohlay olish hamda lug‘at tuzish shakliga rioya qilinganiga qaratiladi.

## 2-soat

Imlo qoidalariga rioya qilgan holda O‘zbekistonda yashovchi millatlar nomini yozing.

Berilgan diagrammani xabar matni ko‘rinishida yozing. Sinfdoshingiz yozgan matnni tahrir qiling.

Darsligingiz asosida yil davomida o‘rganilgan olinma so‘zlarning izohli lug‘atini tuzing.

Namuna *pediatr – bolalar shifokori.*

Ushbu matndagi bo‘sh o‘rinlarni eng mos deb bilgan so‘zlaringiz bilan to‘ldirib, yozing.

**RANGI QUV O‘CHDI**

Bir qarashda … (shu, bu, mana shu) ibora bizga har jihatdan tushunarliday va uni izohlab o‘tirishga … (imkon, hojat, sabab) yo‘qday … (seziladi, ko‘rinadi, tuyuladi). Biroq bu iboradagi “quv” so‘zi qanday ma’noni … (anglatadi, izohlaydi, ko‘rsatadi)? Bizga “quv” so‘zining “ayyor” degan … (mazmuni, ma’nosi, izohi) ma’lum. Lekin bu iborada “quv” “ayyor” … (mazmuni, ma’nosi, izohi)da kelsa, … (hech qachon, aslo, umuman) mantiqqa to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ya’ni “rangi ayyor o‘chdi” deyish … (ahmoqlik, bema’nilik, xatolik) bo‘ladi. Ma’lumki, … (xalq, el, millat) iboralarida so‘zlar qattiq mixlanadi.

“Turkiy tillar etimologik lug‘ati”da “quv” so‘zi “oq-sariq” degan ma’noni anglatishi … (aytilgan, ta’kidlangan, ko‘rsatilgan). Boshqa manbalardagi izohlarda ham … (bu, shu, mana shu) so‘z shu ma’noga yaqin shaklda sharhlangan. Qumiqlar … (bilan, va) qirg‘izlar tilida “quv” – “oq” degan, xakaslar tilida esa “rangsiz” degan mazmunni bildiradi. Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da oqqushning ham “quv” deb atalishi ko‘rsatib o‘tilgan. …(Nutqimiz, Tilimiz, Biz)da “Quv quv bilan uchadi, g‘oz g‘oz bilan ko‘chadi” degan … (naql, maqol, gap) bor. Bu ham “quv” so‘zining oq rangni ifodalashini … (dalillaydi, bildiradi, sharhlaydi).




*Eshqobil Shukur, “Boboso‘z izidan” kitobidan*



### Dars jarayoni

### Kirish

*Insonning turli holatlarini ifodalash uchun qanday iboralardan foydalanamiz? Misollar keltiring.*

### Asosiy qism

### Leksikologiya

**Ushbu matndagi bo‘sh o‘rinlarni eng mos deb bilgan so‘zlaringiz bilan to‘ldirib yozing.**

Mazkur topshiriq matnni tahrir qilish, so‘zlarni ma’nosiga mos kontekstda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan matnni o‘qib, qavs ichidan qay bir so‘z mos kelishini aniqlab, yozishlari lozim. Bunda o‘quvchilar matnni yaxlit ko‘chirishlari shart emas, ma'qul keladigan

so‘zni o‘zlariga mos usulda yozib olishlari mumkin. Masalan, vergul bilan ketma-ketlikda yoki raqam bilan tartiblab aniqlab olishlari aytiladi.

### Tinglab tushunish

**“Rangi quv o‘chdi” audiomatnini tinglang. Sizning tanlovingiz bilan muallif qo‘llagan so‘zlar o‘rtasida qanday farqlar uchradi? Munosabat bildiring.**

Audiomatn: “Rangi quv o‘chdi”.

Muallif: Eshqobil Shukur.

*Bir qarashda **bu** ibora bizga har jihatdan tushunarliday va uni izohlab o‘tirishga **hojat** yo‘qday **tuyuladi.** Biroq bu iboradagi “quv” so‘zi qanday ma’noni **anglatadi?** Bizga “quv” so‘zining “ayyor” degan **ma’nosi** ma’lum. Lekin bu iborada “quv” “ayyor” ma’nosida kelsa, **aslo** mantiqqa to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ya’ni “rangi ayyor o‘chdi” deyish **bema’nilik** bo‘ladi. Ma’lumki, **xalq** iboralarida so‘zlar qattiq mixlanadi.*

*“Turkiy tillar etimologik lug‘ati”da “quv” so‘zi “oq-sariq” degan ma’noni anglatishi **ta’kidlangan.** Boshqa manbalardagi izohlarda ham **bu** so‘z shu ma’noga yaqin shaklda sharhlangan. Qumiqlar **va** qirg‘izlar tilida “quv” – “oq” degan, xakaslar tilida esa “rangsiz” degan mazmunni bildiradi. Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da oqqushning ham “quv” deb atalishi ko‘rsatib o‘tilgan. **Tilimizda** “Quv quv bilan uchadi, g‘oz g‘oz bilan ko‘chadi” degan **maqol** bor. Bu ham “quv” so‘zining oq rangni ifodalashini **dalillaydi.***

Bu topshiriq o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish bilan birga matnni lingvistik tahrir qilishni o‘rgatishga ham qaratilgan. O‘quvchilar audiomatnni eshitish davomida o‘zlari yuqorida tanlab olgan so‘zlari bilan asl matndagi so‘zlarning mos yoki mos emasligini aniqlab ketishlari lozim. So‘ngra har birlaridan bu bo‘yicha fikr-munosabat so‘raladi.

Bunda o‘quvchilar bir so‘zning turli ma’nolari borligini hamda ular kontekstga ko‘ra farqlab ishlatilishini amaliy topshiriq orqali tushunishlariga e’tibor qaratiladi.

### Yozma nutq. Matnni tahrirlab, yaxlit matn yaratish

**Matndagi gaplar chegarasini, 4 ta xatboshini aniqlang, tushirib qoldirilgan tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yib, ko‘chiring.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda matn tuzilishini tushunish, undagi gaplar chegarasini aniqlash, xatboshilarni ajrata olish hamda tushirib qoldirilgan tinish belgilaridan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar audiomatn orqali qo‘llanishi kerak bo‘lgan so‘zlarni aniqlab, topshiriq talablariga rioya qilgan holda yaxlit matnga aylantirib yozishi lozim.

### O‘qib tushunish

Matn: “Qarz”ning “qavola”si nima?”

Muallif: Eshqobil Shukur.

O‘quvchilar matnni o‘qib chiqib, o‘z munosabatlarini bildirishlari lozim.

### Muhokama

*1. Ayting-chi, matnni oson tushunishimizda tinish belgilarining qanday o‘rni bor?*

*2. Ushbu matn ustida ishlash jarayonida qanday tinish belgilaridan foydalandingiz?*

Bu savollar matndagi tinish belgilari nima maqsadda qo‘llanganini tushunish hamda ularining vazifalarini aniqlab olishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan tinish belgi qatnashgan o‘rinlarni aniqlab, o‘z munosabatini bildirishi lozim.

### Yozma nutq. Savol tuzish

**“Rangi quv o‘chdi” hamda “Qarz”ning “qavola”si nima?” matnlari asosida 3 tadan savol tuzib, yozing. Sinfdoshingiz tuzgan savollarga javob bering.**

Mazkur topshiriq o‘quvchilarda matnni o‘qib tushunish hamda savol tuzish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar yuqorida tanishgan matnlari asosida ixtiyoriy savol tuzib, yozishlari mumkin. Tuzgan savollarining qay darajada ahamiyatliligini sinfdagi muhokama asosida bilib oladilar. Bunda o‘quvchilar bir-birlarining tuzgan savollariga javob berishlari lozim.

## Uyga vazifa


### Leksikologiya. Leksikografiya

**Iboralar lug‘atidan 10 ta iboraning izohini o‘rganing, daftaringizga yozib oling.**

Bu topshiriq o‘quvchilarni mustaqil izlanishga yo‘naltiradi. O‘quvchilarga iboralar lug‘atidan 10 ta iboraning ma’nosini o‘rganib, tushunganlarini izoh ko‘rinishida yozib kelish aytiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilar foydalanishi mumkin bo‘lgan iboralar lug‘ati haqida ma’lumot berib o‘tishi maqsadga muvofiq.

## 3-soat



Oila a’zolaringiz davrasida ko‘pincha nimalar haqida suhbat bo‘ladi?

Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

– 1951-yilda Toshkentning **Eski shahar** qismida **dunyoga kelganman**. Men tug‘ilib o‘sgan ko‘chaning nomi “Hurriyat” bo‘lgan. Bolaligimdayoq **nega** endi shunday tor, boshi berk ko‘chaga “Hurriyat” nomini berishgan deb ajablanganman. Balki bu ham **taqdirningmi**, tarixningmi o‘yini bo‘lgandir. Bunga garchi bola aqlim yetmagan bo‘lsa-da, baribir, g‘alati tuyulgani aniq.

Oddiy **hunarmandning** kattagina, o‘rtahol oilasida **ulg‘aydim**. Men **to‘rtta** aka, to‘rtta opaning **erkatoy** ukasi edim. Ota-onam ziyoli qatlam vakili bo‘lishgan. Bizning oilada suhbatlarimizning asosiy mavzusi kitob o‘qish, bilim olish, ziyolilik, **tartib**, intizom bo‘lgan. Bu suhbatlar asnosida yaxshi odam bo‘lish sirlarinigina emas, dunyoni anglashga, **ma’rifat**ni tushunishga ham **intilganmiz**. Ota-onamiz shunga da’vat qilishgan. “Pul top, boylik, kiyim-kechak orttir, hashamatga intil”, degan gaplar umuman bo‘lgan emas. “Birovning haqqiga xiyonat qilma, behuda olishma, tortishma, yoqalashma”, deb bot-bot **takrorlashardi**.

Albatta, insonning hayotdagi har bir qilayotgan ishi orzu-havasiga bog‘liq. Lekin!.. **Orzu-havasning** amalga oshishi aqlning imkoniyati, jismoniy **sog‘lomlik** imkoniyati va moddiy imkoniyatga bog‘liq. Biri bo‘lmasa, qolgan **ikkita**sining kuchi yetmaydi. **Aqlli** bo‘lish bilan birga jismoniy **sog‘lom** ham bo‘lish kerak. Aytishadi-ku, sog‘lom tanda sog‘ aql, deb. Ammo bu ham odamning orzu-havasiga yetishi uchun kamlik qiladi. Orzuga to‘kis erishish uchun u ma’naviy quvvatga ham ega bo‘lishi kerak. Bizda ko‘pincha **ana shu** narsa **pand bergan**. Yanayam boshqacha inson bo‘lib voyaga yetishga imkoniyatimiz u qadar yaxshi bo‘lmagan. Ehtimol, bu borada moddiy **imkoniyat**imiz to‘sqinlik qilgandir. “Tomoqni yamab bo‘lmaydi”, deyishadi. Balki, otam bolalari sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi, qora qozoni har kuni bekam-u ko‘st qaynashi uchun andarmon bo‘lib qolgandir, yana bilmadim. Endi o‘zimiz ota bo‘lib, farzand boqib, nabira o‘stirib, oila boshlig‘i mas’uliyatini his qilgach, ota-onam shuncha farzandning qornini to‘q, ustini but qilishni qanday qilib uddalagan ekan, deb **o‘ylab qolaman**. To‘g‘ri, **biz** kiyim-kechak, ovqat tanlamasdik, shohona sharoitlar tanlamasdik. Boriga **baraka** qilib ketaverar edik.

Baribir, o‘sha paytdagi sharoitni hisobga olsak, ota-onamga oson **bo‘lmagan ekan**.

*Xurshid Do‘stmuhammad*

1. Muallif nima uchun bolaligida ko‘chasining nomidan ajablangan?
2. O‘rtahol oila qanday bo‘ladi?
3. Muallifning ota-onasi nimaga da’vat qilgan? Nima uchun?
4. Ota-ona, bobo-buvilaringiz kelajakda sizdan nimalar kutishadi?

217

## Dars jarayoni

### Kirish

*Oila a’zolaringiz davrasida ko‘pincha nimalar haqida suhbat bo‘ladi?*

### Asosiy qism

### O‘qib tushunish

**Matnni o‘qing va savollarga javob bering.**

## Muhokama

**1. Muallif nima uchun bolaligida ko‘chasining nomidan ajablangan?**

Bu savol matnda implitsit (yopiq) ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. Buni muallifning ko‘chasi haqidagi tasavvuri hamda ko‘chasiga berilgan nomning ma’nosidan anglash mumkin. Bunda o‘quvchilarning e’tibori “hurriyat” so‘zini tushunishga qaratiladi.

*Hurriyat – siyosiy, iqtisodiy va boshqa turdagi zulm, tazyiqdan xaloslik, erkinlik, ozodlik.*

**2. O‘rtahol oila qanday bo‘ladi?**

Bu savol “o‘rtahol” so‘zi ma’nosini tushunishga qaratilgan. O‘quvchilar ushbu birlik haqidagi tasavvurlarini aytib berishi lozim.

*O‘rtahol – boy ham emas, kambag‘al ham emas, o‘ziga yetarli darajada.*

**3. Muallifning ota-onasi nimaga da’vat qilgan? Nima uchun?**

Bu savolning javobi matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan. Muallif 2-xatboshida keltirgan ma’lumotlardan o‘qish, bilim olish, ziyolilik, tartib-intizomlilik, yaxshi odam bo‘lish, dunyoni anglashga, ma’rifatni tushunishga da’vat qilinganini anglash mumkin.

**4. Ota-ona, bobo-buvilaringiz kelajakda sizdan nimalar kutishadi?**

Bu savol o‘quvchilarning shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishlariga qaratilgan. O‘quvchilar o‘z vaziyatlaridan kelib chiqib, munosabat bildirishlari mumkin.

## Test

**Matn asosida berilgan testlarni yeching.**

Bu topshiriq o‘quvchilarda test ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan testlarni o‘qib, daftarlariga to‘g‘ri javobni belgilashlari lozim.

Bu jarayonda o‘quvchilar matndan foydalanishlari mumkin. Asosiy e’tibor testni tushunib ishlash hamda to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarni asoslab aytib bera olishga qaratiladi.

Javob:

**1. To‘g‘ri javob:** E) Sababi aniq ko‘rsatilmagan.

Bu test ma’lumotlardan xulosa chiqarishga qaratilgan. A, B, D javoblardagi ma’lumotlar matnda uchraydi, ammo ular muallifning taxmini ekanini o‘quvchi anglashi lozim.

**2. To‘g‘ri javob:** E) To‘qqizinchi.

Bu test matnda eksplitsit ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning 2-xatboshisida keltirilgan ma’lumotlardan: 4 ta akasi, 4 ta opasi borligidan muallifning to‘qqizinchi farzand ekanini aniqlab, aytib bera olishi lozim.

**3. To‘g‘ri javob:** A) Moddiyat. D) Sog‘lomlik. G) Aql.

Bu test ham matnda eksplitsit ifodalangan ma’lumotni topishga qaratilgan. O‘quvchilar matnning 3-xatboshisida keltirilgan ma’lumotlardan ushbu javoblar to‘g‘riligini anglashi mumkin.

**4. To‘g‘ri javob:** B) Band bo‘lmoq

Bu test berilgan birlikning kontekstual ma’nosini tushunishga qaratilgan. Variantlardagi birliklarning har biri “andarmon bo‘lmoq” iborasi bilan ma’nodosh, ammo matnda kelgan ma’nosiga A, D, E javoblar mos kelmaydi.

### Matn tahlili

**Muallif oilasida qanday gaplar umuman bo‘lmaganini ta’kidlaydi? Yozing. Sizningcha, bu hozirgi zamon uchun qanchalik mos?**

O‘quvchilar matndan ushbu o‘rinni topib, o‘zlaridagi vaziyat bilan taqqoslab, munosabatlarini bildirib yozishlari lozim. Bu orqali o‘quvchi zamonlarni taqqoslab, mushohada bildirish imkoniga ega bo‘ladi.

**Muallifning ushbu matndan ko‘zlagan maqsadini yozing.**

Bunda o‘quvchilarning javoblari turlicha bo‘lishi mumkin. Asosiy e’tibor fikrlarini asoslab berishlariga qaratiladi, ya’ni matndan yozuvchining maqsadini qanday aniqlagani va nima uchun shunday deb o‘ylaganini tushuntirib berishi lozim.

**Berilgan parcha matnning qaysi turiga kiradi? Ushbu matn turiga xos belgilarni yozing.**

Mazkur topshiriq matn tuzilishini tushunish, undagi til birliklarni aniqlay olishga qaratiladi. O‘quvchilar o‘qigan matnlarining *xabar mazmunida ekani, unda publitsistik uslub yetakchiligi hamda albatta, baribir, to‘g‘ri…* singari birliklardan foydalanilganini aytib berishi lozim.

### Muhokama

**Muallifning ushbu fikriga munosabat bildiring:** *“To‘g‘ri, biz kiyim-kechak, ovqat tanlamasdik, shohona sharoitlar tanlamasdik. Boriga baraka qilib ketaverar edik”.* **Ayting-chi, muallifning oilasidagi farzandlar nima uchun shunday bo‘lgan?**

Bu topshiriq matn mazmunini tushunib, xulosa chiqarishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar muallifning oilasidagi muhitdan kelib chiqib munosabat bildirishlari lozim.

### Uyga vazifa

### Yozma nutq. Matn yaratish

**Ota-onangiz sizga takror-takror aytadigan nasihatlari, yo‘l-yo‘riqlarini ro‘yxat shaklida yozib chiqing. Siz ularning o‘rnida bo‘lganingizda ushbu ro‘yxatga yana nimalarni kiritgan bo‘lardingiz? Ularni alohida yozing.**

Bu topshiriq o‘quvchilarning mustaqil izlanishi, ma’lumot to‘plashi, to‘plagan ma’lumotini tahrir qilishiga qaratilgan. O‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida ushbu topshiriqni bajarishlari lozim.

## 4-soat

### Dars jarayoni

### Kirish

*Oila a’zolaringiz sizga qanday tanbeh berishadi? Buni o‘rinli deb o‘ylaysizmi?*

### Asosiy qism

### Morfologiya

**Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni quyidagi jadval asosida so‘z turkumlariga taqsimlab, daftaringizga ko‘chirib oling.**



Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni quyidagi jadval asosida so'z turkumlariga taqsimlab, daftaringizga ko'chirib oling.

| Ot | Sifat | Son | Olmosh | Fe'l |
|---|---|---|---|---|
| ? | ? | ? | ? | ? |

Matnda qo'llangan ko'makchi, bog'lovchi hamda yuklamalarni aniqlab, yozing.

3 guruhga bo'lining. Berilgan rasmlar asosida tasviriy matn yarating. Tuzgan matningizda qaysi so'z turkumidagi so'zlar faol qo'llanganiga e'tibor qarating.

Guruh bo'lib tuzgan matningizni o'qib bering.

Ta'tilda sevib o'qigan kitoblaringizdan biri haqida ma'lumot tayyorlab keling. Ma'lumotingiz quyidagi qismlardan iborat bo'lsin:

- kitobning turi (ilmiy-ommabop, badiiy...);
- kitobning nomi, nashr etilgan yili, nashriyoti, sahifasi, muqovasi (dizayni);
- muallifi (agar bor bo'lsa);
- kitobning umumiy mavzusi;
- badiiy kitob bo'lsa, undagi voqealar, asar qahramonlari haqida izoh;
- kitobning sizga yoqqan jihatlari;
- o'zingiz uchun belgilab olgan qaydlardan namunalar.

Mazkur topshiriq o'quvchilarda matnni lingvistik tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar Xurshid Do'stmuhammadning hayoti aks etgan matndan ajratib ko'rsatilgan so'zlarni so'z turkumlariga ajratib yozishlari lozim. Bunda o'quvchilarning so'zlarga so'roq bera olishi hamda so'zni ma'nosiga ko'ra guruhlarga to'g'ri ajratib yozishiga e'tibor qaratiladi.

## Yordamchi so'zlar

**Matnda qo'llangan ko'makchi, bog'lovchi hamda yuklamalarni aniqlab, yozing.**

Ushbu topshiriq ham o'quvchilarda matnni lingvistik tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar matndan gaplarni bir-biriga bog'lashga xizmat qilgan birliklarni aniqlab, yozishlari lozim. Bunda asosiy e'tibor yordamchi so'zlarni aniqlash hamda gapdagi vazifasini tushunib, aytib bera olishga qaratiladi.

## Yozma nutq. Matn yaratish

**3 guruhga bo'lining. Berilgan rasmlar asosida tasviriy matn yarating. Tuzgan matningizda qaysi so'z turkumidagi so'zlar faol qo'llanganiga e'tibor qarating.**

Bu topshiriq o'quvchilarda tasviriy matn yaratish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bunda o'quvchilar guruhga bo'linadi, berilgan rasmni tasvirlab yozadi. Bu jarayonda avval o'quvchilar bilan rasmda nimalar aks etgani yuzasidan og'zaki savol-javob o'tkazish maqsadga muvofiq.

## Og'zaki nutq. Tahlil

**Jamoa bilan tuzgan matningizni o'qib bering.**

Guruhlar tuzgan matnlarini navbat bilan o'qib beradilar. Bunda bir guruh o'qiganda qolgan ikki guruh tinglab, munosabat bildirishi lozim. O'qituvchi tomonidan guruhlarning matnlari tinglanib, eng yaxshi tasviriy matn yoza olgan guruh rag'batlantirilishi lozim.

## Uyga vazifa

## Yozma nutq. Matn yaratish

**Ta'tilda sevib o'qigan kitoblaringizdan biri haqida ma'lumot tayyorlab keling.**

Bu topshiriq o'quvchilarga mustaqil izlanish, yozgi ta'tilni maroqli o'tkazish hamda berilgan yo'riqnoma asosida matn yozish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

O'quvchilarga yo'riqnoma tushuntirilishi hamda yozgi ta'tilda o'qishlari uchun yoshlariga mos kitoblar tavsiya qilinishi maqsadga muvofiq.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O‘quv nashri

# ONA TILI 6

**O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma**

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*
Rassom *Aziz Jabborov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Dizayner va sahifalovchi *Oloviddin Sobir o‘g‘li*
Musahhih *Xurshidbek Ibrohimov*

Bosishga ruxsat etildi _____ Bichimi 60x84 1/8.
Arial garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 26,04 Nashriyot-hisob tabog‘i 24,25
Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ___.